

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO‘MITASI
SOLIQ AKADEMIYASI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov, B.I.Isroilov

IQTISODIY TAHLIL

O‘quv qo‘llanma

Toshkent 2017

Taqrizchilar :

A.Usanov –O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi dotsenti, i.f.n.

Z.Qurbonov- Soliq akademiyasi professori, i.f.d.

M.K Pardaev, J.I. Isroilov, B.I Isroilov

Iqtisodiy tahlil:O‘quv qo‘llanma. -T, 2017. 534 b.

O‘quv qo‘llanmada xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar iqtisodiy tahlilining nazariy asosi, unda qo‘llaniladigan usullar, xo‘jalik faoliyati natijalar va holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni baholash va tahlil qilish yo‘llari bayon etilgan. Mazvuni o‘zlashtirish o‘quvchi oson bo‘lishi uchun uning mazmuni chizma, rasm va jadvallarda ifodalangan. Xo‘jalik faoliyatni omilli tahlili uchun qo‘llaniladigan formulalar aniq amaliy ma‘lumotlardan foydalangan holda ko‘rgazmalar va tavsiyalar ko‘rinishida yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari talabalari, masgitrlari, kasb hunar kollejlari o‘qituvchilari, malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari kurslari tinglovchilari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

Shuningdek qo‘llanmadan korxonalar rahbar hodimlari, tadbirkorlik va auditorlik bilan shug‘ullanuvchilar, buxgalterlar, soliq va bank hodimlari kabi iqtisodiyot yo‘nalishidagi barcha mutaxassislari, ham amaliy qo‘llanma sifatida foydalanishi mumkin.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi Soliq akademiyasining 2016 yil 30 iyundagi Kengashi (11/3-sonli bayonnoma) qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy munosabatlar barqaror ishtirokchilari manfaati va ular o'rtasidagi ishonch asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayonlar majmuasidir. Bir-biri bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishayotgan sub'yektlarning asosiy maqsadi – manfaat ko'rish, ya'ni o'zaro munosabatlar natijasidan foyda olish hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlardan manfaatdorlikni ta'minlash avvalo, tadbirkordan biznes tilini o'rganishni talab etadi. Biznes tili bozor munosabatlari sharoitida sub'yektlarning o'zaro manfaatdorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu til ifodasi korxonalar Iqtisodiy-xo'jalik faoliyat natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlar majmuasini o'zida aks ettiradigan iqtisodiy hisobotdir. Har bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt bo'lajak hamkorining eng avvalo Iqtisodiy ahvoli qandayligiga qiziqadi. Chunki uning foyda olish-olmasligi u bilan hamkor bo'ladigan sub'yektning Iqtisodiy ahvoriga bog'liq. Shu tufayli har bir korxonaning Iqtisodiy ahvolini baholash, tahlil qilish bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Har bir kasbning o'ziga xos tili mavjud bo'lib, iqtisodchilarning biznes tilida tadbirkorlik sub'yektiga nisbatan «Balans likvidlimi?», «Korxonalar Iqtisodiy barqarormi?», «Korxonalar Iqtisodiy mustahkamligi qanday?», «Korxonalar to'lovga qodirmi?», «Korxonalar raqobatbardoshmi?», «Korxonalar iqtisodiy nochoirmi?» kabi so'zlar ishlatiladi. Ammo bu so'zlar zamirida juda chuqur ma'no, butun bir moliya - iqtisodiy natijasi mujassamlangan. Shu tufayli, ushbu so'zlar mazmuniga ijobiy javob berish uchun hozir har bir mutaxassis, menejer, rahbar ularni baholash, aniqlash yo'llarini bilishi shart.

Bozor munosabatlari sharoitida rahbarlarning tegishli axborotlarni bilishi hali etarli emas. Endilikda rahbarlar axborotlardan foydalanish usullarini, ulardan to'g'ri va asosli xulosa chiqarish uchun tahlil qilish yo'llarini va ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga safarbar qilish tamoyillarini

bilishi zarurdir. Bu uchun rahbarlar iqtisodiyhaqida to'g'ri axborotlarga va ulardan foydalanish usullariga ega bo'lishi lozim.

Tadbirkor uchun zarur axborotlar korxonaning Iqtisodiyhisobotlari va buxgalteriya hisobi schyotlarida mavjud bo'ladi. Bulardan to'g'ri va maqsadga muvofiq foydalanish uchun esa har bir mutaxassis hamda rahbar hisobotlarni iqtisodiy jihatdan o'qish va tahlil qilish usullarini bilishi zarurdir.

Qo'llanma asosan 3 bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'lim Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslariga, ikkinchi bo'lim Iqtisodiy holatni tahlil qilishga va uchinchi bo'lim Iqtisodiy natijalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Bu mantiqiy ketma-ketlik korxonada Iqtisodiy xo'jalik faoliyatini tahlil qilishga uslubiy jihatdan to'g'ri yondashishni ta'minlaydi.

Zero, har bir fan o'zining nazariy asosiga ega bo'lishi lozim. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning shakllanishi ham eng avvalo, buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asoslangan holda boshlanadi. Shu tufayli ko'rsatgichlarni joylanishi ma'lum darajada mantiqiy ketma-ketlik qonuniyatiga asoslangandir.

Ishning o'ziga xos xususiyati shundaki, barcha korxonaning ish va Iqtisodiy holatini ifodalovchi Iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinganda, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va har birining ta'sirini baholash usullari raqamlar yordamida ko'rsatib berilgan.

Xususan, qo'llanmada unda korxonaning Iqtisodiy va iqtisodiy salohiyati, Iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish yo'llari, korxonada Iqtisodiy xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy jihatdan tashxis qo'yish, uning to'lovga qodirlik, kredit olish qobiliyati, raqobatbardoshlik kabi muhim ko'rsatkichlar aniqlanadi va tahlil qilish usullari yoritib beriladi.

Ishning nazariy qismida iqtisodiy tahlil tushunchasi, mazmuni aniq chizmalar orqali ko'rsatilgan. Unda qo'llaniladigan usullarning deyarli barchasi o'z aksini topgan.

Barcha usullarni qo'llash yo'llari aniq raqamlar yordamida ko'rsatib berilgan. Ishning yana bir muhim jihati shundan iboratki, unda Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborot manbalari, ularning aniq tarkibi, tuzilishi ham chizmalar orqali yaratib berilgan. Bunda buxgalteriya balansiga alohida e'tibor berilgan, chunki u iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbai bo'lib hisoblanadi.

Ishning asosiy ikkinchi qismi korxonaning iqtisodiy salohiyatini, potensialini baholash va tahlil qilishdan boshlanadi. Bunda iqtisodiy potensialning mazmuni va tarkibi, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi keltirilgan. Asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar va mehnat potentsiali tahlili ham alohida boblarda ko'rsatib o'tilgan. Bulardagi barcha ko'rsatkichlar jadvallar va chizmalarda o'z ifodasini topgan.

Ishning maxsus bobi korxonaning Iqtisodiy salohiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda korxonaning o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan mablag'larning holati, ulardan foydalanish yo'llari ham batafsil ko'rsatib berilgan. Iqtisodiy salohiyatni ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarni ifodalash va tahlil qilish usullari ham aniq ma'lumotlarda o'z ifodasini topgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning Iqtisodiy barqarorligini baholash va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Erkin raqobat sharoitida har bir korxonaga iqtisodiy va Iqtisodiy jihatdan mustahkam bo'lishi lozim. Shu tufayli ishda korxonaning Iqtisodiy hamda iqtisodiy barqarorligini baholash va tahlil qilish masalalari batafsil bayon etilgan. Bu masalalarham nazariy jihatdan tavsiya qilinishi bilan birga amaliy ma'lumotlar bilan isbot qilingan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaga ish faoliyatining tahliliga ham alohida e'tibor berish zarur. Chunki korxonaning raqobatbardoshligi, Iqtisodiy barqarorligi uning ish faolligiga bog'liq. Ammo turli abadiyotlarda bu masala turlicha yoritilgan. Buni inobatga olib ishda korxonaga ish faolligini ifodalovchi

ko'rsatkichlar tizimi, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llariga ilmiy asoslangan uslub bilan yondashildi. Bunda keltirilgan dalillar faqat amaliyot hodimlari uchun emas, balki iqtisodiy tahlil nazariyasining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz.

Ta'kidlanganidek, ishning uchinchi bo'limi korxonada Iqtisodiy natijalar tahliliga bag'ishlangan. Unda korxonada Iqtisodiy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni baholash, tahlil qilish yo'llari ko'rsatib berilgan. Foyda va rentabillik tahlillari alohida boblarda keltirilib o'tilgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomida korxonada xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladigan deyarli barcha ko'rsatkichlar, ularni baholash, hisoblash va tahlil qilish yo'llari bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda batafsil bayon etilgan.

1-BOB. IQTISODIY TAHLIL FANNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni va bilish nazariyasi bilan bog'liqligi.

Iqtisodiy tahlil fani- xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ammo bu jarayonlarning sodir bo'lish paytini emas, balki uning natijasini o'rganadi. Ob'yektda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar uning biznes rejasida ko'zda tutilgan ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo'lishini qonuniy jixatdan hujjatlashtirish bilan buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlar shug'ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o'z aksini topadi. Tahlil ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan hujjatlarga asoslanib, iqtisodiy jarayonlar natijalari o'zgarishi sabablari va ularga omillar ta'sirini aniqlaydi.

Bunday o'rganishda jamiyatda amal qilayotgan ob'yektiv va sub'yektiv qonunlarga tayanadi hamda ko'pgina axborot manbalaridan foydalanadi.

Iqtisodiy tahlil fani va bilish nazariyasi. Bilish nazariyasi falsafa fanining fundamental uslubiy bo'limi bo'lib, u ob'yektiv borliqni inson ongida aks etishining o'rganilishini o'rgatadi.

Avvalo, mazkur nazariyada bilishning ob'yekti va sub'yekti tushunchasi aniqlanadi. Birinchi tushuncha mazmunida bevosita ob'yektiv xatti-harakat, amaliyot, insonning moddiy faoliyati ya'ni jamiyat rivojlanishining asosini tashkil etuvchilar yotadi.

Ikkinchi tushuncha esa insonning o'zi, jamiyat, insoniyat ya'ni bilish ob'yektiga ijodiy yondashuvchi shaxslarni bildiradi.

Bilish ob'yekti va sub'yektini dialektik birligi uning ishonchligini va xaqqoniyligini ta'minlaydi.

Bilish nazariyasi - barcha soha fanlarning uslubiy asosi sifatida iqtisodiy tahlil fanining ham mohiyati, zaruriyligi va natijalarini aniqlashning asosidir.

Iqtisodiy tahlil - amaliy fan bo'lib, bilish nazariyasiga tayanib, insonning amaliy faoliyatida naflilik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini belgilaydi. Bu fanning amaliy hayotdagi o'rnini belgilaydi.

Analiz va sintez (tahlil va umumlashtirish) kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi

“Tahlil” (analiz) so‘zi grekcha “analysis” so‘zining o‘zbek tilidagi tarjimasi bo‘lib, u “bo‘laman” yoki “ajrataman” degan ma‘noni bildiradi. Demak butun voqelikni qismlarga ajratish yo‘li bilan uning tarkibiy qismlarini o‘rganishdir.

Umumlashtirish (sintez) esa o‘rganilayotgan ob‘yekt to‘g‘risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan analiz bilan sintez o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni quyidagicha ifoda etish mumkin:

Tahlil (analiz)	Umumlashtirish (sintez)
Korxonada oylik faoliyati dekadalar, choraklik faoliyati oylar va yillik faoliyati chorak va oylarga bo‘lib o‘rganiladi	Tahlil davri bo‘yicha umumiy xulosa bo‘laklarni o‘rganish natijasida olingan ma‘lumotlar asosida shakllanadi
Soha, korxonada faoliyati alohida bo‘linmalar (korxonalar, sexlar) bo‘yicha o‘rganiladi	Korxonaning umumiy natijasi esa barcha bo‘linmalar faoliyati asosida o‘rganiladi

Iqtisodiy tahlil va dialektikaning o‘zaro bog‘liq tamoyillari:

• <i>doimo harakat;</i>
• <i>o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlik;</i>
• <i>qarama-qarshilik;</i>
• <i>miqdor o‘zgarishidan sifat o‘zgarishiga;</i>
• <i>sabab-oqibat.</i>

Iqtisodiy tahlilning xususiyati, zaruriyligi va qimmatli jihati voqea-hodisalarni dinamikasini o‘rganishida namoyon bo‘ladi. Voqea va hodisalar boshqa omillar bilan bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lgan holda, doimo harakatda, o‘zgarishda deb o‘rganiladi.

Iqtisodiy hodisalarni bir-birlariga bog‘liqligini, o‘zaro harakatlarini, alohida yuzaga chiqishini va boshqa tomonlarini o‘rganmasdan turib, ularning tuzilishi, harakat qonunlari, xususiyatlarini o‘rganib bo‘lmaydi. Bu esa muayyan iqtisodiy ob‘yektni muhim belgilarga ko‘ra bo‘laklarga bo‘lib, so‘ngra ularni umumiylikni ta‘minlovchi jihatlarini tahlil yordamida aniqlab tegishli xulosalar olishda hamda ulardan amaliyotda foydalanishda juda muhimdir.

Inson tomonidan iqtisodiy faoliyatdagi turli voqealar kuzatilib ularning natijalari to‘g‘risida ma‘lumotlar olinadi ya‘ni faktlar to‘planadi.

Ma‘lumki fanda voqealar bevosita o‘zi tahlil etilmaydi, balki ular qayd etilgan faktlar bo‘yicha o‘rganiladi.

Faktlar tahlilidan nazariy sintezga o‘tish induksiya va deduksiya metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Induksiya – alohida faktlar bilimidan umum bilimlarga (ya‘ni qonunlar yoki boshqa amaliy va zaruriy aloqalarni aks ettiradigan) o‘tish usulidir.

Deduktiya – fikrlarni umumiylikdan xususiylikka tadbiq etish usulidir. Bunda, umumiy tasnifdagi qonunlar, bog‘likliklar xususiy tasnifga o‘tkaziladi.

Induktsiya va deduktsiya kategoriyalari iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kategoriyalar iqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta'minlaydi.

Induktsiya deganda o'rganilayotgan ob'jektning xususiylikdan umumiylikka qarab o'rganilishi tushuniladi.

Deduktsiya metodida tahlil qilinayotgan ob'jekt umumiylikdan xususiylik sari, ya'ni umumiy ko'rsatkichlardan xususiy (kichik) ko'rsatkichlarga qarab o'rganish tushuniladi. Induktsiya va deduktsiya usullarining bir-biri va amaliyot bilan bog'liqligini quyidagi chizmada ifodalash mumkin:

INDUKTSIYA	DEDUKTSIYA
Xususiylikdan umumiylik sari o'rganish	Umumiylikdan xususiy sari o'rganish

Makon va zamon kategoriyalari ham iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo'jalik yurituvchi sub'yektda) ma'lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bo'ladi. Shu tufayli zamonning o'tishi bilan makondagi natija o'zgaradi va uning teskarisi, ya'ni makonning o'zgarishi bilan zamon o'tgandan keyin natija boshqacha bo'lishi mumkin.

Makon va zamon o'rtasidagi hamda ularning amaliyot bilan bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

MAKON	ZAMON
Korxonalar, firma kabi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar	Hisobot davri (oy, chorak, yarim yillik va yillik)

Sabab va oqibat kategoriyasi ham bevosita iqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat

natijasini ifoda etgan birorta ko'rsatkich natija ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak - oqibatdir. Ammo Shu oqibat o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Uning zamirida bir qancha sabablar bor. Bu sabablarni iqtisodiy tahlilda omillar deb qaraladi.

Iqtisodiy tahlilda natija o'zgarishiga omillar ta'siri aniq malumotlar asosida aniqlanadi. Demak, sababning oqibatga ta'siri o'rganiladi. Bular o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

SABAB	OQIBAT
Omillar	Natija
Xodimlar soni, mehnat unimdorligi va h.k	Mahsulot hajmi

Sabab oqibatga olib kelganidek, omillar ta'siri ham biror natijaga olib keladi.

Shakl va mazmun kategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, iqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o'zgarishi mazmun o'zgarishiga, mazmunning o'zgarishi shakl o'zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog'liqlik juda yorqin namoyon bo'ladi. Shu jihatdan iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun kategoriyasi bir-biriga uzviy dialektik aloqada bo'lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo'llaniladi.

SHAKL	MAZMUN
Mahsulot turi	Uning sifati, tarkibi va h.k

Miqdor va sifat kategoriyasi, ham iqtisodiy tahlilda, ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko'rsatkichlarda ifodalashda keng qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Ular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

MIQDOR	SIFAT
Foyda	Rentabellik

Falsafiy kategoriyalar hayot inikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ijtimoiy hayotning bir bo‘lagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga bag‘ishlangan iqtisodiy tahlil shu falsafiy katetoriyalarga asoslanadi.

Mazkur usullar yordamida iqtisodiy hodisalarni ham xususiy, ham umumiy jihatlari o‘rganilib, tegishli xulosalar olinib, amaliyotga tatbiq etiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan bilishning elementlari, usullari (dialektika, analiz, sintez, induksiya va deduksiya) iqtisodiy-tahlil fanida ham iqtisodiy voqea va jarayonlarning o‘rganishni asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlil fani yuqorida ta’kidlangan umumiy usullardan tashqari alohida fan sifatida voqea va hodisalarni o‘zining maxsus usullari yordamida o‘rganadi.

1.2. Iqtisodiy tahlilning mustaqil fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.

Kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan insoniyat ongi rivojlanib va takomillashib borgan. Insoniyat ongi rivojlanishi natijasida borliqni o‘rganish borasida turli fikr va qarashlar paydo bo‘la boshlagan. Fikrlarning shakllanib, takomillashib borishi natijasida ma’lum bir fanlarga asos solingan.

Har qanday fanning vujudga kelishi uchun hayotiy zaruriyat tug‘ilishi lozim. Shu tufayli fanning shakllanishi biror shaxsning ijod mahsuli bo‘lib qolmasdan, balki ob’yektiv jarayonga tayanadi.

Xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish fani ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan buxgalteriya hisobi va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan. Bu uchun esa ob’yektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

Buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi asar XV asrda Reguzda paydo bo'ldi. Bunga misol qilib Vendrikt Katrulning 1458-yilda nashr qilingan «Savdo va xususiy savdogar» nomli kitobini keltirish mumkin. Buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan ikkinchi asar 1494-yilda Venetsiyada nashr qilingan Luka Pacholining «Schyotlar va yozuvlar haqida»gi kitobidir. Ushbu kitoblarda buxgalteriya hisobining savdo va kredit operatsiyalari yoritilgan. Shunday qilib, hozirgi buxgalteriya hisobi faniga o'sha paytlarda asos solingan. Bu fan xo'jalik yuritishda asosiy dastak sifatida hamon takomillashib va zamonaviylashib kelmoqda.

Barcha fanlar qatori buxgalteriya hisobi ham o'z tarixi davomida takomillashib, bir qancha boshqa fanlarning vujudga kelishi uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki, ishlab chiqarishning konsratsiyalashuvi, korxonalarining yiriklashuvi, xo'jalik faoliyatining kengayishi iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hisob ishlarini takomillashtirish zaruratini tug'dirdi. Shu bois, buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlar Gollandiya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda ko'plab chop etila boshladi. Natijada buxgalteriya er kurrasining bir qismida emas, balki, barcha mamlakatlarda keng yoyila boshladi.

Rus olimlarining buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlari XIX asrda paydo bo'la boshlagan. Bunga V.S.Nemchinovning 1840-yilda nashr qilingan ikki qismdan iborat «Hisob fani» asarini misol keltirish mumkin. Bu kitobda savdo korxonalari hisobi tizimi batafsil yoritilgan. Asta-sekinlik bilan buxgalteriya hisobining prinsiplari boshqa tarmoqlar bo'yicha ham yozila boshlagan. 1861-yilda Klinchening «Qishloq xo'jaligi buxgalteriyasi», 1863-yilda «Idora bo'limi yo'riqnomasi» kitoblari dunyoga kelgan. Bu asarlar safini F.V.Ezerskiy o'zining «Uch tizimli buxgalteriya» (1870-y.), P.I.Reynbot «Fabrika schyotchiligi» (1875-y.), A.V.Prokofev

«Ikkiyoqlama buxgalteriya kursi» (1884-y.) kitoblari bilan kengaytirgan.

Shu davrdagi ishlab chiqarish taraqqiyoti iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri va to'liq hisobga olishni talab qiladi. Ammo ishlab chiqarishning takomillashib borishi, korxonalar o'rtasida erknn raqobatning vujudga kelishi buxgalteriya ma'lumotlarini chuqurroq o'rganishni va uni to'g'ri tushuntirish zaruratini tug'diradi. Bu esa o'z navbatida tahlil elementlarining vujudga kelishini taqozo qildi, chunki «tijorat sirini» takomillashtirish borasidagi juda ko'p savollarga buxgalteriya hisobi va statistika fani javob berishga qiynalib qoladi.

Korxonalarni to'g'ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatini chuqurroq o'rganishni talab qildi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba'zi ko'rsatkichlarga izoh berishni talab qildi. Bular esa o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun ob'yektiv asos bo'lgan.

Bular esa o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun ob'yektiv asos bo'lgan.

Tahlilning elementlari birinchi marta 1880-yillarga chiqa boshlagan «Schyotovodstvo» jurnalida paydo bo'la boshlagan. Shunday qilib, tahlilning ba'zi elementlari mavjud bo'lgan fan – «Balansshunoslik» fani paydo bo'lgan.

Fanning «Balansshunoslik» deb nomlanishiga asos bo'lgan, chunki o'sha paytlarda xo'jalik faoliyatining natijasi asosan buxgalteriya balansida ifoda etilgan. Balans ma'lumotlariga asosan korxonaning mablag'i yoki ular manbaining ma'lum muddatda o'zgarishi aniqlanadi. Lekin shu o'zgarishlar nima evaziga sodir bo'layotganligi, ularga qaysi omillar ta'sir ko'rsatayotganligi korxonaga egalari uchun muhim bo'lib bordi. Bu esa balansdagi ko'rsatkichlarni batafsil tahlil qilish zaruratini vujudga keltirdi.

Jamiyatda ishlab chiqarishning rivojlanishi iqtisodiy krizislar va raqobatni ham vujudga keltirdi. Bu borada mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagi fikrlarini bayon etgan: "...davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini e'tiborga olgan holda, bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash muhim ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.


2010-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir"¹.

Bunday sharoitda har bir korxonada faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi «tijorat siri» muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda buxgalteriya balansi ma'lumotlari Yetarli bo'lmasdan qoladi. Buxgalteriya balansi bilan birgalikda boshqa ko'rsatkichlarning ifodalaydigan hisobotlar ham vujudga kela boshladi va tahlil ko'lami kengaydi. Bu vaqtgacha faqat buxgalteriya balansi tahlil qilingan bo'lsa, endi unga boshqa hisobotlar tahlili ham qo'shib «hisobot tahlili» vujudga keldi. Shu tarzda tahlil shakllanib, rivojlanib bordi va mustaqil fan sifatida shakl topa bordi.

Iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o'ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo'ldi. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelishi tarixi, bu bo'yicha nashr qilingan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nomining ham takomillashib borganligidan dalolat beradi. Shu yo'l bilan iqtisodiy tahlil shakllandi va mustaqil fanga aylandi. Shunday

¹ Karimov I. "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". T.: "O'zbekiston", 2010-y. 55-56 b.

qilib tahlil fani rivojlanguncha bir qancha evolyusion yo‘lni bosib o‘tdi. Mazkur evolyusion yo‘l orqali tahlil fani rivojlandi va takomillashib bugungi kungi holatga keldi. Ushbu fan o‘zining evolutsion rivojlanish yo‘li davomida bir qancha nomlar bilan atalgan. Dastavval, xo‘jalik sub’yektlarining asosan balans ma‘lumotlarini tahlil etish maqsadiga qaratilganligi bois sobiq ittifoq davrida tahlil fani “Balansshunoslik” deb yuritila boshlangan, ya’ni balansni o‘rganuvchi, tahlil etuvchi fan deb qaralgan. Bu evolyusion rivojlanish yo‘lini quyidagi chizmada ham ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin bo‘ladi (1.1-rasm)



1.1-rasm. Iqtisodiy tahlil fanining shakllanish jarayoni, nomlari.

Iqtisodiy tahlilning vujudga kelish tarixini ko‘z oldimizga yaqqolroq keltirish uchun shu sohaga bag‘ishlangan

adabiyotlarni xronologik jihatdan ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Sobiq ittifoqda 1920-yillarga kelib, ittifoq iqtisodchi olimlaridan R.N.Xudyakov «Analiz balansa» va «Regulyarnie ocherki balansovedeniya» asarlarini, N.A.Kirarisov «Osnovi balansovedeniya» va «Rostroenie balansov i analiz» asarlarini chop ettirdi. Bu kitoblarda asosan iqtisodiy tahlil bir yoqlama bo'lib, faqat buxgalteriya balansi moddalarini tahlil qilish usullari to'g'risida fikr yuritilgan.

30-yillarga kelib tahlilning ko'lami kengaya bordi. Tahlil qilish uchun faqat buxgalteriya balansi moddalari emas, balki xo'jalik faoliyatining boshqa ko'rsatkichlari ham tahlil etila boshlandi. Natijada tematik tahlil vujudga keldi va ba'zi mavzularga bag'ishlangan adabiyotlar nashrdan chiqa boshladi. Bunga misol qilib N.E.Kolosovning «Osnovi ekonomicheskogo analiza sebestoimosti v predpriyatiyax» (1931-y), A.R.Aleksandrovskiyning «Kalkulyatsiya i analiz raboti predpriyatii» (1932-y), A.F.Masanovning «Balans i analiz xozyaysvennoy deyatelnosti predpriyatii» (1934-y), A.A.Afanasevning «Analiz otcheta promishlennix predpriyatii» (1938-y) kitoblarini keltirishimiz mumkin.

1940-yillarga kelib sobiq ittifoqda «Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» fani fan sifatida to'liq shakllandi. Bu davrga kelib ushbu fan bo'yicha darsliklar yaratildi va oliy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'tila boshlandi.

60-70 yillardan boshlab esa iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlil fani ixtisoslashib bordi va tahlil fanining bir qancha turlari vujudga keldi. Keyingi yillarda esa iqtisodiy tahlil fanining nazariyasi ustida ko'p ishlar olib borildi va tahlil nazariyasi fan sifatida shakllandi.

80-yillarning xususiyati shundaki, bu davrda iqtisodiy tahlil fanining nazariyasini yaratish bo'yicha hududiy maktablar vujudga keldi. Jumladan, Moskvada M.I.Bakanov va A.D.Sheremet rahbarligidagi maktab. Bular «Teoriya

7444

ekonomicheskogo analiza» kitobini 1987, 1990, 1995 va 1997-yillarda qayta nashrdan chiqardilar. Minsk olimlaridan V.V.Osmolovskiy, V.I.Strajev, L.I.Kravchenko, N.A.Rusak hamkorlikda 1989-yilda «Teoriya analiza xozyaystvennoy deyatelnosti» darsligini yaratdi. Kievlik olimlardan I.I.Karakoz va V.I.Samborskiy hamkorligida 1989-yilda «Teoriya ekonomicheskogo analiza» degan darslik chop etilgan.

1.3.O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi.

Ma'lumki, O'zbekistonda uzoq yillar mobaynida tahlil fani asosan sobiq ittifoqning markaziy shaharlar olimlari tomonidan tayyorlangan darsliklar asosida o'qitilib kelingan. XX asrning 60-yillarga kelib O'zbekistonlik olimlar bu fan sohasida ijod qila boshladi.

Jumladan, 1966 yilda Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etilgan «Matlubot kooperatsiyasi kerkonalari xujalik faoliyatining tahlili» nomli darslikning mualliflari tarkibiga Ivovlik O.R.Kmitsikevich, novosibirsklik L.A.Falkovichlar bilan birgalikda samarqandlik olim I.N.Toporovski ham ishtirok etadi.

Shu fan buyicha masalalar tuplamini yozishni samarqandlik olimlar uz zimmalariga oladilar. 1970-yilda I.T. Abdukarimov, B.A.Zaleskiy va N.Toporovski tomonidan Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida «Matlubot kooperatsiyasi korxon va tashkilotlari xujalik faoliyatini tahlil qilish buyicha masalalar tuplami» uquv qullanmasi birinchi marta chop etildi. Bu O'zbekistonlik olimlarning katta ishonchga sazovor bulganligi va ularning tan olinganligidan dalolat edi.

Sobiq ittifoq olimlari ichida xujalik faoliyatini tahlil qilish fani buyicha O'zbekistonlik olimlarning mavqei uzluksiz oshib boradi. Shu fanga bag'ishlangan qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi.

1968 yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Kooperativ savdoda muomala xarajatlari tahlili» Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida, 1971 yilda «Kooperativ savdoda chakana tavar oboroti tahlili» o'quv qo'llanmasi Moskva kooperativ instituti nashriyotida, 1973 yilda «Kooperativ savdoda foyda va rentabillik» nomli monografiyasi «Ekonomika» nashriyotida chop etildi.

O'zbekistonda XX-asrning 70-90 yillarida Samarqand kooperativ instituti (hozirgi iqtisodiyot va servis) olimlari iqtisod fanlari doktorlari, professorlar I.T.Abdukarimov va M.Q.Pardaev rahbarligida tahlil fanining o'zbek maktabiga asos solingan.

Respublikamizda 60-70 yillarda tahlil fanining tashkil topishi va shakllanishida asosiy mavqeini Samarqandlik olimlar egallaganini e'tirof etgan holda, 80-yillarga kelib poytaxtimiz Toshkent shahrida va respublikaning boshqa hududlarida ham tahlil fani sekin asta shakllandi va rivoj topa boshladi. Bu davrga kelib tahlil faninnig rivojlanishiga Toshkentlik iqtisodchi olimlardan R.Radjabov, A.S.Sotivoldiev, Yo.Abdullaev, O.Maxmudov, X.Shodiev, N.Xan, A.Shoalimov, A.T.Ibragimov, A.Usanov, A.K.Ibragimov, B. Xasanov va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

80-yillarda Respublikaning Samarqandda yaratilgan tahlil maktabini a'zolari ham o'z an'analarini davom ettirib, yuqori va sermahsul ijod qildilar. Bu davrga kelib samarqandlik olimlardan I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev va A.A.Abdievlar hamkorlikda «Xo'jalik faoliyatining tahlili»ga bag'ishlangan turt tomlik albom yaratdilar. Bu albomning birinchi qismi «Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslariga» bag'ishlangan bo'lib, barcha mavzular tegishli tizmalarda tushunarli qilib tasvirlangan. Ushbu albomning ikkinchi tomi «Kooperativ savdoda iqtisodiy tahlil» nomi bilan ataladi. Bunda kooperativ savdo korxonalari xo'jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan. Ammo matlubot kooperatsiyasi ko'p tarmoqli soha. Shu tufayli

albomning 3-tomi «Matlubot kooperatsiyasi alohida tarmoqlari xujalik faoliyatining tahlili» mavzusiga bag'ishlangan. Albomning 4-tomi matlubot kooperatsiyasi tashkilotlarida barcha tarmoqlardan hisobot qabul qilinganidan keyingi o'tkaziladigan tahlil usullarini o'z ichiga olgan. Bu «Moliyaviy holatining tahlili» deb nomlangan va bunda barcha soha buyicha moliyaviy holatning qanday ahvolda ekanligi to'g'risida xulosa qilishga bag'ishlangan. Ushbu tahlil usullari ham aniq chizmalar orqali yoritilgan.

1984 yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Matlubot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darslik Moskvaning «Ekonomika» nashriyotida chop etildi. Bu darslik Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlariga va «Buxgalteriya hisobi, nazorat va xujalik faoliyatining tahlili» bo'yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliy o'quv yurtlariga tavsiya qilindi. Bu darslikni keng jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi. Natijada 1989 yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to'ldirilgan variantida yangidan nashr qilingan.

1990 yillarning boshlariga kelib respublikamizda «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» faniga oid dastlabki o'zbek tilidagi adabiyotlar yaratila boshlandi. Ayniqsa bu davrga kelib buxgalteriya hisobidagi axborotlarni avtomatlashtirish masalalariga keng e'tibor qaratildi. Shu yillari hisob, tahlil, statistika va reja ma'lumotlarini avtomatlashtirish buyicha bir qancha adabiyotlarni R.A.Abdullaev, V.I.Abdukarimov, N.A.Ibragimov, K.U.Urazov, M.B.Abbosovlar turli nashriyotlarda chop ettirib keldilar.

90-yillarning boshlariga kelib tahlil fanining rivojlanish sohasiga yangi-yangi iqtisodchi olimlar kirib kela boshladilar. Bunday iqtisodchi olimlardan A.T.Ibrohimov, B.A.Xasanov, A.Rizaqulov, O.Bobojonov, M.Tulaxujaeva, N.Juraev, O.Jumanov, M.Rahimov, A.Abduganiev, X.Musaevlar

tomonidan «Iqtisodiy tahlil» ning turli mavzulariga bag'ishlangan asarlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi samarqandlik olimlarni o'zbek tilida darslik yozishga dav'at etdi. Bunga rahbarlikni professor I.T.Abdukarimov o'z qo'liga oldi va nihoyat 1989 yilda I.T.Abdukarimov, M.K.Pardaev, A.A.Abdiev va V.I.Abdukarimovlar tomonidan «Matbuot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli birinchi marta o'zbek tilida Iqtisodiy tahlil fanidan darslik vujudga keldi. Darslik Toshkentdagi «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi. Bu darslikda birinchi marta iqtisodiy atamalar o'zbek tilida e'lon qilindi. O'tish davriga xos bo'lgan atamalarni o'zlashtirishni osonlashtirish maqsadida samarqandlik olimlar «Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o'zbekcha lug'atini» ham ishlab chiqdi va 1990 yilda Samarqand kooperativ institutida va 1992 yilda Toshkentning «O'qituvchi» nashriyotida chop etishga muvaffaq bo'ldilar.

Mazkur asarlar bozor iqtisodiyotining shakllanayotgan sharoitida O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanini shakllanishi, rivojlanishi hamda yangi iqtisodiy shartogta mos ravishda ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlilning umumiy masalalari bilan birgalikda uning alohida sohasi bo'yicha ishlar qilindi. Jumladan, prof. D.Q.Kudbiev savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili muammolari, prof. X.A.Shodiev esa tayyorlov savdo sohasida intensivlik va samaradorlikni aniqlash hamda tahlil qilish muammolari bo'yicha ancha ishlar qildilar. Savdo korxonalarida aylanma mablag'lar tahlili bo'yicha bir qancha uslubiy tavsiyalar bilan A.Sh.Sattorov, matlubot kooperatsiyasining ishlab chiqarish korxonalarida asosiy va aylanma mablag'lar tahlili bo'yicha U.X.Xudoyberdievlar ham samarali ijod qilmoqdalar. Tahlil nazariyasi va usullarini takomillashtirishda Yo.Abdullaevning hissasi sezilarli bo'ldi.

1981-yilda D.K.Kudbiev «Savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili» kitobini, 1990-yilda «Kooperativ savdoda asosiy fondlardan foydalanish tahlilining muammolari», 1989-yilda «Kooperativ chakana savdoda asosiy fondlar samaradorligini kompleks baholash va tahlil qilish» kabi monografiya va o'quv qo'llanmalari chop etishga muvoffaq bo'ldi.

1990-yilda «O'qituvchi», nashriyotida M.Q.Pardaev va Z.N.Qurbonovlar hamkorligida «Kooperativ savdoda samaradorlik va inteksivlik ko'rsatkichlari tahlil» mavzusida monografiyasi. M.K.Pardaev va Sh.U.Haydarov hamkorligida «Kooperativ savdo korxonasi va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish» mavzusidagi o'quv qo'llanmalar chop etildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi dastlabki yillarida bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilni tashkil etish yo'llarini barcha soha mutaxassisleri va talabalarga o'qitish uchun adabiyotlar yaratish o'ta muhim vazifalardan hisoblanar edi. 1991-yilda I.T.Abdukarimov, M.K.Pardaev va Sh.U.Haydarovlar hamkorlikda «Yangi xo'jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar tahlili» asari, 1993-yilda Z.N.Qurbonovning «Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoda buxgalteriya uchyoti va iqtisodiy tahlil» monografiyasi «O'qituvchi» nashriyotida hamda «Zarafshon» nashriyotida «Savdoda intensivlik: mohiyati, ko'rsatkichlari va ularning oshirish yo'llari» mavzusidagi kitoblari chop etildi.

1995–1999-yillarda O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining asosiy sohasi bo'lgan moliyaviy tahlilga bag'ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. Bular jumlasiga M.Q.Pardaevning «Moliyaviy tahlil metodologiyasi», A.Ibrohimovning «Moliyaviy tahlil» (T.: Mehnat, 1995) I.T.Abdukarimovning «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998, ikkinchi nashri 1999-yilda), I.O.Voljin va

V.V.Ergashboevlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998), M. Q.Pardaev va B.I.Isroilovlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999) kabi kitoblar mamlakatimizda Iqtisodiy tahlil fanining shakllanishiga hamda mutaxassislar va talablarda fanni o'zlashtirish va yangi iqtisodiy sharoitda qo'llashga oid bilimlarini shakllantirishiga xizmat qildi

1.4. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini boshqarishda iqtisodiy tahlilning o'rni.

Fan sifatida iqtisodiy tahlilning mazmuni eng avvalo uning boshqa amaliy fanlar tizimida bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Ana shunday funksiyalaridan biri iqtisodiy qonunlarni ta'siri xarakterini o'rganish, aniq korxonada iqtisodiy hodisa va jarayonlar qonuniyatlari va tendensiyalarini belgilash hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning yana bir funksiyasi – bu joriy va perspektiv biznes rejalarni ilmiy jihatdan asoslashdir. Boshqaruv qarorlarini va biznes rejalarni bajarilishi hamda resurslardan foydalanish ustidan nazorat qilish ham iqtisodiy tahlilning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning markaziy funktsiyalaridan biri - bu ilg'or tajribalarni, fan va amaliyot yutuqlarini o'rganish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (rezervlari)ni qidirib topishdir.

Iqtisodiy tahlilning navbatdagi funksiyalari jumlasiga biznes rejalarni bajarishi, iqtisodiyotni rivojlantirishidagi erishgan darajasini va mavjud imkoniyatlardan foydalanishi bo'yicha korxonada faoliyati natijalarini baholashni kiritish mumkin.

Shuningdek, iqtisodiy tahlilning eng muhim funksiyalari jumlasiga yana aniqlangan rezervlardan foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishni ham kiritish mumkin.

Shunday qilib iqtisodiy tahlilning mazmunini, iqtisodiy qonunlar ta'siri xarakterini, iqtisodiy jarayonlar qonuniyatlarini va tendensiyalarini o'rganish, joriy va perspektiv rejalarni, hamda boshqarish karorlarini ilmiy asoslanganligini tekshirish va ularni bajarilishini nazorat qilish, erishilgan darajani baholash, foydalanmayotgan imkoniyatlarni qidirib topish va ulardan foydalanish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish tashkil qiladi.

Turli mulkchilikka asoslangan iqtisodiyot bozor munosabatlarining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning sub'yektlari bo'lgan korxonalar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa shaxslar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida mablag'lardan to'g'ri foydalanishdan manfaatdordirlar. Bu esa sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni hamda ularni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Shu jihatdan korxonalar faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Korxonada boshqaruv tizimi o'z ob'yekti va sub'yektidan iborat bo'ladi.

Boshqaruv ob'yekti – bu ishlab chiqarish, sub'yekti esa boshqaruv tarkibidir.

Korxonalar faoliyatini yoki ishlab chiqarishni boshqarishda ob'yekt va sub'yekt boshqariladigan va boshqaruvchi kichik tizimni tashkil etadi.

Ularni har biri o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajaradi. Ammo, mazkur kichik tizimlar bir-birlari bilan uzluksiz va chambarchas aloqada bo'lib ayni holatda yagona tizimni tashkil qiladi.

Boshqaruv sub'yekti – boshqaruv ob'yektining katta-kichikligi va o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi.

Lekin, boshqaruv sub'yekti har doim ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlarini o'zgarishiga ko'ra ob'yekt shakli va unga ta'sir etuvchi usullarni belgilaydi hamda takomillashtirib boradi.

Boshqaruvchi kichik tizim boshqaruv ob'jektini tartibga soladi, maqsad va dasturlarni boshqaruv funksiyasiga ko'ra ishlab chiqadi va ularni nazorat etadi. Demak, boshqaruv sub'yekti korxonada faol rol bajarar ekan.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlilning ikki xil yo'nalishini ko'rsatish mumkin:

1. Sanoat korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
2. Iqtisodiyot tarmoqlarining boshqa tarmoqlarini tahlil qilish.

Bunda iqtisodiy rayonlar, hududlar va butun iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish tushuniladi. Shuni aytish kerakki, iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish iqtisodiy fanlar majmuasida mustaqil o'rin olmagan bo'lib, u siyosiy iqtisod va tarmoqlar iqtisodiyoti kurslarida o'rganiladi. Holbuki, korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy fanlar qatoridan o'ziga xos mustaqil o'rin olgan.

Hozirgi sharoitda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda, iqtisodiyotdagi noqulay yo'nalishlarni tez bartaraf etishda iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta isloh qilishni jadallashtirish birinchi navbatdagi vazifadir. Iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari iqtisodiyotni boshqarishni qayta qurishning mohiyati va uni amalga oshirish tamoyillari bilan bevosita belgilanadi. Iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta qurishning mohiyati – barcha darajalarda asosan ma'muriy rahbarlik usullaridan iqtisodiy usullarga, manfaatlar orqali boshqarishga, boshqarishni keng demokratiyalashga, inson omilini butun choralar bilan kuchaytirishga o'tishdir. Hozirgi bosqichda tub islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti afzalliklarini mumkin qadar to'laroq ro'yobga chiqarish imkonini beradigan

yaxlit, samarali va epchil boshqarish sistemasini vujudga keltirishni taqozo qiladi.

Xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish ko'pgina ta'sir etuvchi omillarga, shartlarga va holatlarga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, korxonalar faoliyatini boshqarishda boshqaruv funksiyasi asosiy mavqeini egallaydi, shu bilan birga tahlil ham. Ushbu funksiyalarning to'liq faoliyati va darajasi ko'p jihatdan ularning uslubiyatiga bog'liqligi bilan, bundan tashqari boshqaruv ob'yektida fanning predmetini o'z vaqtida aniq tushunishi bilan ajralib turadi.

Bizga ma'lumki, odatda har qanday fan o'z predmeti orqali ob'yektiv borliqning qaysidir tomonlari va qismlarini tushuna oladi. Aynan bitta ob'yektni turli xil fanlar o'zining ixtisoslik tomonlaridan yoki aloqalaridan kelib chiqib turlicha qarashi mumkin. Ko'rinib turganidek, xo'jalik faoliyati o'zining mazmuni va strukturasi jihatidan murakkab ob'yekt ekanligi bilan ajralib turadi.

Shu sababli korxonalarining xo'jalik faoliyatini ko'pgina iqtisodiy fanlar hamda boshqa fanlar o'rganishi mumkin.

Har bir fan jamiyat, tabiat va idroklash, taraqqiyot haqida ma'lum bir bilim beradi. Bunday bilim berishda yoki o'rganishda tabiat va jamiyatni rivojlantirishdagi umumiy qonuniyatlariga, tamoyillariga amal qiladi.

Iqtisodiy tahlil ham aniq fan sifatida quyidagilar haqida maxsus bilim beradi:

- iqtisodiy jarayon, hodisa va voqealarni rivojlanishini, o'zgarishini ob'yektiv (tashqi) va sub'yektiv (ichki) ta'sir etuvchi omillar bilan umumiy bog'liq holda o'rganish;

- o'rganilayotgan firma, tashkilot, muassasa va uyushmalarning faoliyatini to'liq va keng o'rgangan holda aniq va xolisona baho berish;

- ijobiy va salbiy ta'sir etgan omillarni aniqlash, raqamlarda ko'rsatish va hisoblash;

• bor bo'lgan imkoniyatlar, samaradorlikni oshirishni yo'l-yo'riqlarini ko'rsata olish;

• ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan jarayonga qo'llash yo'nalishlarini belgilash.

Iqtisodiy tahlilda o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan murakkabga yoki aksincha o'rganiladi, hamda umumiy birligi va bir-biri bilan uzviy almashtirishi e'tiborga olinadi. Demak, xo'jalik faoliyatini tahlili firmalarning iqtisodiy faoliyatini ob'yektiv va sub'yektiv omillarni e'tiborga olib o'rganadi.


Turli mulkchilik tizimiga asoslangan iqtisod bozor mexanizmining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning sub'yektlari bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'yektlar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordirlar, bu esa, albatta, sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Shu jihatdan korxonalar (firma) faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

1.5. Iqtisodiy tahlil fani tarkibi va uni tashkil etishning asosiy tamoyillari.

Iqtisodiy tahlil yordamida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi hamda mamlakatning iqtisodiy salohiyati aniqlanadi. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan maqsad korxonalar va birlashmalarning ish faoliyatiga ob'yektiv baho berish va xo'jalik yuritishning samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir.

Iqtisodiy tahlil fani o'ziga xos belgilari, axborot manbalari, o'tkazusi sub'yektlar kabi bir qator belgilarga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi va o'z vazifasini bajarishda ma'lum bir manbalardagi axborotlardan foydalanadi.

Istisodiy tahlilning tarkibiy qismlari va axborot ta'loniti manbalarini quyidagi chizmada ko'rish mumkin (1.2. rasm).



1.2-rasm. Iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismlari va axborot manbalari

Iqtisodiy tahlilning tarkibi:

1. Tashqi moliyaviy tahlil:

- Foyda tahlili;
- Rentabellik tahlili;
- Moliyaviy barqarorlik;
- Moliyaviy axvol;
- Balansning likvidiligi;
- Korxonaning to'lov qobiliyati;
- Xususiy kapital;

- Chetdan jalb qilingan mablag'lar;
- Korxonaning moliyaviy xolatiga iqtisodiy tashxis;
- Korxonaning ishdagi faolligi;
- Korxonaning bozordagi faolligi.

Ushbu taxlilni soliq inspeksiyasi, yuqori tashkilot, bank va boshqa manfaatdor tashkilot xodimlari hamda shu firma (korxonada) muassislari o'tkazadi

2. Ichki moliyaviy tahlil:

- Tashqi moliyaviy tahlilda o'rganilayotgan barcha ko'rsatkichlarga korxonada samaradorligining oshishi nuqtai nazaridan qaralishi;

- Barcha ko'rsatkichlarning omilli tahlili;

- Natija va xarajatlar hamda iqtisodiy potensialni ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni dinamikasi;

Ushbu taxlilni firma (korxonada) xodimlari o'tkazadi.

Ma'lumki, analitik tadqiqotlar, uning natijalari va ulardan ishlab chiqarishni boshqarishda foydalanish ma'lum talablarga javob berishi kerak. Bu talablar analitik tadqiqotlarni o'tkazishga o'z ta'sirini ko'rsatadi albatta. Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish, o'tkazish va uning natijalarini amalda foydalanishda ularga qat'iy rioya qilinishi shart.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan ob'yektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko'zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Iqtisodiy tahlilni rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun ham

rejalashtirish bilan tahlil o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinib turadi. Biznes reja tuzish korxonada faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi. Biznes rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarning iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o'rganuvchi va ularning tadqiq qilish ob'yekti deb qarovchi alohida fanning o'zi amal qiladigan tamoyillari mavjud bo'ladi. Tamoyillar o'rganiladigan ob'yektni bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi.

Shu jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari bor (1.1-jadval). Mazkur tamoyillar tahlil fani ob'yektlarni ob'yektivligini, mantiqliligini, shakl-mazmunini, miqdor-sifatini va shu kabi jihatlarni tavsiflab real voqelikni yagona tushunchasini hosil qiladi.

1.1-jadval.

Iqtisodiy tahlil fanining tamoyillari.

Tamoyillar	Mazmuni
Tizimlilik	Tahlil ob'yektiga alohida bir butun tuzilma yoki tuzilmaning elementi deb qaraladi.
Ishonchlilik	Ma'lumotlarda to'g'ri va haqqoniy ekanligi
Taqqoslanuvchanlik	Ko'rsatkichlar bir xil, turli davrlar va korxonalar faoliyatini miqdor va sifat jihatidan to'g'ri baholash imkoniyatini beradigan tarzdagi ma'lumotlardan foydalanish va qiyosiy o'rganish
Betarafilik	Axborot foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa guruhlar manfaatlarining qondirishning o'rsizligi
Davriylik	Olingan ma'lumotlarning davriy oralig'i, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan vaqti bilan ta'minlab turish

Pulli baholash	Barcha aktivlar, kapital va majburiyat-larning soʻmda ifoda etilishi
Hisobga olish	Daromad va harajatlarning yuzaga chiqish vaqti, oʻrni va markazlari boʻyicha hisobga olinishi
Mazmunning shakldan ustunligi	Maʼlumotlarning hisob va hisobotdagi huquqiy shaklida uning mohiyati va iqtisodiy voqeligi boʻyicha hisobga olishdagi ifodasini ustunligi
Aniq baholash	Aktivlar va foydaning joriy davr bozor narxlarida qayta ifodalanishi
Uzluksizlik	Korxonalar xoʻjalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlarni oʻz yakuniga qadar hisobda uzluksiz aks ettirilishi
Ilmiylik	Tahlilga dialektik, rivojlanishning iqtisodiy qonunlari, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, ilgʻor tajribalar va tadqiqotlarning eng yangi usullarini hisobga olishi
Komplekslilik	Tahlil qilinayotgan obʻyektning barcha birliklari, zvenolari va tomonlarini hisobga olish hamda ularning oʻzaro bogʻliqliklarini atroflicha oʻrganilishi
Operativlik (tezkorlik)	Iqtisodiy tahlilni oʻtkazish, qarorlar qabul qilish va ularni amaliyotga joriy qilishda aniq va tezkorlikni taqozo qilinishi
Samaradorlik	Tahlilni oʻtkazish uchun ketgan sarf-xarajatlar bir necha barobar qoplanishi kerakligi (oʻzini oqlashi)

1.6. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida iqtisodiy tahlil jarayonida oʻrganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan-murakkabga yoki aksincha, umumiylikdan

eng kichik omilga qadar o'rganadi hamda umumiy birligi va bir-biri bilan uzviy almashtirishi e'tiborga olinadi. Demak, iqtisodiy tahlil fani firma va korxonalarining iqtisodiy – ijtimoiy faoliyatini ob'yektiv va sub'yektiv omillarni e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Fanning predmeti deyilganda, shu fan nimani o'rgatadi degan savolga javob berishi lozim bo'ladi. Har qanday mustaqil fan o'zining predmetiga ega. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmetiga keng ma'noda qaraydigan bo'lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan ob'yekt xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Lekin har bir iqtisodiy fan o'ziga xos xususiyatga, o'zi o'rganadigan predmetiga ega. Bu faqat shu fanga xos bo'lib, imkoni boricha boshqa fanlarda takrorlanmasligi lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti tom ma'noda tahlil qilinayotgan ob'yektning xo'jalik faoliyatidir. Ammo, «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy hisob», «Statistika», «Moliya», «Audit», «Marketing», «Menejment» kabi fanlarning ham predmeti keng ma'noda xo'jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o'rgatadi. Demak, har bir fanning, shu jumladan, «Iqtisodiy tahlil» fanining o'ziga xos va mos jihatini, unga tegishli predmetini aniqlab olish lozim.

Tahlil fani xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ammo, bu jarayonlarning sodir bo'lish paytini emas, balki uning natijasini o'rganadi, ob'yektda sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar uning biznes rejasida ko'zda tutilgan ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo'lishini qonuniy jihatdan hujjatlashtirish bilan «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy hisob» va «Statistika» kabi fanlar shug'ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda

o'z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan hujjatlarga asoslanadi.

«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti haqida turli iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlarning qarashlari turlicha talqin etilgan. Ushbu ta'riflardan professor M.Q.Pardaev tomonidan iqtisodiy tahlil fani predmetiga berilgan quyidagi ta'rif ancha mukammal hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti - xo'jalik faoliyatida ob'yektiv (tashqi) va sub'yektiv (ichki) omillar ta'sirida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar manbaida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimi orqali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishni o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiy tahlilning predmetida omillar asosiy o'rinni egallaydi, chunki korxonalarining xo'jalik faoliyatida yuzaga kelgan va kelayotgan hodisa va jarayonlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, ular qandaydir ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Obektiv va sub'yektiv omillarning ta'sirini boshqa fanlar o'rganmaydi, faqat bularning ta'siri iqtisodiy tahlilda o'rganiladi, shuning uchun ham iqtisodiy tahlil fani predmetining negizida ob'yektiv (tashqi) va sub'yektiv (ichki) omillar va ularning ta'sirini o'rganish bejiz qayd qilingan emas .

Fanning predmeti ta'rifidan shu narsa ko'rinadiki, iqtisodiy tahlil korxonalarining xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyatlari hamda ularning yakuniy moliyaviy natijalarini o'rganadi. Korxonalaridagi xo'jalik jarayonlari asosiy faoliyat, ularni tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Korxonaning boshqa faoliyatlarini xo'jalik jarayonlari bilan birgalikda amalga oshiriladigan moliyaviy hamada investitsiya faoliyati, soliq to'lovlari kabi munosabatlar tashkil etadi. Iqtisodiy tahlilda korxonada iqtisodiy faqat dinamik holatda emas, balki statik tarzda ham o'rganiladi.

Korxonalar faoliyatida ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'sirida yuzaga kelgan xo'jalik jarayonlari mazmuni quyidagicha izohlanadi.

Tahlilning predmetini o'rganishda faqat sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo Yetarli bo'lmas edi. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan ob'yektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir.

Korxonalar faoliyatiga baho berishda o'rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarga bog'liq bo'lgan sub'yektiv omillarni ham e'tiborga olib tahlil qilinadi. Sub'yektiv (ichki) omil deyilganda korxonalarining amaliy faoliyati bilan yuqori samaradorlikka erishish, ya'ni mehnat, moddiy va asosiy fondlardan oqilona foydalanish hisobiga ko'proq mahsulotlar ishlab chiqarishda hamda yuqori foyda olish evaziga korxonalar faoliyatini yaxshilash mumkinligini ham o'rganadi.

Ob'yektiv (tashqi) omillar deyilganda, korxonalar faoliyatiga mutlaqo bog'liq bo'lmagan omillar tushuniladi, ya'ni davlat siyosatining o'zgarib turishi, bozordagi talab va taklifning o'zgarishi, baho, tabiiy omillar va hokozolar.

Iqtisodiy manbaalardan foydalanib o'rganish deyilganda esa buxgalteriya, statistik, tezkor hisob ma'lumotlaridan foydalangan holda korxonalar va firma faoliyati aniq raqamlar bilan o'rganiladi va umumlashtiriladi. Chunki, iqtisodiy manbaalar korxonalarda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni aniq o'lchaydi, aks ettiradi va baho beradi.

Har qanday fanning ob'yekti bo'lishi lozim. Ammo, «Iqtisodiy tahlil» fanining nazariyasiga bag'ishlangan eng so'nggi adabiyotlarda ham bu masalaga Yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Shu tufayli fanning predmeti bilan ob'yektini ko'p hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa o'z navbatida

nazariy jihatdan asossiz, chalkash xulosalarga olib kelishi mumkin.

Har qanday fanning ob'yekti uning predmeti qaerlarda amalga oshishini ko'rsatib beradi. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda ko'p mulkchilikka asoslangan barcha yuridik va jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyatida mujassam. Shu tufayli, tahlil fanining ob'yektiga davlat, jamiyat tashkilotlari, uyushmalar, trestlar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning xo'jalik jarayonlari kiradi. Bu ob'yektlar iqtisodiy asosi jihatidan davlat, jamoa, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko'rsatadigan ob'yektlarga bo'linadi.

Ob'yektning va davrning qanday bo'lishidan qat'i nazar ushbu fan predmetining mohiyati o'zgarimasligi, ob'yekt esa tahlilning qaysi makonda o'tkazilishiga ko'ra o'zgarishi mumkin.

Iqtisodiy tahlilning maqsadi - korxonalar hisobotlari va boshqa ma'lumotlari asosida o'tgan, tahlil qilinayotgan davr hamda kelajakda kutilayotgan moliyaviy natijalari va moliyaviy holatiga baho berish orqali iqtisodiy tashxis qo'yishdan iborat.

Fan ushbu maqsadga quyidagi vazifalarni bajarish natijasida erishadi:

➤ Korxonalar iqtisodiy natijalari va moliyaviy holatiga baho berish;

➤ Korxonalar iqtisodiy salohiyati holati va samaradorligiga baho berish hamda uning yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish;

➤ Korxonalar moliyaviy salohiyatining holati va samaradorligiga baho berish va uning yaxshilash uchun tegishli choralar tadbirlar ishlab chiqish;

- Korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uni mustahkamlash yo‘llarini ishlab chiqish;
- Korxonada moliya-xo‘jalik faoliyatiga tashxis qo‘yish, uning iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligiga baho berish;
- Korxonaning ish faolligiga baho berish va ish faolligini oshirish choralarini ishlab chiqish;
- Korxonaning bozordagi faolligiga baho berish va uning raqobatbardoshligini ta‘minlash;
- Korxonaning to‘lovga qobiliyati, likvidligiga baho berish va bankrotligining oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Iqtisodiy tahlil fani predmetini o‘rganish aniq sub’yektlar tomonidan o‘z manfaatlarini nuqtai-nazaridan amalga oshiriladi. Fanni o‘rganishga yondoshuvda sub’yektlar manfaatlarini bir-birlariga zid bo‘lishi ham mumkin.

Tahlilning maqsadi uni tashkil etish va o‘tkazish uchun asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Fanning maqsadi ancha keng qamrovli hisoblanadi, lekin tahlilning maqsadi o‘rganilayotgan ob’yektga ko‘ra belgilanadi. Masalan, ishlab chiqarish hajmi tahlilining maqsad aynan ishlab chiqarish hajmi va uning o‘zgarishiga omillar ta‘sirini hisoblash evaziga mahsulot hajmini oshirish yo‘llarini aniqlash hisoblanadi. Ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishga aynan uning ayrim jihati bo‘yicha yondoshilsa, tahlil ob’yekti hajmi qisqaradi. Masalan, mahsulot hajmi o‘zgarishiga mehnat omillari ta‘sirini tahlil qilishda, ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga faqat mehnat bilan bog‘liq omillar ta‘siri tahlil qilinadi.

Iqtisodiy tahlilning sub’yektlari:

1. Xo‘jalik faoliyati natijasidan bevosita manfaatdolar:

- Korxonada ma‘muriyati, menedjerlar;
- Soliq organlari;

➤ Mijozlar (mahsulot sotib oluvchilar va yetkazib beruvchilar);

➤ Qarz beruvchilar;

➤ Mulk egalari;

2. Xo‘jalik faoliyati natijasidan bilvosita manfaatdorlar:

➤ Auditorlik firmalari;

➤ Birjalar;

➤ Maslaxatchilar;

➤ Assotsatsiya, Kompaniya, Birlashmalar;

➤ Matbuot muassasalari;

➤ Kasaba uyushmalari va boshqalar.

1.2- jadval.

Iqtisodiy tahlilning asosiy shakllari.

Gorizantal tahlil	Hisobot davrini o‘tgan davr ko‘rsatkich-lari bilan solishtiriladi.
Vertikal tahlil	Tarkibiy tahlil. Tahlil qilinayotgan ob‘yektni barcha qismlari bo‘yicha ham o‘rganadi.
Dinamik taxlil	Ko‘rsatkichlar bir qancha yillar mobaynida o‘zgarishini o‘rganadi. Bu ko‘pincha istiqbolni belglash kelajakni rejalashti-rish paytida o‘tkaziladi.
Makon tahlil	Birorta ob‘yekt ko‘rsatkichlari bilan solishtiril-gan holda o‘rganiladi.
Nisbiy ko‘rsatkichlar tahlili	Tahlilda xulosaga kelish uchun juda ko‘plab koeffitsientlar, indekslar va foizlar asosida tahlil o‘tkaziladi.
Omili tahlil	Natijaga bir qancha omillarning ta’siri hisoblanib tegishli imkoniyatlar aniqlanadi.

**Korxonada faoliyati iqtisodiy tahlilida qoʻllaniladigan
koʻrsatkichlar tizimi tasnifi.**

<i>moliyaviy natijalarni ifodalovchi koʻrsatkichlar;</i>
<i>iqtisodiy potensialni ifodalovchi koʻrsatkichlar;</i>
<i>bozor faolligini ifodalovchi koʻrsatkichlar;</i>
<i>byudjet bilan aloqalarini ifodalovchi koʻrsatkichlar;</i>
<i>moliyaviy potensialni ifodalovchi koʻrsatkichlar;</i>
<i>moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi koʻrsatkichlar;</i>
<i>toʻlov qobiliyati va toʻlovga qodirlikni ifodalovchi koʻrsatkichlar;</i>
<i>ish faolligini (ishchanligini) ifodalovchi koʻrsatkichlar.</i>

Ushbu koʻrsatkichlar belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib iqtisodiy tahlilning asosiy shakl hamda usullari yordamida tahlil qilinib, oʻrganilayotgan obʼyekt boʻyicha tegishli qaror qabul qilinadi.

1.7. Iqtisodiy tahlil fanining fanlar tizimida tutgan oʻrni va ular bilan bogʻliqligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil haqiqatdan ham amaliyotda davlatga, xoʻjalik yurituvchi subʼyektlarga, mulkdorlar manfaatlar uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlil xoʻjalik munosabatlardagi obʼyektiv zarurat talabidan kelib chiqqan aniq fan boʻlishiga qaramasdan boshqa fanlardagi umumiy qonuniyatlar, usul-uslublar, tamoyillar kabilarga rioya qiladi. yaʼni, koʻpgina fanlar bilan oʻzaro bogʻliq holda oʻz vazifasini bajaradi.

Iqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlar bilan aloqasi:

- Iqtisodiy nazariya;
- Buxgalteriya hisobi;
- Audit;
- Huquqiy fanlar;
- Soliqlar va soliqqa tortish;
- Iqtisodiyot nazariya;
- Statistika;
- Informatika;
- Moliya;
- Bank ishi;
- Marketing;
- Menejment;
- Makroekonomika;
- Mikroekonomika;

kabi fanlar bilan o'zaro aloqada hisoblanadi (1.4-jadval).

1.4-jadval.

Iqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlar bilan aloqasi mazmuni

Fanlar	Mazmuni
Iqtisodiy nazariya	Iqtisodiy tahlil umum iqtisodiy qonunlarga asoslanadi va umum qabul qilingan kategoriyalardan foydalaniladi. Iqtisodiy nazariya fanida kategoriyalar va ularning mohiyati hamda mazmunini o'rganiladi.
Buxgalteriya hisobi va audit	Iqtisodiy tahlil uchun eng zarur element axborotlar hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy tahlil uchun haqqoniy va to'liq axborot etkazib beradi. Tahlil jarayonida audit usullari yordamida axborotlar haqqoniyliги o'rganiladi.

Statistika va informatika	<p>Voqea va hodisalar, ularning holati to'g'risidagi ma'lumotlar statistika fani usulvri yordamida jamlanadi. Ushbu statistik ma'lumotlar tahlilning axborot ta'minoti yaxshilanishiga xizmat qiladi. Informatika fanlari asosida iqtisodiy tahlil ishlari dasturlanib, kompyuter vositalarida ular amalga oshiriladi. Bunda iqtisodiy tahlil fanining usul va uslublari, belgilangan maqsad va vazifalar axborot texnologiyalari va informatika fanlari talablari asosida dasturlanadi.</p>
Soliqlar va soliqa tortish	<p>Iqtisodiy tahlil va soliqlar va soliqa tortish fanlari zrtasidagi aloqadorlik korxonaning soliqa tortish tartibi va uni optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqilishidan namoyon bo'ladi.</p>
Marketing	<p>Korxonah mahsulotini bozorgirligi va uni raqobatbardoshligini oshirish hamda ularga ta'sir etuvchi omillar o'zrtasidagi bog'liqlik ushbu fanlar aloqasi yordamida aniqlanadi.</p>
Menejment	<p>Tahliliy ishlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida qanday boshqaruv qarorlarini qabul qilish menejment va iqtisodiy tahlil fani aloqadorligini asosi hisoblanadi.</p>
Huquqiy fanlar	<p>Huquqiy fanlar va iqtisodiy tahlil fani aloqadorligi tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklar oqibatlari va uni bartaraf etish hamda korxonaning moliyaviy jazolari oldini olishini ta'minlaydi.</p>

Iqtisodiy faoliyat natijasi – uni ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotda erishilgan yutuqlar,

kamchiliklar, uning yaxshilanayotgani yoki yomonlashayotgani haqida to'liq ma'lumot beradi. Korxonada faoliyati natijalari ifodalovchi ko'rsatkichlarni quyidagi tarzda ifodalash mumkin.

1.5-jadval.

Iqtisodiy faoliyat atijasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tasniflash

Ko'rsatkichlarning tasniflanishi:					
<i>Mazmuni bo'yicha</i>	<i>Foydalanish doirasi bo'yicha</i>	<i>Ifodalash shakli bo'yicha</i>	<i>Umumlashtirish darajasi bo'yicha</i>	<i>Korxonada xo'jalik faoliyatining bo'g'inlari bo'yicha</i>	<i>Shakllanish usuli bo'yicha</i>

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni mazmuni bo'yicha **miqdor va sifat ko'rsatkichlariga** bo'linadi.

Shuningdek iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni boshqa bir qator belgilari bo'yicha ham tasniflash mumkin.

**Ko'rsatkichlarning mazmuni bo'yicha
tasnifitasniflanishi.**

1.Miqdor ko'rsatkichlari	2.Sifat ko'rsatkichlari
Ishlab chiqarish (ish, xizmat) hajmi;	Mehnat unumdorligi;
Er maydoni;	Rentabellik;
Xodimlar soni;	Daromadlilik;
Yalpi hosildorlik;	Hosildorlik;
Aholining soni;	Samaradorlik;
kabi umumiy hajmini ifodalovchi yalpi miqdor ko'rsatkichlar.	kabi ish, faoliyat, xizmat sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Shuningdek iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni boshqa bir qator belgilari bo'yicha ham tasniflash mumkin.

Foydalanish doirasi bo'yicha.

Umumiy ko'rsatkichlar	Maxsus ko'rsatkichlar
Yalpi ichki mahsulot;	Sutning yog'lilik darajasi;
Mehnat unumdorligi;	Sotish xarajatlari;
Tannarx;	Yuk avtotransporti xizmati oboroti (t/km);
Foyda;	Xodimlarning ish soati;
Rentabellik;	Chorvaning mahsuldorligi;
Samaradorlik;	Sohaga xos boshqa ko'rsatkichlar;
Soha faoliyatini ifodalovchi boshqa ko'rsatkichlar.	

Iqtisodiy ko'rsatkichlar ifodalanish shakli bo'yicha mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarga bo'linadi. Mutlaq

ko'rsatkichlar ham o'z navbatida qaysi o'lchamda ifodalanishiga qarab ikki guruhga: natural (miqdor) va qiymat ko'rsatkichlariga bo'linadi. Natural ko'rsatkichlar asosan tabiiy holda mavjud bo'lgan jismoniy nisbiy ko'rsatkichlar aksariyat hollarda turli mutlaq ko'rsatkichlarning bir-biriga yoki bir xil mutlaq ko'rsatkichlarning turli davrlardagi hajmini bir-biriga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi.

1.8-jadval.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni ifodalanish shakli bo'yicha tasniflanishi.

Ko'rsatkichlarni ifodalanish shakllari		
Mutloq ko'rsatkichlar		Nisbiy ko'rsatkichlar
Natural (miqdor) ko'rsatkichlar	Qiymat ko'rsatkichlari	Foizda
Og'irlik;	Baho;	Koeffitsentda;
Uzunlik;	Ta'rif;	Indeksda;
Hajm;	Ish haqi;	Indeksda;
Maydon;	Ishlab chiqarish hajmining pul birligi;	ifoda etiladigan ikki yoki undan ortiq mutloq ko'rsatkichlar nisbati asosida vujudga kelgan ko'rsatkichlar;
kabi jismoniy birlikda ifoda etiladigan ko'rsatkichlar.	kabi pul birligida ifodalanadigan ko'rsatkichlar.	

Ushbu ko'rsatkichlar tizimi ham tahlil uchun metodologik asos sifatida keltirildi: Amaliyotda tahlilning maqsadi, ob'yekti

va sohasiga qarab ko'rsatkichlar tizimiga son va sifat jihatidan o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

1.9-jadval.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllanish manbalari bo'yicha tasniflanishi.

Ko'rsatkichlarni shakllanish manbalari				
Me'yoriy	Reja	Hisob	Hisobot	Tahliliy
Me'yoriy hujjat va boshqa texnik hujjatlarda belgilangan	Xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining rivojlanish rejasi ko'rsatkichlari	Buxgalteriya statistika, boshqaruv Hisoblarida ifoda etilgan ko'rsatkichlar	Buxgalteriya, statistika boshqaruv hisobotlarida ifoda etilgan ko'rsatkichlar	Xo'jalik faoliyatini natijalariga baho berish masadida tahliliy ishlar asosida aniqlanadigan ko'rsatkichlar

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- iqtisodiy tahlil fanining mazmuni;
- tahlil boshqaruvning muhim funksiyasi ekanligi;
- iqtisodiy tahlil fani predmetining ta'rifi;
- iqtisodiy tahlilning vazifalari;
- tahlil ob'yekti;
- tahlil sub'yekti;
- iqtisodiyot nazariyasi va tahlil fanlarining bog'liqligi;
- buxgalteriya hisobi va tahlil;
- audit va tahlil;
- marketing va tahlil;
- moliya va tahlil;
- soliq va tahlil.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tahlil soʻzining iqtisodiy mazmuni nimadan iborat?
2. Xoʻjalik sub'yektlarini boshqarishda iqtisodiy tahlil fanining ahamiyati nimadan iborat?
3. Tahlil fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
4. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy fanining boshqa fanlar bilan oʻzaro bogʻliqligini nimalarda koʻramiz?

Mustaqil oʻrganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq

Iqtisodiy tahlilning mazmuni toʻgʻrisida oʻz fikrlaringizni yozing va ularni izohlang.

Iqtisodiy tahlilning mazmuni toʻgʻrisidagi tushunchangizni Yozing	Iqtisodiy tahlil maxsus bilimlar tizimi sifatida nimalarni oʻrganadi	Har bir alohida koʻrsatilgan fikringizga qisqacha sharh yozing
	A) B)	A) B)

2-topshiriq

Iqtisodiy tahlilning ob'yekti va sub'yekti nimalardan iborat?

Iqtisodiy tahlilning ob'yekti -	Iqtisodiy tahlilning sub'yekti

3-topshiriq

Iqtisodiy tahlilning predmeti nima? Ushbu savolga quyidagi jadvalda keltirilgan tartib bo'yicha javob yozing.

Iqtisodiy tahlilning predmetiga ilmiy ta'rif bering	Iqtisodiy tahlil predmetidagi har bir tushunchani alohida ko'rsating	Iqtisodiy tahlil predmetidagi har bir alohida ko'rsatilgan tushunchaga sharh yozing
	A) B)	A) B)

Test savollari:

1. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan?

a) O'rganilayotgan ob'yektga (hodisaga) to'g'ri va xolisona baho berish; Tuzilgan biznes rejalarning to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish; Moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan samarali va oqilona foydalanganlikka baho berish;

b) Xo'jalik hisobi tamoyillariga, tijorat hisob-kitoblariga amal qilishlikni muntazam tekshirib turish; Korxonalarda mavjud bo'lgan samaradorlikni oshirish yo'lida ularning imkoniyatlarini aniqlash; Eng to'g'ri va oqilona, kelgusida ish yuritish va korxonalarni boshqarish bo'yicha xulosalar berish;

c) Korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash; Rejaning bajarilishiga ob'yektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalariga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash; Korxonalarning xo'jalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan aniqlash;

d) Hammasi to'g'ri;

2. Tahlil fanining predmeti deb, -

a) xo‘jalik jarayonlarini iqtisodiy manbalardan foydalanib o‘rganishga aytiladi;

b) firma, uyushma, birlashmalarda moliyaviy-xo‘jalik jarayonlarini sodir bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyati, raqobatga chidamli bo‘lib faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur texnik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, innovatsion boyliklaridan oqilona foydalanayotganligiga baho berishga aytiladi. Bunday o‘rganishda jamiyatda amal qilayotgan ob‘yektiv va sub‘yektiv qonunlarga tayanadi hamda ko‘pgina axborot manbalaridan foydalanadi.

c) xo‘jaliklarning ishlab chiqarish mablag‘laridan foydalanishini o‘rganishga aytiladi;

d) xo‘jalikning barcha jarayonlaridagi o‘zgarish va farqlari sababini o‘rganishga aytiladi. Bunday o‘rganishda jamiyatda amal qilayotgan ob‘yektiv va sub‘yektiv qonunlarga tayanadi hamda ko‘pgina axborot manbalaridan foydalanadi.

2-BOB. IQTISODIY TAHLIL FANINING METODI VA UNDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR

2.1. Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o‘ziga xos jihatlari.

Tabiat va jamiyatdagi hodisalar singari iqtisodiy hodisalarning ham tarkibiy qismlarini bilmay turib, ya’ni tahlil qilmay turib, ularni ilmiy jihatdan o‘rganib bo‘lmaydi.

Fanning metodi ob‘yektiv borliq, tabiat va jamiyatning rivojlanishini o‘rganishga qanday yondoshish hamda fanning ob‘yekti yoki predmetini o‘rganish usullari, vositalarini tavsiflaydi. Iqtisodiy tahlil ham o‘zining mustaqil usullariga ega.

Metod – grekcha «metodos» so‘zidan olingan bo‘lib, nazariy ta’limot va amaliy o‘rganishdagi izlanish yo‘llari degan ma’noni anglatadi. Keng ma’nada metod deganda haqiqatni, ob‘yektiv borliqni, tabiat, jamiyat va mavjudotlarni rivojlanishi, materialistik dunyoni dialiektik-materialistik qonuniyatlarga asoslanib o‘rganish tushiniladi.

Iqtisodiy tahlilning metodi - dialektik metodga asoslangan bo‘lib, uning predmetini makon va zamonda, axborotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar sistemasi asosida har tomonlama kompleks o‘rganish, mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash, ob‘yektning samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy kudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, boshqarishni takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan usullar majmuidan iboratdir.

Metodologiya - deganda fanning predmetini o‘rgatishda qo‘llaniladigan yondoshuvlar, usullar majmuasi tushuniladi.

Iqtisodiy tahlil fani metodiga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar.

t/r	Muallif	Ta'rifning mazmuni	Ta'rif manbasi
1.	Veysman N.R	“Tahlil metodining elementlari hisob ma'lumotlarini o'qish, keyinchalik ushbu ma'lumotlardan korxonada ichki va tashqi xo'jalik almashtirishlarini ochib berish uchun kompleks foydalanishi ana shunday almashtirishlarni o'lchash, tahlilga jalb qilingan raqamli-ko'rsatkichlarni o'qish, o'zaro bog'lash va o'lchash chog'ida taqqoslash hisoblanadi”	Ocherki po buxgalterskomu uchoty i analizu. M.: Gosfinizdat, 1958, s.112-113
2.	Rubinov M.	“Xo'jalik jarayonlarini tekshirishda qo'llanuvchi o'zaro bog'langan usullar to'plami korxonalar ishi-ning iqtisodiy tahlili metodi deb aytiladi”.	Osnovi ekonomicheskogo analiza raboti predpriyatiy. M.: Gosfinizdat, 1962, s.13
3.	Xan N.A.	“Iqtisodiy analiz metodi deganimizda ishlab chiqaruvchi kuchlardan va iqtisodiy qonunlardan	Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining analizi, Toshkent,

		foydalanish yo'llarini o'rganish yoki o'rganishga yondoshishni tushinmoq kerak. Bunga xo'jalik rezervlarini topish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash uchun ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy qonunlarining tarkibiy qismlarini bo'lib ko'rish vositasida erishiladi.	O'qituvchi, 1978-y. 12-b.)
4.	Savichev P.I.	“Korxonalar ishining iqtisodiy tahlili metodi xalq xo'jaligi ayrim tarmoqlarining vazifalari va xususiyatlariga bog'liq holda rivojlantiriluvchi va konkretlashtiriluvchi materialistik dialektika hisoblanadi”.	Ekonomicheskiy analiz orudie vyavleniya vnutri xozyaystve nrix rezervov. M., Finansi, 1968 s.17
5.	Beloborodovoy V.A.	“Iqtisodiy tahlilni metodi deganda joriy uchet va hisobotlar ko'rsatkichlari tizimi bazasida korxonalar faoliyati turli tomonlarini kompleks, o'zaro bog'liqlikda o'rganish tushiniladi”.	Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti pod.red. M., Finansi i statistika, 1985, s.17.

6.	Boringols S.B., Tatsiya G.M.	<p>“Tahlilning metodi – bu maxsus usullar yordamida reja, uchet, hisobot va axborotlarni boshqa manbalarini ishlab yo‘li bilan amalga oshiriladigan, xo‘jalik rejalarini bajarilishiga va xo‘jalikni rivojlanish dinamikasiga ayrim omillar ta‘sirini sistemali kompleks o‘rganish, o‘lchash va umumlashtirish usulidir”.</p>	<p>Ekonomicheskiy analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiy i ob‘edeneniy. Pod.red. M., Finansi i statistika, 1986 s.21</p>
8.	Savitskaya G.V	<p>“Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida reja, hisob, hisobot va boshqa ma‘lumotlar manba‘larining ko‘rsatkichlar tizimini maxsus usullar yordamida ishlab yo‘li bilan korxonalar faoliyati natijalariga omillar ta‘sirini tizmiy, kompleks o‘rganish, o‘lchash va umumlashtirish xo‘jalik faoliyati tahlilining metodi hisoblanadi”.</p>	<p>Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya: 4-e izd., pererab. i dop. — Minsk: 000 «Novoe znanie», 2000 g.</p>

Iqtisodiy tahlilning metodologik asosi, ya'ni uni o'rgatishda qo'llaniladigan yondashuvlar turli yo'nalishda bo'lishi ta'biy. Shu tufayli ularni, eng avvalo, to'g'ri tasniflash lozim. Bizning fikrimizcha, ularni o'rganishda qanday yondashishga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. *O'rganilayotgan ob'yektga dialektika nuqtai nazaridan yondashish;*

2. *O'rganilayotgan ob'yektga tizimli uzluksizlikni ta'minlagan holda yondashish.*

Birinchi yondashish bo'yicha tahlil qilinsa barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, harakatda va doim o'zgarishda deb qarash lozim bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, shuni ta'kidlash joizki, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko'rsatkichlar ham bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda va o'zgarishda, deb qaraladi. Bu yondashuv, ayniqsa, natijaviy ko'rsatkichlarga omillar ta'sirini aniqlashda keng qo'llaniladi.

Ikkinchi yondashuv bo'yicha tahlil qilinganda o'rganilayotgan ob'yektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o'rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan xodisalarga uzluksiz ravishda sistemali tarzda yondashish lozimligini taqozo qiladi. Bunga o'rganilayotgan ob'yektni detallashtirish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali erishish mumkin.

O'rganilayotgan ob'yektni **detallashtirish** deganda murakkab iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish va ulardan to'g'ri va yaxlit xulosa qilish uchun ularni mayda bo'laklarga bo'lib o'rganish tushiniladi.

Tizimlashtirish deganda o'rganilayotgan ob'yektni o'rganish uchun unga mantiqan ketma-ketlikni ta'minlagan holda tartibga solish tushiniladi. Chunki iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda. Shu tufayli ularni har tomonlama,

chuqur o'rganish uchun ketma-ket ravishda batafsil tahlil qilish lozim. Masalan, natija ko'rsatkichi o'zgarsa unga ta'sir qiluvchi barcha ijobiy va salbiy omillar batafsil tahlil qilinadi, ularning ta'siri ketma-ket ravishda hisoblab chiqiladi.

O'rganilayotgan ob'yektni tahlil qilganda **umumlashtirish** deganda uning barcha jihatlarini atroflicha o'rganib, yaxlit xulosaga kelish tushiniladi. Bu yo'nalish tahlilning boshqaruv funksiyasidan kelib chiqadi. Boshqaruv uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishda tahlil orqali o'rganilayotgan ob'yekt xaqida tegishli to'g'ri va yaxlit xulosaga kelish lozim.

2.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullari va ularni guruhlash.

Iqtisodiy tahlil qilish jarayonida turli usullar va metodikalar qo'llaniladi. Bu usul va metodikalardan foydalanish jarayonida tahlil metodining asosiy jihatlarining kompleksligi va tizimlashganligi yaqqol ko'rinadi. Xo'jalik jarayonlarining umumiy birligi, o'ziga xos tuzilish va tarkibga egaligi hamda murakkab tavsifdagi o'zaro bog'liqligi tahlil usullari va metodikalarini qo'llashda asosiy e'tiborda turadi.

Tahlilning usul va metodikalarini qo'llashda korxonaning xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatini bir butun tizim ekanligi, uning umumiy yakuniy natijasi mavjudligi nazarda tutilgan holda faoliyatning turli tomonlari va elementlari ham alohida, ham birgalikda o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi, biri ikkinchisining ta'siridan kelib chiqishi, ya'ni ketma-ketligi aniqlanib, barcha omillar asosiy hamda asosiy bo'lmagan guruhlariga bo'linib, ular o'zaro uyg'unlashtirilgan hamda tizimga solingan holda yakuniy natijaga omillarning birgalikdagi bevosita va bilvosita ta'siri hisoblanadi.

Tahlil usullarini qo'llash o'rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog'liqligi, o'zgarish sababi, ta'sir ko'rsatgan omillar va qo'Shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi raqobatdosh iqtisodiyotda aksariyat yetuk iqtisodchi olimlarimiz tahlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarda shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko'rsatishmoqda. Iqtisodiy tahlilning usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- *Oddiy-an'anaviy usullar guruhi;*
- *Iqtisodiy – matematik usullar guruhi.*

Oddiy-an'anaviy usullar guruhiga iqtisodiy tahlil paydo bo'lgandan buyon an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo'llanilib kelayotgan usullar kiritiladi. Ularning tarkibiga mutloq va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlishtirish, balansli almashtirish, zanjirli almashtirish, indeks, foizlar va hokazo usullarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy-matematik usullar tarkibiga esa odatda korrelyasion va regratsion tahlil, integral usuli, matematik yoki chiziqli programmashtirish usuli, determinantlar usuli, iqtisodiy tashxis qo'yish usuli, logarifmlar usuli, nazariy o'yin usuli va hokazolarni kiritishimiz mumkin.

Fan metodologiyasi o'zida predmetini anglashga yo'naltirilgan tamoyillar, usullar va metodlar, qoidalar tizimini aks ettiradi. Bilish faoliyati jarayonini yaxlit tadqiq etuvchi anglash nazariyasidan metodologiya shunisi bilan farq qiladiki, u anglash metodlariga ko'proq diqqatni qaratadi. Agar fan nazariyasi o'zida bilish jarayoni natijasini aks ettirsa, u holda metodologiya ushbu bilimlarga erishish usuli va tadqiqiy faoliyatga yo'naltiruvchi asos sanaladi.

Korxonada xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish tahlilning ma'lum bir usullar yordamida amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan an'anaviy usullar tasnifi:

- Solishtirish usuli;
- Muvozanat usuli;

- Qayta hisoblash usuli;
- Zanjirli almashtirish usuli;
- Indeks usuli;
- Farqli usul;
- Integral usuli;
- Nisbiy ko'rsatkichlar usuli;
- Kichik sonlardan foydalanish usuli kabi usullar mazmuni bilan tanishamiz.

2.3. Solishtirish (Taqqoslash) usuli va undan iqtisodiy tahlilda foydalanish.

Taqqoslash – inson atrof-muhitni anglay boshlagan usullardan biri bo'lib, undan doimo foydalaniladi. Uning muhimligi quyidagi naqlda ham qayd qilinadi: «Barcha narsa qiyoslashda anglanadi». Bu usul iqtisodiy hodisalar tadqiqida ham keng tarqaldi: baholash uchun qo'llaniladigan har bir ko'rsatkich, har bir raqam, nazorat va prognoz xuddi Shunday boshqalar bilan taqqoslashdagina ahamiyatlidir.

Taqqoslash mohiyati – turdosh ob'yektlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqlarni aniqlash maqsadida qiyoslashdir. Ular yordamida umumiy va xususiy iqtisodiy hodisalarni taqqoslash bajariladi, o'rganilayotgan ob'yektlar darajasida o'zgarishlar, tendensiyalar va ularning rivojlanishi qonuniyatlari, ular o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari o'rnatiladi.

Texnologik taqqoslash bir nechta bosqichdan iborat: taqqoslanadigan ob'yektlarni tanlash, taqqoslash shaklini tanlash (dinamik, makoniy va b.), taqqoslash bazasini tanlash (o'tgan davr, hisobot davr rejasi, etalon korxonasi va b.), ob'yektlarni qiyoslash amalga oshiriladigan ko'rsatkichlar sonini tanlash, taqqoslash shkalasini tanlash.

Iqtisodiy tahlilda qiyosiy tahlilning quyidagi shakllari farqlanadi: gorizontal va vertikal, dinamik va statik, bir o'lchovli va ko'p o'lchovli.

Gorizontal qiyosiy tahlil o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini bazaviydan (reja, o'tgan davr, o'rtacha daraja, fan va ilg'or tajriba yutuqlari) absolyut va nisbiy og'ishlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

Vertikal qiyosiy tahlil yordamida iqtisodiy hodisalarning strukturasi va jarayonlarning qismlari hamda umumiy solishtirma salmog'ini hisoblash yo'li bilan (o'z kapitalining umumiy kapitaldagi solishtirma salmog'i), butun va qism nisbatlari (masalan, o'z va qarz kapitali, asosiy va aylanma kapital), shuningdek, omillarning natijaviy ko'rsatkichlarning darajasiga ta'sirini mutanosib omilning oldingi va keyingi o'zgarishlari miqdorlariga taqqoslash yo'li bilan o'rganiladi.

Trend tahlil o'rganishda bazis yil darajasiga nisbatan qator yillar uchun nisbiy o'sish sur'ati va ko'rsatkichlarning o'sishini o'rganishda qo'llaniladi, ya'ni ko'rsatkichlar dinamikasining asosiy tendensiyalari tadqiq qilinadi.


Dinamik taqqoslash o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning vaqtda o'zgarishini o'rganish uchun qo'llaniladi, statik taqqoslash – turli xo'jalik sub'yektlari bir davr bo'yicha ko'rsatkichlar darajasini baholash uchun.

Bir o'lchovli tahlilda bir ob'yektning bir yoki bir nechta ko'rsatkichlar bo'yicha yoki bir nechta ob'yektlarni bir ko'rsatkich bo'yicha taqqoslash bajariladi.

Ko'p o'lchamli qiyosiy tahlil yordamida bir nechta korxonalar (bo'linmalar) keng spektrli ko'rsatkichlar bo'yicha faoliyati natijalar taqqoslanadi.

Solishtirish usulida miqdor ko'rsatkichlari bir-biri bilan o'zaro taqqoslanadi. Tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlar taqqoslashda quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganiladi:

Tahlil ob'yektlari holati to'g'risidagi ma'lumotlar uni ifodalovchi miqdor ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi (2.4-rasm).



2.4-rasm. Miqdoriy ko'rsatkichlari tasnifi.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan solishtirish usulining asosiy turlari.


Taqqoslash (solishtirish) turlari	Taqqoslash maqsadi
1. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini reja ma’lumotlari bilan qiyoslash	Reja bajarish darajasini nazorati va baholash, uni jadallik darajasini, foydalanilmagan ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash
2. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini tasdiqlangan me‘yor va standartlar bilan qiyoslash	Resurslardan tejimli foydalanish nazorati
3. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini o‘tgan yillar ma’lumotlari bilan qiyoslash	Iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari va sur‘atlarini belgilash
4. Tahlilga qilinayotgan korxonaning ko‘rsatkichlar darajasini sohaning etakchi korxonalar faoliyati ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash	Korxonaning raqobatdoshligini baholash va uning faoliyati natijalarini yaxshilash rezervlarini aniqlash
5. Tahlilga tortilgan korxonaning ko‘rsatkichlar darajasini sohaning korxonalar faoliyati o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash	Bozordagi o‘sha sohaning boshqa korxonalari o‘rtasidagi korxonaning holatini aniqlash va uni raqobatdoshligi va tadbirkorlik risklarini baholash
6. Parallel va dinamik qatorlarni qiyoslash	O‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasida aloqa shakllari mavjudligi va yo‘nalishini belgilash

7. Boshqaruv qarorlari turli variantlarini qiyoslash	Qarorning yanada optimal variantini tanlash
8. Qandaydir omil o'zgarishidan avvalgi va keyingi faoliyat natijalarini qiyoslash	Faoliyat natijalari ta'sirchanligiga o'rganilayotgan omillar o'zgarishi darajasini baholash
9. Tadqiq etilayotgan davrda turli ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini qiyoslash	Tahlil qilinayotgan korxonada sharoitida iqtisodiy qonunlar namoyon bo'lishi xarakterini o'rganish
10. Turli davrda bir ko'rsatkichning o'sish sur'atini qiyoslash	Bir soat, smena, ish kuni, yil davomida resurslardan foydalanish to'liqligiga ularning ta'sirchanligini baholash

2.4. O'rtacha miqdorlarni aniqlash usullarini tahlilda qo'llash.

Iqtisodiy tahlilda xususiyydan umumiyga, tasodifdan qonuniyatga o'tishda mutlaq, nisbiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda o'rtacha miqdorlar asosida voqeliklarni o'rganish ham muhim rol o'ynaydi. Chunki, ushbu usulda bir xil turdagi yalpi, ya'ni ko'p sonli iqtisodiy voqeliklar matematik hisob-kitoblar bilan yagona o'rtacha miqdorga keltiriladi.

Bu jarayonda bir turdagi yalpi voqeliklarni o'ziga xos xususiyyati hamda jihatlariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Chunki, voqeliklarni har tomondan bir xil bo'lishi bu borada kelib chiqishi mumkin bo'lgan tasodifiy holatlarning oldini oladi. Natijada, o'rtacha miqdorlarning aniqligi yanada oshadi. O'rtacha miqdorlarni keltirib chiqarishda zaruriyat yoki talabga ko'ra quyidagicha guruxlanadi:



2.5-rasm.O'rtacha miqdorlarning turlari.

O'rtacha arifmetik usulda ko'rsatkichlarni hisoblash:

Oddiy o'rtacha arifmetik

$$\bar{x} = \frac{\sum x}{n};$$

Xodimlarning o'rtacha soni:


$$\frac{1230 + 1520}{2} = 1375 \text{ kishi}$$

Murakkab o'rtacha arifmetik

$$\bar{X} = \frac{\sum xf}{\sum f};$$

Aholining o'rtacha daromadi:

$$\frac{(150 * 3000) + (300 * 2800) + (400 * 2500) + (350 * 4000)}{150 + 300 + 400 + 350} = \frac{450 + 840 + 1000 + 1400}{1200} = \frac{3690}{1200} = 3075 \text{ sum}$$



2.5-rasm. O'rtacha garmonik miqdorlarning turlari va ularni hisoblash.

Bunda ;

\bar{X} -o'rtacha miqdor;

n - o'rtacha aniqlanayotgan ko'rsatkichlar soni;

x - o'rtacha aniqlashga kiritilgan ko'rsatkich ;

$\frac{1}{x}$ o'rtachani aniqlashga kiritilgan ko'rsatkichning teskari miqdori;

ω - ko'rsatkichning salmog'i

Bir gektar erdan olingan mahsulotlarni o'rtacha miqdorini hisoblash.


Yalpi xosil va hosildorlik to'g'risidagi ma'lumotlar.

Mahsulot turi	Yalpi mahsulot	Hosildorlik
A	110	22
B	650	26
V	600	30
Jami	1360	X

O'rtacha hosildorlik ushbu yo'l bilan quyidagicha aniqlanadi:

$$X = \frac{110+650+600}{\frac{110}{22} + \frac{650}{26} + \frac{600}{30}} = \frac{1360}{5+25+20} = \frac{1360}{50} = 27,2 \text{ s.}$$

Bir gektar yerning o'rtacha hosildorligi 27,2 sentnerni tashkil qiladi.



2.6-rasm. O'rtacha xronologik usulda ko'rsatkichlarni aniqlash.

Bunda,

\bar{y} - o'rtacha miqdor;

y - dinamik qatoridagi ko'rsatkich miqdori;

n -dinamik qatorning soni;

t - dinamik qatorni ifodalaydigan davr;

Σ -jamlash belgisi;

2.5. Balans va qayta hisoblash usullardan tahlilda foydalanish.

Balans usuli o'zaro bog'liq va tenglangan iqtisodiy ko'rsatkichlarning ikki guruhi proporsiyalari, nisbatini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu usul buxgalterlik hisobi va rejalashtirish amaliyotida keng tarqalgan. Lekin u iqtisodiy tahlilda ham muayyan ahamiyat kasb etadi, xususan bilan korxonaning mehnat, moliyaviy resurs, xom ashyo, yonilg'i, material, asosiy ishlab chiqarish vositalari va boshqalar bilan ta'minlanganligini tahlilida keng foydalaniladi.

Omillar ta'sirini balans (muvozanat) usuli bilan hisoblash yo'llari

Tovar balansi (muvozanati)-
 $B_k + K_t = S + X_{ch} + O_k;$

Natija va omillar bog'liqligi-
 $S = B_k + K_t - X_{ch} - O_k;$

Birinchi omil ta'siri-
 $\Delta S_{bk} = B_k^h - B_k^r;$

Ikkinchi omil ta'siri-
 $\Delta S_{kt} = K_t^h - K_t^r;$

Uchinchi omil ta'siri-
 $\Delta S_{xch} = X_{ch}^h - X_{ch}^r;$

To'rtinchi omil ta'siri-

$$\Delta Sok = O_k^h - O_k^r;$$

Barcha omillar ta'siri-

$$\Delta S = \Delta Sbk \pm \Delta Skt \pm \Delta Sxch \pm \Delta Sok.$$

2.4-jadval

Nastija o'zgarishga tovar oboroti hajmining o'zgarishiga tovar balansi (muvozanati) ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillarni aniqlash.

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Reja	Hisobotd a	Farqi (+;-)	Omillar ta'siri
1.Tovar zahiralarning boshlan-g'ich qoldig'i (Zyb)	648,0	641,8	-6,2	-6,2
2.Kelib tushgan tovarlar (Kt)	3069,8	3176,1	+106,3	+106,3
3.Tovarlarning har hil chiqib ketishi (Xch)	0,4	0,3	-0,1	+0,1
4.Tovar zahiralarnig oxirgi qoldig'i (Zoh)	695,9	689,9	+3,0	-3,0
5.Tovar oboroti (S)	3021,5	3118,7	+97,2	X

Tovar oboroti 97,2 ming so'mga oshgan. bunga to'rtta omil ta'sir qilgan.

1. Tovar zahiralarning 6,2 ming so'mga kam bo'lganligi tovar oborotini ham 6,2 ming so'mga kamaytirgan:

$$641,8-648,0= - 6,2$$

2. Kelib tushgan tovarlarning 10,3ming so'mga oshganligi tovar oborotini shu miqdorga ko'paytirdi:

$$3176,1-3069,8= +106,2$$

3. Tovarlarning har xil chiqib ketishining 0,1 ming so'mga kamayishi tovar oborotini 0,1 ming so'mga ko'paytirgan:

$$0,4 - 0,3 = + 0,1$$

4. Tovar zahiralarning oxirgi qoldig'i rejaga nisbatan 3,0 ming so'mga ko'paygan. Bu tovar oborotini ham 3,0 ming so'mga kamaytirgan:

$$696,9 - 689,9 = - 3,0$$

5. Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng.

$$-6,2 + 106,3 + 0,1 - 3,1 = +97,2$$

Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini iqtisodiy tahlilning qayta hisoblash yo'li bilan aniqlash

$N = O_1 * O_2;$
<p>Bunda: N - natija, O – omillar.</p>
$\Delta N = N^h - N^{o'} = (O_1^h * O_2^h) - (O_1^{o'} * O_2^{o'});$ <p>Bunda: h – haqiqatdagi davr, o' - o'tgan davr.</p> <p>Qayta hisoblangan natija:</p> $N_{qh} = O_1^h * O_2^{o'};$
<p>Natijaning birinchi omil evaziga o'zgarishi:</p> $\Delta N_{O_1} = N_{qh} - N^{o'} = (O_1^h * O_2^{o'}) - (O_1^{o'} - O_2^{o'});$
<p>Natijaning ikkinchi omil evaziga o'zgarishi:</p> $\Delta N_{O_2} = N^h - N_{qh} = (O_1^h * O_2^h) - (O_1^h - O_2^{o'});$
<p>Natijaga barcha omillarning ta'siri:</p> $\Delta N = \Delta N_{O_1} \pm \Delta N_{O_2}.$

2.5-jadval

Tovar oboroti hajmiga asosiy kapital va ular samaradorligining ta'sirini qayta hisoblash usulini qo'llab aniqlash.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Qayta hisoblangan	Farqi(-: +)		
				jami	AK Ev-aziga	KS Evaziga
Tovar oboroti (ming so'm)	42850,0	44520,0	42636,3	+1670,0	-213,7	+1883,7
Asosiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati (ming so'm)	26664,5	26531,6	26531,6	-132,9	x	x
Asosiy kapitalning samaradorligi, (so'm) (1\2)	1,607	1,673	1,607	+0,071	X	X

Natija 1670,0 ming so'mga oshgan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Asosiy kapital o'rtacha yillik qiymatining 132,9 ming so'mga kamayishi tovar oboroti hajmini 213,7 ming so'mga kamaytirdi

$$42636,3 - 42850,0 = -213,7$$

3. Asosiy kapital samaradorligining hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 7,1 tiyanga oshganligi tovar oboroti hajmini 1883,7 ming so'mga ko'paytirdi.

$$44520,0 - 42636,3 = +1883,7$$

Shu ikki omil ta'sirlari natijaning umumiy farqiga teng:
 $-213,7 + 1883,7 = +1670,0$

2.6. Zanjirli almashtirish usuli va uni tahlilda qo'llash.

Iqtisodiy tahlilda o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkichning o'zgarishi va mazkur o'zgarishni yuzaga keltirgan asosiy omillarning turi hamda ularning alohida olingan ta'sir miqdorlari aniq hisob-kitob qilinadi. Bu bilan natijaviy ko'rsatkichning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qildi hamda ularning har birini ta'sir miqdori qanchani tashkil etdi, degan savollar echim topiladi.

Korxonalar faoliyatlarini tahlil qilish jarayonlarida shu kabi masalalarni hal qilishda zanjirli almashtirish usulidan keng foydalaniladi. Ta'kidlash kerakki, zanjirli almashtirish usulida tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlar o'zaro qat'iy funksional bog'liqlikda bo'lishi talab etiladi. Ya'ni, bir yoki bir necha ko'rsatkich ta'sirida natijaviy ko'rsatkich yuzaga chiqishi kerak.

Zanjirli almashtirish usulida o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir etgan omillarni tartib asosida aniqlashtirilib, har bir alohida olingan omilni o'zining o'zgargan holatini saqlab qolgan holda boshqa omillarni dastlabki holatini shartli o'zgarmas tarzida olib qolib, ya'ni xolislantirib belgilangan matematik amallarni bajarish bilan natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga faqat bir omil (o'zgargan holatdagi omil) ta'siri hisob-kitob qiladi.

Tahliliy ishlarning keyingi jarayonlarida boshqa omillar ham shu tartibda o'rganiladi. Faqat, yakuniy natijaga ta'siri o'rganilgan omil o'zidan keyingi omilni (yoki omillarni) yakuniy natijaga ta'sirini hisoblashda xolislantirilmaydi. Balki, ular haqiqiy o'zgarish holatida olinadi.

Chunki, dastlabki bosqichda ta'siri hisob-kitob qilingan omil (yoki omillar) yakuniy natija o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatib bo'lgan deb qaraladi. Ushbu tartib oxirgi omilning yakuniy natijaga ta'sirini hisob-kitob qilgunga qadar davom etadi.

Shu usulda har bir omil bosqichma-bosqich almashtirilib, ularning yakuniy natijaga ta'sirlari alohida-alohida aniqlanadi. Alohida-alohida hisoblangan ta'sir miqdorlari o'zaro qo'shib yoki ayirilganda (bu holat vaziyatga ko'ra amalga oshiriladi) yakuniy natijani o'zgarish miqdoriga teng bo'ladi. Mana shu tartibdagi hisob-kitoblar zanjirli almashtirish usuliga xos bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi.

Zanjirli almashtirish usuli mohiyatini amaliy nazariy yo'llarini ko'rib chiqib, ularni amaliy ma'lumotlar yordamida hisoblash tartiblarini ko'rib chiqamiz.

Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash.

$$N = O_1 * O_2 * O_3 * O_4 = \prod_{i=1}^4 O_i;$$

Bunda: N – natija; O – omillar; (i=1,n)

P- natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ko'paytirish bo'lganda qo'llaniladigan belgi.

Natijaning umumiy o'zgarishini aniqlash:

$$\Delta N = N_1 - N^r;$$

$$\Delta N O_1 = (O_1^h * O_2^h * O_3^h * O_4^h) - (O_1^r * O_2^r * O_3^r * O_4^r);$$

Natijaga birinchi omil ta'sirini aniqlash:

$$\Delta N o_1 = N o_1 - N^r = (O_1^h * O_2^r * O_3^r * O_4^r) - N^r;$$

Natijaga ikkinchi omil ta'siri aniqlash:

$$\Delta N o_2 = N o_2 - N o_1 = (O_1^h * O_2^h * O_3^r * O_4^r) - N o_1;$$

Natijaga uchinchi omil ta'siri aniqlash:

$$\Delta N o_3 = N o_3 - N o_2 = (O_1^h * O_2^h * O_3^h * O_4^r) - N o_2;$$

Natijaga to'rtinchi omil ta'siri aniqlash:

$$\Delta N o_4 = N o_4 - N o_3 = (O_1^h * O_2^h * O_3^h * O_4^h) - N o_3;$$

Barcha omillar ta'sirining yig'indisi natija umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi:

$$\Delta N = \Delta N o_1 \pm \Delta N o_2 \pm \Delta N o_3 \pm N o_4;$$

**Natijaga omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli
yordamida hisoblash yo'llari.**

Ko'rsatkichlar	Shart- li belgi	Reja da	Haqi- qatda	Zanjirli almashtirish		
				1	2	3
1.Xodimlarnin o'rtacha ro'yxatdagi soni, kishi	X	X ₀	X ₁	X ₁	X ₁	X ₁
2.Har bir hodimga to'g'ri keladigan ish kuni, kun	K	K ₀	K ₁	K ₀	K ₁	K ₁
3.Hodimlarning o'rtacha bir kunlik mehnat unumdorligi, so'm	M	M ₀	M ₁	M ₀	M ₀	M ₁
4.Tovar oboroti, ming so'm	T	T ₀	T ₁	T _x	T _k	T _m

Natija o'zgarishi:

$$\Delta T = T_1 - T_0 = (x_1 * k_1 * m_1) - (x_0 * k_0 * m_0);$$

Natijaga birinchi omil ta'siri:

$$\Delta T_x = T_x - T_0 = (x_1 * k_0 * m_0) - (x_0 * k_0 * m_0);$$

Natijaga ikkinchi omil ta'siri:

$$\Delta T_k = T_k - T_x = (x_1 * k_1 * m_0) - (x_1 * k_0 * m_0);$$

Natijaga uchinchi omil ta'siri:

$$\Delta T_m = T_m - T_k = (x_1 * k_1 * m_1) - (x_1 * k_1 * m_0);$$

Natijaga barcha omillar ta'siri:

$$\Delta T = \Delta T_x \pm \Delta T_k \pm \Delta T_m;$$

2.7-jadval.

Chakana savdo oborotiga aholining soni va ularning pul daromadi bilan bog'liq bo'lgan omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usulini qo'llab yechish yo'llari.

Ko'rsatkichlar	Rejada	Haqiqatda	Zanjirli almashtirish		
			1	2	3
Aholining o'rtacha yillik soni, kishi	50265	50986	50986	50986	50986
Bitta aholiga to'g'ri keladigan o'rtacha pul daromadi, so'm	778,2	781,6	778,2	781,6	781,6
Aholi pul daromadining tovar oboroti bilan qamrash darajasi, %	72,5	76,4	72,5	72,5	76,4
Chakana tovar oboroti, ming so'm	28359,3	30445,9	28766,0	28891,7	30445,9

Natija o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan

1. Aholining o'rtacha yillik sonining 721 kishiga oshganligi tovar oboroti hajmini 406,7 ming so'mga ko'paytirdi $28766,0 - 28359,3 = \pm 406,7$ ming so'm
2. Aholining o'rtacha pul daromadining 3,4 ming so'mga oshganligi tovar oborotini 125,7 ming so'mga ko'paytirdi $28891,7 - 28766,0 = \pm 125,7$ ming so'm
3. Pul daromadining qamralish darajasining 3,9 % ga oshganligi tovar oborotini 1554,2 ming so'mga ko'paytirdi $30445,9 - 28891,7 = \pm 1554,2$ ming so'm
4. Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng $406,7 + 125,7 + 1554,2 = \pm 2086,6$ ming so'm

Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik kasrli bo'lganda zanjirli almashtirish usulidan foydalanish.

$$N = \frac{O_1 * O_2}{O_3};$$

Birinci omil ta'siri:

$$\Delta N_{O_1} = \frac{O_1^h * O_2^r}{O_3^r} - \frac{O_1^r * O_2^r}{O_3^r};$$

Ikkinchi omil ta'siri:

$$\Delta N_{O_2} = \frac{O_1^h * O_2^h}{O_3^r} - \frac{O_1^h * O_2^r}{O_3^r};$$

Uchinchi omil ta'siri:

$$\Delta N_{O_3} = \frac{O_1^h * O_2^h}{O_3^h} - \frac{O_1^h * O_2^h}{O_3^r};$$

Barcha omillar ta'siri:

$$\Delta N = \Delta N_{O_1} \pm \Delta N_{O_2} \pm \Delta N_{O_3};$$

Rentabellik darajasiga foyda, asosiy va aylanma kapitallar o'zgarishi ta'sirin zanjirli almashtirish usullari bilan aniqlash yo'llari.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Zanjirli almashtirish		
			1	2	3
1. Foyda, ming so'm	51,7	62,7	62,7	62,7	62,7
2. Asosiy kapitalning o'rtacha qiymati, ming so'm	985,6	997,2	985,6	997,2	997,2
3. Aylanma kapitalning o'rtacha qiymati, ming so'm	245,0	231,5	245,0	245,0	231,5
4. Rentabellik darajasi, % [1q/(2q + 3q)*100]	4,20	5,10	5,10	5,10	5,10

Natijaga quyidagi omillar ta'siri miqdori hisob kitobi.

1. Foyda summasining 11,0 ming so'mga ko'payishi rentabellik darajasini 0,9%ga oshirgan.

$$5,10 - 4,20 = \pm 0,9 \%$$

2. Asosiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatining 11,2 ming so'mga oshganligi natijani 0,05 % ga kamayishiga olib kelgan.

$$5,05 - 5,10 = - 0,05\%$$

3. Aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati 13,5 ming so'mga kamayganligi rentabellik darajasini 0,05 %ga oshirgan.

$$5,10 - 5,05 = + 0,05\%$$

4. Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng.

$$0,9 - 0,05 + 0,05 = + 0,9\%$$

2.7. Indeks va integral usullaridan iqtisoliy tahlilda foydalanish.

Indeks usuli «Statistika nazariyasi» fanida batafsil yoritilgan. Iqtisodiy tahlil fani buxgalteriya hisobi va statistika fanlari asosida vujudga kelganligini darslikning oldingi boblarida ta'kidlagan edik. Shuningdek, tahlil fani statistika fanining bir qancha usullaridan foydalanadi. Shulardan biri indeks usuli bo'lib, juda ko'p qirrali mavzu.

Indeks usulida juda ko'p qo'llaniladigan bog'lanish: mahsulot hajmining (Q) o'zgarishi uning miqdori (q) va bahosiga (p) bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Mahsulotning rejadagi hajmini ($q_0 \cdot p_0$) va haqiqatdagi hajmi ($q_1 \cdot p_1$) tegishli formulada ifodalab olinsa, uning reja bajarilish indeksi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 * p_1}{\sum q_0 * p_0} ;$$

Mahsulotning hisobot davridagi o'zgarishi mutlaq miqdorini aniqlamoqchi bo'lsak, uning sur'atidan maxrajini ayirish kifoya:

$$\Delta Q = \sum q_1 * p_1 - \sum q_0 * p_0 ;$$

Formuladan ko'rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta'sir qiladi. Bu omillar ta'sirini hisoblash uchun birinchidan, mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini rejadagi (asos yilidagi) narxda ifodalash lozim, $q_1 \cdot p_0$. Natija o'zgarishiga mahsulot miqdorining ta'sirini (ΔQ_q) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Q_q = \sum q_1 * p_0 - \sum q_0 * p_0 ;$$

Mahsulot hajmini baho evaziga o'zgarganligini topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$\Delta Q_p = \sum q_1 * p_1 - \sum q_1 * p_0 ;$$

Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini indeks usuli bilan hisoblash.

$N = O_1 * O_2 * O_3;$	
Bunda: N-natija, O-omillar	
$Jn = io_1 * io_2 * io_3;$	$N = \frac{O_1^h * O_2^h * O_3^h}{O_1^r * O_2^r * O_3^r};$
Natijaga birinchi omil ta'siri: $\Delta N_{O_1} = N^r io_1 - N^r ;$	
Natijaga ikkinchi omil ta'siri: $\Delta N_{O_2} = (N^r * io_1 * io_2) - (N^r * io_1);$	
Natijaga uchinchi omil ta'siri: $\Delta N_{O_3} = (N^r * io_1 * io_2 * io_3) - (N^r * io_1 * io_2);$	
Natijaning umumiy o'zgarishi barcha omillar ta'siriga teng bo'lishi kerak:	
$\Delta N = \Delta N_{O_1} \pm \Delta N_{O_2} \pm \Delta N_{O_3} ;$	
$\Delta N_{O_1} = \frac{O_1^h * O_2^r * O_3^r}{O_1^r * O_2^r * O_3^r};$	
$\Delta N_{O_2} = \frac{O_1^h * O_2^h * O_3^r}{O_1^h * O_2^r * O_3^r};$	
$\Delta N_{O_3} = \frac{O_1^h * O_2^h * O_3^h}{O_1^h * O_2^h * O_3^r};$	

2.9-jadval

Poyafzal mahsuloti bo'yicha tovar oborotiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning individual indekslarini aniqlash yo'li bilan omillar ta'sirini hisoblash usuli.

Ko'rsatkichlar	Asos yilida	Hisobot yilida	Farqi (+, -)	Individual indekslar
1. Aholining soni, ming kishi(a)	10,4	10,9	+0,5	1,048
2. O'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan istemol darajasi juft(i)	2,6	2,9	+0,3	1,115
3. O'rtacha bahosi so'm (r)	36,2	37,4	+1,2	1,034
4. Poyafzal mahsuloti bo'yicha tovar oboroti ming so'm(Q)	978,8	1182,2	+203,4	1,208

Umumiy indeks individual indekslar ko'paytmasiga teng:

$$JQ = ia \cdot ii \cdot ip = 1,048 \cdot 1,115 \cdot 1,034 = 1,208.$$

<p>1. Aholi sonining 0,5ming kishiga oshganligi poyafzal mahsuloti bo'yicha tovar oborotini 47,0 ming so'mga ko'paytirgan</p> $\Delta Q_a = (978,8 \cdot 1,048) - 978,8 = 1025,8 - 978,8 = + 47,0 \text{ ming so'm.}$
<p>2. Aholining o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan istemol darajasining 0,3 juftga oshganligi natijasini 118,0 ming so'mga ko'paytirgan</p> $\Delta Q_i = (978,8 \cdot 1,048 \cdot 1,115) - 1025,8 = 1143,8 - 1025,8 = 118,0 \text{ ming so'm.}$
<p>3. O'rtacha bahoning 1,2 so'mga ko'payganligi natijani 38,4 ming so'mga oshirgan</p> $\Delta Q_p = 1182,2 - 1143,8 = + 38,4 \text{ ming so'm.}$
<p>4. Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:</p> $47,0 + 118,0 + 38,4 = + 203,4 \text{ ming so'm.}$

2.10-jadval

Mahsulot hajmining o'zgarishiga uning miqdori va bahosi ta'sirini indeks usuli bilan aniqlash.

Mahsulot turlari	Miqdori, dona		Bahosi, so'm		Mahsulot hajmi	
	rejada	Haqiqatda	Rejada	Haqiqatda	Rejada	Haqiqatda
A	450	500	15	16	6750	8000
B	230	235	8	6	1840	1410
V	670	710	7	9	4690	6390
Jami:	x	x	x	x	13280	15800

Rejaning bajarilish indeksi = $15800/13280 = 1,190$ yoki 119,0%

Natijaning umumiy farqi $15800 - 13280 = +2520$ so'm

Natija o'zgarishiga mahsulot fizik hajmining ta'siri:

$$\{(500 * 15) + (235 * 8) + (710 * 7)\} / 13280 =$$

$$= (14350 / 13280) = 1,081, \text{ yoki } 108,1 \%$$

Yoki, $14350 - 13280 = +1070$ so'm

Natijaning o'zgarishiga bahoning ta'siri:

$$15800 / 14350 = 1,101, \text{ yoki } 110,1 \%;$$

Yoki, $15800 - 14350 = +1450$ so'm.

Natijaning o'zgarishi shu ikki omil indeksiga teng:

$$1,081 \times 1,101 = 1,190;$$

Natijaning umumiy farqi shu ikki omil farqiga teng:

$$1070 + 1450 = +2520 \text{ so'm};$$

Natijalar o'zgarishiga omillar ta'sirini integral usul bilan aniqlash yo'llari.

$N = O_1 + O_2;$
Natija o'zgarishiga birinchi omil ta'sirini aniqlash:
$DN O_1 = DO_1 * O_2^r + \frac{(DO_1 + DO_2)}{2},$
Natija o'zgarishiga ikkinchi omil ta'sirini aniqlash:
$NO = DO_2 * O_1^r + \frac{(DO_1 + DO_2)}{2},$

2.11-jadval

Yalpi mahsulot hajmiga asosiy fondlar va ular samaradorligining ta'sirini integral usulda aniqlash.

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Reja	Haqiqatda	Farqi (+, -)
Yalpi mahsulot, ming so'm	M	43420	45850	+2430
Asosiy sanoat ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	AF	47115	47825	+710
Fondlar samaradorligi (bir so'm fondga to'g'ri keladigan tovar mahsuloti) tiyin	FS	92,16	95,87	+3,71

Tahlil davrida korxonada yalpi mahsulotning 2430 ming so'mga o'zgarishi ikki omil ta'sirida amalga oshgan.

1. Asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatining 710 ming so'mga ko'payishini evaziga natija 668,5 ming so'mga oshgan

$$\Delta MF = 710 * 92,16 + \frac{710 * 3,71}{2} = +668,51 \text{ ming so'm.}$$

2. Asosiy fondlar samaradorligining 3,71 tiyinga ko'paygani evaziga natija 1761,5 ming so'mga oshgan.

$$\Delta MFS = 3,71 * 47115 + \frac{710 * 3,71}{2} = +1761,5 \text{ ming so'm.}$$

Umumiy natija shu ikki omil ta'siriga teng:

$$668,5 + 1761,5 = +2430,0 \text{ ming so'm.}$$

2.12-jadval

Tovar zaxiralari aylanish tezlanishiga ta'sir etuvchi omillarni integral usul bilan echish yo'llari.

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Reja-da	Haqiqatda	Farqi (+ ; -)
1.Savdo zali xodimlarining mehnat unumdorligi , ming so'm	X ₁	120,5	122,1	+1,6
2.Savdo zali xodimlarining umumiy xodimlardagi ulushi	X ₂	65,2	63,4	-1,8
3.Tovar zaxiralarining xodimlar bilan taminlanganligi, kishi	X ₃	40,5	42,1	+1,6
4.Tovar zahiralarning aylanish tezligi, marta (1q * 2q * 3q)	Y	3,18	3,26	+0,08

Natijalar o'zgarishiga omillar ta'sirini integral usuli bilan aniqlash.

Natijaning ko'payishiga mehnat unumdorligining ta'siri 0,05 martaga teng.

$$\Delta Y_{x_1} = \frac{1}{2} * 1,6 * (65,2 * 42,1 + 63,4 * 40,5) + \frac{1}{3} * 1,6 * (-1,8) * 1,5 = + 4828,7, \text{ Yoki, } 0,05 \text{ marta.}$$

Natija o'zgarishiga savdo zali xodimlari ulushining kamayganligi uni 0,09 marta miqdorda ta'sir etgan, ya'ni uni kamaytirgan.

$$\Delta Y_{x_2} = \frac{1}{2} * (-1,8) * (120,5 * 42,1 + 122,1 * 40,5) + \frac{1}{3} * 1,6 * (-1,8) * 1,5 = -9017,7, \text{ yoki, } 0,09 \text{ marta.}$$

Uchinchi omillarning 1,5 kishiga oshishi natijani 0,12 marta ko'paytirgan.

$$\Delta Y_{x_3} = \frac{1}{2} * 1,5 * (120,5 * 63,4 + 122,1 * 65,2) + \frac{1}{3} * 1,6 * (-1,8) * 1,5 = 11699,0, \text{ yoki } 0,12 \text{ marta}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$0,05 - 0,09 + 0,12 = +0,08 \text{ marta}$$

2.8. Mutlaq (absalyut) va nisbiy farq usullaridan iqtisodiy tahlil jarayonlarida foydalanish.

Iqtisodiy tahlilda natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishiga omillar ta'sirini alohida aniqlash uchun yuqoridagi usullar bilan bir qatorla mutloq va nisbiy farqlar usullaridan ham foydalaniladi.

Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini farqli (mutloq farq) usul bilan hisoblash:

$$N = O_1 * O_2 * O_3;$$

Bunda: N – natija, O – omillar;

Natijaning o'zgarishi:

$$\Delta N = N^h - N^{o'} = (O_1^h * O_2^h * O_3^h) - (O_1^{o'} * O_2^{o'} * O_3^{o'});$$

Bunda: h – haqiqatda , o' – o'tgan davrdagi miqdor.

Natijaning birinchi omil evaziga o'zgarishi:

$$\Delta N_1 = (O_1^h - O_1^{o'}) * O_2^{o'} * O_3^{o'};$$

Natijaning ikkinchi omil evaziga o'zgarishi:

$$\Delta N_2 = O_1^h * (O_2^h - O_2^{o'}) * O_3^{o'};$$

Natijaning uchinchi omil evaziga o'zgarishi:

$$\Delta N_3 = O_1^h * O_2^h * (O_3^h - O_3^{o'});$$

2.13-jadval

Tovar oborotining o'zgarishiga savdo shahobchalari, ularning savdo maydoni va samaradorliginin ta'sirini mutloq farq usuli bilan aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+, -)
1.Savdo shahobchalari soni, birlikda	128	130	+2
2.Bitta savdo shahobchasiga to'g'ri keladigan o'rtacha savdo maydoni, kv.m	4,1	4,5	+0,4
3. Bir kv.m savdo maydoniga to'g'ri keladigan tovar oboroti, ming, so'm	47,34	45,17	-2,17
4.Tovar oboroti, ming so'm, (1q *2q *3q)	24844,0	26424,5	+1580,5

Natijaning 1580 ming so'mga ko'paygani quyidagi omillar evaziga amalga oshgan.

1. Savdo shahobchalari sonini ikkitaga ko'payganligi Tovar oborotini 388,2 ming so'mga ko'paytirdi

$$2 * 4,1 * 47,34 = + 2461,8 \text{ ming so'm.}$$

2. Savdo shahobchasiga to'g'ri keladigan o'rtacha savdo maydonining 0,4 kv.m ko'payishi tovar oborotini 2461,9 ming so'mga oshirgan:

$$130 * 0,4 * 47,34 = + 2461,8 \text{ ming so'm.}$$

3.Savdo maydoni samaradorligining 2,17 ming so'mga kamayganligi tovar oborotini 1268,5 ming so'mga kamaytirdi:

$$130 * 4,5 * (-2,17) = -1269,5 \text{ ming so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng;

$$388,2 + 2461,8 - 1269,5 = 1580,5 \text{ ming so'm.}$$

2.14-jadval

Tovar oboroti hajmiga hodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni va mehnat unumdorligi o'zgarishini ta'sirini mutloq farq usuli bilan aniqlash yo'llari/

Ko'rsatkichlar	Rejada	Haqiqatda	Farqi (+, -);		
			jami	Xodimlar soni	Mexnat unumdorligi
1.Xodimlarning o'rtacha yillik ro'yxatdagi soni, kishi	8038	8057	+19	X	X
2.Mexnat unumdorligi, ming so'm	6282,0	6365,5	+ 83,5	X	X
3.Tovar oboroti, ming so'm (1q* 2q)	50495	51287	+792,0	+119,3	+672,7

Tovar oboroti, yani natija hisobot yilida 792,0 ming so'mga ko'paygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan.

1. Xodimlarning o'rtacha yillik ro'yxatdagi sonining 19 kishiga ko'paygani natijani 119,3 ming so'mga ko'paytirgan:

$$19 * 6282,0 = + 119,3 \text{ ming so'm.}$$

2. Mexnat unumdorligining 83,5 ming so'mga ko'payganligi tovar oborotini 672,7 ming so'mga ko'paytirgan:

$$8057 * 83,5 = +672,7 \text{ ming so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi mumkin:

$$119,3 + 672,7 = +792 \text{ ming so'm.}$$

Natijalar o'zgarishiga omillar ta'sirini nisbiy ko'rsatkichli usul bilan hisoblash

$H = O_1 * O_2;$
Bunda : N – natija, O – omillar
Natijaga birinchi omil ta'siri:
$\Delta N_o = \frac{\Delta O_1^{\%} * 100}{\Delta H^{\%}};$
Natijaga ikkinchi omil ta'siri:
$\Delta N_o = 100 - \frac{\Delta O_1^{\%} * 100}{\Delta H^{\%}};$

Masalan:

Natija 10 % oshgan.

Birinchi omil 3% ($O_1 = 3\%$), ikkinchi 7% ($O_2 = 7\%$) oshgan.

U holda natija birinchi omil evaziga 30 % oshdi:

$$\Delta N_o = 3 * 100 / 10 = 30\%$$

Ikkinchi omil evaziga esa 70 % oshganligini ko'ramiz:

$$\Delta N_o = 100 - 30 = 70\%$$

Barcha omillar ta'siri:

$$30 + 70 = 100\%$$

2.15-jadval

Nisbiy miqdordan foydalanish usulini qo'llab natijaga omillar ta'sirini hisoblash.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	O'sish sur'ati, %
1.Yalpi maxsulot, ming so'm (Q)	29450	30245	102,7
2.Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni, kishi (X)	1980	2010	101,5
3.Mehnat unumdorligi, ming so'm (MU)	14,9	15	100,7

Natija 2,7% oshgan. Bunga ikkita omil ta'sir qilgan.

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining 1,5% ko'payganligi natija o'sish sur'atining 55,6% ni tashkil qiladi.

$$\Delta M_x = \frac{1,5 \cdot 100}{2,7} = 55,6\%.$$

2. Mehnat unumdorligining 0,7% oshganligi natija o'sish sur'atining 44,4% ni tashkil qiladi.

$$\Delta M_{mu} = 100 - 55,6 = 44,4\%.$$

2.9. Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblashda kichik sonlardan foydalanish usuli.

Iqtisodiy tahlilda natijaviy ko'rsatkichlarga baho berish uchun yuqoridagi usullar bilan bir qatorla kichik sonlar usulidan ham foydalaniladi.

Ushbu usul korxonada mavjud bo'lgan ichki imkoniyatlarni axtarib topishda, reja bajarilishi, o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlarning maromiyligini aniqlashda qo'llaniladi.

Ushbu usulda bir qancha ko'rsatkichlar jamlanadi. Natijani solishtirish uchun esa reja yoki haqiqatdagi kichik son olinadi.

Ushbu usulda bir qancha ko'rsatkichlar jamlanadi. Natijani solishtirish uchun esa reja yoki haqiqatdagi kichik son olinadi. Ichki imkoniyat quyidagicha topiladi:

$$J_{im} = Q^r - Q^{qh};$$

Bunda,

J_{im} – Ichki imkoniyat;

Q^r – Reja miqdori yig'indisi;

Q^{qh} – Kichik sonlar yig'indisi.

Maromiylik koeffitsientini aniqlash:

$$K_m = \frac{Q_{iq}}{Q_r};$$

Bunda,

K_m – maromiylik koeffitsienti;

Q_r – Reja miqdori yig'indisi;

Q_{iq} – kichik sonlar yig'indisi.

2.16-jadval

Firma shug'ullanayotgan faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiy natijalar holati.

(so'mda)

Faoliyat turlari	Sotish qiymati	Tan narx xarajatlari	Foyda (zara)	Hisoblangan eng kam xarajati (tan narxi)
1.Kiyim tikish	48530	41371	7159	41371
2.Meva sharbati ishlab chiqarish	22450	23542	-1092	22450
3.Savdo	51230	56213	-4983	51230
4.Maishiy xizmat	4150	3186	964	3186
5.Binolarni ta'mirlash	11342	10111	1231	10111
Jami:	137703	134423	3280	128348

Haqiqiy tannarx bilan zararni inobatga olmagandagi tannarx o'rtasidagi farq:

$$134423 - 128348 = +6075 \text{ so'm.}$$

Agar shu ikkita mahsulot bo'yicha zarar ko'rilmaganda, firmaning umumiy foydasi 3280 so'm emas, balki 9355 so'm bo'lar edi.

$$3280 + 6075 = 9355 \text{ so'm.}$$

U holda foydaning sotilgan mahsulotga nisbati 2,38% emas, balki 6,79% ni tashkil qilar edi. Bu 2,9 marta ko'pdir. (6,79 : 2,38).

$\frac{3280}{137703} * 100 = 2,38\%$	$\frac{9355}{137703} * 100 = 6,79\%$
--------------------------------------	--------------------------------------

2.17-jadval

Firmaning mahsulot ishlab chiqarishi bo'yicha biznes rejasining bajarilishi tahlili.

(ming so'm)

Maxsulot turlari, (nomlari)	Rejada	Haqiqatda	Reja va haqiqatdagi kichik sonlar	Reja-ning bajarilishi
O'simlik yog'i	5000	5000	5000	100,0
Sovun	6000	6100	6000	101,7
Kunjara	7000	6800	6800	97,1
Sariyog'	4000	4150	4000	103,8
Jami:	22000	22050	21800	100,2

Umumiy reja 100,2% bajarilgan.

$$\frac{22050}{22000} * 100 = 100,2\%.$$

Kunjara ishlab chiqarish 2,9% ga (100 - 97,1) kam bajarilganligi umumiy reja bajarilishini 0,9% ga kamaytirgan.

$$\left(\frac{5000 + 6100 + 7000 + 4150}{22000} * 100 \right) - 100,2 =$$
$$= \left(\frac{22250}{22200} * 100 \right) - 100,2 =$$

$$= 101,1 - 100,2 = 0,9\%.$$

Reja bajarilishining maromiyligi 99,1% ni tashkil qiladi:

$$\frac{21800}{22000} * 100 = 99,1\%.$$

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- iqtisodiy tahlil fani metodining tushunchasi;
- tahlil metodining o'ziga xos muhim xususiyatlari;
- iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matematik usullari;
- tahlilning oddiy-an'anaviy usullari;
- taqqoslash usuli;
- guruhlashtirish usuli;
- mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli;
- balansli almashtirish usuli;
- zanjirli almashtirish usuli;

Takrorlash uchun savollar:

1. «Metod» so'zining lug'aviy ma'nosi nimadan iborat?
2. Tahlil fanining metodiga iqtisodchi olimlar qanday ta'rif berishgan?
3. Iqtisodiy tahlil fani metodining o'ziga xos muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Tahlilda qo'llaniladigan usullar qanday guruhlarga ajratib o'rganiladi?

5. Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli va uning mohiyati haqida tushuncha bering.

6. Guruhlashtirish usuli to'g'risida ma'lumot bering.

7. Taqqoslash usuli va uni qo'llash Shartlarini tushuntirib bering.

8. Zanjirli almashtirish usulining asosiy xususiyati nimadan iborat?

9. Balansli almashtirish usulini tahlil jarayonlarida qo'llashning afzalliklarini ko'rsatib bering.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq

Tahlil jarayonida iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy va iqtisodiy matematik usullarini qo'llashning afzalliklarini ko'rsatib bering. Qaysi usullardan foydalanilsa, korxonada uchun samarali natijalar beradi.

2-topshiriq

Quyidagi ma'lumotlardan foydalangan holda tahlilning zanjirli almashtirish usulini qo'llab, korxonadagi material xarajatlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang ham xulosa va takliflaringizni bayon eting.

Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	Farqi
1	2	3	4
1, Bir birlik mahsulotga sarflangan material miqdori, kg	30	32	?
2. 1 kg. Material qiymati, so'm	920	900	?
3. Bir birlik mahsulotga sarflangan jami material xarajati, so'm	?	?	?

3-topshiriq.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida guruhlashtirish usulini qo'llab, 4 ta guruh asosida mashinalarning paxta terish darajasini tahlil qiling hamda xulosa yozing.

Mashinalar-ning raqamlari	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Bitta mashina tergan paxta, tonna	210	200	190	220	215	208	180	195	218	187

4-topshiriq.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida balansli almashtirish usulini qo'llab, mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiling hamda xulosa yozing.

№	Ko'rsatkichlar	Shart - li belgi	Hisobot yili		Far-qi (+,-)	Mahsulot sotish hajmiga ta'siri (+,-)
			Biznes reja bo'yicha	Haqiqatda		
1	2	3	4	5	6	7
1.	Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i	Yb	41418,3	38416,7		
2.	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot	TM	3418716,3	3416816,3		
	jami (1 satr+2 satr)					
3.	Sotilgan mahsulot	SM	?	?		x
4.	Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i	Yo	23318,2	15514,9		
	jami (3 satr+4 satr)					

Test savollari:

1. Iqtisodiy tahlil fani metodining o'ziga xos jihati

- A. Ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish
- B. Metofizika
- C. Dunyoqarash
- D. Hammasi to'g'ri

2. Tahlil uchun kerak bo'lgan ko'rsatkichlar turi hamda miqdori

- A. O'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning mazmuniga, hajmiga, davriga bog'liq
- B. O'rganilayotgan iqtisodiy jarayonga aloqasi yo'q
- C. O'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning shakliga bog'liq
- D. Foydaga bog'liq

3. Iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos jihatlaridan biri

- A. Tahlil natijasida avvaldan mo'ljallanmagan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin
- B. Tahlil natijasida avvaldan mo'ljallangan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin emas
- C. Mavjud ko'rsatkichlar yetarli
- D. Mavjud formulalar yetarli

4. Odatda tahlil bilan boshlanadi

- A. Taqqoslash
- B. O'zgarish
- C. Rivojlanish
- D. Hech narsa bilan

5. Balansli almashtirish usulida ko'rsatkichlar bir-biri bilan bog'liqlikda bo'lgandagini to'g'ri natija beradi

- A. funksional
- B. teskari
- C. kichikdan kattaga
- D. ozdan ko'p tomon

6. Tahlilda o'zgarish sabablari... ko'rinishida yuzaga chiqadi

- A. sifat
- B. shakl
- C. omillar
- D. yuzaga chiqmaydi

7. Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri....

- A. Sabab-oqibat aloqalarini o'rganish
- B. Sabab-oqibat aloqalarini o'rganish zarur emas
- C. Evristikani o'rganish
- D. Evristikani o'rganmaslik

8. Tahlilda tizimli yondashuvning asosiy xususiyati....

- A. Dinamizm
- B. Statika
- C. Dogmatika
- D. Egoizm

9. Tahlil instrumentariysi...

- A. Tahlilning texnik uslublari va usullari
- B. Uslubiyat
- C. Tamoyil
- D. Fikrlash

10. Tahlil fanining metodiga qaysi javobdagi ta'rif mos keladi?

a) Iqtisodiy adabiyotlarda tahlil fanining metodini korxonalar (firma), tashkilot, muassasa, birlashma va hokazolarning xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi va rivojlanishini o'rganishdagi materialistik-dialektik yondashish usullariga aytiladi deb ta'rif berilgan;

b) Iqtisodiy adabiyotlarda tahlil fanining metodini korxonalar (firma), tashkilot, muassasa, birlashma va hokazolarning xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi va rivojlanishini o'rganishdagi idealistik yondashish usullariga aytiladi deb ta'rif berilgan;

c) Tahlil fanining metodi deb, hodisa va jarayonlarni o'rganishga ijodiy yondoshish tushuniladi;

d) Tahlil fanining metodi deb, hodisa va jarayonlarni o'rganishga tizimli yondoshish tushuniladi;

11. Taqqoslash usulini qo'llashdagi e'tiborga olinadigan talablar qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan?

a) Taqqoslab o'rganishi lozim bo'lganko'rsatkichlarning aniqlanish usuli aynan bir xil bo'lishi kerak; Bir xil bahoda hisoblangan ko'rsatkichlarga taqqoslanishi lozim; Reja topshiriqlarining bajarilishi og'irligi mos kelishi lozim;

b) O'rganiladigan davrlar bir xil bo'lishi lozim; Korxonaning joylanishi va iqlim Sharoiti teng darajada hisobga olinishi lozim; Ko'rsatkichlari taqqoslanuvchi korxonalarining ixtisoslashuvi, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va xo'jalik yo'nalishlari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak;

c) O'rganiladigan ob'yektlar soni hech mos bo'lishlik Sharti; Texnik xavfsizlik va ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha tadbirlar bilan bog'lanib ko'rsatkichlarni solishtirish; Ijtimoiy ishlab chiqarish turlari xususiydami yoki davlat korxonasidami albatta hisobga olinishi lozim;

d) Noto'g'ri javob yo'q.

12. $J_{qp} = \sum q_1 p_1 / \sum q_0 p_0$ Ushbu formuladan qaysi usulda foydalaniladi?

a) Zanjirli almashtirish usuli;

b) Mutloq va nisbiy farqlar usuli;

c) Indeks usuli;

d) Balansli almashtirish usuli.

3-BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLARDA TAHLIL ISHLARINI TASHKIL QILISH VA TAHLILNI MANBALAR BILAN TA‘MINLASH

3.1. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etishning zaruriyati va tamoyillari.

Bozor iqtisodiyoti – bozorning o‘ziga xos qonunlari, funksiyalari va vazifalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarning alohida shakli ekanligi sababli ishlab chiqaruvchilar yoki xaridorlar, mavjud tarkib topgan tizimda talab va taklif, pul muomalasi, raqobat, inqiroz va shu kabi tomonlarga moslashib, o‘z faoliyatini amalga oshirishi shart. Bu esa ularni mazkur sharoitda yashab qolish yoki rivojlanishini ta‘minlaydi. Aks holda, ular o‘zlari oldiga qo‘yilgan maqsadga erisha olmay bozor munosabatlarida o‘rinlarini yo‘qotadilar.

Demak, korxonalar bozordagi mavjud holatni va o‘zlaridagi ichki imkoniyatlarni chuqur o‘rganmay turib faoliyatlarini amalga oshira olmaydilar yoki qo‘yilgan maqsadga erisha olmaydilar.

Bozor munosabatlarida korxonalar faoliyatini boshlashi yoki davom ettirishidan oldin, dastavval uning va o‘zining barcha holat va imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga majbur. Iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish boshqaruv apparati tarkibi va texnik darajasi bilan izohlanadi.

Yirik ishlab chiqarish korxonalarida hamma iqtisodiy bo‘limlar faoliyatini iqtisodiy masalalar bo‘yicha direktor muovini yoki bosh iqtisodchi boshqaradi. U korxonada barcha iqtisodiy ishlarni, shu jumladan iqtisodiy tahlilni ham tashkil qiladi. Uning boshqaruvida iqtisod va ishlab chiqarishni tashkil qilish bo‘limi, reja-iqtisod bo‘limi, mehnatni tashkil etish va ish haqi bo‘limi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy bo‘lim va boshqa bo‘limlar bo‘ladi. Korxonada alohida tarkibiy tuzilish bo‘linmasida bo‘lim yoki iqtisodiy tahlil guruhi tahlil ishlarini olib boradi. O‘rta yoki kichik

korxonalarda analitik ishni reja bo'limining menedjeri yoki bosh buxgalter boshqaradi.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish qabul qilingan qarorlarning:

- maqsadga muvofiqligi :
- asosliliigi;
- o'z vaqtidaligi kabi holatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Tahlil natijalari ijobiyligini ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatini tahlil qilishni amalga oshirishda esa quyidagi tartib va qoidalarga rioya etish talab etiladi.

Tahlilni tashkil etishga qo'yiladigan talablar:
--

- | |
|--|
| • <i>ilmiy asoslanganlik;</i> |
| • <i>tahliliy ishlarni muvofiqlashtirish;</i> |
| • <i>tahlil ishlari bosqichlarini belgilash;</i> |

Tahlilni ilmiy asoslanganligi:

- | |
|---|
| • <i>tahlilni fanning eng so'ngi yutuqlari va yangi texnologiyalar asosida o'tkazish;</i> |
| • <i>tahlilni iqtisodiy qonunlar asosida aniq korxonada doirasida o'tkazish;</i> |
| • <i>tahlilni o'tkazishda ilmiy jihatdan asoslangan usullarni qo'llash;</i> |
| • <i>tahlil jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan uslubiyotlarni qo'llash.</i> |

Tahliliy ishlarni muvofiqlashtirish:
• <i>tahliliy ishlarini amalga oshirishda xizmat taqsimotini asosiligi;</i>
• <i>tahliliy ishlarni samaradorligi (kam xarajatlilikgi);</i>
• <i>tahliliy ishlarni reglamentlashtirish;</i>
• <i>tahliliy ishlarni soddalashtirish.</i>

3.2. Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarda tahlil ishlarini tashkil qilish bosqichlari.

Iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashib borishi va bozorda raqobatlarini kuchayishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Chunki mulkdor iqtisodiyot jarayonida asosiy sub‘yekt sifatida ishtirok etadi. U o‘z mulkining ko‘payishidan, ko‘proq foyda olishidan manfaatdor. Mulkdorning manfaatdorligi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar barcha ishtirokchilariga ham taalluqli hisoblanadi.

Shu bois tadbirkordan o‘z navbatida mulkining holati, ishlatilishi va saqlanishini doimiy ravishda tahlil qilib borilishi zarurligini taqozo etadi.

Mulkdor o‘z mulkini ishlatish uchun turli korxonalariga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarini, xodimlarni yollashiga to‘g‘ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil etadi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta‘minlaydi. Mehnat jamoyasi o‘zi ishlayotgan korxonaga xo‘jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoasi uchun ham kerak ekan.

Har bir korxonaning xo‘jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxonaga o‘z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq to‘laydi. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham korxonaga faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor. Demak, iqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham kerak ekan.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi deyarli hamma mutaxassislar shug'ullanadi. Ammo hammasi ham korxonaga to'g'risida jamlangan batafsil axborotga ega emas. Hamma o'zi bajarayotgan u yoki bu soha bo'yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o'zining sohasini muntazam tahlil qilib boradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi bartaraf etilayotgan sharoitda xo'jalik aloqalarining yana kuchayishi, ishlab chiqarish sur'atlarining muntazam o'zgarib turishi sodir bo'layotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishga har tamonlama yondashishni taqozo etadi. Shu ma'noda kompleks iqtisodiy tahlilning mazmunini korxonani keng qamrovli tarzda o'rganish asosida, faoliyatdagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik jihatlarni ko'rib chiqib, mavjud resurslardan imkon qadar samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilab berish maqsadida faoliyat natijaviyligini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Korxonaga faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish quyidagi bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Iqtisodiy tahlil qilish bosqichlari ketma-ketligi:
• <i>tahlil ob'yekti va maqsadlarini aniqlash;</i>
• <i>tahlilni tashkil etishni uslubi va vazifalar taqsimotini tanlash;</i>
• <i>tahliliy ishlarni rejalashtirish;</i>
• <i>tahlilni axborot va uslubiy ta'minotini belgilash;</i>
• <i>ma'lumotlarni qayta ishlash;</i> • <i>tahlil natijalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish va chora-tadbirlar belgilash;</i>
• <i>belgilangan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish.</i>

**Tahlil ishlarni amalga oshirish bosqichlari vazifalari
tasnifi:**

Bosqichlar	Bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar
Birinci bosqich	Tahlilning ob'yekti va maqsadi aniqlanadi. Korxonada faoliyati tizim ko'rinishida resurslar ta'minoti, ishlab chiqarish va tayyor mahsulot kabi elementlar yig'indisidan tashkil topadi. Maqsad esa samaradorlikni ta'minlash. Tahlil maqsadi asosida vazifalari tarkibi belgilab olinadi.
Ikkinchi bosqich	Tahlilni amalga oshirish tartiblari, va o'rganilayotgan ob'yektni tahlil qilish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrochilari belgilanadi.
Uchinchi bosqich	Tahlilni amalga oshirish rejasi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Ko'rsatkichlar hamda omillar asosida kompleks iqtisodiy tahlilning umumiy blok-chizmasi tuziladi.
To'rtinchi bosqich	Tahlilni axborot manbalari aniqlanib, korxonada faoliyatini ifodalovchi barcha ma'lumotlar tanlab olinadi. Jamlangan ma'lumotlarni o'rganish uslubiyoti belgilanadi.
Beshinchi bosqich	Tahlil uchun jamlangan ma'lumotlar qayta ishlanib, iqtisodiy tahlil uchun tayyorlanadi. Iqtisodiy tahlil usullari yordamida jamlangan axborotlar asosida tahliliy ishlar amalga oshiriladi. Samaradorlikni oshirish imkoniyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Oltinchi bosqich	Iqtisodiy tahlil ishlari natijasida korxonalar samaradorligini oshirish imkoniyatlari asosida yakuniy moliyaviy natijani yaxshilash chora-tadbirlari, ular ijrosini ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqiladi
Yettinchi bosqich	Korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tahlilning oltinchi bosqichida belgilangan vazifalar ijrosi nazorat qilib boriladi. Rejaga muvofiq har bir tadbir ijrosi bo'yicha ijrochi hisoboti eshiting boriladi.

Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi.

Korxonalar faoliyatini tahlil qilish bo'yicha kompleks va mavzuli rejalar tuziladi. Kompleks reja odatda bir yil uchun tuziladi va tahliliy ishlar ushbu rejada belgilangan tartiblarda amalga oshiriladi. Mavzuli reja aniq bir ob'yekt yuzasidan qisqa muddatli tahlil uchun tuziladi.

Kompleks rejada:
• <i>tahlilning maqsadi va vazifalari;</i>
• <i>davriyligi;</i>
• <i>axborot manbalari va ularni ta'minlash uchun mas'ul shaxslar;</i>
• <i>tahlilni o'tkazish uchun mas'ul shaxslar;</i>
• <i>tahlil natijalari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi masalalar qamrab olinadi.</i>

Mavzuli rejada:
• tahlilning ob'yekti va uning hajmi;
• tahlilning maqsadi;
• tahlilning vazifalari;
• tahlilni o'tkazish bosqichlari va uning uchun mas'ul shaxslar belgilanadi.


3.3. Iqtisodiy tahlilning axborot ta'minoti tizimi va uning ahamiyati.

Tahliliy ishlarning natijasi asosan uning informatsion hamda uslubiy ta'minotiga bog'liq. Iqtisodiy tahlilning ma'lumot manbalari reja, hisob va boshqa manbalarga bo'linadi.


Iqtisodiy tahlilning axborot ta'minoti tizim.

Axborot manbalari turlari:

- Reja;
- Hisob;
- Boshqa manbalar.



3.1-rasm. Hisob toifasi tizimidan olinadigan ma'lumotlar.



3.2-rasm.Rejaviy manbalardan olinadigan ma'lumotlar manbalari.

**Hisob toifasi tizimidan olinadigan ma'lumotlar:
Iqtisodiy tahlilning boshqa axborotlarmanbalari tizimi:**

• <i>qonunlar;</i>
• <i>darmonlar;</i>
• <i>boshqa me'yoriy hujjatlar;</i>
• <i>farmoyish va buyruqlar;</i>
• <i>ta'sichilar umumiy yig'ilishi, mehnat jamoasi va boshqa yig'ilishlar qarorlari.</i>

3.4.Tahlilining axborot manbalariga qo‘yiladigan talablar.

Iqtisodiy tahlil jarayonida turli xil axborotlar hamda ma'lumotlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning to'g'ri, aniq, ishonchli bo'lishi hamda o'z vaqtida olinishi tahlil natijalarining samaradorligini oshiradi.

Iqtisodiy ma'lumotlarni aksariyat qismini hisob tizimi axborotlari tashkil etadi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari esa iqtisodiy tahlilning axborotlari tarkibida yirik salmog'ni egallaydi.

Axborot va ma'lumotlar mazmuniga ko'ra turli xil bo'lishi, ularning manbalariga ham ta'sir etadi. Chunki, har bir ma'lumot miqdor va mazmunini shakllantirib bera oladigan manbadan olinadi. Demak, manbalar tasnifi ham mazmun tasnifiga o'xshashdir.

Tahlil uchun zarur manbalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- haqqoniy va xolis bo'lishi;
- manbalar tahlil maqsadlari uchun moslashtirilgan hamda keng imkoniyatli bo'lishi, ya'ni reja, hisob va statistik malumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi;
- iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o'lchamlarda aks ettirishi;
- barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligi saqlaniladi hamda ulardagi axborotlar bir-birini to'ldirib turishi;
- manbalardagi ko'rsatkichlarni aniqlanish tamoyillari va aks ettiriladigan davrlari mosligi ta'minlanishi zarurdir.

Ushbu talablarga javob beruvchi barcha axborot manbalari va ulardan foydalanish tahlil natijalarining aniq va samarali hamda haqqoniyligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan barcha manbalarni ishonchliligini, aniqliligini va to'g'riligini tekshirish natijalarning samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Barcha yig'ma ma'lumotlarni


har tomonlama to'g'riligi texnik va mazmunan turlar ajratilib tekshiriladi.

Texnik tekshirish - axborot manbalarini arifmetik jihatidan to'g'riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko'rsatkichlarni bir-biriga o'zaro mos kelishini e'tiborga olgan holda o'rganishdir.


Mazmun jihatidan tekshirish – ma'lumotlarning haqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan ko'rsatkichlarning haqiqatda mavjudligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunday tekshirish buxgalteriya hisobi hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarni inventarizatsiya o'tkazish orqali taqqoslash, sanab ko'rish va o'lchash yo'li bilan to'g'riligiga ishonch hosil qilishdir.

Iqtisodiy tahlil jarayonlari axborotlari yuqorida qayd etilganlar bilan birga quyidagi talablarga ham javob berishi shart hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilda axborotlarga qo'yiladigan talablar:
• <i>axborotni haqqoniyligi;</i>
• <i>axborotni bir xilligi;</i>
• <i>axborotni tezkorligi;</i>
• <i>axborotni taqqoslanishi.</i>






3.3-rasm. Korxonahisobotining tuzilishi va undan foydalanuvchilar tarkibi.




3.4-rasm. Moliyaviy va boshqa hisobotlarni tuzish va foydalanishda qo'llaniladigan tamoyillar.

Korxonada xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy tashxis qo'yishda qo'llaniladigan buxgalteriya hisobotlari manbalari va ular ularni jamlash asosida tahlil uchun yitkazish mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun 2002 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan quyidagi moliyaviy hisobotlar hisoblanadi.



5- Shabl. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot



O'rganib chiqish jaryoniga nisbatan ma'lumotni birlamchi ma'lumot (birlamchi hisob, inventarizatsiya, kuzatish ma'lumotlari) va ma'lum bir o'rganish va o'zgarish jarayonini o'tgan ikkilamchi ma'lumotga (hisobot va shu kabilar) ajratish mumkin.

Tahlilning informatsiya ta'minotini amalga oshirishda bir qator talablar qo'yiladi, ya'ni ma'lumotning analitik ekanligi, uning haqiqiyliigi, tezkorligi, taqqoslana olishi, ratsionalligi va boshqalar.

Ma'lumotning analitik ekanligi butun iqtisodiy ma'lumot iqtisodiy tahlil talablariga javob berishi kerakliginin bildiradi, ya'ni ma'lumotlarning aynan sohalar faoliyati va iqtisodiy jarayonni har tomonlama o'rganish uchun zarur bo'lgan detallashtirilgan holda kelib tushishini ta'minlash, ular asosida asosiy omillarning ta'sir qilishini aniqlash va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish uchun ichki xo'jalik zaxiralarini o'rganish imkoni bo'lishi lozim. Shuning uchun iqtisodiy tahlilning hamma infomatsiya ta'minoti boshqaruv talablariga asosan doimo mukamallashtirilib borilishi lozim.

Iqtisodiy ma'lumot haqiqiy holatga mos bo'lishi hamda tadqiqot jarayonini ob'yektiv aks ettirishi kerak. Aks holda tahlil natijasida qilingan xulosalar, amaliyotga to'g'ri kelmaydi, tahlilchilar tomonidan ishlab chiqilgan takliflar esa nafaqat korxonaga kerakli bo'lishi, balki unga ziyon keltirishi ham mumkin. Shuning uchun tahlil uchun yig'ilgan ma'lumot yuqori sifatli bo'lishini tekshirish lozim.

Amalga oshirilgan xo'jalik jarayonlari haqidagi ma'lumotlar qanchalik tez etkazib berilishi, tahlilni ham Shunchalik tezkor o'tkazish mumkinligini, kamchiliklarni, yo'qotishlarni aniqlash va ularni o'z o'rnida bartaraf etishni bildiradi. Ma'lumotni operativligini oshirish yangi muloqot vositalaridan foydalanish, ularni EHM amalga oshirish hisobiga erishiladi.

Ma'lumotning sifatiga beriladigan talablardan biri uni tadqiqotning predmeti va ob'yektiga, ma'lum bir muddatga, ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va boshqa bir qator belgilarga taqqoslanishini ta'minlashdir. Oldindan ko'rsatkichlar taqqoslanishi ta'minlangan bo'lsa, u holda tahlil ancha kam mehnat talab qiladi. Buning uchun butun raqamli ma'lumotning sifatligi tekshirilganidan so'ng, u ko'rib chiqilgan qo'llanishlarni ishlatib ma'lum bir ko'rinishga keltiriladi.

Informatsion bazani shakllantirishda tahlil qilish uchun ma'lumotlarni onsonlashtirish maqsadga muvofiq. Analitik tadqiqot ko'p holda bashorat tavsifiga ega bo'lib, buxgalter hisobotidagi kabi aniqlikni talab qilmaydi. Xo'jalik sub'yektlari faoliyatiga beriladigan umumiy bahoni onsonlashtirish maqsadida birlamchi ma'lumotlar ko'pincha o'rta va nisbiy ko'rsatkichlar darajasida ko'rsatiladi.

Va nihoyat, ma'lumot tizimi ratsional bo'lishi kerak, ya'ni ma'lumotni yig'ish, saqlash va ishlatish uchun ketgan vaqtni kamaytirish lozim. Bir tomondan, iqtisodiy jarayonini kompleks tahlil qilish uchun har tomonlama ma'lumot talab qilinadi. Agar, bunday imkoniyat mavjud bo'lmasa tahlil to'liq bo'lmaydi.

Boshqa tomondan, ortiqcha ma'lumot uni qidirish, yig'ish va qaror qabul qilish jarayonini uzaytiradi. Ushbu talabdan, ma'lumotni foydaliligini tekshirish zarurligi, hamda keraksiz ma'lumotlarni chiqarish va kerakli ma'lumotlarni kiritish asosida ma'lumotlarni takomillashtirish mumkinligi kelib chiqadi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilni samaradorligini ta'minlashda zaruriy shartlardan biri bo'lgan, iqtisodiy tahlil ma'lumot tizimi yuqorida qayd etilgan talablarga muvofiq shakllanishi va takomillanishi shart.

Tahlilni amalga oshirishda uning uslubiy ta'minoti ham alohida o'ringa ega. Korxonada qanday tahlil uslubi qo'llanilishiga qarab, uning natijasini aniqlash mumkin. Tahlilning uslubiy ta'minoti bo'yicha mas'uliyat odatda, korxonada analitik ishni boshqaradigan mutaxassisga yuklatiladi. U doimiy ravishda iqtisodiy tahlil metodikasini tahlil sohasidagi tajriba va ilm-fan taraqqiyotini o'rganish asosida takomillashtirishi hamda ularni korxonaning har bir segmentida joriy etish, tahlil bo'yicha kadrlarni tayyorlashi va qayta tayyorlash ishlarini amalga oshiradi.

3.5. Tahliliy ishlarni yakunlash va rasmiylashtirish.

Korxonada amalga oshirilgan iqtisodiy tahlilnatijalari ma'lum bir tarzda rasmiylashtirilishi zarur. Tahlil natijalarini rasmiylashtirish uni ixcham va sodda tarzda foydalanuvchiga etkazib berishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda axborotlar ma'lum bir talablar asosida ixchamlashtirilishi zarur. Ushbu talablarga rioya etilishi tahlil natijasi haqqoniyligini ta'minlaydi.

Korxonada va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati tahlilining natijalari analitik mavzular yoki xo'jalikni yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida ifoda etiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o'tkazganligiga qarab bajariladi. Misol uchun,

korxonalarining yillik hisoboti asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati yozish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarni ma'ruzasi, korxonah rahbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni, audit xulosalari orqali umumlashtirilishi mumkin.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda albatta erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda va faktlar bilan ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni takliflar ham ko'rsatiladi.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishga korxonaning umum majlis materiallari, turli xil diagramma, jadval va grafiklar tuzib mehnatkash ommaga ko'rsatma sifatida osib qo'yish, oynoma va ro'znoma sahifalarida ma'lumotlarni chop etish, axborot doskalaridagi ko'rsatkichlarni e'lon qilib borish ham hisoblanadi.

Korxonah yoki uning bo'limlari faoliyati bo'yicha qilingan analitik tadqiqotning turli xil natijalari tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Tahlil natijalari hujjatlari:

- Tushuntirish;
- Ma'lumotnoma;
- Xulosa.

Tushuntirish - odatda tashqi foydalanuvchilar uchun yoziladi. Tahlil natijalari ichki xo'jalik ishlarida foydalanish uchun yo'naltirilgan bo'lsa, ular ma'lumotnoma yoki xulosa ko'rinishda rasmiylashtiriladi.

Tushuntirish tarkibi to'liq bo'lishi kerak. Avvalambor, u korxonah rivojlanishining iqtisodiy darajasini namoyon qiladigan, xo'jalik yuritishning shartlarini, korxonah baho siyosatining tavsifi, mahsulotning raqobatdoshligi, mahsulotlarni xarid qilish bozorlarining kengligi, mahsulotlarning bozordagi o'rni, korxonah mavqei kabi umumiy savollarni qamrab olishi kerak.

Shuningdek, hisobotda bozordagi har bir mahsulotning hayotiy holati, real hamda potensial raqobatchilarni, ular biznesining kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'rsatib tavsiflash lozim.

Bundan keyin korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarini tavsiflovchi, mulkiy va moliyaviy holatini, natijalarning samaradorligini, rivojlanish holati kabi ko'rsatkichlar dinamikasini ifodalab berishi kerak. Shuningdek, pul oqimlari, moliyaviy natijalar va asosiy tomonlarga ta'sir ko'rsata oladigan korxonaning hisob siyosatidagi o'zgarishlarini ochib berish kerak.

Tushuntirish hisobot davri mobaynidagi korxonada faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari ko'rsatiladi hamda ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadigan ob'yektiv va sub'yektiv, ichki va tashqi omillar tushuntirib beriladi. Yana, mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltiriladigan hamda yaqin va uzoq muddatda korxonada faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida qilinadigan ishlar ko'rsatib beriladi.

Tushuntirish analitik qismi aniq va asoslangan bo'lishi shart. U analitik hisobotlardan, kerakli ma'lumotlar yig'ilgan jadvallardan, grafika va diagrammalardan iborat bo'lishi mumkin. Uni rasmiylashtirishda tahlil natijalari asosida qilingan taklif va xulosalarga alohida e'tibor qaratish lozim. Ular har tomonlama asoslangan va korxonada faoliyati natijalarini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tahlil natijasida qilingan ma'lumotnoma yoki xulosalar mazmuni tushuntirish xatidan farqli ravishda ko'proq aniqlashtirilgan, kamchilik yoki muvafaqqiyatlarni kamroq hajmda tartib bilan ko'rsatadigan, aniqlangan ma'lumotlarni qo'llaydigan bo'lishi mumkin. Unda korxonada umumiy tasnifi va uning faoliyatiga sharhlari yozilmaydi.

Tahlil natijalari analitik jadvallar, grafikalaridan tashkil topishi, ham mumkin. Bunday hollarda analitik jadvallar va grafikalar sistematizatsiyalashga, o'rganilayotgan materialni

umumiylashtirishga va uni qabul qilish uchun oson bo'lgan ko'rinishda taqdim etiladi. Jadvallar tuzilishi belgilangan vazifadan kelib chiqib turli xilda bo'lishi mumkin. Ular tahlil talablari asosida tuziladi. Analitik jadvallardagi ko'rsatkichlarni shunday tartibda joylashtirish lozimki ular bir vaqtda ham analitik ham iliustratsiya materialini tarzida ifoda etishi lozim.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- iqtisodiy tahlilning asosiy qoidalari;
- tahlilni tashkil etish shakllari;
- tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari;
- iqtisodiy tahlilni rejalashtirish;
- tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo'jalik sub'yektlari faoliyatini tahlil etishning zaruriyati va asosiy qoidalari nimalardan iborat?
2. Korxonada iqtisodiy tahlilning ijrochilari tarkibiga kimlar kiradi?
3. Iqtisodiy tahlil qanday bosqichlarda tashkil etiladi?
4. Tahlil o'tkazish dasturi va rejasini tuzib olish bosqichida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
5. Tahlil natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlarini va uning tarkibini izohlang.

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlari	Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish bosqichlarining tarkibi
1.	A) B)
2.	

2-topshiriq.

Iqtisodiy tahlilning axborot manbalarini va ularga qo'yiladigan talablarni ko'rsatib bering.

Iqtisodiy tahlilning axborot manbalari	Iqtisodiy tahlilning axborot manbalariga sharh bering	Iqtisodiy tahlilda axborotlarga qo'yilgan talablar	Iqtisodiy axborotlarni to'g'riligini tekshirish usullari
1.			
2.			

Test savollari:

1.Iqtisodiy tahlilni tashkil qilish va o'tkazish jarayonlari talablari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

A.Majburiyatlarni taqsimlanishi va tahlil natijasi samarali bo'lishi, ma'lumotga bo'lgan ehtiyojlarni to'la qondirilishi, tahlil ishlarini reglamentatsiyalash va unifikatsiya qilish;

B.Tahlil o'tkazish dasturi va rejasini tuzib olish; tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;

C.Tahlil natijalarini korxonada amaliyotiga joriy qilish;

D.Ma'lumotga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirish; tahlilda foydalaniladigan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish.

2.Iqtisodiy tahlil o'tkazishda tuziladigan rejalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

A.Korxonada analitik ishining kompleks rejasini, mavzuga oid reja;

B.Iqtisodiy tahlil o'tkazishda kompleks rejadani foydalanadi;

C.Iqtisodiy tahlil o'tkazishda mavzuga oid rejadani foydalanadi;

D.Iqtisodiy tahlilda shaxsiy rejadani foydalanadi.

3. Iqtisodiy tahlilning ma'lumot manbalari quyidagilarga bo'linadi:

- A. Me'yoriy-rejali, hisob va hisobdan tashqari;
- B. Iqtisodiy, huquqiy-me'yoriy;
- C. Ilmiy-texnikaviy;
- D. Tabiiy-ekologik.

4. Iqtisodiy tahlilni o'tkazishdagi ketma-ketlik qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Ma'lumot to'plash va qayta ishlash, tahlil, takliflar bildirish;

B. Tahlil o'tkazish rejasini tuzish va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;

C. Tahlil o'tkazish rejasini tuzish, ma'lumot to'plash, tahlil, o'zgarishlarni aniqlash, takliflar bildirish va natijalarni korxonaga amaliyotiga tadbiq etish;

D. Ma'lumot to'plash, tahlil va echimini aniqlash.

5. Korxonaning me'yoriy rejali ma'lumotlar manbalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Korxonaga tomonidan ishlab chiqariladigan barcha rejalar;

B. Perspektiv, operativ, texnologik xaritalar;

C. Me'yoriy hujjatlar, smetalar, proekt vazifalar;

D. Hammasi to'g'ri

7. Korxonaning hisob tavsifidagi ma'lumotlar manbalari qaysi javobda to'liq ko'rsatib o'tilgan?

A. Birlamchi hisob hujjatlari, smetalar, kadastr hujjatlari;

B. Hisob va hisobot ma'lumotlari, turoq ball banitetlari, biznes rejalar;

C. Buxgalteriya, statistika, operativ hisob ma'lumotlari, turli xildagi hisobotlar, birlamchi hisob hujjatlari;

D. Qonunlar, turli qarorlar va farmoyishlar, texnologik xaritalar.

8.Tahlil uchun yig'ilgan ma'lumotlarni tekshirish nechta usulda olib boriladi va ular qanday?

A.2 ta usulda: texnik(yuzaki) va mantiqiy(mazmunan) tekshirish usuli

B.4 ta usulda: taqqoslab, guruhlab, texnik(yuzaki) va mantiqiy(mazmunan) tekshirish usuli

C.3 ta usulda: taqqoslab, texnik(yuzaki) va mantiqiy (mazmunan) tekshirish usuli

D.Barcha javoblar noto'g'ri;

9.Korxonada iqtisodiy tahlilni amalga oshiruvchilar kimlar?

A.Tashqi tahlilchilar(boshqaruv yuqori organlari, moliya organlari, bank muassasalari, soliq idoralari va boshqalar);

B.Ichki tahlilchilar(korxonada tomonidan ishchi xodimlari ishtirokida tuzilgan tahlil guruhi);


C.A va B

D.Barcha javoblar noto'g'ri.

4-BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLARNING MARKETING FAOLIYATI TAHLILI.

4.1. Mahsulot, ish va xizmatlarga bo‘lgan talab hamda takliflar tahlilining ahamiyati va vazifalari.

Marketing faoliyati tahlilining maqsadi– bozorda mahsulotga bo‘lgan talab va taklif hamda raqobat holatini o‘rganish natijasida korxonaning buyurtmalar portfelini shakllantirish yo‘llarini ishlab chiqish hisoblanadi.




4.1-rasm. Marketing faoliyati tahlili ob‘yekti tarkibi.

Marketing faoliyati tahlilining vazifalari:


<i>• mahsulotga bo‘lgan talabni aniqlash;</i>
<i>• xaridorlarni mahsulot xarid qilish qobiliyatini o‘rganish;</i>
<i>• mahsulot ishlab chiqarish rejasi asoslilikini o‘rganish;</i>

<ul style="list-style-type: none"> • mahsulotga bo'lgan talabning egiluvchanligini aniqlash;
<ul style="list-style-type: none"> • mahsulot raqobatdoshligi va uni oshirish yo'llarini aniqlash;
<ul style="list-style-type: none"> • buyurtmalar profeli va mahsulot sotish yangi bozorlarini aniqlash;
<ul style="list-style-type: none"> • talab va sotishni shakllantirish taktikasi, strategiyasi hamda usullarini o'rganish;
<ul style="list-style-type: none"> • talab va taklif asosida ishlab chiqarishni tashkil etishga oid chora-tadbirlar belgilash;



4.2-rasm. Marketing faoliyatini tahlil qilishda qo'llaniladigan ma'lumotlar manblari tarkibi.

4.2. Korxonada mahsulot, ish va xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar.




4.3-rasm. Talab va taklif mazmuni.

Talabga ta'sir etuvchi omillar tarkibi:

• mahsulotning bahosi;
• mahsulotning sifati;
• xaridorlar daromadi;
• xaridorlar e'tirofi;
• o'rindosh mahsulotlar bahosi;
• bozorning to'yinganlik darajasi;
• jamg'armalarga to'lanadigan foizlar miqdori.

Talabni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi:



Talabning daromadga ko'ra egiluvchanlik koeffitsienti- (K_{de}) xaridorlar daromadi o'zgarishi holatida tovarga bo'lgan talabning o'zgarish miqdorini ifodalaydi va quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$K_{de} = \frac{i \text{ tovarga talab miqdori o'zgarish foizi}}{\text{xaridorlar daromadi o'zgarish foizi}},$$

Talabning baho o'zgarishiga reaksiyasi darajasi (K_{be}) – ushbu ko'rsatkich talabning tovar bahosi o'zgarishiga mos ravishda qanday darajada o'zgarganligini xarakterlaydi:

$$K_{be} = \frac{i \text{ tovarga talab miqdori o'zgarish foizi}}{\text{tovar bahosi o'zgarish foizi}},$$

Ushbu koeffitsentlar miqdori ($K_{be} < 1$) birdan yuqori bo'lsa, talab egiluvchan, ($1 > K_{be}$) birdan kichik talab egiluvchan emas hisoblanadi. Elastiklik koeffitsenti miqdorining ($1 = K_{be}$) birga teng bo'lishi talabning o'sish darajasi bahoning pasayish darajasiga tengligini ifodalaydi. Talab baho o'zgarmagan yoki o'sgan hollarda ham talabning miqdori xaridorlar xarid imkoniyati darajasida bo'lgan taqdirda mutloq elastik hisoblanadi.

4.1-jadval

«A» Mahsulotga bo'lgan talabni elastiklik darajasini aniqlash

Bozor-lar	Mahsulot bahosi, ming so'm	Talab hajmi, dona	O'sish sur'ati, %		Elastiklik koef. fisenti	Mahsulot hajmi, ming so'm		
			Baho	Talab hajmi, dona		Tushum	Xarajat	Foyda
1	5,0	5000	-	-	-	25000	19400	5600
2	5,2	4500	+4,0	-10,00	2,5	23400	17864	5536
3	5,5	4000	+5,7	-10,00	1,75	22000	16077	5923
4	5,8	3500	+5,4	-12,50	2,31	20300	14117	6183
5	6,0	3200	+3,4	8,86	2,60	19200	12993	6207
6	6,5	2900	+8,3	-9,94	1,20	18850	12970	5880
7	7,0	2100	+7,6	17,59	2,31	14700	9597	5103


Tahlil natijalariga ko'ra o'rganilgan 7 ta bozordan korxonaga uchun eng maqbul variant 6 ming so'mdan 3200 dona mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi. Chunki ushbu ishlab chiqarish hajmi tanlanganda korxonaga eng ko'p foydaga erishadi.

4.3. Talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillar.

Tovar mahsulotiga talabni pasayishiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi:


Ichki omillar:
• noto'g'ri rejalashtirish;
• noto'g'ri baho siyosati;
• xom ashyo sifati pastligi;
• uskuna va texnologiya eskirishi;
• xodimlar tajribasizligi;
• reklamani yaxshi yo'lga qo'yilmaligi.
Tashqi omillar:
• xaridorlar to'lov qobiliyati pasayishi;
• jamg'armalarga to'lanadigan foiz miqdorining oshishi;
• demografik o'zgarishlar;
• ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar;
• siyosiy va boshqa o'zgarishlar
• xaridorlar to'lov qobiliyati pasayishi;
• jamg'armalarga to'lanadigan foiz miqdorining oshishi;

Daromadning yuqori bo'lishi talabning oshishiga, bahoning yuqorligi esa, talabning pasayishiga sabab bo'ladi. Ushbu bog'liqlikni quyidagi ko'rinishda chizma shaklida ifodalash mumkin (4.2-chizma).



4.1-chizma. Talab harakatining chizmasi.

Taklifga ta'sir etuvchi asosiy omil tovarning va bozordagi resurslarning bahosi hisoblanadi.



4.2.chizma. Taklif harakatining chizmasi.

Tahlil jarayonida korxonaning bozordagi mav'qeiga ta'sir etadigan omillardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarilishi hisoblanadi. Shu bois ushbu ob'yekt ham tahlil qilinishi zarur

4.2-jadval

Ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotishni shartnoma bilan ta'minlanishi tahlili.

Mahsulot turi	Oy boshidagi qoldiq, (dona)	Ishlab chiqarish rejasi, (dona)	Mahsulot etkazib berish uchun tuzilgan shartnomalar, (dona)	Mahsulot sotishni shartnoma bilan ta'minlanishi, (%)
A	200	6000	5770	93,0
B	175	5500	5800	102,2
S	110	4200	5500	127,6
D	90	3100	3000	94,0

Korxonada «*B*» va «*S*» mahsulotni sotish bo'yicha tuzilgan shartnomalar ishlab chiqarish hajmidan yuqori, demak ushbu mahsulotlarga bo'lgan talab bozorda o'sgan. Shuning uchun korxonada «*A*» va «*D*» mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirish evaziga «*B*» va «*S*» mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishi zarur.

Korxonaning «*A*» va «*D*» mahsulotlariga bo'lgan talabni pasayish sabablari va xavfini o'rganish zarurdir. Buning uchun korxonadagi mahsulotlar qoldig'i dinamikasini tahlil qilamiz.

4.3-jadval.


Mahsulotlar qoldig'i dinamikasi tahlil

Mahsulot turi	Oy boshidagi qoldiq, (dona)	Haqiqatda ishlab chiqarilgan miqdori, (dona)	Sotilgan mahsulot miqdori, (dona)	Oy oxiridagi qoldiq, (dona)	O'sish sur'ati	
					dona	%
<i>A</i>	200	18970	19600	430	+230	+115
<i>B</i>	175	33290	33400	65	-110	-37
<i>S</i>	110	26200	26300	10	-100	-91
<i>D</i>	90	15390	15300	180	+90	+100

Korxonada «*A*» va «*D*» mahsulotlariga bo'lgan talab pasayishi evaziga ularning oy oxiridagi qoldiqlari miqdori o'sgan. Ushbu mahsulotlarni sotish bo'yicha narxni pasaytirish, reklamani kuchaytirish va tovar ko'rinishini yaxshilash chora-tadbirlari qo'llanishli zarur, aks holda korxonada zarari o'sishi mumkin. Korxonada o'z ishlab chiqargan mahsulotini ichki yoki tashqi bozorga sotadi. Tahlil jarayonida mahsulot sotish bozorlari mavqeilari va ular o'zgarishlariga baho berish zarur.



4.4-rasm. Mahsulotni sotish bozorlari turlari.



4.5-rasm. Mahsulot sotish bozorlariga bog‘liq ko‘rsatkichlar.

Mahsulotlar sotish bozorlari tahlili (4.4-jadval) «B» va «S» mahsulotlarni eksportga sotishni ko‘paytirish, «A» va «D» mahsulotlarni ichki bozorga yo‘naltirish maqsadga muvofiqligidan dalolat bermoqda.

Lekin «A» va «D» mahsulotni sotish hajmi ichki va tashqi bozorlarda ham yildan - yilga kamayib bormoqda. Shu sababli ushbu mahsulotlarni o‘rniga yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora- tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mahsulot sotish bozorlari dinamikasi tahlili.

Ko'rsatkichlar	Ichki bozor			Tashqi bozor		
	1	2	3	1	2	3
«A» mahsulot:						
Sotilgan maxsulot miqdori (dona)	6000	6000	5500	1000	700	400
Mahsulot bahosi, (ming so'm)	5,0	5,1	5,2	6,0	6,0	5,5
Mahsulot bir birligi tannarxi, (ming so'm)	4,8	4,9	5,0	5,5	5,6	5,4
Foyda, (ming so'm)	1200,0	1200,0	1100,0	500,0	180,0	40,0
Rentabellik (%)	4,16	4,1	4,0	9,1	4,6	1,9
«B» mahsulot:						
Sotilgan maxsulot miqdori (dona)	9000	8500	8800	2000	2500	2600
Mahsulot bahosi (ming so'm)	6,0	6,1	6,2	7,0	7,0	7,5
Mahsulot tannarxi (ming so'm)	5,8	5,9	6,0	6,5	6,6	6,5
Foyda (ming so'm)	1800,0	1700,0	1760,0	1000,0	1000,0	2600,0
Rentabellik (%)	3,44	3,39	3,33	7,69	6,06	15,3
«S» mahsulot:						
Sotilgan maxsulot miqdori (dona)	7000	7200	7500	1500	1700	1400
Mahsulot bahosi (ming so'm)	4,0	4,1	4,2	5,0	5,0	5,5
Mahsulot tannarxi (ming so'm)	3,8	3,9	4,0	4,5	4,6	4,4
Foyda (ming so'm)	2000,0	1440,0	1500,0	750,0	700,0	1540,0
Rentabellik (%)	7,52	5,1	5,0	11,1	8,9	25,0
«D» mahsulot:						
Sotilgan maxsulot miqdori (dona)	5000	4500	4000	700	600	500
Mahsulot bahosi (ming so'm)	3,0	3,1	3,2	3,3	3,5	3,5
Mahsulot tannarxi (ming so'm)	2,8	2,9	2,8	3,0	3,1	3,3
Foyda (ming so'm)	1000,0	900,0	1600,0	210,0	240,0	100,0
Rentabellik (%)	7,14	6,89	14,28	10,0	12,9	6,06

Mahsulotni sotish bozorlari daromadligini o'rganib mahsulotni o'sha bozorga etkazib berish yo'llari ham tahlillar natijasida aniqlanadi.

4.5-jadval.

Mahsulotni sotish bozorlari tarkibi va ularning daromadligi tahlili.

Mahsulot turi	Mahsulot sotish bozorlari tarkibi, dona			Bozorlar ulushi, %		Bozorlar daromadligi, %	
	ichki	tashqi	jami	ichki	tashqi	ichki	tashqi
A	17500	2100	19600	18,5	2,2	4,08	5,20
B	26300	7100	33400	27,8	7,5	3,39	9,71
S	21700	4600	26300	22,9	4,9	5,87	15,0
D	13500	1800	15300	14,3	1,9	9,44	9,65
Jami	79000	15600	94600	83,5	16,5	x	x

Korxonada tomonidan tahlil davrida 94600 dona mahsulot ishlab chiqarilib, uning 83,5 foizi ichki va 16,5 foizi tashqi bozorga etkazib berilgan. Tahlil davrini korxonada 19 mln. 976 ming 100 so'm foyda bilan yakunlagan, shundan 11 mln. 16 ming 100 so'm ichki va 8 mln. 860 ming so'm tashqi bozordan foyda olingan. Jami ishlab chiqarilgan mahsulotning 16,5 foizi tashqi bozorga sotilgan bo'lsada, ushbu 15600 dona mahsulot sotish evaziga 44,9 foizi daromad olingan.

Shu bois «B» mahsulotni tashqi bozorga eksport qilish choralarni ishlab chiqarish maqsadga muvofiq. Chunki ushbu mahsulotning ichki bozordagi daromadligi juda past bo'lib, tashqi bozorda uning daromadlilik darajasi 6,32 foiz yuqori.

Korxonada mahsulotlari bahosi tahlili.

Mahsulot turi	Mahsulotning o'rtacha sotish bahosi,				
	Ichki bozorda			Tashqi bozorda	
	Korxonada	Tarmoqda o'rtacha	Raqobatdosh korxonada	Korxonada	Bozorda o'rtacha
A	5,1	5,0	5,3	5,80	8,0
B	6,1	6,0	6,2	7,17	10,0
S	4,1	4,0	4,2	5,17	8,0
D	3,1	3,0	3,2	3,43	7,0

Baho siyosatini tahlil qilish natijalari bu sohada ishlar korxonada tomonidan ichki bozorda yaxshi yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Mahsulot turlari bo'yicha korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlari tarmoqning o'rtacha darajasidan yuqori bo'lsada, raqobatdosh korxonaga nisbatan narx navo past. Tashqi bozorda yetarli tarzda bahoni o'rganish ishlari tashkil etilmagani natijasida mahsulotlar o'rtacha bozor bahosidan ancha past sotilgan. Tashqi bozordagi talab va taklifni o'rganishga jiddiy yondoshish korxonada moliyaviy natijasi ko'paytirishning ichki imkoniyati hisoblanadi.

4.4.Raqobat darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar va ular tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida raqobatbardoshlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Erkin iqtisodiyot sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar mulkdorlari va rahbarlarida mas'uliyat oshadi va ular korxonada hamda mahsulotining raqobatbardoshli bo'lishiga harakat qiladi.

Erkin raqobat asosida rivojlanadigan iqtisodiyot sharoitida korxonada va ular mahsulotining raqobatbardoshligini tahlil

qilishning nazariy hamda metodologik muammolarini tadqiq qilish zarur hisoblanadi.

Raqobatbardoshlik masalalarini tahlil qilish uchun fikrimizcha, avvalo uning mazmunini to'liq ochib berish zarurdir. Shu sababli birinchi o'rinda raqobatbardoshlik so'zining lug'oviy ma'nosiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilining 5 tomlik izohli lug'atida "raqobat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib "kuzatish, nazorat" degan ma'nolarni anglatishi keltirilib, quyidagi 3 ta izoh berilgan:

- Basma-baslikka bellashuv; kim o'zdi;
- Talabgorlar, raqiblar kurashi;
- Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi (korxonalar) o'rtasida.


"Tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda o'z mavqegini mustahkamlash uchun kurash"², deyilgan.

«Raqobatbardoshlik deyilganda mahsulotning, ish, xizmat, korxonalar, hudud, davlatning raqobatchilarga nisbatan iqtisodiy o'sishining barqarorligini, bahosining nisbatan pastligini va sifatining yuqoriligini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasining mavjudligi va ularning boshqalarga nisbatan ustunligidir»³.

Raqobatbardoshlik tahlilining maqsadi – korxonaning bozordagi turdosh korxonalar va mahsulotlari bilan bahsga chidamlilik darajasi hamda uning o'zgarishlari sabablarini aniqlash va bozordagi mavqegini mustahkamlash yo'llarini aniqlashdir.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. O'z.R FA Til va adabiyot instituti. T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 360-361 betlar.

³ Pardayev M.Q., Isroilov J.I. Xususiy korxonalar faoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2007.-164 b.



4.6-rasm. Raqobatdoshlik tahlili ob'ektlari tarkibi.

4.7-jadval.

Turli xil raqobat bozorlarining tavsifi va undagi sub'yektlarning raqobatbardoshlik holati⁴

Raqobat turlari	Raqobatchi sub'yektlar yoki raqobat mazmuni	Narxlarning shakllanishi va uni nazorat qilish	Tovarlarning taqabalanishi	Raqobatbardoshlik darajasi
Takomillashgan raqobat	Ko'p sonli firma lar ishtirok etadi	Narxlar talab va taklif asosida shakllanadi	Mahsulotlar sifati va xususiyati bo'yicha bir-biriga yaqin	Yetarli, faqat harakat qilishi kerak
Oligopollashgan raqobat	Tovar (ish, xizmat)lar ishlab chiqaruvchi sonoqli bo'ladi	Narxlarning - yetakchi firmalar ta'sir qiladi	Sertifikatlangan tovarlar uchun bir xil holat ta'rimlangan bo'ladi	Yaxshi
Monopolashgan raqobat	Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi bitta firma	Narxlar qonunlar va boshqa ta'sirlar natijasida cheklangan	Tabaqalanmaydi	Kuchli
Takomillashtirilgan raqobat	Chegaralangan sotuvchi, xaridor va axborotga ega sub'yektlar	Narxlar kelishuv asosida shakllanadi	Chegaralangan holda taqabalanadi	Ko'riladigan tadbirlariga bog'liq

⁴ Pardayev M.Q., Isroilov J.I. Xususiy korxonalar faoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2007. – 105-107 betlar

Halol raqobat	Juda ko'p mayda sotuvchi va xaridorlarning ishtiroki	Narxlar talab va taklif natijasida shakllanadi	Mahsulot-lar sifati va xususiya-ti bo'yicha bir-biriga yaqin	Yetarli, faqat harakat qilishi kerak
G'irrom raqobat	Raqobatga oid tartib va qoida-larga amal qil-masdan faoliyat ko'rsatadi	Narxni o'z manfaa-tidan kelib chiqib belgilaydi	Tovarlar bir-biridan keskin farq qiladi	Ko'riladigan tadbirlariga bog'liq, qonun-lardan ko'p cheklaniladi
Xorijiy raqobat	Importyor va eksportyor firmalar	Narxlar jahon bozoriga mos ravishda belgilanadi	Tovarlar ma'lum darajada tabaqalashgan bo'ladi	Yetarli, faqat harakat qilishi kerak
Jahon bozori raqobati	Bir qancha mamlakat firmalari ishtirok etadi	Narxlar jahon bozoriga mos belgilanadi	Tovarlar ma'lum darajada tabaqa-lashgan bo'ladi	Yetarli, faqat harakat qilishi kerak
Ochiq raqobat	Sub'yektlardagi tovar (ish, xizmat)lar bahosi-ning ochiqligi	Narxlar talab va taklif natijasida shakllanadi	Mahsulotlar sifati va xususi-yati bo'yicha bir-biriga yaqin	Yetarli, faqat harakat qilishi kerak

G.V.Savitskaya⁵ tadbirkor tovarining raqobatbardoshligini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya qiladi:

1. Har bir yo'nalishni baholovchi alohida ko'rsatkich. Buni aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilingan:

$$q = \frac{P}{R_{100}} * 100;$$

Bunda:

q-tovar raqobatbardoshligini belgilovchi har bir yo'nalishni baholovchi alohida ko'rsatkich;

P-har bir yo'nalish bo'yicha mazkur tovarga tegishli ko'rsatkich;

*R*₁₀₀ - iste'molchi (xaridor) ehtiyojini to'la (100 %) qondirishi uchun har bir yo'nalish bo'yicha belgilangan me'yor.

⁵ Савицкая Г.В. "Анализ хозяйственной деятельности предприятия" / Учебник. – 5-е изд., испр. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2009, 437 бет.

2. Alohida bir-biriga bog'liq yo'nalishlar bo'yicha guruhning jamlangan ko'rsatkichi (G). Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilingan.

$$G = \sum a_i * q_i;$$

Bunda:

q_i - bir guruhga kiruvchi ko'rsatkichlar;

i - ko'rsatkichning miqdori;

a_i - har bir i - ko'rsatkichning salmoqlilik koeffitsienti.

3. Umumlashtirilgan ko'rsatkich (J). Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun tovarning texnik yo'nalishi bo'yicha aniqlangan guruh ko'rsatkichning miqdorini (G_m) iqtisodiy yo'nalish bo'yicha guruh ko'rsatkichlar miqdoriga (G_{iq}) bo'lish yo'li bilan aniqlash tavsiya qilingan:

$$J = G_m / G_{iq}$$

Agar $J < 1$ bo'lsa, tahlil qilinayotgan tovarning raqobatbardoshligi uning namunasiga nisbatan past ekanligidan, agar $J > 1$ bo'lsa, mazkur tovar ancha raqobatbardosh ekanligidan dalolat beradi.

Tahlilning eng muhim vazifalaridan biri ushbu ko'rsatkichlarni amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda aniqlashdan iborat.

4.8-jadval.

**Korxonaning raqobatbardoshligini ifodalovchi
ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari**

T/r	Ko'rsatkichlarning nomi	Ko'rsatkichlarni hisoblash yo'llari	Izoh
1.	Korxonada mahsulotning bozordagi bir xil mahsulotlardagi ulushi (K_{mbu})	$K_{mbu} = \frac{K_m}{B_{jm}}$	K_m – korxonada mahsulotning hajmi; B_{jm} – bozordagi shu mahsulotning jami hajmi.
2.	Bozordagi eng kuchli raqobatchi korxonada mahsulotning ulushiga (EK_{mu}) nisbatan shu korxonada mahsulotning ulushi (K_{mu})	$K_{mu} = \frac{K_{mbu}}{EK_{mu}}$	(EK_{mu}) – eng kuchli raqobatchi korxonada mahsulotning ulushi; (K_{mbu}) – korxonada mahsulotning bozordagi bir xil mahsulotlardagi ulushi.
3.	Raqobatdagi mahsulotni sotish hajmining o'sish sur'ati ($R_{mo's}$)	$P_{mo's} = \frac{P_{mh}}{P_{m,ay}}$	$R_{m,h}$ – raqobat yilidagi sotilgan mahsulot xaqiqiy miqdori; $R_{m,ay}$ – Shu mahsulot asos yilidagi miqdori.

4.	Korxonada mahsulotini bahosining bozordagi shunday mahsulot bahosiga nisbatan koeffitsientdagi miqdori (K_{bah})	$K_{bah} = \frac{K_{mb}}{B_{shmb}}$	K_{mb} – korxonada mahsulotining bahosi; B_{shmb} – bozordagi shunday mahsulotlar bahosi.
5.	Korxonada mahsulotining sertifikatlanganlik darajasi (K_{ser})	$K_{ser} = \frac{S_m}{J_m}$	S_m – sertifikatlangan mahsulotlar; J_m – jami mahsulotlar
6.	Korxonada mahsulotini reklama qilishdan olingan foydaning reklama xarajatlariga nisbati (K_{rek})	$K_{rek} = \frac{Re_{kf}}{R_{ekx}}$	Re_{kf} – reklama qilingan tovarlar bo'yicha olingan foyda; Re_{kx} – Shu tovarni reklama qilish uchun ketgan xarajatlar.
7.	Korxonaning raqobatbar-dosh tovarlarining rentabellik darajasi (R_{rb})	$R_{rb} = \frac{R_{tf}}{R_t}$	R_{tf} – raqobatdagi tovarlardan olingan foyda; R_t – raqobatdagi tovarlarning umumiy hajmi.

8.	Korxonada umumiy rentabellik darajasi (R)	$R = \frac{Sf}{Q}$	Sf – sof foyda; Q – sotilgan mahsulot hajmi
9.	Korxonaning balansining joriy likvidlik darajasi (Lj)	$L_j = \frac{Ja}{Jm}$	Ja – Joriy aktivlar; Jm – Joriy majburiyatlar
10	Korxonaning mahsuloti raqobatbardoshligini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkich (Mruk)	$Mruk = \frac{M_{ty}}{M_{iy}}$	M _{ty} – mahsulotning texnik yo'nalishi bo'yicha umumlashgan ko'rsatkichi; M _{iy} – mahsulotning iqtisodiy yo'nalishi bo'yicha umumlashgan ko'rsatkichi;

Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini qurulish tashkilot misolida tahlil qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

4.9-jadval.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning tenderga ishtirok etgan pallasidagi raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari

T/r	Ko'rsatkichlarning nomi	Ko'rsatkichlarni hisoblash yo'llari	Izoh
1.	Moddiy-texnika bazasi-ning mavjudlik va Yetarli-lik koeffitsineti (K_{mtb})	$K_{mtb} = \frac{X_{mtb}}{M_{mtb}}$	X_{mtb} -haqiqatda mavjud moddiy-texnika bazasi (MTB); M_{mtb} - me'yordagi MTB.
2.	Tegishli mutaxassislar bilan ta'minlanganlik koeffitsienti (K_{kt})	$K_{kt} = \frac{X_{mk}}{M_{mk}}$	X_{mk} -haqiqatda mavjud mutaxassis kadrlar (MK); M_{mk} - me'yordagi MK.
3.	Xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarining mavjud-lik koeffitsienti (K_{xx})	$K_{xx} = \frac{X_{xx}}{T_{bx}}$	X_{xx} - qurilish tashkilotining hisob-kitob qilingan xarajatlari; T_{bx} -tenderdagi xarajatlar.
4.	Tenderda ko'rsatilgan umumiy bahodan kam belgilash imkoniyatini topish koeffitsienti (K_{bim})	$K_{bim} = \frac{X_{kb}}{T_{bb}}$	X_{kb} - qurilish tashkilotining hisob-kitob qilingan xarid qilish bahosi; T_{bb} -tenderda qo'yilgan baho.

5.	Smetada belgilangan qiymatga nisbatan o'z mablag'ining Yetarlilik koeffitsienti (K_{me})	$K_{me} = \frac{O'zm}{Tbb}$	$O'zm$ - qurilish tashkiloti-ning o'z mablag'lari; Tbb -tenderda qo'yilgan baho.
6.	Tijorat banklaridan kredit olish imkoniyatining mavjudlik koeffitsienti (K_{koi})	$K_{koi} = \frac{Okm}{Gkm}$	O_{km} - qurilish tashkiloti-ning oladigan kreditning miqdori; G_{km} -garovga qo'yishi mumkin bo'lgan mulklar qiymati.
7.	Qurilish tashkilotining tenderga qatnashish raqobatbardoshligi ni ifodalovchi kompleks ko'rsatkich (R_{bk})	$R_{bk} = \sum_{i=1}^n a_i$	$\sum_{i=1}^n a_i$ - jamlash belgisi; i - jamlanadigan ko'rsatkichlarning tartib raqami; n - jamlanadigan ko'rsatkichlarning umumiy soni; a_i - i -ko'rsatkich-ning miqdori.

Qurilish bilan shug'ullanuvchi firmalar yoki kompaniyalarning raqobatbardoshligini baholashda ushbu ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Ammo tenderga bir qancha sub'yektlar ishtirok etishini inobatga olib, ko'rsatkichlar tizimidan kompleks ko'rsatkichni aniqlash

usulini ham berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Buning uchun kompleks ko'rsatkichlarni aniqlashning jamlash usulidan muvoffaqiyat bilan foydalanish mumkinligi ham asoslandi. Jamlash usulidan foydalangan holda kompleks ko'rsatkichni (Rbk) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$R_{bk} = \sum_{i=1}^n a_i;$$

Bunda: $\sum_{i=1}^n i$ - jamlash belgisi;

i - jamlanadigan ko'rsatkichlarning tartib raqami;

n - jamlanadigan ko'rsatkichlarning umumiy soni;

a_i - i -ko'rsatkichning miqdori.

Ushbu formulani qo'llaydigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan barcha ko'rsatkichlarning koeffitsientlarini jmlab, umumiy ko'rsatkichni aniqlash mumkin. Ammo barcha ko'rsatkichlar raqobatbardoshlikka baho berish uchun bir xil mohiyatga ega emas. U holda har bir ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsientini aniqlab, ularni haqiqiy miqdoriga ko'paytirib jamlashga to'g'ri keladi. Bu holda kompleks ko'rsatkich (K_{km}) quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{km} = \sum_{i=0}^n a_i * km$$

Bunda:

K_{km} - kompleks ko'rsatkich miqdori.

km - har bir ko'rsatkichning mohiyatlilik koeffitsienti.

Ikkinchi yo'nalish bo'yicha qurilish bilan shug'ullanuvchi sub'yektlarning faoliyati davomida baholanadigan raqobatbardoshlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Qurilish tashkilotlarining barcha xususiyatlarini inobatga olgan mavjud ko'rsatkichlar

tizimiga quyida 5 ta ko'rsatkichni tavsiya qilmoqdamiz. Ularning qulayligi va afzalligi shundaki, barcha ko'rsatkichlar bir xil o'lchamda, ya'ni koeffitsientda ifodalangan⁶. Bunday hollarda ko'rsatkichlarni jamlash va boshqa amallarni bajarish unchalik qiyinchilik tug'dirmydi. Ushbu ko'rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq.

4.10-jadval.

Qurilish bilan shug'ullanuvchi firmalarning raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari⁷

T/r	Ko'rsatkichlar -ning nomi	Ko'rsatkichlar-ni hisoblash yo'llari	Izoh
1.	Qurilish tashkilotining barqaror iqtisodiy o'sishga (5%dan kam bo'lmagan) egaligi (Q_{mi})	$Q_{mi} = \frac{Q_{mi_1}}{Q_{mi_0}} * 100$	Bunda: Q_{mi} - qurilish-mantaj ishlari haj-mi; 0 va 1 indekslar asos va hisobot yillari ma'lumotlari.
2.	Qurilish tashkiloti balansining joriy likvidligi (L_j)	$L_j = \frac{J_a}{J_m}$	J_a – Joriy aktivlar; J_m – Joriy majburiyatlar
3.	Qurilish tashkilotining rentabellik darajasi (R)	$R = \frac{S_f}{Q} * 100$	S_f – sof foyda; Q – qurilish-mantaj ishlarining umumiy hajmi

⁶ Ayrim foizda ifodalangan ko'rsatkichlarni jamlash paytida koeffitsientga aylantirib ham hisoblash mumkin.

⁷ Pardayev M.Q., Isroilov J.I. Xususiy korxonalarfaoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari.monografiya -T.: "Fan va texnologiya ", 2007.-107-109 betlar.

4.	Ob'yektni belgilangan muddatda ishga tushirilish koeffitsienti (K_{it})	$K_{it} = \frac{I_{tv}}{B_m}$	I_{tv} – ob'yektning ishga tushirilgan vaqti; B_m -haqiqatda ishga tushirilgan vaqti.
5.	Ob'yekt haqiqiy qiymatining smetaga moslik koeffitsienti (K_{sm})	$K_{sm} = \frac{O_{xb}}{O_{sb}}$	O_{xb} – ob'yektning haqiqiy bahosi; O_{sb} -ob'yektning smetadagi bahosi.
6.	Qurilish tashkiloti faoliyati raqobatbardoshligini ifodalovchi kompleks ko'rsatkich (R_{bk})	$R_{bk} = \sum_{i=0}^n a_i$	Bunda: $\sum_{i=1}^n 1$ - jamlash belgisi; i -jamlanadigan ko'rsatkichlarning tar-tib raqami; n – jamlanadigan ko'rsatkichlar-ning umumiy soni; a_i - i -ko'rsatkich-ning miqdori.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- talab;
- taklif;
- baho;
- darodmad;
- marketing faoliyati;
- mahsulot sotish bozorlari;
- ichki bozor;
- tashqi bozor.

Takrorlash uchun savollar:

1. Marketing faoliyati tahlilining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Talab va taklif tushunchalari ta'rifini berig?
3. Marketing faoliyatitahlilining maqsad va vazifalari nimalardan iborat
4. Taklif va taklifga qanday omillar ta'sir etadi?
5. Raqobatbardoshlik deganda nimani tushunasiz ?
6. Raqobatbardoshlik tahlilining vazifalari va maqsadi qanday ?
7. Rabatbardoshlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aytib berig?
8. G.V.Savitsskaya tomonidan raqobatbardoshlik bo'yicha tavsiya etilgan ko'rsatkichlar nimalardan iborat?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq

Marketig faoliyati tahlili ob'yektlari tarkibiy qismlarini ko'rsatib berig.

Marketing faoliyati ob'yektlari turlari	Tahlil ob'yektlari
	A) B)

2-topshiriq

Talab va taklif harakati chizmasini chizib, uning mazmunini izohlang.

3-topshiriq


Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida mahsulot bozorlari maqbulligini tahlil qiling hamda xulosa yozing.

Ko'rsatkichlar	Ichki bozor			Tashqi bozor		
	1	2	3	1	2	3
«A» mahsulot:						
Sotilgan maxsulot miqdori (dona)	7000	6500	5800	1000	700	400
Mahsulot bahosi (ming so'm)	5,0	5,1	5,2	6,0	6,0	5,5
Mahsulot bir birligi tannarxi (ming so'm)	4,8	4,9	5,0	5,5	5,6	5,4
Foyda (ming so'm)						
Rentabellik (%)						

5-BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLARNING MAHSULOT (ISH, XIZMATLAR) ISHLAB CHIQUARISH HAJMI TAHLILI

5.1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va axborot ta‘minoti.


Mahsulot hajmi tahlilining maqsadi – ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish va mahsulot hajmini oshirishning ichki imkoniyatlarini aniqlash hamda bozordagi mavqeni oshirish natijasida foyda miqdorini ko‘paytirish yo‘llarini ishlab chiqish hisoblanadi.



5.1-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlili ob'ektlar.

Mahsulot, ish va xizmatlar tahlilining vazifalari:


<ul style="list-style-type: none">• mahsulot ishlab chiqarish hajmi rejasi va uning bajarilishini aniqlash
<ul style="list-style-type: none">• ishlab chiqarish hajmi dinamikasi va uning o'zgarishlarini aniqlash
<ul style="list-style-type: none">• mahsulot ishlab chiqarish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular o'zgarishlarini aniqlash;
<ul style="list-style-type: none">• mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tarkibini aniqlash va ular ta'sirini hisoblash;
<ul style="list-style-type: none">• ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish holatini tahlil qilish;
<ul style="list-style-type: none">• shartnoma majburiyatlari ijrosini tahlil qilish;
<ul style="list-style-type: none">• tahlil natijasi bo'yicha ishlab chiqarishni ko'paytirish chora tadbirlarini belgilash.



5.2-rasm. Mahsulot(ish va xizmatlar) tahlilining axborot manbalari.

5.2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular tahlili.


Iqtisodiy tahlilni amalga oshirish har bir tahlil ob'yektiuning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlashdan boshlanadi. Ko'rsatkichlar tahlil ob'yekti va holati bo'yicha, mazmuni to'g'risida asosli xulosa qilinadi. Korxonada ishlab chiqarishni, ish va xizmatlari hajmi ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida baholanadi (5.3-rasm).



5.3-rasm. Ishlab chiqarish umumiy hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy tahlil jarayonida korxonaning ishlab chiqarishni, ish va xizmatlari hajmini ifodalovchi ushbu ko'rsatkichlar o'rganilib, ular o'zgarishlari, o'zgarishlar sabablari aniqlanadi hamda mahsulot hajmi umumiy holatiga baho beriladi.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarishni, ish va xizmatlari hajmi umumiy holatini ifodalovchi ushbu ko'rsatkichlar mazmuni hamda ularni hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz (5.4, 5.5-rasmlar).



5.4-rasm. Ishlab chiqarish umumiy hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar mazmuni.

• Yalpi mahsulot

$$Y_m = Q_i * R_i;$$

Y_m - yalpi mahsulot miqdori;
 Q_i - i mahsulot natural miqdori;
 R_i - i mahsulot bahosi.

• Tovar mahsulot

$$T_m = Y_m - B_{ch};$$

T_m - tovari mahsulot qiymati;
 Y_m - yalpi mahsulot miqdori;
 B_{ch} - mahsulotning xom ashyo sifatida qayta ishlash uchun sarflangan miqdori.

• Sotilgan mahsulot

$$S_m = T_m - Q_m;$$

S_m - sotilgan mahsulot miqdori;
 T_m - tovar mahsulot miqdori;
 Q_m - oy oxiridagi mahsulot qoldig'i;

5.5-rasm. Ishlab chiqarish umumiy hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar miqdorini aniqlash yo'llari.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilishini aniqlash:

$$Y_m = \frac{X_{ym}}{R_{ym}} * 100$$

Bunda;

Y_m – Mahsulot hajmi
 X_{ym} – haqiqatdagi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
 R_{ym} – reja bo'yicha ishlab chiqarilishi belgilangan mahsulot hajmi.

Bazis yilga nisbatan mahsulot hajmi o'sish darajasini aniqlash:

$$Y_m = \frac{X_{ym}}{B_{ym}} * 100.$$

Bunda;

Y_m – Mahsulot hajmi
 X_{ym} – haqiqatdagi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
 B_{ym} – bazis yilida ishlab chiqarilishi belgilangan mahsulot hajmi.

5.6-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi rejasi bajarilishi va dinamikasi tahlili.

5.1-jadval.

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasi tahlili

Yillar	Mahs ulot ishlab chiqarish rejasi (dona)	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi			Reja bajarilishi (%)	
		Miqdor (Q) (dona)	Baho (P) (ming so'm)	Mahsulot hajmi (ming so'm)	Rejaga nisbatan	Bazis yilga nisbatan
xxx1	4200	4200	5,0	21000,0	100,0	100,0
xxx2	4400	4500	5,1	22950,0	102,3	107,1
xxx3	4600	4700	5,3	24910,0	102,2	111,2
xxx 4	4800	4400	5,5	24200,0	91,7	104,8
xxx5	5000	5100	5,6	28560,0	102,0	121,1

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'rtacha o'sish sur'ati o'rtachaarifmetik va o'rtachageometrik usullarda aniqlanadi.

O'rtacha geometrik usulda mahsulot hajmi o'sish sur'ati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\bar{T} = \sqrt[n-1]{T_1 * T_2 * T_3 * T_4 * T_5};$$

5.2-jadval.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili		Farqi (+ ; -)	
		Biznes reja bo'yicha	Haqiqatda	O'tgan yilga nisbatan	Biznes rejaga nisbatan
1	2	3	4	5	6
Yalpi mahsulot:					
Amaldagi bahoda;	1912902	2236548	2721401	+808499	+484853
Solishtirma bahoda;	2113430	2198763	2553967	+440537	+355204
Tovar mahsuloti:					
Amaldagi bahoda;	1902784	2209568	2701893	+799109	+492325
Solishtirma bahoda;	2109528	2117539	2515931	+406403	+398392
Sotilgan mahsulot:					
Amaldagi bahoda;	1452513	2367492	3040381	+1587868	+672889
Shartnomaviy bahoda;	1402677	2301769	2984387	+1581710	+682618

Solishtirma bahodagi mahsulot hajmi miqdorini aniqlash:
 $YM_{sb} = YM_1/i$:
 Bunda,
 YM_{sb} -solishtirma bahodagi yalpi mahsulot miqdori;
 YM_1 - haqiqiy bahodagi yalpi mahsulot miqdori;
 i- baho indeksi miqdori.

5.3. Mahsulotlar tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar va ularning mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'siri tahlili.

Ishlab chiqarish hajmi tahlili jarayonida mahsulot nomenklaturasi va assortimentidagi o'zgarishlarning natija o'zgarishiga ta'siri tahlil qilinishi hamda ularga baho berilishi zarurdir.

5.3-jadval.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarishni struktura va assortimentlar bo'yicha tahlil.

Mahsulot turi	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (ming so'm)		Reja bajarilishi (%)	Maromiyl ik uchun qabul qilingan miqdor
	Reja	Haqiqat-da		
A	25200	26010	103,2	25200
B	17300	19800	114,4	17300
S	18900	17520	92,7	17520
D	14100	14250	101,1	14100

Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti tushunchalari mazmuni.

Mahsulotlar nomenkulaturasi -miqdor holida tovarlar guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ruyxatdir.

Mahsulot assortimenti -mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni, uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xilidir.

Mahsulot strukturasidagi o'zgarishlar ta'siri quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\Delta YAM_s = YAM_1 - YAM_{1,0};$$

Bunda,

ΔYAM_s – struktura evaziga mahsulot hajmidagi o'zgarish miqdori;

YAM_1 – haqiqiy strukturadagi haqiqatda i.ch. mahsulot;

$YAM_{1,0}$ – rejadagi struktura bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan mahsulot.

5.4-jadval.

Mahsulot strukturasi o'zgarishining hisob-kitobi.

Mahsulot turi	Mahsulot birli-gini bahosi, sum	Ishlab chiqarilgan mahsulot naturada, dona		Tovar mahsuloti solishtirma bahoda, ming sumda			Struktura-ning o'zgarishini tovar mahsuloti miqdoriga ta'siri
		Biznes rejada	Haqiqatda	Biznes rejada	Haqiqiy i.ch. mahsulot rejadagi strukturada	Haqiqatda	
1	2	3	4	5	6=($\Sigma 4/3 \Sigma^* \Sigma 5$)	7	8=7-6
"A"	8950	96700	103458	865465	1095853	925949	- 169904
"B"	7600	102700	97639	780520	988295	742056	-246239
"S"	3460	56800	61528	196528	248844	212887	-35957
"D"	5680	18919	85731	107460	136066	486952	+ 350886
Jami	x	275119	348356	1949673	2469058	2367844	-101214

Struktura o'zgarishining mahsulot hajmiga ta'sirini nisbiy miqdorlari farqi usulida ham quyidagi tartibda aniqlash mumkin.

$$\Delta YAM_s = (K_q - K_n) * YAM_0 = (1,214483 - 1,266201) * 1949673 = -101214 \text{ ming so'm.}$$

Hisobot davrida struktura o'zgarishi evaziga mahsulot hajmi 101214 ming so'mga kamaygan.

Mutloq farq usuli bilan mahsulot hajmi o'zgarishiga uning strukturasiidagi o'zgarishlar ta'sirini hisoblash mumkin. Buning uchun avval o'rtacha baho miqdori o'zgarishi quyidagi tartibda aniqlab olinadi.

5.5-jadval.

Mahsulot strukturasi o'zgarishining baho miqdoriga ta'siri tahlili

Mahsulot turi	Bir birlik mahsulot ulgurji bahosi, (ming so'm)	Mahsulot strukturasi, %			Struktura o'zgarishi evaziga o'rtacha baho o'zgarishi (ming so'm)
		reja	haqiqatda	farq (+;-)	
"A"	8950	35,16	29,71	-5,45	-487,7
"B"	7600	37,32	28,03	-9,29	-706,0
"S"	3460	20,64	17,65	-2,99	-103,5
"D"	5680	6,88	24,61	+17,73	+1007,1
Jami	x	100,0	100,0	x	-290,3

Har bir omillar ta'siri jadval ma'lumotlari asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta P_{\text{stra}} = \frac{(U_{\text{stra1}} - U_{\text{stra0}}) * P_0}{100} = \frac{(29,71 - 35,16) * 8950}{100} = -487,7 \text{ ming so'm.}$$

$$\Delta P_{\text{strb}} = \frac{(U_{\text{strb1}} - U_{\text{strb0}}) * P_0}{100} = \frac{(28,03 - 37,32) * 7600}{100}$$

$$= -706,0 \text{ ming so'm.}$$

$$\Delta P_{\text{ctrs}} = \frac{(U_{\text{strs1}} - U_{\text{strs0}}) * P_0}{100} = \frac{20,64 - 17,65) * 3460}{100} =$$

$$= -103,5 \text{ ming so'm}$$

$$\Delta P_{\text{strs}} = \frac{(U_{\text{strd1}} - U_{\text{strd0}}) * P_0}{100} = \frac{(29,71 - 35,16) * 8950}{100} =$$

$$= +1007,1 \text{ ming so'm.}$$

$$\Delta YAM_{\text{str}} = \Delta P_{\text{ctr}} * \sum YAM \text{ inh} = -290,3 * 348356 =$$

$$= 101124,0 \text{ ming so'm.}$$

Mahsulot turi bir xil bo'lgan taqdirda ishlab chiqarish hajmining uni strukturasi evaziga o'zgarishini o'rtacha baho usulini qo'llab quyidagi tartibda aniqlash mumkin:

$$\Delta P_{\text{str}} = \frac{\sum (P_{i0} * MU_{i1})}{100} - \frac{\sum (P_{i0} * MU_{i0})}{100};$$

Mahsulotning haqiqiy struktura va o'rtacha bahodagi hajmi:

$$R_1 = \frac{(8950*29,71+7600*28,03+3460*17,65+5680*24,61)}{100} = 6798,0$$

ming so'm.

Mahsulotning rejadagi strukturava o'rtacha bahodagi hajmi:


$$R_0 = \frac{(8950 \cdot 35,16 + 7600 \cdot 37,32 + 3460 \cdot 20,64 + 5680 \cdot 6,88)}{100} = 7088.3 \text{ ming so'm.}$$

$$\overline{\Delta R_{\text{str}}} = R_1 - R_0 = 6798.0 - 7088.3 = -290.3 \text{ ming so'm.}$$

$$\begin{aligned} \Delta YAM_{\text{str}} &= \overline{\Delta R_{\text{str}}} * YAM_1 = -290.3 * 348356 = \\ &= 101124 \text{ ming so'm.} \end{aligned}$$


5.4. Mahsulot sifati tahlili

Mahsulot sifati uning talabiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Sifatning yaxshilanishi quyidagi ijobiy natijalarni beradi (5.7-rasm).



5.7-rasm. Mahsulot sifatini oshirish natijalari.

Mahsulot sifatiga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi (5.8-rasm).




5.8-rasm. Mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi

Mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar uning turi va foydalanish maqsadidan qat'iy nazar ishlab chiqarilgan mahsulot jami hajmi bilan bog'liq quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

- Mahsulot jami hajmidagi yangi mahsulotlar ulushi;
- O'rtacha sortlilik koeffitsent;
- Jami mahsulot hajmidagi sertifikatlangan mahsulotlar ulushi;
- Mahsulotlar jami hajmida halqaro standartlarga ega mahsulotlar ulushi;
- Jami mahsulotda oliy navli mahsulotning ulushi;
- Jami mahsulot hajmida eksport qilingan mahsulotlar ulushi;
- Mahsulotlarning attestatsiyalanadigan va attestatsiyalanmaydigan turlari;
- Mahsulot sifatiga berilgan o'rtacha ball.

Mahsulot sifatini ifodalovchi xususiy ko'rsatkichlar uning o'ziga xos jihatlari quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi:

- foydaliligi (oqsil miqdori, sutning yog'lilik darajasi);
- ishonchliligi (xizmat muddati);
- texnik jihatdan qulayligi (saqlash, tashish, energiya tejamkorligi va boshqa qulayliklari);
- estetik xususiyatlari va dizaynlari.



5.9-rasm. Mahsulot sifatini bevosita ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Mahsulot sifatini tahlil qilishda bajariladigan vazifalar:

- ❖ mahsulot sifati bo'yicha belgilangan reja bajarilishi aniqlanadi;
- ❖ qayd etilgan ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganiladi;
- ❖ ular miqdorlari o'zgarishlari va ularning sabablari aniqlanadi;
- ❖ mahsulot sifatini yaxshilash bo'tsicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi nazorat qilinadi.

Mahsulot sifati o'rtacha sortlilik koeffitsentini aniqlash yo'llari:

$$K_0 = \frac{\text{rejadagi oliy navli mahsulot miqdori}}{\text{rejadagi jami mahsulot miqdori}};$$

$$K_0 = \frac{\sum(YAM_i^r * P_i)}{YAM_i^r * P_{ic}};$$

Haqiqatdagi miqdorlar ham xuddi shunday aniqlanadi.

$$K_1 = \frac{\text{haqiqatdagi oliy navli mahsulot miqdori}}{\text{haqiqatdagi jami mahsulot miqdori}};$$

$$K_1 = \frac{\sum(YAM_i^h * P_i^h)}{YAM_i^h * P_{is}^h};$$

5.6-jadval.

Korxonadamahsulot ishlab chiqarish hajmining sortlilik miqdoridagi o'zgarishlar ta'siri tahlilini amaliy ma'lumotlar yordamida ko'rib chiqamiz

Mahsulot sorti	Mahsulot bir donasi bahosi (ming so'm)	Mahsulot i.ch hajmi (dona)		Mahsulot qiymati, (mln.so'm)			
		Reja	Haqiqat	Reja	Haqiqat	Oliy nav bahosida	
						Rejada	Haqiqatda
Oliy	7000	2000	2050	14000,0	14350,0	14000,0	14350,0
1	6000	3000	2900	18000,0	17400,0	21000,0	20300,0
2	4000	2700	2800	10800,0	11200,0	18900,0	19600,0
3	2000	1500	1650	3000,0	3300,0	10500,0	11550,0
Jami	x	9200	9400	45800,0	46250,0	64400,0	65800,0

Korxonaning rejadagi sortlilik ko'effitsenti aniqlash:

$$K_{sr} = \frac{64400}{45800} = 1,406;$$

Korxonaning haqiqatdagi sortlilik ko'effitsenti aniqlash:

$$K_{sr} = \frac{65800}{46250} = 1,422;$$

Mahsulotning o'rtacha bahosi tahlil davrida reja bo'yicha:
45800 : 9200 = 4978,0 ming so'm.

Haqiqatda:

46250 : 9400 = 4920, 0 ming soʻmni tashkil etgan.

Mahsulot hajmi oʻzgarishiga uning sifati taʼsirini aniqlash yoʻllari:

$$\Delta YAM = (R_1 - R_0) * ON_{M1};$$

$$\Delta SM = (R_1 - R_0) * OSM_1;$$

$$\Delta F = [(R_1 - R_0) * OSM_1] - [(T_1 - T_0) * OSM_1];$$

Bunda,

YAM- mahsulot hajmi;

R₁, R₀- mahsulot bahosi;

SM-sotilgan mahsulot hajmi;

ON_{m1} – oliy navli mahsulot haqiqatdagi hajmi;

OSM- oliy navli sotilgan mahsulot hajmi;

T₁, T₀ – mahsulot tannarxi.

5.7-jadval.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga sort boʻyicha oʻzgarishlar taʼsiri tahlili.

Mahsulot sorti	Mahsulot bir birligi (ming soʻm)	Mahsulot strukturasi, %			Struktura evaziga oʻrtacha baho oʻzgarishi (ming soʻm)
		reja	haqiqatda	Farq (+;-)	
Oliy	7000	21,73	21,81	+0,08	+5,6
1	6000	32,61	30,85	-1,76	-105,6
2	4000	29,35	29,79	+0,44	+17,6
3	2000	16,31	17,55	+1,24	+24,8
Jami	x	100	100	-	-57,6

Mahsulot hajmi 1 sort bo'yicha ishlab chiqarish kamayishi va 2, 3- sortli mahsulotlar miqdori o'sgan. Shu sababli mahsulot o'rtacha bahosi 57,6 ming so'mga pasaygan. Mahsulot o'rtacha baxosining pasayishi jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini 541,4 ming so'mga $(-57,6 \cdot 9400)$ kamaytirgan.

5.8-jadval.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga brak miqdori ta'siri tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor (ming so'm)
1.	Brak mahsulot qiymati	2505,0
2.	Brak mahsulotni tiklash xarajatlari	270,0
3.	Brak mahsulotning foydalanish uchun mumkin bo'lgan qiymati	755,0
4.	Aybdorlardan brak mahsulot uchun undirilgan zarar miqdori	27,0
5.	Brak mahsulotdan ko'rilgan zarar miqdori	1993,0

Korxonalar rentabelligi 17,7 foizni tashkil etgan. brak mahsulot natijasida korxonalar ko'rgan jami zarar miqdori 2345,8 ming so'mdan $(1,177 \cdot 1993,0)$ iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishdagi brak mahsulot ishlab chiqarish sabablari tasnifi:

- ✓ ishlab chiqarish maromiyligini buzilishi;
- ✓ xom-ashyo sifati pastligi;
- ✓ xodimlar malakasi pastligi;
- ✓ ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi kamchiliklar;
- ✓ texnologiya darajasi pastligi.

5.5. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili.

Maromiylilik- rejaga muvofiq bir xil miqdorda belgilangan jadval va assortimentlarda mahsulot ishlab chiqarish hisoblanadi.



5.10-rasm. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi buzulishi oqibatlari

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini ifodalovcho ko'rsatkichlar va ularni hisoblash yo'llari

Maromiylik koeffitsenti

*Rejadagi
miqdordan ortiq
bo'lmagan
haqiqiy mahsulot
miqdorini
rejadagi
miqdorga nisbati.*

$$K_M = \frac{Y_{M_{1,0}}}{Y_{M_0}}$$

Variatsiya koeffitsenti

*Mahsulot haqiqiy
va rejayiy
miqdorlari farqini
o'rtakadrat
darajasini kunlik
(dekadalik, oylik)
rejadagi miqdoriga
nisbati.*

$$K_B = \frac{\sqrt{\sum_{i=1}^n (Y_{M_1} - Y_{M_0})^2}}{n} : \overline{Y_{M_0}}$$

Bunda, K_M – maromiylik koeffitsenti;

$Y_{M_{1,0}}$ - ishlab chiqarilgan mahsulotning rejadan ortiq bo'lmagan miqdori;

Y_{M_0} - reja bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori;

K_B - variatsiya koeffitsenti;

n – rejadagi topshiriqlar soni.

6-BOB. MAHSULOT (ISH, XIZMATLAR)NI SOTISH HAJMI VA ULARNING O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

6.1. Korxonada mahsulot sotish hajmlari tahlilining mazmuni, vazifalari va axborot manbalari.

Ushbu mavzu doirasida korxonada faoliyatini iqtisodiy tahlili bilan bog'liq quyidagi masalalar o'rganiladi:

➤ xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda mahsulot sotish hajmlarini tahlil etishning mazmuni, vazifalari va axborot manbalari;

➤ mahsulot sotish hajmi va uning dinamikasi tahlili;

➤ sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarning hisoblash;

➤ mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishini tahlili;

➤ sotilgan mahsulot sifatining tahlili;

➤ mahsulotni sotish hajmini oshirishning ichki imkoniyatlarini aniqlash.

Tahlilning maqsadi -mahsulotlar sotish hajmi, uning dinamikasi va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini hisoblash hamda mahsulotni sotishni ko'paytirish yo'llarini aniqlash hisoblanadi.

Mahsulot sotish hajmi va ular o'zgarishiga ta'sir etgan omillar tahlilining vazifalari:

<i>• mahsulot sotis rejasi umumiy hajmi bajarilishi va uning o'zgarishlarini aniqlash;</i>
<i>• mahsulot sotish hajmi dinamikasi o'zgarishlarini aniqlash;</i>
<i>• mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tarkibini aniqlash va ular ta'sirini hisoblash;</i>
<i>• mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi holatini o'rganish va ularga baho berish;</i>
<i>• mahsulot sotish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik sabablari va oqibatlarini aniqlash va ularga baho berish;</i>
<i>• mahsulotni sotish hajmini oshirishning ichki imkoniyatlarini tavsiya etish.</i>

Mahsulot sotish hajmi tahlilining axborot manbalari tarkibi:

- 1-S, 2-S, statistik hisobotlar ma'lumotlari;
- biznes reja;
- moliyaviy hisobot 2- shakli ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisobi ma'lumotlar;
- boshqa ma'lumotlar.

6.2. Mahsulot sotish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular tahlili.

Bozor munosabatlari erkin iqtisodiyot ekanligi sababli tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasidagi barcha iqtisodiy aloqalar tashqi aralashuvchi o'zaro kelishuv asosida tashkil etiladi. Mahsulot, ish va xizmatlarni sotish bozorni tartibga solib

turuvchi talab va taklif qonuni asosida amalga oshiriladi. Shu sababli tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatining yakuni ishlab chiqargan mahsulotini sotish ishlarining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq bo'lib qoladi. Tahlil jarayonida mahsulot sotish ishlari holati va dinamikasi, ularga ta'sir etuvchi omillar tatkibi, mahsulot hajmiga ta'sir etgan omillar tarkibi hamda har bir turdagi omil o'zgarishi evaziga mahsulot hajmi miqdorida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligi aniqlanadi. Amalga oshirilgan tahliliy ishlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida faoliyat samaradorligini oshirishning ichki imkoniyalariga baho beriladi.

6.1-jadval.

Mahsulot sotish rejasi umumiy hajmi bajarilishi va o'zgarishlari tahlili

Yillar	Joriy bahodagi sotilgan mahsulot hajmi, (mings o'm)	Baho indeksi	O'tgan yilgi bahodagi sotilgan mahsulot hajmi, (ming so'm)	Mutloq farq (+;-)		Sotish hajmi bajarilishi, %	
				Joriybahoda	Sotishtirmabahoda	Joriy bahoda	O'tgan yilgi bahoda
xxx3	20110	1,0	20110	-	-	-	-
xxx4	31754	1,3	24426	+ 11644	+ 4316	158,0	121,0
xxx5	41618	1,32	31529	+9864	+7103	131,0	129,0

Solishtirma bahodagi tovar aylanmasini aniqlash:

$$MS_{QH} = \frac{MS_1}{IP} = \frac{31754}{1,3} = 24426,0 \text{ ming so'm}$$

MS_{qh} – Solishtirma bahodagi mahsulot miqdori;
 MS_1 – Joriy bahodagi sotilgan mahsulot hajmi;
 ip – Baho indeksi.

Baho indeksini aniqlash:

$$J_p = \frac{P_1}{P_0};$$

Tovaraylanmasi bo'yicha mutloq farqni aniqlash:

$$\Delta MS = MS_1 - MS_0 = 31754 - 41768 = \\ +11644,0 \text{ mingso'm}$$

Mahsulot sotish hajmi bajarilishini aniqlash:

$$MS_b = \frac{MS_1}{MS_0} * 100;$$

Mahsulotni sotilish tezligin ianiqlash:

$$ST = \frac{\overline{TQ}}{SM_k};$$

ST – mahsulotni sotilish tezligi;

\overline{TQ} – mahsulotni o'rtacha qoldig'i;

SM_k – Bir kunda o'rtacha sotilgan mahsulot miqdori.

Ushbu ko'rsatkich mahsulotni savdo jarayoni kunlari miqdorini ifodalaydi. Mahsulot sotilishi tezligining o'sishi mahsulotga bo'lgan talab pasayishini, kamayishi esa talabning

o'sishi va sotish bilan bog'liq ishlarni tashkil etish yaxshi yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

6.2-jadval.

Mahsulot sotish hajmiga omillar ta'sirini tovar balansi usulida tahlil qilish

№r	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi			Rejaga nisbatan mutloq farq(+/-)	Omillar ta'siri (+ ijobiy) (- salbiy)
			Reja	Haqiqatda		
1.	Hisobot davri boshidagi tovar qoldig'i	O_b	16166	25352	+9186	+9186
2.	Hisobot davrida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hajmi	T	268682	281126	+12444	+12444
3.	Hisobot davri oxiridagi tovar qoldig'i	O_o	24394	26098	+1704	-1704
4.	Sotilgan mahsulot hajmi	SM	260454	280380	+19926	+19926

Tovar balansi formulasi:

$$O_b + T = O_o + SM = 16166 + 268682 = 24394 + 260454$$

Sotilgan mahsulot miqdorini aniqlash:

$$SM = O_b + T - O_o = 16166 + 268682 - 24394 = 160454$$

Sotilgan mahsulot miqdoriga omillar ta'sirini aniqlash:

$$\Delta SM = 9186 + 12444 - 1704 = +19926$$

6.3. Sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash yo'llari.

Mahsulotni sotish hajmi o'zgarishiga bir guruh omillar ta'sir etadi. Tahlil jarayonida ushbu omillar guruhi har bir turi tarkibi aniqlanadi va har bir guruh omillar ta'siri miqdori iqtisodiy tahlil usullari yordamida hisoblanishi zarur.

Mahsulotni sotish hajmi miqdori o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar guruhida mehnatga oid omillar ta'siri katta bo'ladi.

Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi mehnatga oid omillar tarkibi:

• <i>xodimlar sonining o'zgarishi (X);</i>
• <i>bir xodimning ishlagan ish kunidagi o'zgarish (I_k);</i>
• <i>ish vaqti davomiyligi o'zgarishi (V);</i>
• <i>o'rtacha bir xodimga to'g'ri keladigan soatbay ish unumi o'zgarishi (MU_j).</i>

6.3-jadval.

Korxonada faoliyati natijalari to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1. Sotishdan tushum, ming so'm	12600	16190
2. Xodimlar o'rtacha soni, kishi	151	165
3. Barcha xodimlarning umumiy ishlangan kunlari, kishi kunlarda	36240	39270
4. Barcha xodimlarning ishlagan ish soatlari, kishi-soatda	289920	306306

Ushbu ma'lumotlar asosida mahsulot hajmi o'zgarishiga mahsulot hajmi o'zgarishiga mehnatga oid omillar ta'sirini aniqlash yo'llarini ko'rib chiqamiz. Buning uchun ko'rsatkichlar bo'yicha mutloq va nisbiy o'zgarishlar miqdorlarini aniqlaymiz va natijalarni quyidagi tarzda jadval ko'rinishida ifodalaymiz.

6.4-jadval.

Mahsulot hajmi o'zgarishiga mehnatga oid omillar ta'siri tahlili.

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	O'tgan yil	Hisobot yili	Mutloq farq(+, -)	O'tgan yilga nisbatan, %
1.Sotishdan tushum, mingso'm	SM	12600	16190	+3590	128,49
2.Xodimlar o'rtacha soni, kishi	X	151	165	+14	109,27
3.Barcha xodimlarning umumiy ishlangan kunlari, kishi kunlarda	IK	36240	39270	+3030	108,36
4.Barcha xodimlarning ishlagan ish soatlari,kishi-soatda	IS	289920	306306	+16386	105,65

Demak, mahsulot sotish hajmining o'tgan yilga nisbatan mutloq farqi + 3560,0 ming so'mni tashkil etgan.

$$\begin{aligned}\Delta SM &= SM_1 - SM_0 = 16190 - 12600 = \\ &= +3590,0 \text{ ming so'm}\end{aligned}$$

Nisbiy miqdor: ($\Delta SM = \frac{16190}{12600} * 100 = 128,49 - 100$)
28,49 foizni tashkil etgan.

Xuddi shunday tartibda boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha mutloq va nisbiy farqlar hisoblab olinadi.

Ushbu o'zgarish miqdoriga omillar ta'sirini hisoblash uchun yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari bo'yicha qo'Shimcha ravishda quyidagi mehnatga oid miqdorlar asosida mahsulot hajmi miqdorini aniqlash formulasi (algoritmi)ni tuzamiz.

Mahsulot sotish hajmi miqdorini aniqlash hisob-kitobi:

$$SM = X * I_k * V * MU_s;$$

Demak mahsulot sotish hajmi miqdori o'zgarishiga mehnat bilan bog'liq quyidagi omillar ta'sir etgan:

- Xodimlar o'rtacha soni;
- Bir xodimning ishlagan ish kunlar soni;
- Ish kuni davomiyligi.

O'rtacha bir xodimga to'g'ri keladigan soatbay ish unumi yuqoridagi mahsulot sotish hajmi miqdorini aniqlash hisob-kitob algoritmi asosida iqtisoliy tahlilning mutloq farq usuli yordamida sotish hajmi miqdori o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblaymiz (6.5-jadval).

1. Xodimlar soni o'zgarishi (+14 kishi) evaziga mahsulot sotish hajmi o'zgarishini aniqlash:

$$\begin{aligned}\Delta SM_x &= \Delta X * I_{k0} * V_0 * MU_{s0} = +14 * 240 * 8 * 43,460 \\ &= +1168,0 \text{ ming so'm,}\end{aligned}$$

yoki 32,53 foizga mahsulohajmi xodimlar soni o'sishi evaziga ko'paygan.

2. Bir xodimning ishlagan ish kunlar sonio'tgan yilga

nisbatan 2 kishiga kamaygan, ushbu omil ta'siri natijasini quyidagi tartibda aniqlaymiz:

$$\Delta SM_{ik} = X_1 * \Delta I_{k0} * V_0 * MU_{s0} = 165 * (-2) * 8 * 43,460 \\ = -115,0 \text{ ming so'm,}$$

yoki 3,2 foizga kamaygan.

6.5-jadval.

Mahsulot sotish hajmi va mehnatga oid ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitoblari.

Ko'rsatkichlar	Shart -li belgi	O't-gan yil	Hisob ot yili	Farqi (+,-)	Foiz-da
1. Bir xodimning ishlagan ish kunlar soni kun (3 q./2 q.)	I_k	240	238	-2	99,17
1.Ish kuni vaqti davomiyligi, s (4q./3q.)	V	8	7,8	-0,2	97,50
3. O'rtacha bir xodimga to'g'ri keladigan soatbay ish unumi (1q./4q.), so'm.	(MU_s)	43,460	52,855	+9,396	1,44
4. O'rtacha bir xodimga to'g'ri keladigan yillik ish unumi (1q./2q.) ming so'm	(MU_y)	69,61	98,12	+28,5	140,95

Mahsulot sotish hajmi miqdorini aniqlash hisob-kitobi:

$$SM = X * I_k * V * MU_s ;$$

Demak mahsulot sotish hajmi miqdori o'zgarishiga mehnat bilan bog'liq quyidagi omillar ta'sir etadi:

- Xodimlar o'rtacha soni:
- Bir xodimning ishlagan ish kuni soni:
- Ish kuni davomiyligi:
- O'rtacha 1 xodimga to'g'ri keladigan soatbay ish unumi.

Yuqoridagi mahsulot sotish hajmi miqdorini aniqlash hisob-kitob algoritmi asosida iqtisodiy tahlilning mutloq farq usuli yordamida sotish hajmi miqdori o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblaymiz.

1. Xodimlar soni o'zgarishi (+14kishi) evaziga mahsulot sotish hajmi o'zgarishini aniqlash:

$\Delta SM_x = \Delta X * I_{k0} * V_0 * MU_{s0} = +14 * 240 * 8 * 43,460 = +1168,0$
ming so'm, yoki 32,53 foizga mahsulot hajmi xodimlar soni o'sishi evaziga ko'paygan.

2. Bir xodimning ishlagan ish kunlari soni o'tgan yilga nisbatan 2 kishiga kamaygan, ushbu omil ta'siri natijasini quyidagi tartibda aniqlaymiz:

$\Delta SM_{ik} = X_1 * \Delta I_{k0} * V_0 * MU_{s0} = 165 * (-2) * 8 * 43,460 = -115,0$
ming so'm yoki 3,2 foizga kamaygan.

3. Ish kuni vaqti davomiyligi korxonada o'tgan yilga nisbatan -0,2 soatga kamaygan, ushbu omil ta'siri evaziga mahsulot sotish hajmi miqdori:

$$\begin{aligned} \Delta SM_v &= X_1 * I_{k1} * \Delta V * MU_{s0} \\ &= 165 * 238 * (-0,2) * 43,460 \\ &= -341,0 \text{ ming so'm,} \end{aligned}$$

yoki 9,5 foizga kamaygan.

4. Korxonada hisobot yilida xodimlarning bir soatlik ish unumi o'tgan yilga nisbatan 9,396 ming so'mga oshgan va ushbu omil ta'siri natijasida yillik mahsulot sotish hajmi:

$$\begin{aligned} \Delta SM_{mu} &= X_1 * I_{k1} * V_1 * \Delta MU_{s0} = 165 * 238 * 7,8 * 9,396 \\ &= +2878,0 \text{ ming so'm,} \end{aligned}$$

yoki 80,17 foizga oshgan.

Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etgan barcha omillar ta'sirining yig'indisi natija o'zgarishi miqdoriga teng bo'lishi zarur. Shu sababli barcha omillar yig'indisini tekshirib ko'ramiz.

$$\begin{aligned}\Delta SM &= \Delta SM_x + \Delta SM_{ik} + \Delta SM_v + \Delta SM_{mu} = \\ &= 1168,0 + (-115,0) + (-341,0) + 2878,0 \\ &= 3590,0\end{aligned}$$

Ushbu mutloq miqdoriy o'zgarishning nisbiy darajalariga mos kelishini quyidagi tartibda tekshirib ko'rish mumkin:

$$\Delta SM = 32,53 + (-3,2) + (-9,5) + 80,17 = 100$$

Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga mehnat bilan bog'liq omillar ta'sirini oddiy tarzda ikki omilli multiplikativ model (algoritm) asosida hisoblash ham mumkin. Buning uchun avval hisob-kitob algoritmini tuzib olamiz:

$$SM = X * MU_y;$$

Bunda,

SM-sotilgan mahsulot hajmi;

X-xodimlar o'rtacha yillik soni;

MU_y-o'rtacha bir xodimga to'g'ri keladigan ish unumi.

Mahsulot sotish hajmi miqdori o'zgarishiga omillar ta'sirini ushbu tartibda aniqlash uchun mehnat resurslaridan foydalanishning ekstensiv va intensiv koeffitsentlaridan foydalanamiz.

Mehnat resurslaridan foydalanishning ekstensiv koeffitsentini quyidagi tartibda aniqlaymiz:

$$K_e = \frac{\Delta X\%}{\Delta SM\%} = \frac{9,27}{28,49} = 0,325$$

Mehnat resurslaridan foydalanishning intensiv koeffitsentini quyidagi tartibda aniqlaymiz:

$$K_i = 1 - K_z = 1 - 0,325 = 0,675$$

Hisobot yilida sotish hajmi miqdorini 1 foizga o'sishi

mehnat resurslaridan intensiv foydalanish darajasini 0,325 foizga, bir xodimning o'rtacha ish unumini esa 0,675 foizga oshishiga sabab bo'lgan. Demak, korxonada mehnat resurslaridan foydalanish samradorligi ijobiy bo'lgan. Ushbu hisob-kitoblar asosida mahsulot sotish jami hajmi o'zgarishiga ekstensiv va intensiv omillar ta'sirining mutloq miqdorini aniqlaymiz:

$$\Delta SM_e = \Delta SM * K_e = +3590 * 0,325 = +1167,0 \text{ ming so'm}$$

Mahsulot sotish jami hajmi o'zgarishiga ekstensiv omil ta'sirini hisoblaymiz:

$$\Delta SM_i = \Delta SM * K_i = +3590 * 0,675 = +2423,0 \text{ ming so'm}$$

Mehnat resurslaridan foydalanishning ekstensiv va intensiv omillar ta'siri natijalari umumiy miqdori:

$$\Delta SM = \Delta SM_e + \Delta SM_i = 1167,0 + 2423,0 = 3590,0 \text{ ming so'm}$$

Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan bog'liq omillardan tashqari omillar ham ta'sir etadi. Shunday omillar qatoriga asosiy fondlardan foyda anish bilan bog'liq omillarni ham kiritish mumkin. Endi mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga asosiy fondlardan foydalanish bilan bog'liq omillar ta'sirini aniqlash yo'llarini ko'rib chiqamiz (6.6-jadval).

Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga ta'siretuvchi asosiy fondlardan foydalanish bilan bog'liq omillar tarkibi:

• asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati o'zgarishi (A);
• asosiy vosita jami miqdoridagi aktiv qismi ulushining o'zgarishi (A_u);
• asosiy vosita aktiv qismi umumiy ish vaqti o'zgarishi (A_{iv});
• asosiy vosita aktiv qismi bir soatlik ish vaqtiga to'g'ri keladigan ish unumi oshishi (A_s)

6.6-jadval.

Korxonada faoliyati bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud.

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Hiso bot davri	Faq (+, -)	O'zgarish sur'ati, %
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>
1. Sotilgan mahsulot hajmi (SM), ming so'm	12600	16190	+3590	128,5
2. Asosiy vositalari (AV) o'rtacha yillik qiymati (A), ming so'm	1560	1688	+128	101,1
3. Asosiy ishlab chiqarish vositalari o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	750	844	+94	112,5
4. AVlar aktiv qismi ulushi (A_u), ($3q/2q$)	0,4808	0.50	+0,0192	103,9
6. AVlar ishlagan ish vaqti, stanok smena (A_{ij})	1835	1873	+38	102,1
7. AV aktiv qismi bir soatlik ish vaqtiga to'g'ri keladigan ish unumi oshishi (A_s)	9.155	10,242	+1,087	111,9

Ushbu ma'lumotlar asosida korxonada mahsulot sotish hajmi miqdori o'zgarishiga asosiy fondlar samaradorligi bilan bog'liq omillar ta'sirini hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga asosiy fondlardan foydalanish bilan bog'liq omillar ta'sirini aniqlash maqsadida avval mahsulot hajmi va omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hisob-kitobi (algoritmi)ni formulasini tuzamiz.

$$SM = A * A_u * A_i * A_s.$$

Iqtisodiy tahlilining mutloq farq usuli bo'yicha omillar ta'sirini aniqlaymiz.

1. Asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi evaziga mahsulot sotish hajmi o'zgarishini aniqlash:

$$\begin{aligned} \Delta SM_a &= \Delta A * A_{u0} * A_{i0} * A_{s0} = +128 * 0,4808 * 1835 * 9,155 = \\ &= +1034 \text{ ming so'm} \end{aligned}$$

2. Asosiy vositalarning aktiv qismi ulushining o'zgarishi evaziga mahsulot sotish hajmi o'zgarishini aniqlash:

$$\begin{aligned} \Delta SM_u &= A_1 * \Delta A_u * A_{i0} * A_{s0} = \\ &= 1688 * (+0,0192) * 1835 * 9,155 = \\ &= +544 \text{ ming so'm} \end{aligned}$$

3. Asosiy vositalarning aktiv qismi ish vaqti o'zgarishi evaziga mahsulot sotish hajmi o'zgarishini aniqlash:

$$\begin{aligned} \Delta SM_i &= A_1 * A_{u1} * \Delta A_i * A_{s0} = 1688 * 0,50 * (+38) * 9,155 = \\ &= +294 \text{ ming so'm} \end{aligned}$$

4. Asosiy vositalarning aktiv qismi bir soatlik ish vaqtiga to'g'ri keladigan ish unumi o'zgarishi evaziga mahsulot sotish hajmi o'zgarishini aniqlash:

$$\begin{aligned} \Delta SM_s &= A_1 * A_{u1} * A_{i1} * \Delta A_s = \\ &= 1688 * 0,50 * 1873 * (+1,087) = \\ &= +1718 \text{ mingso'm} \end{aligned}$$

Omillar ta'siri yig'indisi mutloq miqdorda:

$$\begin{aligned} \Delta SM &= \Delta SM_a + \Delta SM_u + \Delta SM_i + \Delta SM_s = -1034 + 544 + 294 + \\ &1718 = +3590 \text{ ming so'mga teng.} \end{aligned}$$

Nisbiy miqdorlarda:

$$\Delta SM = 28.80 + 15.15 + 8.19 + 47.86 = 100 \%$$

Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga asosiy vositalar samaradorligi bilan bog'liq omillar ta'sirini oddiy tarzda ikki omilli multiplikativ model (algoritm) asosida hisoblash ham mumkin. Buning uchun avval hisob-kitob algoritmini tuzib olamiz:

$$SM = A * F_q;$$

Bunda,

SM-sotilgan mahsulot hajmi;

A-asosiy vositalar o'rtachayillik qiymati;

F_q-fond qaytimi.

Mahsulot sotish hajmi miqdori o'zgarishiga asosiy vositalar samaradorligi bilan bog'liq omillar ta'sirini ushbu tartibda aniqlash uchun ularning ekstensiv va intensiv koeffitsentlaridan foydalanamiz.

Asosiy vositalar samaradorligining ekstensiv koeffitsentini quyidagi tartibda aniqlaymiz:

$$K_e = \frac{\Delta A\%}{\Delta SM\%} = \frac{1,01}{28,49} = 0,035$$

Asosiy vositalardan foydalanishning intensiv koeffitsentini quyidagi tartibda aniqlaymiz:

$$K_i = 1 - K_z = 1 - 0,035 = 0,965$$

Asosiy vositalardan ekstensiv foydalanish natijasida sotish hajmi o'tgan yilga nisbatan :

$$\Delta SM_i = 3590 * 0.035 = +125.4 \text{ so'mga o'sgan.}$$

Asosiy vositalardan ekstensiv foydalanish evaziga sotish hajmi o'tgan yilga nisbatan :


$$\Delta SM_e = 3590 * 0.965 = +3464.6 \text{ so'mga o'sgan.}$$

Omillar ta'siri yig'indisi:

$$\Delta SM = \Delta SM_i + \Delta SM_e = 125.4 + 3464.6 \text{ ming so'mga teng.}$$

6.4. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlari ijrosi tahlili.

Mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalar bajarilishi korxonada faoliyati barqarorligi va moliyaviy natijalari yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun mahsulot sotish hajmini tahlili jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'yektning mahsulot etkazib berish shartnomalarining bajarilish darajasi, shartnoma shartlarining ijrosi tahlili qilinadi. Shartnoma majburiyatlari ijrosi tahlilining ahamiyati uning oqibatlarida namoyon bo'ladi.



6.1-rasm.Shartnoma majburiyatlari bajarilishi oqibatlari tasnifi.

Majburiyatlari bajarilishi tahlili ob'yektlari tarkibi:

- mahsulot assortiment bo'yicha yetkazib berish;
- mahsulot yetkazib berish umumiy hajmi;
- shartnoma majburiyatlari bajarilishi maromiyligi;
- har bir ist'molchi bo'yicha shartnomalar bajarilishi.

Iqtisodiy tahlil jarayonida ushbu miqdorlar o'zgarishlari mutloq va nisbiy darajalarda hisoblanadi. Shuningdek mahsulot etkazib berish mahsulot turlari, assortimentlari va har bir ist'molchilar bo'yicha majburiyatlar ijrosi tahlil qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning shartnoma bo'yicha mahsulot etkazib berish majburiyatlari bajarilishi va uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni amaliy ma'lumotlar asosida tahlil qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz (6.7-jadval).

6.7-jadval.

Korxonada faoliyati bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud:
(ming so'mda)

Mahsulot turi	Iste'molchilar	Mahsulot etkazi berish bo'yicha Shartnomalar hajmi	Haqiqatda etkazib berilgan mahsulot hajmi	Shartnoma bajarilmagan hajmi	Reja miqdorida qabul qilingan hajm
<i>A</i>	<i>1</i>	<i>1100</i>	<i>1110</i>		<i>1100</i>
<i>B</i>	<i>2</i>	<i>1050</i>	<i>950</i>	<i>-100</i>	<i>950</i>
<i>E</i>	<i>3</i>	<i>900</i>	<i>930</i>		<i>900</i>
<i>S</i>	<i>1</i>	<i>1200</i>	<i>1200</i>		<i>1200</i>
<i>D</i>	<i>2</i>	<i>850</i>	<i>700</i>	<i>-150</i>	<i>700</i>
Jami	x	5100	4890	-250	4850

Ushbu ko'rsatkichlar asosida korxonada mahsulot yetkazib berish bo'yicha tuzilgan shartnoma ijrosini tahlil qilamiz. Mahsulot yetkazib berish shartnomalari bajarilishi darajasi quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$K_{shb} = \frac{SHH_r - SHH_e}{SHH_r} = \frac{5100 - 250}{5100} = 0,909, \quad \text{yoki } 95,1 \%$$

Demak korxonada mahsulot etkazib berish bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilishi 95,1 foizni tashkil etib, mijozlarga umumiy miqdorda ikkita mahsulot turi bo'yicha 4,9 foiz hajmdagi mahsulotlar etkazib berilmagan.

Xuddi shunday tartibda mahsulot sotish bo'yicha shartnomalar bajarilishi yil natijasiga ko'ra ham tahlil qilinadi va aniqlangan holatlar bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlanadi.

6.5. Sotilgan mahsulot hajmiga strukturaviy o'zgarishlar ta'siri tahlili.

Mahsulot sotish hajmi miqdoriga uning strukturasi o'zgarishlar ham ta'sir etadi. Mahsulot strukturasi sodir bo'lgan o'zgarishlarning sotish hajmi miqdoriga ta'sirini tahlil qilish uchun avval struktura omili evaziga sotish hajmining o'zgarishi aniqlanadi. Korxonaning mahsulot sotish hajmi miqdori va baholari to'g'risidagi ma'lumotlar asosida sotish hajmi o'zgarishiga struktura omili ta'sirini hisob-qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz (6.8-jadval).

Mahsulot sotish hajmi rejasi bajarilish koeffitsenti aniqlaymiz:

$$41020/40800 = 1,00539 \text{ ga teng.}$$

Ushbu ma'lumotlar asosida mahsulot sotish rejasi va haqiqiy hajmi qiymatlari hamda rejadagi struktura bo'yicha sotilgan mahsulot hajmini aniqlab olamiz.

Mahsulot sotish rejasi bajarilishi tahlili.

Mahsulot turi	Bir birlik mahsulot ulgurji bahosi, (ming so'm)	Mahsulot sotish hajmi, (dona)		Reja bajarilishi, %
		Rejada	Haqiqatda	
A	4.0	12050	12200	101,4
B	3.5	7900	7500	94,9
S	5.0	12000	12020	100,2
D	6.0	8850	9300	105,1
Jami	x	40800	41020	100,5

Rejadagi struktura bo'yicha sotilgan mahsulot hajmi reja bajarilish koeffitsientini sotish hajmining rejadagi qiymat hajmiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib "A" mahsulot bo'yicha ushbu miqdorni hisoblaymiz:

$$SM_{qh} = \frac{SM_1}{SM_0} * SM_{0i} = \frac{41020}{40800} * 188950 = 48460 \text{ ming so'm.}$$

Xuddi shu tartibda barcha mahsulot turlari bo'yicha sotish hajmi miqdorlarini aniqlab olamiz va quyidagi jadvalni tuzamiz.

**Mahsulot strukturasi omilini sotish hajmi miqdori
o'zgarishiga ta'sirini aniqlash.**

Mahsulot turi	Bir birlik mahsulot ulgurji bahosi, (mingso 'm)	Mahsulot sotish hajmi (dona)		Reja bahosidagi mahsulot sotish hajmi (mingso 'm)			Struk-turaevazigasotishha mio'zga-rishi
		Rejada	Haqiqatda	Reja	Reja strukturabo 'yicha	Haqiqatda	
A	4.0	12050	12200	48200	48460	48800	+340
B	3.5	7900	7500	27650	27799	26250	-1549
S	5.0	12000	12020	60000	60323	60100	-223
D	6.0	8850	9300	53100	53386	55800	+2414
Jami	X	40800	41020	188950	189968	190950	+982

Demak, korxonada rejadagi struktura bo'yicha rejalashtirilgan sotish hajmida o'zgarish sodir bo'lgan. Hisobot davrida "A", "S" va "D" mahsulotlarni sotish o'sgan va "B" mahsulotni sotish kamaygan. Ushbu strukturaviy o'zgarishlar evaziga 982 ming so'mga ko'paygan.

Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga mahsulotlar strukturasi omili ta'sirini *nisbiy miqdorlar farqi usuli* bilan ham hisoblash mumkin. Buning uchun avvalo miqdor va qiymat ko'rinishidagi sotish hajmlari rejasi bajarilishini aniqlab olamiz:

$$K_m = \frac{SM_{m1}}{SM_{m0}} = \frac{41020}{40800} = 1,00539;$$

$$K_q = \frac{SM_{q1}}{SM_{q0}} = \frac{190950}{188950} = 1,01058;$$

Mahsulot sotish hajmi o'zgarishiga mahsulot strukturasi omili ta'sirini hisoblash:

$$\begin{aligned} \Delta SM_{str} &= (K_q - K_m) * SM_0 = (1.01058 - 1.00539) * 188950 \\ &= +982 \text{ ming so'm} \end{aligned}$$

6.6. Mahsulotni sotish hajmini oshirish imkoniyatlari.

Mahsulot sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlash iqtisodiy tahlilning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyati tahlili jarayonida mahsulot sotishni ko'paytirishning ichki imkoniyatlari aniqlanadi.



6.2-rasm. Mahsulot sotish hajmini ko'paytirish imkoniyatlari tarkibi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- mahsulot sotish hajmi;
- mahsulot sotish umumiy hajmi;
- yalpi mahsulot , tovar mahsuloti, sotilgan mahsulot;
- mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar;
- mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillari;
- mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi asosiy fondlar bilan bog'liq omillar;
- mahsulot sotish hajmiga sifat omillari tahlili;
- mahsulot sotish ajmini oshirish imkoniyatlari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda mahsulot sotish hajmlarini tahlil etishning mazmuni, vazifalari nimalardan iborat ?
2. Tahlilning axborot manbalari va ularning ahamiyati qanday ?
3. Mahsulot sotish hajmi va uning dinamikasini tahlil qilish yo'llari qanday?
4. Sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tarkibini guruhlab bering ?.
5. Mahsulotlarni sotish hajmiga shartnoma majburiyatlarining bajarilishi ta'siri nimalardan iborat ?.
6. Sotilgan mahsulot hajmiga sifati omilining tahlil qanday amalga oshiriladi ?
7. Mahsulotni sotish hajmini oshirish imkoniyatlari qanday aniqlanadi ?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot sotish hajmlarini tahlil etishning zarurligi ular ob'yekti va sub'yektlari hamda manfaatlarini bayon eting.

2-topshiriq

Tovar balansi ma'lumotlaridan foydalanib turli omillarning sotilgan tovarlar miqdoriga ta'sirini hisoblang.

Tovar balansi formulasi $S = K_b + KT - V - K_{ox}$

Tovar resurslari	Rejada	Haqiqatda	Tovar resurslaridan foydalanish	Rejada	Haqiqatda
Oy boshidagi tovar qoldiqlari	600	620	Sotilgan tovarlar	1600	1520
Hisobot davrida kelib tushgan tovarlar	1400	1350	Boshqa yo'qotishlari	20	30
			Oy oxiridagi tovarlar	380	420
J a m i :	2000	1970	J a m i :	2000	1970

3-topshiriq. Hisob-kitoblar natijasi bo'yicha xulosa qiling

4-masala. Quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida tovar mahsulotlarini sotishdan olingan foyda rejasining bajarilishiga ta'sir etgan omillarni muvozanat usulidan foydalangan holda hisoblang.

K o' r s a t k i c h l a r	Rejada	Haqiqatda
1.Tovar mahsulotlarining to'la tannarxi	9920	10120
2.Tovar mahsuloti	11200	11500
3.Foyda	1280	1380

Jadval ma'lumotlari asosida xulosa qiling.

7-BOB.MEHNAT RESURSLARI BILAN TA'MINLANGANLIK, MEHNAT UNUMDORLIGI VA ULARNING MAHSULOT HAJMIGA TA'SIRINI TAHLILI

7.1. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari hamda axborot ta'minoti.

Bozor munosabatlar sharoitida korxonalarda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, sotish va boshqa xizmatlar ko'rsatishda inson omili asosiy harakatlantiruvchi mexanizm sifatida ishtirok etadi. Korxonada faoliyati qandachilik yuqori texnologiyalar asosida tashkil etilmasin, uning ishlatish, nazorat qilishda inson bevosita ishtirok etadi. Shu sababli iqtisodiy tahlil jarayonlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mehnat potensialini o'rganish va uning holati, o'zgarishlariga baho berish hisoblanadi. Korxonalar mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanish darajalari iqtisodiy tahlili faoliyat samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonada mehnat potentsiali to'g'ri foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishiga, mahsulot tannarxining pasayishiga, foyda miqdorining oshishiga hamda boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur mavzuda quyidagi masalalar o'rganiladi:

- mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini tahlil qilishning mohiyati va vazifalari., axborot manbalari;
- sub'yektlarning mehnat resurslari tarkibi va ularning dinamikasini tahlili;
- ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilar malaka darajasini tahlili;
- ish vaqtidan samarali foydalanish va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili;

• mehnat unumdorligi va unga ta'sir etuvchi omillar xamda ularni tahlili;

• xodimlarning o'rtacha ish kuni davomiyligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili;

• ishlab chiqarilgan mahsulotning mehnat sig'imi va mahsulot hajmiga mehnat omillarining ta'sirining tahlili.

Mehnat resurslaridan foydalanish tahlilining maqsadi - mehnat resurslaridan samarali foydalanishni yaxshilash evaziga mahsulot hajmini o'sishi, ish vaqtdan to'liq foydalanish hamda mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Mehnat resurslaridan foydalanish tahlili vazifalari:

1. Korxonada mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini tahlilining asosiy vazifalar;

2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish, ular tarkibi va o'zgarishini mehnat unumdorligiga bo'lgan ta'sirini aniqlash va baho berish;

3. Mehnat unumdorligi rejasining bajarilishi va dinamikasi, ulardagi o'zgarishlarni aniqlash;

4. Xodimlar qo'nimsizligiga baho berish;


5. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini aniqlash va ularga baho berish;

6. Bir xodimning mehnat unumdorligini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;

7. Ish vaqtdan foydalanish va bir soatlik ish unumdorligini o'zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlil qilish;

8. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.


Boshqa tahlil ob'ektlaridan farqli ravishda mehnat resurslari tahlili uchun zarur ma'lumotlar asosan statistik va boshqa manbalardan olinadi (7.1-rasm).



7.1-rasm. Mehnat resurslaridan foydalanish tahlili axborot manbalari tarkibi.

7.2.Mehnat potentsiali tarkibini guruhlash va ular tahlili.

Mehnat potentsiali — biror koʻzda tutilgan ishni (faoliyatni) bajarishga qodir boʻlgan turli malakaga ega barcha ishchi va xizmatchilar majmuasidir.



7.2-rasm.Mehnat potentsiali tarkibi.

*- ushbu guruh muqaddam 10 va 11 yillik ta'limni bitirgan , 8-9 yillikni bitirgan xodimlar kiritiladi.

Mehnat potentsiali natural va qiymat ko'rsatkichida ifodalanadi.

Mehnat potentsialining natural miqdori:

$$M_p(\text{kishi}) = \text{Oliy ma'lumotli xodimlar } (O_{mx}) + \\ + O' \text{ rta maxsus ma'lumotli xodimlar } (O'_{m_{mx}}) + \\ + O' \text{ rta ma'lumotli xodimlar } (O'_{mx}) + \\ + T_o' \text{ liqsiz o' rta ma'lumotli xodimlar } (T_o'_{mx})$$

Mehnat potentsialining qiymati:

$$M_p = (O_{mx} \cdot x_{araj} \cdot K_{om}) \cdot O_{mx} + (O'_{m_{mx}} \cdot x_{araj} \cdot K_{mm}) \cdot O'_{m_{mx}} + \\ + (O'_{mx} \cdot x_{araj} \cdot K_{um}) \cdot O'_{mx} + (T_o'_{mx} \cdot x_{araj} \cdot K_{t_{um}}) \cdot T_o'_{mx}$$

Mehnat resurslari deganda korxonada band bo'lgan mehnatga qobiliyatli yoshdagi (erkaklar 16-60 yosh, ayollar 16-55 yosh) ishchi va xizmatchilar tushuniladi.

Mehnat resurslari natural ko'rsatkichda ifodalanadi.

Mehnat resurslari (M_r) = Ishchilar (I) + Muhandis texnik xodimlar (M_{tx}) + Xizmatchilar (X_z) + Boshqaruv xodimlari (B_x)

$$M_r = I + M_{tx} + X_z + B_x$$

Xodimlar soni — korxonada band bo'lgan (ishidan qat'iy nazar) barcha ishchi va xizmatchilar yig'indisiga teng. Bu ham faqat natural miqdorda ifodalanadi.

$$X = I + M_{tx} + X_z + B_x$$

Xodimlar soni mehnat resurslaridan ishlayotgan pensioner va o'smirlar soniga ko'p bo'ladi.

Masalan, $M_r = 200$, $X = 220$, ishlayotgan pensioner va o'smirlar = 20.

$$X > M_r; \quad 220 > 200; \quad 220 = 200 + 20.$$

Mehnat potensialiga oid ko'rsatkichlarni aniqlash:

Ushbu ma'lumotlarga asosan mehnat potentsiali bilan bog'liq ko'rsatkichlar quyidagicha aniqlanadi:

Korxonada quyidagi tarkibda ishchi va xizmatchilar faoliyat ko'rsatadi.

1. Oliy ma'lumotli xodimlar,	-22
1.1.shu jumladan, pensioner va o'smirlar	-3
2. O'rta maxsus ma'lumotli xodimlar,	-31
2.1.shu jumladan, pensioner va o'smirlar	-4
3. O'rta ma'lumotli xodimlar,	-50
3.1.shu jumladan, pensioner va o'smirlar	-12
4. To'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar,	-18
4.1.shu jumladan, pensioner va o'smirlar	-1
5. Jami ishda band bo'lgan xodimlar:	
$(1k+2k+3k+4k)$	-121
5.1.shu jumladan, pensioner va o'smir:	
$(1.1+2.1+3.1+4.1)$	-20

Mehnat resurslari:

$$(22 - 3) + (31 + 4) + (50 - 12) + (18 - 1) = 101$$

Xodimlar soni:

$$22 + 31 + 50 + 8 = 121$$

Ishlayotgan pensionerlar va o'smirlar soni:

$$3 + 4 + 12 + 1 = 20$$

Mehnat potentsiali:

$$22 + 31 + 50 + 18 = 121 \text{ yoki } 101 + 20$$

$I_{kb} = \text{Asosiy mehnat haqi (Amh)} + \text{Qo'shimcha mehnat haqi (Qmh)} + \text{Har hil rag'batlantirish ko'rinishidagi tovarlar (Rt)}$

Bu quyidagi additiv modelda ifodalanadi:

$$U = \sum_{i=1}^3 H_i \quad (i = \overline{1,3})$$

Natural jihatdan korxonadagi band bo'lgan xodimlar soni mehnat potentsiali bilan teng bo'ladi.


Ish kuchining qiymati - shu xodimning (mutaxassisning) Shakllanishiga ketgan xarajatlar bilan ifodalanadi (Ikq).

Ish kuchining bahosi - xodimga (mutaxassisga) to'lanadigan asosiy va qo'shimcha mehnat haqida ifodalanadi (Ikb)

Ish kuchining qiymatini va bahosini aniqlashning hisob-kitobi.

Ushbu ko'rsatkichlar o'rta hisobda bir kishi misolida aniqlanadi.

1. O'rta ma'lumot olish uchun ketgan xarajatlar miqdori (10 yilda 3 mingdan)- 30,0 ming so'm ish kuchining bahosi.
2. O'rta maxsus ma'lumot olish uchun ketgan xarajatlar (2 yilda 5 mingdan)- 10.0 ming so'm.
3. Oliy ma'lumot olishga ketgan xarajatlar (4 yilda 15 mingdan)-60,0 ming so'm.
4. Malaka oshirishga ketgan xarajatlar -5,0 ming so'm.
5. 16 yil ma'lumot olish uchun ketgan jami xarajatlar, ya'ni ish kuchining qiymati($1q+2q+3q+4q$) - 105,0 ming so'm.
6. Xodimga to'lanadigan bir oylik asosiy mehnat haqi - 3,5 ming so'm.
7. Barcha qo'shimcha mehnat haqi-1,0 ming so'm.
8. Har xil rag'batlantirish yo'libilan beriladigan to'lovlar-0,8 ming so'm.
9.Ish kuchining bahosi($6q+7q+8q$) — 5,3 ming so'm.



7.3-rasm.Mehnat potensialini (mp) ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Hozirgi paytda har bir xodimning ma'lumot olish uchun o'rta hisobda bir kishiga qancha mablag' sarf qilinishi aniqlanmoqda. Ushbu misolda uslubiyot uchun shartli raqamlardan foydalanildi.

Mehnat potentsiali (M_p) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari

M_p . holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

M_p . ning o'rtacha soni:

$$M_p = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n M_{p_i};$$

M_p . bilan bog'liq ko'rsatkich-larni aniqlashda zarur. Bu bir davr birligida o'rtacha qancha M_p .band bo'lganli-gini ifoda etadi.

M_p . ning tarkibi:

$$M_{pt} = \frac{M_{p_i}}{M_{p.um}} * 100;$$

M_p tarkibida qancha mutaxassislar oliyyoki o'rta maxsus malumotga ega kadrlar ulushi kabilar ifoda etiladi

M_p . oboroti:

$$M_{p.ob.} = \frac{M_{p.k} + M_{p.b.}}{M_p};$$

Xisobot davrida qancha kishi ishdan bo'shagan ($M_{p.b.}$) va qabul qilinganligining ($M_{p.k.}$) ulushini ifodalaydi. Ishga qabul qilinganlar va ishdan bo'haganlarni aloxida xisoblash ham mumkin.

M_p .ning qo'nimsizligi:

$$M_{p.qo'n.} = \frac{M_{p.salb.}}{M_p};$$

Salbiy sabablar (shu jumladan o'z arizasiga binoan) bilan bo'shatilgan xodimlarning umumiy xodimlardagi ulushini ifoda etadi.

M_p . turg'unligi:

$$M_{p.tg'.} = \frac{M_{p3}}{M_p};$$

Korxonada turg'un odamlar, yani shu erda 3 yildan ortiq ishlagan odamlar sonini ifoda etadi.

7.1-jadval.

**Mehnat potentsiali holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni
aniqlash hisob-kitobi.**

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hiso- bot yilida	Farqi, (+;-)	O'zga rish surati, %
1	Mehnat potentsialining o'rtacha yillik soni, kishi	112	121	+9	180,0
2	Shu jumladan oliy malumotli mutaxassislar, kishi	20	22	+2	110,0
3	Ularning ulushi ,% (2 x 100 / 1)	17,86	18,18	+0,32	101,8
4	Ishchilar soni, kishi	98	106	+8	108,2
5	Ularning ulushi ,% (4 x 100 / 1)	87,5	87,6	+0,1	100,1
6	Ishga qabul qilinganlar, kishi	10	17	+7	170,0
7	Ishdan bo'shatilganlar, kishi	5	8	+3	160,0
8	Shu jumladan salbiy asoslar bilan bo'shatilganlar, kishi	3	5	+2	166,7
9	Mp. oboroti koefitsenti [(6 + 7) / 1]	0,134	0,207	+0,073	154,5
10	Mp qo'nimsizligi koefitsenti (8/1)	0,027	0,041	+0,014	151,9
11	Shu korxonada 3 yildan oshiq ishlagan xodimlar soni, kishi	101	105	+4	104,0
12	Mp. turg'unligi koefitsentda (11 / 1)	0,90	0,87	-0,03	96,7

Jadvaldagi ko'rsatkichlar soni ancha qisqartirib olindi. Masalan: mehnat potensialini xodimlar malakasi bo'yicha oladigan bo'lsak u to'rtta bo'lishi kerak. Ammo biz faqat oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushini aniqlash bilan cheklandik. Buni uslubiy asos uchun shunday qilindi.

7.3. Mehnat potentsiali bilan ta'minlanganlik va uni tahlil qilish yo'llari.

Mehnat potentsiali (Mp) bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari

MP bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar
<p>Shtat jadvalining mehnat potentsiali (SHJ_{mp}) bilan ta'minlanganligi:</p> $SHJ_{mp} = \frac{MP_h}{MP_{shj}};$ <p>Korxonada shtat jadvali qay darajada ta'minlanganligini, tegishli mutaxassislarning yetarli ekanligi yoki yangi mutaxassislarni qabul qilish zarurligi kabilarni ifodalaydi.</p>
<p>MP. sig'imi ($MP_{sg'}$);</p> $MP_{sg'} = \frac{MP}{Q};$ <p>Bitta mahsulot (ish, xizmat) birligiga to'g'ri keladigan MPni ifodalaydi.</p>
<p>MP.ning qurollanganligi:</p> $MP_q = \frac{AV}{MP};$ <p>MP qay darajada faol asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini, yoki uning teskarisi 1 so'm asosiy vositaga qancha MP to'g'ri kelishini ifoda etadi.</p>
<p>Aylanma mablag'larning MP. bilan ta'minlanganligi</p> $AM_{mp} = \frac{MP}{AM};$ <p>1 so'm aylanma mablag'larga qancha MP to'g'ri kelishini ifodalaydi yoki uning teskarisi MP ning qay darajada aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi.</p>

7.2-jadval.

**Mehnat potentsiali (MP) bilan ta'minlanganlikni
ifodalovchi ko'rsatkichlar hisob-kitobi.**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farq (+,-)	O'zgarish sur'ati, %
1.MP soni shtat jadvali bo'yicha, tegishli yil boshida, kishi	107	109	+2	101,9
2.Haqiqiy MP soni, tegishli yil boshida, kishi	110	114	+4	103,6
3.MP bilan shtat jadvalining ta'minlanganligi, koeffitsientda (1/2)	0,973	0,956	-0,017	98,3
4.Mahsulot hajmi, ming so'm	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
5.MP o'rtacha yillik miqdori, kishi	112	121	+9	108,0
6.Mehnat sig'imi bir million so'm mahsulotga to'g'ri keladigan xodimlar soni, kishi (5/4)	24,4	21,2	-3,2	86,9
7.Asosiy vositalar faol qismining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	3726	3938	+212	105,7
8.Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	5660	6000	+340	106,0
9.MPning qurollanganligi, ming so'm (7/5)	33,27	32,55	-0,72	97,8
10.Aylanma mablag'larning MP bilan ta'minlanganligi, bir million so'm aylanma mablag'ga to'g'ri keladigan MP, kishi (5/8)	19,8	20,2	+0,4	102,0

$$\text{Mehnat potentsiali samaradorligi} = \frac{\text{Natija (Q)}}{\text{Mehnat potentsiali (Mp)}}$$

Mp samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari.

MP bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar:	
MP natijaviyligi:	$MP\ nat = \frac{Q}{MP};$ <p>1 so'm MP summasiga yoki bir xodimga necha so'm mahsulot to'g'ri kelishini ifodalaydi.</p>
MP rentabelligi:	$Mp.r = \frac{F * 100}{MP};$ <p>100 so'm MP so'mmasiga yoki bir xodimga qancha foyda summasining to'g'ri kelishini ifodalaydi.</p>
MP daromadliligi:	$Mp.d = \frac{D*100}{MP};$ <p>100 so'm MP so'mmasiga, yoki bir xodimga qancha daromad so'mmasi to'g'ri kelishini ifodalaydi.</p>

7.3-jadval.

Mehnat potentsiali (mp) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning hisob-kitobi.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati, %
1. Mahsulot hajmi, ming so'm	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
2. Yalpi daromad, ming so'm	511,0	711,7	+200,7	139,3
3. Sof foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	134,8
4. MP o'rtacha yillik miqdori, kishi	112	121	+9	108,0
5. MP natijaviy-ligi, ya'ni mehnat unumdorligi, ming so'm (1/4)	40,92	47,06	+6,14	115,0
6. MP daromadli-ligi, ming so'm (2/4)	4,56	5,88	+1,32	128,9
7. MP foydaliligi, ming so'm (3/4)	3,29	4,1	+0,81	124,6

Mehnat potentsiali (mp) samaradorligini (rentabelligi) va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hisob-kitobi.

MP samaradorligini (rentabelligi) foydani yuzga ko'paytirib, uning miqdori yoki qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$\text{Mehnat potentsiali samaradorligi:}$$

$$M_{p.s}) = \frac{\text{Foyda (F)}}{\text{Mehnat potentsiali (Mp)'}}$$

Ushbu ko'rsatkich o'zgarishiga foyda va MP miqdori ta'sir qiladi. Bularning natijaga ta'sirini aniqlash uchun qayta hisoblash usulidan foydalaniladi. Qayta hisoblangan MP (M_{ps}^{qh}) quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{ps}^{qh} = \frac{F^h}{M_p^r};$$

MP samaradorligining foyda evaziga o'zgarishi ($DM_{ps}.f$):

$$DM_{ps}.f = M_{ps}^{qh} - M_{ps}^r = \frac{F^h}{M_p^r} - \frac{F^r}{M_p^r};$$

Mehnat potentsiali (MP) samaradorligining Mehnat potentsiali hajmi o'zgarishi ($DMPS.sp$):

$$DMPS.sp = M_{ps}^h - M_{ps}^{qh} = \frac{F^h}{M_p^h} - \frac{F^h}{M_p^r};$$

Natijaning umumiy o'zgarishi shu ikki omil ta'siriga teng:

$$DM_{ps} = DM_{ps}.f \pm DM_{ps}.mp;$$

**Mp samaradorligi va unga ta'sir etuvchi
omillar hisob-kitobi.**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati, %
1. Sof foyda, ming so'm	368	496,2	+128,2	134,8
2. MP, kishi	112	121	+9	108,0
3. MP samaradorligi (rentabelligi), so'm (1/2)	3286	4101	+815	124,8

Mehnat potentsiali (MP) samaradorligining qayta hisoblangan miqdori haqiqiy foydani o'tgan yilgi (MP)ga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$M_{ps}^{qh} = \frac{496,2}{112} = 4430 \text{ so'm.}$$

Mehnat potentsiali(MP) samaradorligi sof foyda summasining 128,2 ming so'mga ko'payganligi evaziga 1144 so'mga oshgan:

$$M_{ps.f} = 4430 - 3286 = +1144 \text{ so'm.}$$

Mehnat potentsiali samaradorligi miqdorining 9 kishiga ko'payganligi uning samaradorligini 329 so'mga kamaytirgan:

$$M_{PS.mp} = 4101 - 4430 = -329 \text{ so'm.}$$

Shu ikki omil ta'siri natija o'zgarishining umumiy farqiga teng: $1144 - 329 = +815 \text{ so'm.}$

Mehnat potentsiali (Mp) samaradorligiga (Mps) uning alohida elementlari o'zgarishining ta'sirini tahlili:

$$Mps = \frac{foyda (F)}{Mp};$$

Mehnat potentsiali quyidagi elementlardan tashkil topadi:

$$MP = Omx + Ummx + Umx + TUmX;$$

Oldingi formulaga Mehnat potentsiali elementlari qo'yilsa, natija quyidagicha ifodalanadi:

$$Mps = \frac{F}{Omx + Ummx + Umx + TUmX};$$

Mehnat potentsiali samaradorligining farqi:

$$Mps = M_{ps}^h - M_{ps}^r;$$

$$Mps = \frac{F^h}{O_{mx}^h + U_{mmx}^h + U_{mx}^h + TU_{mx}^h} - \frac{F^r}{O_{mx}^r + U_{mmx}^r + U_{mx}^r + TU_{mx}^r};$$

Mp o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi:

Natijaga F o'zgarishining ta'siri ($\Delta Mps.f$):

$$\Delta Mps.f = M_{ps}^f - M_{ps}^r = \frac{F^h}{O_{mx}^r + U_{mmx}^r + U_{mx}^r + TU_{mx}^r} - M_{ps}^r;$$

Natijaga Omx o'zgarishining ta'siri ($\Delta M_{ps}.omx$):

$$\Delta M_{ps}.omx = M_{ps}^{omx} - M_{ps}^f = \frac{F^h}{O_{mx}^h + u_{m mx}^r + U_{mx}^r + TU_{mx}^r} - M_{ps}^f;$$

Natijaga Ummx o'zgarishining ta'siri ($\Delta M_{ps}.umm x$):

$$\Delta M_{ps}.umm x = M_{ps}^{umm x} - M_{ps}^{omx} = \frac{F^h}{O_{mx}^h + u_{m mx}^h + U_{mx}^r + TU_{mx}^r} - M_{ps}^{omx};$$

Natijaga Umx o'zgarishining ta'siri ($\Delta M_{ps}.umx$):

$$\begin{aligned} \Delta M_{ps}.umx &= M_{ps}^{umx} - M_{ps}^{umm x} = \\ &= \frac{F^h}{O_{mx}^h + u_{m mx}^h + U_{mx}^h + TU_{mx}^r} - M_{ps}^{umm x}, \end{aligned}$$

Natijaga TUm x o'zgarishining ta'siri ($\Delta M_{ps}.tux$):

$$\begin{aligned} \Delta M_{ps}.tux &= M_{ps}^{tux} - M_{ps}^{umx} \\ &= \frac{F^h}{O_{mx}^h + u_{m mx}^h + U_{mx}^h + TU_{mx}^h} - M_{ps}^{umx} \end{aligned}$$

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mehnat potentsiali (MP) samaradorligi

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$\Delta M_{ps} = \Delta M_{ps}.f \pm \Delta M_{ps}.omx \pm \Delta M_{ps}.umm x \pm \Delta M_{ps}.umx \pm \Delta M_{ps}.tux;$$

7.5-jadval.
MP samaradorligi o'zgarishiga uning alohida elementlari o'zgarishi ta'sirining aniqlash

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,-)	Zanjirli almashtirishlar			
				I	II	III	IV
1. Sof foyda, ming so'm	368,0	496,2	+128,2	496,2	496,2	496,2	496,2
2. Oliy ma'lumotli xodimlar, kishi	20	22	+2	20	22	22	22
3. O'rta maxsus ma'lumotli xodimlar, kishi	27	31	+4	27	27	31	31
4. O'rta ma'lumotli xodimlar, kishi	46	50	+4	46	46	46	50
5. To'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlar, kishi	19	18	-1	19	19	19	19
6. Mehnat potentsiali, kishi	112	121	+9	112	114	118	122
7. MP samaradorligi, so'm	3286	4101	+815	4430	4353	4205	4067

Hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan MP samaradorligi 815 so'mga oshgan. Bunda quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Sof foydaning 128,2 ming so'mga ko'payganligi ta'kidlanganidek, natijani 1144 so'mga oshirdi:

$$4430 - 3286 = +1144 \text{ so'm.}$$

2. Oliy ma'lumotli xodimlar sonining 2 kishiga ko'payganligi natijaga 77 so'mga salbiy ta'sir qilgan:

$$4353 - 4430 = -77 \text{ so'm.}$$

3. O'rta maxsus ma'lumotli xodimlarning 4 kishiga ko'payganligi mehnat samaradorligini 148 so'mga kamaytirgan:

$$4205 - 4353 = -148 \text{ so'm.}$$

4. O'rta ma'lumotli kishilarning 4 kishiga ko'payganligi natijani 138 so'mga kamaytirib yuborgan:

$$4067 - 4205 = -138 \text{ so'm.}$$

5. To'liqsiz o'rta ma'lumotli xodimlarning bir kishiga kamayganligi mehnat salohiyati samaradorligini 34 so'mga oshirdi:

$$4101 - 4067 = +34 \text{ so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$1144 - 77 - 148 - 138 + 34 = +815 \text{ so'm.}$$

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xodimlarning ko'payishi birdaniga samara beravermaydi. Ular moslashish davrini boshidan kechirishi lozim.

7.4. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ular tahlili.

Mehnat unumdorligi bir vaqt birligida (kun, oy, chorak, yil) bir xodim tomonidan yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi bilan o'lchanadi. Bu natijani xodimlarning o'rtacha soniga (vaqt birligiga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

$$\text{Mehnat unumdorligi} = \frac{\text{Faoliyat natijasi (Q)}}{\text{Xodimlar soni (X)}}$$

$$\text{Qayta hisoblangan MU(MU. qh)} = \frac{Q^h}{X^r};$$

Mehnat unumdorligi o'zgarishiga faoliyat natijasi ta'sirini aniqlash:

$$\Delta MuQ = M_u^{qh} - M_u^r = \frac{Q^h}{X^r} - \frac{Q^r}{X^r};$$

Mehnat unumdorligi o'zgarishiga xodimlar soni ta'sirini aniqlash:

$$\Delta Mux = M_u^h - M_u^{qh} = \frac{Q^h}{X^h} - \frac{Q^h}{X^r};$$

Ikki omil ta'siri MU.ning umumiy farqiga teng (ΔMu):

$$\Delta Mu = \Delta Muq \pm \Delta Mux;$$

7.6-jadval.

Mehnat unumdorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi.

Ko'rsatkichlar	o'tgan yilda	hisobot yilida	farq (+,-)	o'zgarish sur'ati, %
1.Mahsulot hajmi, ming so'm	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
2.Xodimlar soni, kishi	112	121	+9	108,0
3.Mehnat unumdorligi, ming so'm (1/2)	40,92	47,06	+6,14	115,0

Qayta hisoblangan mehnat unumdorligini aniqlash uchun mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini (Q^h) xodimlar sonining o'tgan yilgi miqdoriga (X^r) bo'linadi:

$$M_u^{qh} = \frac{Q^h}{X^r} = \frac{5694,5}{112} = 50,84 \text{ ming so'm.}$$

Mahsulot hajmining 1111,2 ming so'mga oshganligi mehnat unumdorligining 9,92 ming so'mga ko'payishiga olib keldi:

$$50,84 - 40,92 = 9,92 \text{ ming so'm.}$$

Xodimlar sonining 9 kishiga ko'payishi mehnat unumdorligini 3,78 ming so'mga kamaytirdi:

$$47,06 - 50,84 = -3,78 \text{ ming so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natija o'zgarishining umumiy fariiga teng:

$$9,92 - 3,78 = +6,14 \text{ ming so'm.}$$

Natijaga (Q) xodimlar soni (X) ishchilarning umumiy xodimlardagi hissasi (Ui) va ular mehnat unumdorligining ta'sirini (Mui) aniqlash formulasi.

$$Q = X * U_i * M_{ui};$$

Q.ning X evaziga o'zgarishini farqlash usuli bilan aniqlash (ΔQ_x):

$$\Delta Q_x = (X^h - X^r) * U_i^r * M_{ui}^r;$$

Q.ning U_i ta'siri evaziga o'zgarishini aniqlash (ΔQ_{mui}):

$$\Delta Q_{ui} = X^h * (U_i^h - U_i^r) * M_{ui}^r;$$

Q.ning M_{ui} ta'siri evaziga o'zgarishini aniqlash (ΔQ_{mui}):

$$\Delta Q_{mui} = X^h * U_i^h * (M_{ui}^h - M_{ui}^r);$$

Q.ning o'zgarishiga barcha omillarning ta'siri:

$$\Delta Q = \Delta Q_x \pm \Delta Q_{ui} \pm \Delta Q_{mui};$$

Mahsulot hajmining o'zgarishiga (Q) xodimlar soni (X), ishchilarning umumiy xodimlardagi ulushi (UI) va ular mehnat unumdorligining (MUI) ta'sirini aniqlash hisob-kitobi

7.7--jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi	Zanjirli almashtirishlar		
				I	II	III
1. Xodimlar soni, kishi	112	121	+9	121	121	121
2. Shu jumladan ishchilar soni	98	106	+8	X	X	X
3. Ishchilarning umumiy xodimlar sonidagi ulushi, % (2/1*100)	87,5	87,6	+0,1	87,5	87,6	87,6
4. Ishchilarning mehnat unumdorligi, ming so'm (5/2)	46,77	53,72	+6,95	46,77	46,77	53,72
5. Mahsulot hajmi, ming so'm (1*3*4)	4583,3	5694,5	+1111,2	4951,8	4957,4	5694,5

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, natijaning 1111,2 ming so'mga ko'payganligiga mehnat unumdorligi bilan bog'liq quyidagi omillar ta'sir qilgan:

1. Xodimlar sonining 9 kishiga ko'payganligi mahsulot hajmini 368,5 ming so'mga ko'paytirgan:

$$4951,8 - 4583,3 = +368,5 \text{ ming so'm.}$$

2. Ishchilarning umumiy xodimlardagi ulushining 0,1% ko'payganligi mahsulot hajmini 5,6 ming so'mga oshirgan:

$$4957,4 - 4951,8 = +5,6 \text{ ming so'm.}$$

3. Ishchilar mehnat unumdorligining 6,95 ming so'mga oshganligi mahsulot hajmini 737,1 ming so'mga oshirgan:

$$5694,5 - 4957,4 = +737,1 \text{ ming so'm.}$$

Odatdagidek, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$368,5 + 5,6 + 737,1 = +1111,2 \text{ ming so'm.}$$

7.5. Mehnat haqi xarajatlari va ularni tahlil qilish yo'llari.

Mehnat haqi xarajatlari mehnat resurslari ushun qilinadigan xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Shu maqsadda quyidagi masalalarni ko'rib chiqamiz:

- Mehnat haqining rejadagi miqdorini aniqlash;
- Mehnat haqining haqiqiy miqdorini aniqlash;
- Mehnat haqi hajmiga ta'sir etuvchi omillar va ularni hisoblash usullari;
- Mehnat haqi bo'yicha mutloq va nisbiy farqlarni aniqlash;

- Ushbu farqlarga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobi;
- Omillarni qayta hisoblash va zanjirli almashtirish usullari bilan aniqlash yo'llari.

Mehnat haqining rejadagi miqdorini (M_X^R) o'rtacha mehnat haqi (Mh) va xodimlar sonidan kelib chiqib aniqlaymiz:

$$Mh = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (Mxm_{i1} * Tr_{i1} * X_{i1})_1; \quad (i = \overline{1, n})$$

Bunda: n-umumiy xodimlar soni.

$$M_X^R = (Mxm_{11} * Tr_{11} * X_{11}) + (Mxm_{12} * Tr_{12} * X_{12}) + \dots + (Mxm_{n1} * Tr_{n1} * X_{n1});$$

Bunda: Mxm_{i1} - O'zbekiston respublikasida joriy qilingan minimal mehnat haqining miqdori;
 Tr_{ip} - Yagona tarif setkasidagi tarif razryadi;
 X_{1i} - Shu ta'rif razryadiga to'g'ri keladigan xodimlar soni ($i = \overline{1, n}$).

Mehnat haqining haqiqiy miqdorini aniqlash:

$$M_x^x = Ishmh + Vmx;$$

Bunda,
Ishmh-ishbay mehnat haqi
Vmh- vaqtbay mehnat haqi.

$$Ishih = Q_1^x + M_{x1Q}^h;$$

Bunda,
 Q_1^x - Bajarilgan ish haqi
 M_{x1Q}^h -l bajarilmagan ish uchun to'lanadigan haq.

$$Vix = M_{xm}^x * T_{r1Q}^x * X_1^x;$$

Bunda,
X-Ko'rsatkichlarning haqiqiy miqdorini belgilaydigan indeks.

$$M_x^x = (Q_1^x * M_{x1Q}^x) + (M_{xm}^x * T_{r1Q}^x * X_1^x)_1$$

Firmada 20 kishi ishlaydi. Ular mehnat haqini olish bo'yicha quyidagi 5 guruxga taqsimlangan:

7.8-jadval.

Mehnat haqi bilan bog'liq ko'rsatkichlarning hisob-kitobi.

Guruh tartib raqami	Mehnat haqi razryadi	Tarif koefitsienti	Xodim-lar soni	Minimal mehnat razryadi	Mehnat xaqining umumiy miqdori
1	17	5,827	1	1100	6409,7
2	14	4,995	3	1100	16483,5
3	12	4,395	5	1100	24172,5
4	9	3,592	7	1100	27658,4
5	3	2,155	4	1100	9482,0
Jami	X	X	20	X	84206,1

$$M_X^P = (5.828 * 1100 * 1) + (4.995 * 1100 * 3) + (4.395 * 110 * 5) + (3.592 * 1100 * 7) + (26155 * 1100 * 4) = 84206,1 \text{ ming so`m.}$$

Rejadagi o'rtacha mehnat haqi:

$$M_X = \frac{84206.1}{20} = 4210.3 \text{ ming so`m.}$$

7.9-jadval.

Mehnat haqining haqiqiy miqdori tahlili vaqtbay mehnat haqi bo'yicha.

Guruh tartib raqam i	Hodimlar soni, kishi	Minimal mehnat haqi	Ta'rif koeffitsienti	Ta'rif koeffitsienti bo'yicha mehnat haqi	Vaqtbay mehnat haqi, so'm
1	1	1100	5,827	6409,7	6409,7
2	3	1100	4,995	5494,5	16483,5
3	2	1100	2,155	2370,5	4741,0
Jami	6	X	X	X	27634,2
Joriy oyda xar bir xodim bir minimal ish haqi miqdorida mukofot olgan (1100*6)					6600
Hammasi					34234,2

$$O'rtacha mehnat haqi = \frac{34234,2}{6} = 5705,7 \text{ ming so'm.}$$

Ishbay mehnat haqi bo'yicha.

Guruh tartib raqami	Hodim-lar soni, kishi	Bajarilgan ish hajmi, ming so'm	Ming so'mlik bajarilgan ish uchun to'lanadigan mehnat haqi, ming so'm	Ishbay mehnat haqi, ming so'm	O'rtacha ishbay mehnat haqi, ming so'm
3	5	111517,0	235	26206,5	5241,3
4	7	146712,4	202	29635,9	4233,7
5	2	47233,0	103	4865,0	2432,5
Jami	14	305462,4	x	60707,4	4336,2

Mehnat haqi umumiy hajmining haqiyqiy miqdori:

$$M_x^x = Ishmx + Vmx = 60707,4 + 34234,2 = 94946,6 \text{ ming so'm.}$$

$$O'rtacha \text{ mehnat haqi} = \frac{94946,6}{20} = 4747,1 \text{ ming so'm.}$$

Mehnat haqi hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash usullari.

Ishbay mehnat haqi bo'yicha mehnat haqi hajmiga o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash.

1. Mehnat haqi hajmining natija o'zgarishiga ta'siri ($\Delta Mx.Q$):

$$\Delta Mx.Q = (Q^x - Q^r) * M_{xIQ}^r;$$

Vaqtbay mehnat haqi bo'yicha mehnat haqi hajmiga o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash.

2. Bir ish hajmiga to'lanadigan mehnat haqi o'zgarishining ta'siri ($\Delta M.IQ$):

$$\Delta M.IQ = Q^x * (M_{xIQ}^x - M_{xIQ}^r);$$

3. Minimal ish haqi miqdori o'zgarishining ta'siri ($\Delta Mx.ixm$):

$$\Delta Mx.ixm = (M_{xm}^x - M_{xm}^r) * T_r^r * X^r;$$

4. Ta'rif setkasida ta'rif razryadi o'zgarishining ta'siri ($\Delta Mx.tr$):

$$\Delta Mx.tr = M_{xm}^x * (T_r^x - T_r^r) * X^r;$$

5. Xodimlar soni o'zgarishining ta'siri ($\Delta Mx.x$):

$$\Delta Mx.x = M_{xm}^x * T_r^x * (X^x * X^r);$$

Barcha omillar ta'siri ish haqi hajmining umumiy farqiga teng bo'ladi:

$$\Delta Mh = Mx.Q \pm Mx.IQ \pm Mx.ixm \pm Mx.tr \pm Mx.x;$$

7.11-jadval.

**Mehnat haqi umumiy miqdoriga alohida omillar ta'sirining
hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Rejada	Haqi- qatda	Farqi (+,-)	MX.ning VM omil ta'sidagi hajmi
1. Vaqtbay mehnat haqi oladigan xodimlar soni, kishi (VX)	6	6	-	6
2. Vaqtbay mehnat haqi oladigan xodimlarning o'rtacha mehnat haqi, so'm (Vm)	4210,3	5705,7	+1495,4	5705,7
3. Ishbay mehnat haqi oladigan xodimlar soni, kishi (Ix)	14	14	-	14
4. Ishbay mehnat haqi oladigan xodimlarning o'rtacha mehnat haqi, ming so'm	4210,3	4336,2	+125,9	4210,3
5. Mehnat haqi umumiy hajmi (MX), ming so'm	84206,1	94946,6	+10740,5	93178,4

Mehnat haqi umumiy hajmi 10740,5 ming so'mga oshgan (94946,6-84206,1). Bunga to'rtta omil ta'sir qilishi kerak edi. Ammo xodimlar soni ikki xolatda ham o'zgarmay qolgan. Shu tufayli bu ikkita omil evaziga sodir bo'lgan.

1. Vaqtbay mehnat haqi oladigan xodimlarning o'rtacha mehnat haqining 1495,4 ming so'mga oshganligi uning umumiy hajmini 8972,3 ming so'mga ko'paytirgan.

2. Ishbay mehnat haqi oladigan xodimlarning o'rtacha mehnat haqi 125,9 so'mga oshganligi natijani 1768,2 ming so'mga ko'paytirgan.

$$94946,6 - 93178,4 = +1768,2 \text{ ming so'm.}$$

Shu ikki omil natijaning umumiy farqiga teng.

$$8972,3 - 1768,2 = +10740,5 \text{ ming so'm}$$

Mehnat haqining mutloq va nisbiy farqini aniqlash usuli.

Mehnat haqining (MX) mutloq farqi:

$$MX = MX^x - MX^r;$$

Bunda:

MX^x , MX^r — mehnat haqining haqiyqiy va rejadagi miqdori.

Mehnat haqining nisbiy farqi:

$$MX_{nf} = MX^{kx} - MX^r;$$

Bunda:

MX^{kx} — qayta hisoblangan mehnat haqi.

Qayta hisoblangan mehnat haqi:

$$MX^{qx} = Q^x * M_{XIQ}^r$$

Bunda: Q^x — haqiqatda bajarilgan ish xajmi,

M_{XIQ}^r — 1 bajarilgan ish uchun to'lanadigan rejadagi mehnat haqi.

Mehnat haqi xajmining nisbiy farqini aniqlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Rejada	Haqi-qatda	Mutloq farqi	Nisbiy farqi
1. Bajarilgan ish xajmi, ming so'm	5443,8	5694,5	+250,7	X
2. O'rtacha bir birlik bajarilgan ishga to'lanadigan mehnat haqi, so'mda	77,41	83,10	-5,69	X
3. Mehnat haqining umumiy miqdori, ming so'm ($1q * 2q$)	421,4	432,2	+51,8	+19,4

Qayta hisoblangan mehnat haqining umumiy miqdori:

$$5694,5 * 77,41 = 440,8 \text{ ming so'm.}$$

MX ning nisbiy farqi:

$$440,8 - 421,4 = +19,4 \text{ ming so'm.}$$

Mehnat haqiga ta'sir etuvchi omillar va ularni hisoblash usullari:

$$MX = X * U_{mx};$$

Bunda: X - xodimlar soni;

U_{mx} — o'rtacha mehnat haqi;

Qayta hisoblangan mehnat haqi:

$$MX^{qx} = X^x * U_{mx}^r;$$

MX o'zgarishiga xodimlar sonining ta'siri (ΔMXx):

$$\Delta MXx = MX^{kx} - MX^r = (X^x * U_{mx}^r) - (X^r - U_{mx}^r);$$

MX o'zgarishiga U_{mx} o'zgarishining ta'siri (ΔMX_{umx})

$$\Delta MX_{umx} = MX^x - MX^{kx} = (X^x * U_{mx}^x) - (X^x * U_{MX}^r);$$

7.13-jadval.

Mehnat haqi umumiy xajmiga xodimlar soni va o'rtacha mehnat xaqi o'zgarishining ta'siri.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Qayta hisoblangan natija	Farqi (+,-)		
				Jami	Shu jumladan	
					Xodimlar soni evaziga	O'rtacha mehnat haqi evaziga
1. O'rtacha yillik xodimlar soni, <i>kishi</i>	112	121	121	+9	X	X
2. O'rtacha mehnat haqi, <i>so'm</i>	3181	3911	3181	+730	X	X
3. Mehnat haqining umumiy hajmi, <i>ming so'm</i>	356,3	473,2	384,9	+116,9	+28,6	+88,3

Bunga quyidagi omillar ta'sir qilgan:

Mehnat haqi hajmi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 116,9 ming so'mga ko'paygan.

$$(473,2-356,3)=116,9 \text{ ming so'm.}$$

1. O'rtacha mehnat haqining o'tgan yilga nisbatan 730 so'mga oshganligi uning umumiy hajmini 88,3 ming so'mga ko'paytirgan.

$$473,2 - 384,9 = +88,3 \text{ ming so'm.}$$

2. O'rtacha yillik xodimlar soni 9 kishiga ko'payganligi mehnat haqi umumiy hajmini 28,6 ming so'mga oshirgan.

$$384,9 - 356,9 = +28,6 \text{ ming so'm.}$$

Ikkala omilning ta'siri natija o'zgarishining umumiy hajmiga teng:

$$28,6 + 88,3 = 116,9 \text{ ming so'm.}$$

Mehnat haqi o'zgarishiga omillar ta'siri.

Ko'rsatkichlar	Rejada	Haqi-qatda	Zanjirli almashtirish		
			1 omil o'zgarishi bilan	2 omil o'zgarishi bilan	3 omil o'zgarishi bilan
Ish hajmi (Tovar oboroti, tayyor mahsulot v.h)	Q^r	Q^x	Q^x	Q^x	Q^x
Mehnat unimdorligi	MU^r	MU^x	MU^r	MU^x	MU^x
O'rtacha mehnat haqi	M_{mx}^r	M_{mx}^x	M_{mx}^r	M_{mx}^r	M_{mx}^x
Mehnat haqi hajmi	MX^r	MX^x	MX_Q	MX_{mu}	MX_{um}

2. Natija o'zgarishiga birinchi omil, ya'ni ish hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\Delta MX_Q = MX_Q - MX^r;$$

3. Natija o'zgarishiga o'rtacha mehnat haqining ta'siri:

$$\Delta MX_{umx} = MX_{umx} - MX_{mu};$$

4. Natija o'zgarishiga mehnat unimdorligining ta'siri:

$$\Delta MX_{mu} = MX_{mu} - MX_Q;$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$\Delta MX = \Delta MX_Q \pm \Delta MX_{mu} \pm \Delta MX_{umx};$$

7.15-jadval.

Mehnat haqi umumiy hajmiga ish hajmi, mehnat unimdorligi va o'rtacha mehnat haqi o'zgarishi ta'siri.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farq (+,-)	Zanjirli almashtirish		
				I.	II.	III.
Ish hajmi, ya'ni yalpi maxsulot, ming so'm	4583,3	5694,5	+1111,2	5694,5	5694,5	5694,5
Mehnat unimdorligi, ming so'm	40,92	47,06	+6,14	40,92	47,06	47,06
O'rtacha mehnat haqi, so'm	3181	3911	+730	3181	3181	3911
Mehnat haqining umumiy hajmi, ming so'm ($1q \div 2q * 3q$)	356,3	473,2	+116,9	442,7	384,9	473,2

Mehnat haqi umumiy xajmining 116,9 ming so'mga oshganligi quyidagi omillar evaziga sodir bo'lgan:

<p>1. O'rtacha mehnat haqining 730 so'mga oshganligi uning umumiy hajmini 88,3 ming so'mga ko'paytirgan:</p> $473,2 - 384,9 = +88,3 \text{ ming so'm.}$
<p>2. Mehnat unimdorligining 6,14 ming so'mga oshganligi mehnat haqi harajatlarini 57,8 ming so'mga kamaytirgan:</p> $384,9 - 442,7 = -57,8 \text{ ming so'm.}$

3. Yalpi maxsulot hajmining 1111,2 ming so‘mga oshganligi mehnat haqi umumiy miqdorini 86,4 ming so‘mga ko‘paytirgan:

$$442,7 - 356,3 = +86,4 \text{ ming so'm.}$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$86,4 - 57,8 + 88,3 = +116,9 \text{ ming so'm.}$$

Mavzu buyicha tayanch iboralar

- mehnat resurslari;
- mehnat potentsialii;
- mehnat resurslarining tarkibi va strukturasi;
- mehnat resurslarini tahlil qilishning vazifalari;
- mehnat potentsialini ifodalovchi ko‘rsatkichlari, ularni tahlil qilish;
- ish haqi xarajatlari tahlili;
- mehnat unumdorlik ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi.
- mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillari.

Takrorlash uchun savollar

1. Mehnat resurslari va potentsiali tahlilining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Mehnat resurslarini tahlil etishda tahlilning vazifalari nimalardan iborat buladi?
3. Mehnat resurslari, potnetsiali va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari tizimi nimalardan iborat ?
4. Tahlilning asosiy axborot manbalari qaysilar hisoblanadi?
5. Korxonalarda mehnat potentsiali, resurslarining tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishlari qanday tahlil etiladi?
6. Mehnat resurslari, potnetsiali va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish yo‘llari qanday?

7. Mehnat haqi xarajatlari tahlili qanday usullar orqali amalga oshiriladi?

8. Mehnat unumdorligining iqtisodiy mazmuni va uni aniqlash tartibi nimalardan iborat?

9. Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni mazmuni qanday?

10. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar tarkibiga qaysi omillar kiradi?

11. Mehnat sig'imining mahsulot hajmiga ta'siri qanday aniqlanadi?

12. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillari tarkibiga nimalar kiradi va ular qanday aniqlanadi?

Mustaqil urganish uchun topshiriqlar.

1-topshiriq.

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, mehnat unumdorligining darajasini aniqlang. Qayta hisoblash usulidan foydalanib mehnat unumdorligi o'zgarishiga yalpi mahsulot va xodimlar sonining ta'sirini hisoblang.

K o' r s a t k i c h l a r	Rejada	Haqiqatda
1. Yalpi mahsulot, ming so'm	22000	22800
2. Ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ruyhatdagi soni, kishi	5100	5200
3. Mehnat unumdorligi, ming so'm	?	?

2-topshiriq.

Qayta hisoblash usulidan foydalanib mehnatning fond bilan kurollanishi va fondning samaradorligi o'zgarishining mehnat unumdorligiga ta'sirini hisoblang.

K o' r s a t k i c h l a r	O'tgan yili	Hisobot yili
1.Yalpi mahsulot hajmi, ming so'm	1500	1600
2.Asosiy ishlab chiqarish fondi, ming so'm	1300	1450
3. Xodimlar soni, kishi	900	905
4.Mehnatning fond bilan qurollanishi darajasi, so'm	?	?
5.Ishlab chiqarish fondlarining samaradorligi, so'm	?	?
6.Mehnat unumdorligi, ming so'm	?	?

Jadval ma'lumotlari asosida xulosa qiling

8-BOB.XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLARNING MODDIY RESURLAR BILAN TA‘MINLANISHINI TAHLILI

8.1. Moddiy resurslar bilan ta‘minlanganligini tahlilining ahamiyati va vazifalari hamda axborot manbalari.

Korxonalar faoliyati samarali bo‘lishini ta‘minlash moddiy texnika resurslari bilan ta‘minlanishga bog‘liqdir. Ushbu maqsadda:

- o‘z ishlab chiqarishlarni moddiy texnika resurslari bilan ta‘minlash jarayonini rejalashtiradi;
- korxonaga uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslarini yangi turlari mavjudligini;
- ular jahon bozorida taklif qilinganligi o‘rganiladi.

Tahlil davomida ushbu rejalar qanday bajarilganligi tahlili qilinib, ularga baho beriladi.

Moddiy resurslaridan foydalanish tahlilining maqsadi – moddiy resurslaridan foydalanishni holatini o‘rganish va uning samaradorligini oshirish evaziga mahsulot hajmini o‘sishi va mahsulot tannarxini pasaytirish yo‘llarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Ushbu mavzuda quyidagi masalalar o‘rganiladi:

Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning moddiy resurslar (mehnat predmetlari) bilan ta‘minlanganligini tahlil etishning ahamiyati va vazifalari:

• *tahlilni axborot manbalari;*

• *moddiy resurslar bilan ta‘minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini xarakterlaydigan ko‘rsatkichlar tizimi;*

• *korxonaning material resurslar bilan ta‘minlanganligini tahlili;*

<ul style="list-style-type: none"> • <i>moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlili;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>material qaytimi va material sig'imining tahlili.</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moddiy resurslar (mehnat predmetlari) bilan ta'minlanganligini tahlil etishning ahamiyati va vazifalari;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>tahlilni axborot manbalari;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar tizimi;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>korxonaning material resurslar bilan ta'minlanganligini tahlili;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlili;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>material qaytimi va material sig'imining tahlili.</i>

Moddiy resurslaridan foydalanish tahlili vazifalari:

<ul style="list-style-type: none"> • <i>korxonada moddiy resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>moddiy resurslarni korxonaga etkazib berish hajmini, kompleksligini, sifatligini, sortiligi hamda maromiyligini darajasini belgilash;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>moddiy texnika ta'minoti belgilangan rejasi haqqoniyligi tekshirish;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>moddiy resurslarni etkazib berish borasida korxonalararo tuziladigan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilganligini aniqlash;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi moddiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq omillarini aniqlash va ularga baho berish;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni mahsulot hajmi hamda tannarxga ta'sirini hisoblash;</i>
<ul style="list-style-type: none"> • <i>moddiy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaxshilash bo'yicha takliflar berish.</i>

Moddiy resurslaridan foydalanish tahlili axborot manbalari:

- biznes reja ma'lumotlari;
- 1-S shakl statistik hisobot;
- moddiy texnika ta'minoti rejasi;
- xom ashyo va materiallar bo'yicha tuzilgan shartnomalar;
- bosqa qo'shimcha ma'lumotlar.


8.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Moddiy resurslardan foydalanish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi:

<i>•mehnatni asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi;</i>
<i>•aylanma fondlar va mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi;</i>
<i>•moddiy resurslardan foydalanish darajasi;</i>
<i>•moddiy resurslar etkazib berishni Shartnomalar bilan ta'minlanganlik darajasi;</i>
<i>•fond qaytimi;</i>
<i>•fond sigimi.</i>

Xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatini tahlil qilish jarayonida ushbu ko'rsatkichlar miqdorlari aniqlanadi va o'tgan davr, reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Miqdoriy o'zgarishlar darajalari aniqlanadi hamda ularning sabablari o'rganiladi.

Ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash korxonada faoliyatini uzluksiz ishlashini ta'minlaydi. Moddiy resurslar bilan ta'minlash uni rejalashtirishdan boshlanadi. Ishlab chiqarish miqdori bozorni o'rganish natijasida aniqlagan ko'rsatkichlar asosida rejalashtiriladi.



8.1-rasm. Moddiy resurslarga bo'lgan talab miqdorlari.

Korxonaga uchun zarur bo'lgan jami moddiy resurslari miqdori (MR_t) ishlab chiqiladigan har bir mahsulot turi bo'yicha bir birlik mahsulot uchun sarflanadigan miqdorni reja bo'yicha bir kunda jami ishlab chiqariladigan miqdor va ish kunlari soniga ko'paytirishdan olingan natijani oy boshida mavjud qoldiq bilan jamlash yo'li bilan aniqlanadi.

Moddiy resurslarga bo'lgan talab natural miqdorda hisob-kitob qilishni formula ko'rinishida quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

$$MR_{ti} = Z_{obi} + (M_i * K_{0i} * I_k);$$

Bunda,

MR_{ti} – i turdagi mahsulot uchun zarur xom
– ashyo turi natura miqdori;

Z_{obi} – i turdagi mahsulot xom ashyosi oy boshida i qoldig'i;

M_i - *i* turdagi mahsulot bir birligi uchun sarflanadigan xom-ashyo miqdori;

K_{0i} - *i* turdagimahsulotishlabchiqarishkunlikrejas;

I_k - oydagi ish kunlari soni.

Moddiy resurslarga bo'lgan kunlarda talab miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$MR_{ki} = \frac{Z_{mi}}{P_{gi}};$$


Bunda,

MR_{ki} - xom-ashyoning kunlik zaxirasi;

Z_{mi} - *i* turdagi maxsulot xom-ashyosining mikdori;

P_{gi} - *i* turdagi maxsulot xom-ashyosining kunlik me'yoriy sarfi mikdori.

Shu sababli korxonada tomonidan ishlab chiqariladigan har bir mahsulot uchun zarur xom-ashyo yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzilishi muhim vazifalardan biridir. Tahlil jarayonida ehtiyojni shartnomalar bilan ta'minlanganligi va uning ijrosi o'rganiladi hamda ular holatiga tegishli baho berish uchun ular darajalari aniqlanadi.



8.2-rasm. Moddiy resurslar bilan ta'minlash manbalari.

Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Rejadagi moddiy resurslar bilan ta'minlash koeffitsienti

Haqiqatdagi moddiy resurslar bilan ta'minlash koeffitsienti

$$K_{T0}^{MP} = \frac{i_{M0} + sh_{M0}}{MP_{T0}};$$

$$K_{T1}^{MP} = \frac{i_{M1} + T_{M1}}{MP_{T1}};$$

8.3-rasm. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash.

8.3. Korxonaning material resurslar bilan ta'minlanganligini tahlili.

Ushbu miqdorlarni amaliy ma'lumotlar asosida tahlil qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz. Buning uchun korxonaning tahlil davridagi xom-ashyo yetkazib berish bo'yicha tuzilgan Shartnomalari va mahsulot ishlab chiqarish rejasi hamda uni bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tanlab olamiz. Tahlil uchun to'plangan ma'lumotlarni jamlab, tahlilni maqsadi asosida quyidagi tartibda guruhlaymiz.

8.1-jadval.

Moddiy resurslar bilan ta'minlash holati tahlili.

Mahsulot turi	Reja bo'yicha talab, <i>dona</i>	Talabni ta'minlash manbalari		Tuzilgan shartnomalar Miqdori, <i>dona</i>	Talabni ta'minlanish darajasi, %	Ta'minotchilardan olingan, <i>dona</i>	Shartnomani bajarish darajasi, %
		Ichki	Tashqi				
A	4500	80	4420	4300	97,3	4300	100
B	5000	70	4930	4930	100,0	4800	97,3
S	6000	100	5900	5800	98,3	5700	98,2
D	7000	130	6870	6500	94,6	6500	100
Jami	22500	380	22120	21530	97.3	21300	98.9

Talabni ta'minlanishi darajasi (K_{to}^{shb}) ning rejadagi va haqiqiy miqdorlarini hisoblaymiz:

$$K_{t0}^{shb} = \frac{I_m + T_{m0}}{T_0} = \frac{80 + 4300}{4500} = 97,3 \%,$$

Shartnoma majburiyatlari ijrosi ta'minlanishi aniqlamiz:

$$K_{t1}^{shb} = \frac{T_{i1m} + T_{i1m}}{T_{0shi} + T_{0shi}} = \frac{4300 + 4800}{4300 + 4930} = 98,9 \%$$

Tahlillar natijasida «A» mahsulotga bo'lgan talab reja bo'yicha 97,3 foiz, «B» mahsulotga bo'lgan talab esa 100 foiz shartnoma bilan ta'minlangan. Shartnoma majburiyatlari ijrosi «A» mahsulot bo'yicha 100 foiz, «B» mahsulot bo'yicha 97,3 foizni tashkil etgan. Korxonaga bo'yicha jami moddiy esurslarni shartnoma bilan ta'minlanish holati 97,3 foiz, haqiqatda esa 98,9 foiz bo'lib, moddiy resurslar o'z vaqtida va to'liq etkazib berilsa, mahsulot ishlab chiqarishni kamida 1,1 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Shartnomaviy ishlar tashkil etishning samaradorligi korxonani to'liq quvvat bilan ishlashiga yoki undan foydalanish Yetarli bo'lmasligiga sabab bo'ladi. Shuning uchun tahlil jarayonida shartnomaviy ishlarni tashkil etish holati tahlil qilinib uning holatiga baxo berilish zarur. Buning uchun quyidagi koeffitsientlar aniqlanadi.

Shartnomaviy ishlar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

- *buyurtmalarni qondirish koeffitsienti;*
- *shartnomalarni bajarilishi koeffitsienti;*
- *shartnomalarni bajarilishi sifat koeffitsienti;*
- *tashqi taminot erkinligi koeffitsient.*

Ushbu koeffitsientlarni aniqlash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Buyurtmalarni kondirish koeffitsienti:

$$K_{shk} = \frac{SH_t}{B_m};$$

Shartnomalarni bajarilishi koeffitsenti:

$$K_{shb} = \frac{SH_{bm}}{SH_t};$$

Shartnoma bajarilishi sifat koeffitsenti:

$$K_{shs} = \frac{SH_{sb}}{SH_{bm}};$$

Tashki ta'minot erkinligi koeffitsenti:

$$K_{te} = \frac{SH_{sb}}{B_m};$$

Bunda,

SH_t – tuzilgan shartnomalar miqdori;

B_m - buyurtmalar miqdori;

SH_{bm} - bajarilgan shartnomalar miqdori;

SH_{sb} - sifatli (o'z vaqtida) bajarilgan shartnoma miqdori;

8.2-jadval.

Shartnomaviy ishlar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

Mahsulot turi	Moddiy resurslarga talab, dona	Talabni ta'minlash manbalari		Tuzilgan Shartnomalar Miqdori, dona	Shartnomalar bajarilishi, Shu jumladan (dona)		Shartnomani bajarish darajasi, %
		ichki	tashqi		Jami	Sifatli	
A	4500	80	4420	4300	4300	4100	100
B	5000	70	4930	4930	4800	4700	97,3
S	6000	100	5900	5800	5700	5500	98,2
D	7000	130	6870	6500	6500	6400	100
Jami	22500	380	22120	21530	21300	20700	98.9

Buyurtmalarni kondirish koeffitsenti:

$$K_{shk} = \frac{SH_t}{B_m} = \frac{21530}{22500} = 0,957;$$

Shartnomalarni bajarilishi koeffitsenti:

$$K_{shb} = \frac{SH_{bm}}{SH_t} = \frac{21300}{21530} = 0,989;$$

Shartnoma bajarilishi sifat koeffitsenti:

$$K_{shs} = \frac{SH_{sb}}{SH_{bm}} = \frac{20700}{21300} = 0,971;$$

Tashki ta'minot erkinligi koeffitsenti:

$$K_{te} = \frac{SH_{sb}}{B_m} = \frac{20700}{22500} = 0,920;$$

Korxonanig moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri mehnatni moddiy resurslar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi tartibda aniqlanadi:

Mehnatni moddiy resurslar

bilan ta'minlanganlik darajasi = $\frac{\text{moddiy resurslar qiymati}}{\text{ishchi va xizmatchilar soni}}$

8.4. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlili.

Korxonaning moddiy resurslardan samarali foydalanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Moddiy resurslardan samarali foydalanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

- Moddiy resurslar aylanish tezligi;
- Moddiy resurslar aylanish davri;
- Yalpi tushumni resurslar bilan ta'minlanishi;
- Materiallar sig'imi;
- Materiallar qaytimi.

Moddiy resurslar aylanishi moddiy resurslar xarajatlarini mahsulotga o'tish miqdorini ifodalaydi.

Ushbu miqdorni aniqlashni formula ko'rinishida ifodalaymiz:

$$MR_t = \frac{SMT}{MR_k};$$

Bunda,

MR_t - moddiy resurslar aylanish tezligi;

SMT - sotilgan mahsulot tannarxi;

MR_k - moddiy resurslar o'rtacha goldig'i.

Moddiy resurslar buxgalteriya hisobida sotib olish narxida xarid qilinishi sababli tahlil jarayonida moddiy resurslar aylanish tezdigini aniqlash uchun yalpi tushum miqdori emas, balki sotilgan mahsulot tannarxi ko'rsatkichidan foydalaniladi. Chunki yalpi tushum tarkibida korxonaning daromadi ham mavjud.

Moddiy resurslar aylanish davri moddiy resurslar bir aylanishini o'rtacha kunini ifodalaydi.

Ushbu miqdorni aniqlashni formula ko'rinishida quyidagi tarzda ifodalaymiz:

$$MR_a = \frac{TD}{MR_t};$$

Bunda,

MR_a - moddiy resurslar aylanish davri;

TD - tahlil qilish uchun olingan davr (oy, chorak, yil);

MR_t - moddiy resurslar aylanish tezligi.

Moddiy resurslar bir aylanishi o'rtacha kuni ko'rsatkichini aniqlashda tahlil uchun olinadigan davr oy uchun 30 kun, chorak uchun 90 kun va yil uchun 360 kun olinadi. Shunday hollarda hisob-kitoblar natijalari aniqroq bo'ladi.

Yalpi tushumni resurslar bilan ta'minlanishi bir so'm sotilgan mahsulot tannarxiga to'g'ri keladigan moddiy resurslar ulushini ifodalaydi.

Ushbu miqdorni aniqlashni formula ko'rinishida quyidagi tarzda ifodalaymiz:

$$YAT_{mr} = \frac{\overline{MR}}{SM};$$


Bunda,

YAT_{mr} - yalpi tushumni resurs bilan ta'minlanishi;

\overline{MR} - tahlil davridagi moddiy resurslar o'rtacha miqdori;

SM - sotilgan maxsulot xajmi.

8.5. Material qaytimi va material sig'imi ko'rsatkichlari hamda ular holati tahlili.



8.2.-rasm. Material qaytimi ko'rsatkichi va uni aniqlash.

Material qaytimi ko'rsatkichini aniqlashni formula ko'rinishida quyidagi tarzda ifodalash mumkin:


$$MK = \frac{YAM}{MX};$$

Bunda,

MK -material qaytimi

YAM ishlab chiqarilgan mahsulot jami hajmi;

MX - - materiallar xarajati hajmi;



8.3-rasm. Material sig'imi ko'rsatkichi va uni aniqlash.

Material sig'imi ko'rsatkichini aniqlashni formula ko'rinishida quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

$$MS = \frac{MX}{YAM};$$

Bunda,

MS - material sig'iimi;

YAM - ishlab chiqarilgan maxsulot jami xajmi;

MX - - materiallar xarajati xajmi.

Moddiy resurslardan foydalanish koeffitsienti.

Mahsulot xarajati me'yoriga amal qilish xolatini ifodalaydi.

$K_{mf} = \text{moddiy resurslar xarajatlari haqiqiy miqdori} / = \text{moddiy resurslar xarajatlari rejadagi kallkulyatsiya bilan bilan hisoblangan miqdori}$

8.4-rasm. Moddiy resurslardan foydalanish koeffitsienti va uni aniqlash.

Ushbu ko'rsatkichni aniqlashni formula ko'rinishida quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

$$K_{mf} = \frac{MX_1}{MX_{kx}};$$


Bunda, K_{mf} - moddiy resurslardan foydalanish koeffitsienti;

MX_1 - moddiy xarajatlari haqiqiy miqdori;

MX_{kx} – moddiy xarajatlarni rejadagi kalkulyatsiya bo'yicha qayta hisoblangan miqdori.

Moddiy resurslardan foydalanish koeffitsenti miqdorini 1 dan kamligi reuslardan tejamkorlik bilan foydalanishni, 1 dan ortiq bo'lishi esa resurslardan foydalanishda ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilganligini ifodalaydi.

Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi umumiy ko'rsatkich bir so'mlik moddiy xarajatlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkichi, ya'ni moddiy xarajatlar rentabelligi hisoblanadi.



8.5-rasm. Moddiy xarajatlar rentabelligi ko'rsatkichi va uni aniqlash.

Ushbu ko'rsatkichni aniqlashni formula ko'rinishida quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

$$R_{mx} = \frac{SF}{MX} * 100;$$

Bunda,

R_{mx} - moddiy resurslar xarajatlari rentabelligi;

MX– moddiy xarajatlari miqdori;

SF –sof foyda miqdori.

Material sig‘imi va material qaytimi mahsulot hajmi va moddiy xarajatlar (***MX***) miqdoriga bog‘liqdir. Mahsulot hajmining qiymat miqdori (***MH***) esa ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (***IM_s***), uning strukturasi (***IM_{str}***)va sotish bahosi (***R***) bilan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi.

Demak material sig‘imi (***M_s***) umumiy miqdori ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, uning strukturasi, moddiy resurslar qiymatiga(***MR_r***) va bir birlik mahsulot uchun qilingan xarajat miqdori (***K_x***) mahsulotni sotish bahosiga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu bog‘liqlikni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

$$M_s = \frac{MH(IM_s, IM_{str}, K_x, MR_r)}{MH(IM_s, IM_{str}, R)}$$

Ushbu hisob-kitob asosida iqtisodiy tahlilning zanjirli almashtirish usulini asosida material sig‘imi miqdori o‘zgarishiga omillar ta‘sirini aniqlash yo‘llarini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun material sig‘imi miqdorini quyidagi tartibda qayta hisob-kitob qilib olamiz:

$$M_{s0} = \frac{MH_0(IM_{s0}, IM_{str0}, K_{x0}, MR_{r0})}{MH_0(IM_{s0}, IM_{str0}, R_0)}$$

$$M_{sqh1} = \frac{MH_{qh1}(IM_{s1}, IM_{str0}, K_{x0}, MR_{r0})}{MH_{qh1}(IM_{s1}, IM_{str0}, R_0)}$$

$$M_{sqh2} = \frac{MH_{qh2}(IM_{s1}, IM_{str1}, K_{x0}, MR_{r0})}{MH_{qh2}(IM_{s1}, IM_{str1}, R_0)}$$

$$M_{sqh3} = \frac{MH_{qh3}(IM_{s1}, IM_{str1}, K_{x1}, MR_{r0})}{MH_{qh2}(IM_{s1}, IM_{str1}, R_0)}$$

$$M_{sqh4} = \frac{MH_{qh1}(IM_{s1}, IM_{str1}, K_{x1}, MR_{r1})}{MH_{qh2}(IM_{s1}, IM_{str1}, R_0)}$$

$$M_{s1} = \frac{MH_1(IM_{s1}, IM_{sstr1}, K_{x1}, MR_{r1})}{MH_1(IM_{s1}, IM_{sstr1}, R_1)},$$

Ushbu ma'lumotlar asosida material sig'imi miqdoriga har omil ta'sirini aniqlaymiz.

1. Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori omili ta'siri:

$$\Delta M_{sim} = M_{sqh1} - M_{s0};$$

2. Ishlab chiqarilgan mahsulot strukturasi omili ta'siri:

$$\Delta M_{sstr} = sM_{sqh2} - M_{sqh1};$$

3. Bir birlik mahsulot uchun qilingan xarajat omili ta'siri:

$$\Delta M_{sk} = M_{sqh3} - M_{sqh2};$$

4. Ishlab chiqarishga sarflangan moddiy resurslar qiymati omili ta'siri:

$$\Delta M_{smr} = M_{sqh4} - M_{sqh3};$$

5. Mahsulot bahosi omili ta'siri:

$$\Delta M_{sr} = M_{s1} - M_{sqh4};$$

Barcha omillar ta'sirining yig'indisi natija o'zgarishi umumiy miqdoriga teng bo'ladi:

$$\Delta M_s = \Delta M_{sim} + \Delta M_{sstr} + \Delta M_{sk} + \Delta M_{smr} + \Delta M_{sr};$$

Material sig'imiga omillar ta'sirini aniqlash uchun zarur ma'lumotlar quyidagi tartibda hisoblanadi:

1. Rejadagi material xarajatlari:

$$MX_0 = \sum(IM_0 * K_{x0} * MR_0);$$

2. Material xarajatlarining haqiqiy mahsulot hajmi bo'yicha qayta hisoblangan miqdori:

$$MX_{qh1} = \sum(IM_0 * K_{h0} * MR_0);$$

3. Material xarajatlarining haqiqiy mahsulot hajmi, rejadagi me'yoriy xarajat va baho bo'yicha qayta hisoblangan miqdori:

$$MX_{qh2} = \sum(IM_1 * K_{h0} * MR_0);$$

4. Material xarajatlarining haqiqiy mahsulot hajmi, rejadagi baho bo'yicha qayta hisoblangan miqdori:

$$MX_{qh3} = \sum(IM_1 * K_{h1} * MR_0);$$

5. Material xarajatlarining miqdori:

$$MX_1 = \sum(IM_1 * K_{h1} * MR_1);$$

Mahsulot hajmi:

1. Rejadagi mahsulot hajmi:

$$MH_0 = \sum(IM_{0i} * R_{0i});$$

2. Haqiqiy miqdor rejadagi struktura bo'yicha:

$$MH_{qh1} = \sum(IM_{1i} * R_{0i}) * K_{stri};$$

3. Haqiqiy miqdor rejadagi baho bo'yicha:

$$MH_{qh2} = \sum(IM_{1i} * R_{0i});$$

Haqiqiy miqdor:

$$MH_1 = \sum(IM_{1i} * R_{1i});$$

Alohida mahsulot turlarining material sig'imi (MS_i) miqdori va uning o'zgarishlari sabablari ham tahlil qilinadi. Ushbu miqdor moddiy resurs xarajati me'yori, uning qiymati va mahsulotni sotish bahosiga bog'liqdir. Mazkur almashtirishni quyidagi tartibda formula shaklida ifodalash mumkin.

$$MS_{i0} = \frac{K_{xi0} + MR_0}{P_{i0}};$$

Ushbu yordamida alohida mahsulot turi bo'yicha material sig'imi miqdori o'zgarishiga omillar ta'sirini iqtisodiy tahlil usullarini qo'llab hisoblash mumkin.

Moddiy resurslar xarajatlari miqdorini mahsulot hajmi miqdoriga ta'sirini tahlil qilish uchun quyidagi o'zaro bog'liqlik aniqlab olinadi.

$$MH = \frac{MX}{MS}$$

Mahsulot hajmi, moddiy xarajatlar va material sig'imi miqdorlari o'rtasidagi ushbu o'zaro bog'liqlik asosida omillar ta'siri iqtisodiy tahlilning zanjirli almashtirish usuli yordamida hisoblanadi.

Moddiy resurslardan samarali foydalanishning eng maqbul yo'llaridan biri yangi, texnika, texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiyalash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini yaxshilash hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlarni qo'llash natijasida erishilgan samaradorlik miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$S_{mx} = (K_{x1} - K_{x0}) * R * IM - M_x;$$

Bunda,

S_{mx} - modernizatsiya samaradorligi;

K_{x1}, K_{x0} - YATdan oldingi va keyingi xarajat me'yorlari;

R - mahsulot bahosi;

IM - YAT asosida ishlab chiqarilgan mahsulot naturada;

M_x - Modernizatsiyalash bo'yicha qilingan xarajatlar.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- moddiy resurslar;
- moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik;
- moddiy resurslar bilan ta'minlanish manbalari;
- moddiy resurslar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik samaradorligi;
- moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik samaradorligi ko'rsatkichlari;
- material qaytimi va uni tahlili.

Takrorlash uchun savollar:

1. Korxonaning moddiy resurslari tahlil maqsadi qanday?
2. Moddiy resurslarni tahlilining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Moddiy resurslar tahlili axborot manbalari va uklarning ahamiyati nimada?
4. Moddiy resurslar tarkibi va uning dinamik uzgarishlari qanday tahlil etiladi?
5. Moddiy resurslardan samarali foydalanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibi qanday?
6. Material qaytimi va material sig'imi qanday tartibda aniqlanadi?

Mustaqil urganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik rejasini tuzish va ijrosi tahlilini tashkil etish va uning ahamiyatini bayon eting.

2-topshiriq. Berilgan ma'lumotlar asosida moddiy resurslar bilan ta'minlash rejasini ishlab chiqing.

3- topshiriq. Moddiy xarajatlarni uzgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi ma'lumotlar asosida tahlil qiling va xulosa tayyorlang?

Hisobot yili kursatkichlari

1.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun material sarfi miqdori, kg oliy navli un tuxum, dona tuz suv	0,850 2 0,016 0,285
2.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun sarflangan material birligini bahosi, sum oliy navli un tuxum, dona tuz suv	134 52 85 12

Biznes reja ma'lumotlari

1.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun material sarfi miqdori, kg oliy navli un tuxum, dona tuz suv	0,840 2 0,015 0,280
2.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun sarflangan material birligini bahosi, sum oliy navli un tuxum, dona tuz suv	129 53 90 10

9-BOB. MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA DAVR XARAJATLARI TAHLILI

9.1. Ishlab chiqarish xarajatlari tahlilining ahamiyati, vazifa va axborot manbalari.

Mahsulot tannarxi – shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlarning qiymat ifodasidir. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va davr xarajatlari mahsulot xarajatlari asosini tashkil etadi. Shu tufayli ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish hamda tahlil qilish iqtisodiy tahlil fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.


Ushbu mavzu doirasida xo‘jalik yurituvchi sub‘yektida amalga oshiriladigan xarajatlarni tahlil qilish bilan bog‘liq quyidagi masalalar o‘rganiladi:

- ✓ Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil etishning ahamiyati, vazifasi va axborot manbalari;
- ✓ Korxonada xarajatlarini turkumlash: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari, “Shartli-o‘zgarimas” va “Shartli-o‘zgaruvchan” xarajatlar tahlili;
- ✓ Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalarini bo‘yicha tahlili ;
- ✓ Mehnat haqi xarajatlari va ish haqi fondiga ta‘sir etuvchi omillar tahlili ;
- ✓ Mehnat unumdorligi hamda o‘rtacha ish haqi o‘sishi o‘rtasidagi nisbatni tahlili va ularni mahsulot tannarxiga ta‘sirini tahlili;
- ✓ Davr xarajatlari va ular tahlili.

<p>Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari tahlilining maqsadi- mahsulot tannarxi va davr xarajatlari miqdorlari, ularning o‘zgarishiga ta‘sir etgan omillar tahlil qilish hamda xarajatlarni qisqartirishning ichki imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.</p>
--

Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari tahlili vazifalari:

<ul style="list-style-type: none">• ishlab chiqarish xarajatlarini o'rganish va ularning holatiga baho berish;
<ul style="list-style-type: none">• mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha belgilangan rejani bajarilishi va dinamikasini o'rganish;
<ul style="list-style-type: none">• ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementi va kalkulyasion moddalari bo'yicha o'rganish va ularga baho berish;
<ul style="list-style-type: none">• mehnat unumdorligi bilan ish haqi xarajatlari o'rtasidagi nisbatni o'rganish;
<ul style="list-style-type: none">• tannarxning o'zgarish sabablarini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan hisoblash;
<ul style="list-style-type: none">• ayrim turdagi mahsulot tannarxini xarajat moddalari bo'yicha tahlil etish;
<ul style="list-style-type: none">• davr xarajatlari tarkibi, miqdori va o'zgarishlari, ular sabablarini o'rganish va ularga baho berish;
<ul style="list-style-type: none">• mahsulot tannarxi va davr xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash.



9.1-rasm. Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari tahlili axborot manbalari.


9.2. Korxonalar xarajatlarini tahlil uchun guruhlash va ularning tahlili.

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xom-ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarining qiymat ko'rinishini ifodasi hisoblanadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubi va texnologiyasi bilan belgilangan mahsulotni ishlab chiqarish (ish, xizmatlar bajarish) bilan bevosita bog'liq xarajatlari kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlari ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:


- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlari.

Shuningdek mahsulot xarajatlari tarkibini tannarxdagi ishtirokiga ko'ra quyidagi tarzda guruhlash mumkin.




9.2-rasm. Tannarxga kiritiladigan va boshqa xarajatlar turlari.


Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar va davr xarajatlari ro'yxati xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshligini aniqlash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish hamda sotish davomida korxonada paydo bo'ladigan barcha xarajatlar to'g'risida buxgalteriya hisobi schyotlarida to'liq va aniq axborotni shakllantirish va soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadida belgilanadi




9.3-rasm. Tannarxga kiritiladigan xarajatlar tarkibini guruhlash.



9.4-rasm. Davr xarajatlari tarkibini guruhlash.




9.5-rasm. Moliyaviy faoliyat xarajatlari tarkibini guruhlash.



9.6-rasm. Mahsulot tannarxi bilan bog'liq ko'rsatkichlari.

Favquloddagi xarajatlar-favquloddagi xarajatlar guruhlanmaydi odatda ushbu guruhga yuqoridagi guruh xarajatlar tarkibiga kirmaydigan, uch yil davomida takrorlanmagan notabiiy ravishdagi xarajatlar kiritiladi.




9.7-rasm. Mahsulot tannarxini ifodalovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar tarkibi.

Maxsulot xarajati umumiy miqdori–maxsulot xajmi (MH), strukturasi (MI_{str}) va xarajatlar miqdorida mahsulot o'zgaruvchan xarajatlar ulushi ($X_{o'zg}$) xamda maxsulotning o'zgarmas (doimiy) (D_x) xarajatlari miqdorlari ta'sir etadi. Formula ko'rinishida:

$$\Sigma X = (MH * X_{o'zg}) + D_x);$$

Bir birlik mahsulot uchun qilingan xarajat ulushini aniqlash:

$$X = \frac{D_x}{MH} + \Sigma X_{o'zg};$$



9.8-rasm.Xarajatlarni mahsulot xajmi o'zgarishi bo'yicha guruhlash.

9.1-jadval.

Tannarx xarajatlarini guruhlash va tahlil qilish


Xarajat elementlari	Xarajatlar mikdori, ming sum			Xarajatlar tarkibi, %		
	reja	haqiqat	fark (+;-)	Reja	haqiqat	fark (+;-)
Moddiy xarajatlar	25120	27050	+1930	32,5	32,8	+0,03
Ish xaqi	20700	21600	+900	26,8	26,2	-0,06
Yagona ijtimoiy to'lov	5175	5400	+225	6,7	6,5	-0,02
Amortizatsiya ajratmasi	5320	5440	+120	6,8	6,6	-0,02
Boshqa xarajatlar	21040	23010	+1970	27,2	27,9	+0,07
Tannarx xarajatlari jami	77355	82500	+5145	100	100	-
<i>Shu jumladan: O'zgaruvchan xarajatlar</i>	55542	58573	+3031	71,8	71,0	-
<i>O'zgarmas xarajatlar</i>	21813	23927	+2114	28,2	29,0	-
<i>Mahsulot ishlab chiqarish hajmi</i>	120250	122050	+1800	-	-	-

9.2-jadval.

**Tannarx xarajatlarini mahsulot hajmiga nisbatan
guruhlash:**

Xarajat elementlari	Xarajatlar miqdori, ming so'm			Xarajatlar ulushi, Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %		
	reja	xaki- kat	fark (+;-)	reja	xaki- kat	fark (+;-)
Moddiy xarajatlar	25120	27050	+1930	20,88	22,16	+1,28
Ish xaqi	20700	21600	+900	17,21	17,70	+0,21
Yagona ijtimoiy to'lov	5175	5400	+225	4,30	4,42	+0,12
Amortizatsiya ajratmasi	5320	5440	+120	4,42	4,46	+0,04
Boshqa xarajatlar	21040	23010	+1970	17,50	18,85	+1,35
Tannarx xarajatlari jami	77355	82500	+5145	64,3	67,59	+3,29
Shu jumladan: O'zgaruvchan xarajatlar	55542	58573	+3031	46,2	47,99	+1,79
O'zgarmas xarajatlar	21813	23927	+2114	18,1	20,00	+1,9
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	120250	122050	+1800	-	-	-

Tahlil qilinayotgan davrda korxonaning tannarx tarkibiga kiritiladigan xarajatlari jami miqdori 5145.0 ming so‘m yoki 3.29 foizga ko‘paygan. Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmi miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi, Shu bois ushbu xarajatlar miqdorini oshishi o‘rinlidir. Boshqa xarajatlar ulushi jami miqdorga nisbatan 1.35 foiz darajaga o‘zgarishligi sabablarini aniqlash tahlilning keyingi bosqichida amalga oshirilishi zarur. Mahsulot tannarxini kamaytirishning birinchi omili, aynan boshqa xarajatlar tarkibi va miqdoriy o‘zgarishlar sabablarini hisoblash orqali aniqlanadi.



9.9-rasm. Mahsulot umumiy xarajatlari o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar.

9.3-jadval.

Mahsulot umumiy xarajatlari o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar taxlili.

Xarajatlar	Xarajatlarni omillar ta'siri bilan qayta hisoblash			
	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	Ishlab chiqarilgan mahsulot strukturalari	Bir birlik mahsulot uchun sarflangan o'zgaruvchan xarajatlari	Doimiy xarajatlari
Rejadagi xarajatlari: $\sum(MH_{0i} = (MH_{0i} * U_{0'zx0}) + D_0;$	reja	Reja	reja	reja
Reja ko'rsatkichlari xarajatlari haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bo'yicha: $\sum(MH_{qx1i} = (MH_{0i} * U_{0'zx0}) * R + D_0;$	Haqiqatda	Reja	reja	reja
Reja ko'rsatkichlari xarajatlari haqiqiy ishlab chiqarilgan strukturalari bo'yicha: $MH_{qx2i} = (MH_{0i} * U_{0'zx1}) + D_0;$	Haqiqatda	Haqiqatda	reja	reja
Haqiqiy xarajatlari rejadagi doimiy xarajat bo'yicha $\sum(MH_{1i} = (MH_{1i} * U_{0'zx1}) + D_0;$	Haqiqatda	Haqiqatda	Haqiqatda	reja
Haqiqiy xarajatlari: $\sum(MH_{1i} = (MH_{1i} * *) + D_1;$	Haqiqatda	Haqiqatda	Haqiqatda	Haqiqatda

Jadvalda keltirilgan zanjirli almashtirish usulida aniqlagan xarajatlar asosida xarajat umumiy miqdoriga ta'sir etgan har bir omil ta'siri qayta hisoblangan miqdor xarajatidan oldingi xarajat miqdorini ayirish yo'li bilan aniqlanadi. 56 va 57 jadvallar ma'lumotlari bo'yicha ularni aniqlash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

«A» mahsulot bo'yicha xarajatlar o'zgarishiga omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usulida aniqlash:

$$\Delta X = \Delta X_1 - \Delta X_0 = 82500 - 77355 = + 5145,0$$

1. Reja bo'yicha xarajat miqdori:

$$77355 = (120250 * 46.2) + 21813.$$

2. Reja ko'rsatkichlari xarajatlari haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bo'yicha:

$$78186 = (120250 * 46.2) * 1,015 + 21813.$$

Mahsulot hajmi omilining ta'siri:

$$\Delta X_m = 78186 - 77355 = +831,0.$$

3. Reja ko'rsatkichlari xarajatlari haqiqiy ishlab chiqarilgan struktura bo'yicha:

$$79522 = (120250 * 47.99) + 21813.$$

Mahsulot strukturasi omilining ta'siri:

$$\Delta X_{str} = 79522 - 78186 = +1336,0.$$

4. Xarajatlar haqiqiy mahsulot hajmi, o'zgaruvchan xarajatlar ulushi rejadagi doimiy xarajat bo'yicha:

$$80386 = (122050 * 47.99) + 21813.$$

O'zgaruvchan xarajatlar omili ta'siri:

$$\Delta X_{o'zx} = 80386 - 79522 = +864,0.$$

5. Haqiqiy xarajatlar:

$$82500 = (122050 * 47,99) + 23927$$


$$\Delta X_{o'zmx} = 82500 - 80386 = +2114,0$$

Barcha omillar ta'siri yig'indisi:

$$\begin{aligned} \Delta X &= \Delta X_m + \Delta X_{str} + \Delta X_{o'zx} + \Delta X_{o'zmx} \\ &= 831 + 1336 + 864 + 2114,0 = 5145,0 \end{aligned}$$

9.3. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlili.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishda uni xarajatlar elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlil qilish zarur bo'ladi. Chunki korxonada xarajatlarni rejalashtirish aynan xarajat elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha amalga oshiriladi.



9.10-rasm. Xarajat elementlari tarkibini guruhlash.

Xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlili jarayonida ushbu xaraja elementlari tarkibi guruhlanib ularning umumiy miqdorlari, moddiy xarajat jami miqdordagi ulushi o'tgan yil va rejaga nisbatan o'zgarishlari mutloq va nisbiy miqdordlarda aniqlanadi. Buning uchun quyidagi shakldagi jadval tuziladi va tegishli ko'rsatkichlar taqqoslanib, ularning nisbiy o'zgarishlari darajalari aniqlanadi.


Tannarx tarkibini xarajat elementlari bo'yicha tahlili.

Xarajat elementlari	O'tgan yil		Reja bo'yicha		Joriy yil		Farq (+;-) %	
	so'm ma, ming-so'm.	ulus h, %	so'm ma, ming-so'm.	ulus h, %	so'm ma, mings o'm.	ulus h, %	o'tgan yilga nisbatan	Rejaga nisbatan
1	2	3	4	5	6	7	8	9
							(7q.-3q.)	(7q.-5 q.)

Ushbu tahliliy jadval asosida aniqlangan ma'lumotlar bo'yicha xarajat elementlari o'zgarishlari sabablari aniqlanadi.

Xarajatlar tarkibini kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlash:

• <i>kalkulyatsiya moddalari tarkibi:</i>
• <i>xom-ashyo va materillar;</i>
• <i>yarim tayyor material-lar;</i>
• <i>yokilgi va texnik maksadlar uchun sarflangan energiya;</i>
• <i>tijorat xarajatlari;</i>
• <i>boshqa ishlab chikarish xarajati;</i>
• <i>brakdan zararlar;</i>
• <i>umumxo'jalik xarajatlari;</i>
• <i>umum-ishlab chikarish xarajatlari;</i>
• <i>mashina va asbob uskunalarni saklash xarajatlari;</i>
• <i>ijtimoiy sugurta xarajatlari;</i>
• <i>asosiy va kushimcha ish xaqi.</i>



9.11-rasm. Xarajat moddalari tarkibini guruhlash.


Xarajatlarni har bir moddasi bo‘yicha tahlil qilish ular haqiqiy va rejadagi miqdorlari farqini aniqlashdan boshlanadi. Ularning o‘zgarishlari ta‘sirini aniqlash uchun ularning miqdorlari, tovar mahsuloti hajmidagi ulushlari hisoblanadi va ularning o‘zgarishlari, ular sabablari o‘rganiladi. Buning uchun quyidagi shaklda jadval tuziladi.

9.5-jadval.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini moddalar bo‘yicha tahlili.

Xarajat moddalari	O‘tgan yil		Hisobot yili				Farq (+;-)	
	Summa	Ulushi	Reja		Haqiqat		Re-jadan	O‘t-gan yil-dan
			Summa	Ulu-shi	Summa	Ulu-Shi		
1	2	3	4	5	6	7	8	9
		1q/TM		1q/TM		1q/TM	6q.-4 q.	7q.-5 q.

Tahlil jarayonida xarajatlar moddalari o'zgarishlariga omillar ta'sirini hisoblash maqsadida aniqlanadigan miqdorlar:



Ushbu miqdorlar quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi.

1. Xarajat moddasining rejadagi xarajat me'yor va mahsulot haqiqiy hajmi bo'yicha qayta hisoblangan miqdori:

$$X_{qhtm} = X_0 * K_{rb};$$

2. Xarajat moddasini mahsulot haqiqiy strukturasi jami hajmi bo'yicha qayta hisoblangan miqdori:

$$X_{qhstr} = X_0 * U_{o'zxi};$$


3. Xarajat moddasining mahsulot har bir xom-ashyo turi bo'yicha qayta hisoblangan miqdori

$$X_{qhi} = X_0 * U_{mri};$$

Mahsulot tannarxi o'zgarishiga ta'sir etadigan birinchi darajadagi omillar miqdori quyidagi o'zaro funksional bog'lanish orqali hisob-kitob qilinadi.

$$X = \frac{D_x}{MH} + \sum X_{o'zg}.$$

9.4. Bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan ishlab chiqarish xarajatlarni aniqlash va uning o‘zgarishini tahlil qilish.



9.12-rasm . 1 so‘mlik tovar mahsuloti xarajatiga ta‘sir etuvchi omillar tarkibini guruhlash.

Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan eng muhimi bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajaddir. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi tartibda aniqlanadi.

8. O'z mablag'larining faollik koeffitsienti (8q/1q)	0,761	0,778	+0,017

Korxonada iqtisodiy barqarorligining chetdan jalb qilingan mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar sistemasi.

Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar:

1. Chetdan jalb qilingan kapitalning to'planish (konsentratsiyasi) koeffitsienti (K_{chjm}):

$$K_{chjm} = \frac{\text{Chetdan jalb qilingan kapital (CHjk)}}{B};$$

2. Chetdan jalb qilingan kapitalning tarkibiy koeffitsienti (K_{chjqt}):

$$K_{chjqt} = \frac{\text{Uzoq muddatli passivlar (Ump)}}{CHjk};$$

3. Xususiy kapitalning umumiy qaramlilik koeffitsienti (K_{chjmq}):

$$K_{chjmq} = \frac{CHjk}{O'm};$$

4. Xususiy kapitalning uzoq muddatli passivlarga (O'_{mp}) qaramliq koeffitsienti (K_{xkumq}):

$$K_{xkumq} = \frac{(O'_{mp})}{O'm};$$

**O'z mabzalari holati bo'yicha iqtisodiy tashxis qo'yish uchun
qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash
yo'llari.**

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar nomi	Aniqlash yo'llari	Balansdagi qatorlar bo'yicha	Korxonalar balansi miqyosida
1	O'z mablag'larining o'rtacha yillik qiymati (Um)	$\frac{Umyb + Umyo}{2}$;	$\frac{390yb + 390yo}{2}$;	$\frac{4115 + 4500}{2}$ = 4307.5
2	O'z mablag'larining umumiy mablag'lardagi hissasi (Umx)	$\frac{Um}{B} * 100$;	$\frac{390}{559} * 100$;	$\frac{4115}{9345} * 100$ = 44.0%
3	O'z mablag'larining kapitallashgan lik darajasi (Umk)	$\frac{Av}{Um} * 100$;	$\frac{612}{390} * 100$;	$\frac{3495}{4115} * 100$ = 84.9%
4	O'z mablag'larining uzoq muddatli aktivlardagi summasi (Um umak)	$Uma - Umm$;	$110 - (400 - 410)$	$3685 - 2700$ = 985
5	O'z mablag'larining uzoq muddatli aktivlardagi hissasi (Um umakx)	$\frac{Um\ umak}{Um} * 100$;	$\frac{4k}{390} * 100$;	$\frac{985}{4115} * 100$ = 23.9%
6	O'z mablag'larining aylanma mablag'lardagi ishtirok etayotgan summasi (Uzam)	$Um - (Uma - Umm)$;	$390 - (110 - 400 + 410)$	$4115 - (3685 - 2700)$ = 3130
7	O'z mablag'larining aylanma mablag'lardagi hissasi (Uzamx)	$\frac{Uzam}{Am} * 100$;	$\frac{6k}{300} * 100$;	$\frac{3130}{5660} * 100$ = 55.3%

Chetdan jalb qilingan mablag'lar holatiga asosan iqtisodiy tashxis qo'yishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llar.

№	Ko'rsatkichlar nomi	Aniqlash yo'llari	Balansdagi qatorlar bo'yicha	Korxonalar balansi miqyosida
1	Chetdan jalb qilingan mablag'larning o'rtacha yillik qiymati (Chjm)	$\frac{CHjm.yb + CHjm}{2}$	$\frac{540yb + 540yo}{2}$;	$\frac{5230+5200}{2} = 5215$;
2	Chetdan jalb qilingan mablag'larning umumiy mablag'lardagi o'rnini (Chjmu)	$\frac{CHjm}{B} * 100$;	$\frac{540}{550} * 100$;	$\frac{5230}{9345} * 100 = 56.0\%$
3	Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning Chjm dagi ulushi (Umchjm.u)	$\frac{UmCHjm}{CHjm} * 100$;	$\frac{400 + 410}{540} * 100$;	$\frac{2700}{5230} * 100 = 51.6\%$
4	Qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larning Chjm dagi ulushi (Kmchjm.u)	$\frac{KmCHjm}{CHjm} * 100$;	$\frac{420 + 410}{540} * 100$;	$\frac{1000}{5230} * 100 = 19.1\%$
5	Kreditorlarning barcha mablag'lardagi ulushi (Ku)	$\frac{Kr}{B} * 100$;	$\frac{450 + \dots + 530}{550} * 100$;	$\frac{940}{9345} * 100 = 10.1\%$
6	ChJMning aylanma mablag'lardagi summasi (CHjm.am)	Am. Uz. am;	300 – o'tgan jadvalda 6k;	5660 – 3130 = 2500
7	CHJMning aylanma mablag'-lardagi ulushi (Chjm.am.u)	$\frac{CHjm.am}{Am} * 100$;	$\frac{6k}{300} * 100$;	$\frac{2550}{5660} * 100 = 44.2\%$

10.7.Uzoq muddatli va oborot aktivlari holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular tahtili.

Uzoq muddatli aktivlarning (Uma) qoplanish manbalari bo'yicha hisob-kitobi.

<p>Uma asosan ikki manba hisobidan qoplanadi. Eng avvalo o'z mablag'lari (Um) va ikkinchidan, chetdan jalb qilingan uzoq muddatli qarzarlar hisobidan. Korxonada moliya-xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy tashxis qo'yishda aynan Shu ko'rsatkichlarni aniqlashni taqozo qiladi.</p>
<p>Uzoq muddatli aktivlarda o'z mablag'lari summasi (Uma.um) $Uma.um = A_1 - P_2$ Bunda: A_1 — uzoq muddatli aktivlar; P_2 — uzoq muddatli passivlar.</p>
<p>Uzoq muddatli aktivlarda chetdan jalb qilingan mablag'lar summasi (Uma.chjm) $Uma.chjm = Umk + Umkr$ bunda : Umk — uzoq muddatli qarzarlar; $Umkr$ — uzoq muddatli kreditlar. Agar burcha Umk va $Umkr$ uzoq muddatli aktivlar uchun ishlatilgan bo'lsa. Ular bir birlari bilan teng bo'ladi.</p>

10.19-jadval.

Uzoq muddatli aktivlarning qoplanish manbalari.

Ko'rsatkichlar	Qaysi hisobotda ifodalanishi	Aniqlash formulasi	Hisobotdagi qatorlar raqami
1.Uzoq muddatli aktivlar (Uma)	1-Shakl	A_1	110
2.Uzoq muddatli aktivlarning qoplanish manbalari:			
2.1.O'z mablag'lari hisobidan (Uma.um)	1-Shaklga asosan hisoblanadi	$A_1 - P_2$	110 - (400+410)
2.2.Chetdan jalb qilingan mablag'lari hisobidan (Uma.Chjm)	1-Shaklga asosan hisoblanadi	P_2	400+410

10.20-jadval.

Uzoq muddatli va oborot aktivlari holatiga asosan korxonaga xo'jalik faoliyatiga iqtisodiy tashxis qo'yishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari.

Ko'rsatkichlar nomi	Aniq-lash yo'llari	Balansdagi qatorlar bo'yi-cha	Korxonada balansi misolida
1. Asosiy vlsitalarning o'rtacha yillik qiymati	$(Av.yb+Av.yo)/2$	$(012.yb+012.yo)/2$	$(3495+3500)/2 = 3497,5$
2. Uzoq muddatli aktivlarning o'rtacha yillik qiymati	$(Uma.yb+Uma.yo)/2$	$(130.yb+130.yo)/2$	$(3685+3700)/2 = 3692,5$
3. Av.ning Uma.dagi hissasi	1k/2k	012/130	$3497,5/3692,5 = 0,947$
4. Av.ning barcha aktivlardagi hissasi	Av/B	012/400	$3495/9345 = 0,374$
5. Uma.ning barcha aktivlardagi hissasi	Uma/B	130/400	$5685/9345 = 0,394$
6. Aylanma mablag'larning (Am) o'rtacha yillik qiymati	$(Am.yb+Am.yo)/2$	$(390.yb+390.yo)/2$	$(5660+6000)/2 = 5830$
7. Aylanma mablag'larning barcha aktivlardagi hissasi	Am/B	390/400	$5660/9345 = 0,606$
8. Am.ning Av.lar bilan taminlanganlik darajasi	Av/Am	012/390	$3495/5660 = 0,617$

Oborot aktivlarining tarkibi.

Ko'rsatkichlar nomi	Aniqlash yo'llari	Balansdagi qatorlar bo'yicha	Korxonalar balansi misolida
1. Oborot aktivlar (Oa)	Oa	390	5660
2. Moddiy aylanma mablag'lar (Mam)	Ichz+Tich+Tm+Ost;	150+160+170+180	3000
3. Mam.ning Oa.dagi hissasi	Mam/Oa;	2k/1k	$3000/5660=0,53$
4. Pul mablag'lari (Pm)	Pm+Vm+Kpm;	330+340+350+360	300
5. Pm.ning Oa.dagi hissasi	Pm/Oa;	4k/1k	$300/5660=0,053$
6. Debitorlar (D)	D	210	1900
7. Debitorlar-ning Oa.dagi hissasi	D/Oa;	6k/1k	$1900/5660=0,336$
8. Boshqa oborot aktivlar (Boa)	Kds+Kmk+Soa;	370+380+390	460
9. Boa.ning Oa.dagi hissasi	Boa/Oa;	8k/1k	$460/5660=0,081$

Aylanma mablag'larni (Am) qoplanish manbalari bo'yicha hisoblash usuli.

1. Aylanma mablag'lardagi o'z mablag'lari summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Am.um = P_1 - A_1 - P_2;$$

Bunda: P_1 — o'z mablag'lari manbalari;

A_1 — uzoq muddatli aktivlar;

P_2 — A_1 tarkibidagi uzoq muddatli qarzlar va kreditlar.

2. Aylanma mablag'larda chetdan jalb qilingan mablag'lar summasi:

$$Am.chjm = (A_2 + A_3) - (P_1 - A_1 - P_2), \text{ yoki } A_2 - 2k;$$

Bunda: A_2 — moddiy aylanma mablag'lar (zaxiralar);

A_3 — pul mablag'lari.

10.22-jadval.

Aylanma mablag'larning qoplanish manbalari

Ko'rsatkichlar	Qaysi hisobotda ifodalanishi	Aniqlash formulasi	Hisobotdagi qatorlar raqami
1. Barcha aylanma mablag'lar (Am)	1-Shakl	Am	300
2. Aylanma mablag'lar qoplanish manbalari			
2.1. O'z mablag'lari hisobidan (Am.um)	1-Shaklga asosan hisoblanadi	$P_1 - A_1 - P_2$	390-110- (400+410)
2.2. Chetdan jalb qilingan mablag'lari hisobidan (Am.Chjm)	1-Shaklga asosan hisoblanadi	$(A_2 + A_3) - 2.1k$	300-[390- 110- (400+410)]

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- buxgalteriya balansini tahlil etishdan maqsad;
- balansdagi asosiy ko'rsatkichlar;
- balans aktivining bulinishi;
- iqtisodiy potensial;
- iqtisodiy potensialni ifodalovchi ko'rsatekichlar;
- asosiy vositalar;
- joriy aktiv (mablag'lari);
- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy quyilmalar (uzoq muddatli);
- zaxiralar;
- pul mablag'lari;
- qisqa maddatli moliyaviy quyilmalar;
- debitorlik qarzlari;
- o'z mablag'lari;
- chetdan jalb etilgan mablag'lar;
- balans likvidligi;
- balans likvidligi tahlili;

Takrorlash uchun savollar

1. Xo'jalik sub'yektlarining moliyaviy holati tahlili maqsadi nima?
2. Moliyaviy holat tahlili axborot manbai va ularga quyiladigan huquqiy talablar deganda nimani tushunasiz?
3. Korxonalar balansini qanday tahlil qiladi?
4. Korxonaning to'lov layoqati deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qiladi?
5. Korxonalar moliyaviy barqarorligi deganda nimani tushunasiz va uning tahlili qanday bajariladi?

6. Likvidlilik ko'rsatkichlarini ko'rsating?
7. Korxonada balansni likvidligi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?
8. Iqtisodiy potentsial tarkibi qanday?
9. Iqtisodiy potentsial tahlili qanday amalga oshiriladi?
10. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatlarini qanday aniqlanadi?

Mustaqil urganish uchun topshiriqlar

1-topshiriq

Quyida ilova qilingan buxgalteriya balansni ma'lumotlari asosida mustaqil ravishda korxonada faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilib, xulosalar va takliflar bering.

BUXGALTERIYA BALANSI (1-sonli shakl)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr raqami	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
A K T I V			
I. UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (tiklanish) qiymat (0100, 0300)	010	1520147,6	3271538,0
Eskirish summasi (0200)	011	216380,6	668925,5
Qoldiq (balans) qiymat (010-011 satr)	012	1303767,0	2602612,5
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymat (0400)	020	3866,4	5350,5
Amortizatsiya summasi (0500)	021	1572,5	2493,3
Qoldiq (balans) qiymat (020-021 satr)	022	2293,9	2857,2
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (040+050+060+070+080 satrlar), Shu jumladan:	030	920449,7	941106,9

Qimmatli qog'ozlar (0610)	040		
Shu'ba xujalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050		
Qaram xujalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		
Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080	603229,2	640120,4
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital quyilmalar (0800)	100	296515,7	300986,5
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110	20704,8	
Shundan: muddati kechiktirilganlari	111	20704,8	
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I-bulim buyicha jami (012+022+030+090+100+110+120 satrlar)	130	2226510,6	3546576,6
II. JORIY AKTIVLAR			
Tovar-moddiy zahiralari, jami (150+160+170+180 satrlar), Shu jumladan:	140	171321,8	227414,2
Ishlab chiqarish zahiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	161448,4	224264,2
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Tayyor mahsulot (2800)	170		
Tovarlari (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180	9873,4	3150,0
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190	8224,5	16003,1
Muddati kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
Debitorlar, jami (220+230+240+250+260+270+280+290+300+310 satrlar)	210	339592,0	984633,7
Shulardan: muddati utgani kechiktirilganlari	211	-	169,2
Xaridorlar va buyurtmachilarning	220	4271,3	77415,2

qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi)			
Alohida bulinmalarning qarzlari (4110)	230	250882,1	480048,3
Shu'ba va qaram xujalik jamiyatlarining qarzlari (4120)	240	-	355967,1
Xodimlarga berilgan bunaklar (4200)	250		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bunaklar (4300)	260	-	6165,1
Byudjetga soliqlar va yig'imlar buyicha bunak tulovlari (4400)	270	24773,6	16518,6
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar buyicha bunak tulovlari (4500)	280		
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar buyicha qarzlari (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar buyicha qarzlari (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	59665,0	48519,4
Pul mablag'lari, jami (330+340+350+360 satrlar), Shu jumladan:	320	240164,2	492321,6
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330	12,3	59,0
xisob-kitob varag'idagi pul mablag'lari (5100)	340	196910,4	306037,9
Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari (5200)	350	43241,5	186224,7
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar (5500, 5600, 5700)	360		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370	621534,0	934000,0
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II-bulim buyicha jami (140+190+200+210+320+370+380 satrlar)	390	1380836,5	2654372,6
BALANS AKTIVI BO'YICHA JAMI (130+390 satrlar)	400	3607347,1	6200949,2
P A S S I V			

I. O'Z MABLAG'LARI MANBALARI			
Ustav kapitali (8300)	410	2000000,0	2000000,0
Qushilgan kapital (8400)	420		
Rezerv (zahira) kapital (8500)	430	27130,0	1100846,8
Sotib olingan uz aksiyalari (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (Qoplanmagan zarar) (8700)	450	193036,0	256165,3
Maqsadli tushumlar (8800)	460	1225762,3	947403,2
Bulg'usi xarajatlar va tulovlar zahiralari (8900)	470	3284,9	10,4
<i>I-bulim buyicha jami</i> <i>(410+420+430+440+450+460+470</i> <i>satrlar)</i>	480	3449213,2	4304425,7
II. MAJBURIYATLAR			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+510+520+530+540+550+560 +570+580+590 satrlar)	490		
Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (500+520+540+560+590 satrlar)	491		
Ulardan: muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari	492		
Mahsulot etkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlari (7000)	500		
Alohida bulinmalardan uzoq muddatli qarzlari (7110)	510		
Shu'ba va qaram xujalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzlari (7120)	520		
Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliqlar va majburiy tulovlar buyicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar (7240)	540		
Muddati kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlar (7250,	550		

7290)			
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bunaklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570		
Uzoq muddatli qarzlari (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760 satrlar)	600	158133,9	1896523,7
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (610+630+650+670+680+690+700+710+720+760 satrlar)	601		
Ulardan: muddati utgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik qarzlari	602		
Mahsulot etkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (6000)	610	3624,8	2139,6
Alohida bulinmalardan qarzlari (6110)	620		
Shu'ba va qaram xujalik jamiyatlaridan qarzlari (6120)	630		
Muddati kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliqlar va majburiy tulovlar buyicha muddati utgan (kechiktirilgan) majburiyatlar (6240)	650		
Muddati utgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan bunaklar (6300)	670		1671437,2
Byudjetga tulovlar buyicha qarzlari (6400)	680	22983,4	36808,7
Sug'urtalash buyicha qarzlari (6510)	690	33984,7	65850,6
Davlatning maqsadli	700		

jamg'armalariga tulovlar buyicha qarzlilar (6520)			
Ta'sischi'larga qarzlilar (6600)	710		
Mehnatga haq tula'ah buyicha qarzlilar (6700)	720	23910,7	90638,5
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlilar (6820, 6830, 6840)	740	43631,5	1022,9
Uzoq muddatli majburiyatlarining joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlari (6900, bundan 6959 mustasno)	760	29998,8	28626,2
<i>II-bulim buyicha jami (490+600 satrlar)</i>	770	158133,9	1896523,7
BALANS PASSIVI BO'YICHA JAMI (480+770 satrlar)	780	3607347,1	6200949,4

11-BOB. BANKROTLIK KO'RSATKICHLARI VA BANKROTLIK ALOMATLARI TAHLILI

11.1. Korxonalar bankrotligi tahlilining ahamiyati, maqsad va vazifalari hamda axborot ta'minoti.

Mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi soliq to'lovchi faoliyati va uning sog'lom iqtisodiy ahvoli bilan bog'liqdir. Shuning uchun davlat vakolatli organlari iqtisodiy rivojlanishning ijobiy tendensiyalari o'rganish va rivojlanishga salbiy ta'sir etayotgan yoki salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash chora-tadbirlarini qo'lab borishi zarurdir.

Davlat organlari tomonidan qo'llaniladigan Shunday chora-tadbirlardan biri korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish orqali ular faoliyati natijalari va qonuniyligiga baho berish hisoblanadi. Moliyaviy xo'jalik faoliyat natijasini ifodalovchi ko'rsatkichlar miqdorlari soliq to'lovchining moliyaviy hisobotlarda o'z aksini topadi.

Ushbu mavzu doirasida bankrotlik ko'rsatkichlari, ularni alomatlari, soxta bankrotlik, uni belgilari kabi quyidagi masalalari o'rganiladi:

<ul style="list-style-type: none">• bankrotligi taxlilining ahamiyati, mazmuni, vazifalari xamda axbrot manbalari;• bankrotlik alomatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash;
<ul style="list-style-type: none">• bankrotligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish;
<ul style="list-style-type: none">• bankrotlik ehtimolligini baholashda koeffitsientlardan foydalanish;
<ul style="list-style-type: none">• korxonalar bankrotlik holatiga baho berish;• korxonalar soxta bankrotligi va uning alomatlarini taxlili;
<ul style="list-style-type: none">• korxonalar moliyaviy holatini sog'lomlashtirish yo'llarini belgila.

Bankrotlik ko'rsatkichlari va bankrotlik alomatlari tahlilining maksadi- qarzdorning pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodirligi holatitahlil qilish hamda bankrotlikni olini olish choralarini belgilashdan iboratdir.

Bankrotlik ko'rsatkichlari va bankrotlik alomatlari tahlili vazifalari:
• <i>bankrotlik alomatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va ular holatiga baho berish;</i>
• <i>bankrotlik alomatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular miqdorlari o'zgarishlarini aniqlash;</i>
• <i>bankrotlik ehtimolligini ifodalovchi koeffitsientlarni hisoblash va ularga baho berish;</i>
• <i>korxonani soxta bankrotligi va uning alomatlari mavudligi holatlarini taxlil qilish;</i>
• <i>korxonaning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash.</i>

Tahlil axborot manbalari:
• <i>1-shakl moliyaviy hisobot;</i>
• <i>5-S shakl statistik hisobot ;</i>
• <i>5-F shakl statistik hisobot;</i>
• <i>2-shakl moliyaviy hisobot;</i>
• <i>boshqa ma'lumotlar.</i>

11.2. Korxonalar bankrotligi bilan bog'liq tushunchalar va ularning mazmuni.

Bozor munosabatlari sharoitida davlat byudjet-soliq siyosatining ijrosi korxonalar iqtisodiy holatiga bog'liqdir. Shuning uchun korxonaning iqtisodiy holati nafaqat moliyaviy natija nuqtai nazaridan balki uning iqtisodiy nochorligini aniqlash maqsadida ham tahlil qidinishi zarur. Korxonalar nochorligi darajasini baholash masalasi bo'yicha xorijiy va mamlakatimiz olim hamda mutaxassislarining bir qator nazariy qarashlari mavjud.

Lekin davlat nuqtai-nazaridan korxonaning iqtisodiy nochorligi, uning alomatlarini qonunlar va qonunosti me'yoriy hujjatlar talablari asosida tartibga solinadi. Chunki bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'yektni bankrotlikdan saqlab qolish iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatlarga ega.

Bankrotlik tushunchasi keng qamrovli bo'lib, bankrot, iqtisodiy nochor, yoki moliyaviy inqiroz atamalar bilan adabiyotlarda uchraydi. Lekin ushbu atamalarning barchasi bir ma'noni, ya'ni korxonaning to'lov qobiliyati yo'qolganligidan dalolat beradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektni qarzdorlik majburiyatlarini to'lash va faoliyat yuritishni mablag' bilan ta'minlash imkoniyati yo'qligini hujjatli tasdiqlanishi bankrotlik hisoblanadi.

“**Bankrotlik** (iqtisodiy nochorlik) - sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlarini bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emaslik”dir.

Bankrotlik bozor iqtisodiyoti sharoitida kuchli raqobat tizimi ostida sodir bo'lishi kutilgan iqtisodiy hodisa hisoblanadi.

Daromad olish uchun tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasida bozorda mavjud raqobat bankrotlikni kelib chiqish sabablaridandir.

Bankrotlikni *tasodifiy, maqsadli* va *ehtiyotsizlik* natijasida sodir bo'lgan terlanga bo'lish mumkin.

"Tasodifiy bankrotlik" - tadbirkorlik sub'yektiga bog'lik bo'lmagan va uning aybisiz holda sodir bo'lgan iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolish, ya'ni tabiiy ofat, harbiy harakat, malakatdagi iqtisodiy inqiroz kabi holatlar sababli ro'y bergan to'lov qobiliyatining yo'qolishidir.

"Maqsadli bankrotlik" - tadbirkorlik sub'yektining qarzini to'lashdan bosh tortish va nazorat qilinmaydigan daromad olish maqsadlarida mulkini yashirish, yoki mulkiy holatini jiddiy yomonlashtirishi natijasida yo'l qo'yilgan iqtisodiy nochorlikdir.

"Ehtiyotsizlik sababli sodir etilgan bankrotlik" - tadbirkorning o'z faoliyatini samarali tashkil etaolmasligi, tavakkalchiligi va raqobatbardoshlik choralarini ko'ramganligi sababli ro'y bergan iqtisodiy nochorlik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida" Qonuniga muvofiq bankrotlikni aniqlash va bankrotlikka oid ish yuritishda quyidagi atamalar qo'llaniladi.

Kelishuv bitimi - taraflarning sud nizosini o'zaro yon berish asosida tugatish to'g'risidagi bitimi.

Kreditorlar - qarzdor pul majburiyatlari bo'yicha va (yoki) majburiy to'lovlar majburiyatini bajarish bo'yicha qaysi yuridik yoki jismoniy shaxs oldida javobgar bo'lsa, ayni shu yuridik yoki jismoniy shaxslar (qarzdor qaysi fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazilganligi uchun javobgar bo'lsa, ayni shu fuqaro, shuningdek o'z ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) bundan mustasno).

Kreditorlar yig'ilishi (kreditorlar qo'mitasi) vakili - bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etishiga kreditorlar

yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi tomonidan vakolat berilgan Shaxs.

Kuzatuv - xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta'minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o'tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza qabul qilingan paytdan e'tiboran keyingi taomilga qadar qo'llaniladigan bankrotlik taomili.

Majburiy to'lovlar - davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Moratoriy - qarzdor yuridik shaxs tomonidan pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlar majburiyati bajarilishini to'xtatib turish.

Pul majburiyati - qarzdorning fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'yicha hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra kreditorga muayyan pul summasini to'lash majburiyati.

Sud boshqaruvchisi (muvaqqat boshqaruvchi, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi) - bankrotlik taomillarini o'tkazish maqsadida xo'jalik sudi tomonidan tayinlanadigan Shaxs.

Sudgacha sanatsiya qilish - qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egalari, kreditorlar va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlar.

Sud sanatsiyasi - xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomili.

Tashqi boshqaruv - xo‘jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o‘tkazgan holda qo‘llaniladigan bankrotlik taomili;

Tugatishga doir ish yuritish - xo‘jalik sudi tomonidan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qondirish hamda qarzdorni qarzlardan qutulgan deb e‘lon qilish maqsadida bankrot deb topilgan qarzdorga nisbatan qo‘llaniladigan bankrotlik taomili.

Shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar - xodimlari ularning oila a‘zolarini ham qo‘shib hisoblaganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini tashkil etuvchi yoki xodimlarining soni kamida uch ming kishi bo‘lgan yoxud davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta‘minlovchi yoki tabiiy monopoliyalar sub’yekti bo‘lgan yuridik shaxs.

Qarzdor - pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir bo‘lmagan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Qarzdor muassislarning (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili - bankrotlik taomili o‘tkazilayotganda qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkinging egasi vakolat bergan shaxs.

Qarzdor xodimlarining vakili - bankrotlik taomili o‘tkazilayotganda o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun qarzdorning xodimlari vakolat bergan shaxs.

Qishloq xo‘jaligi korxonasi - qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi), fermer xo‘jaligi va yuridik shaxs tashkil etgan holdagi dehqon xo‘jaligi, shuningdek faoliyatining asosiy turi tovar qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirishdan iborat bo‘lgan boshqa yuridik shaxslar.

Bankrotlik alomatlari -qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajara olmaslik.

Korxonada bankrotligi bir qator salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar mavjud bo'lib, ular tarkibi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Bankrotlikning salbiy oqibatlari:
• <i>mulkdorning mulkidan ajrashi;</i>
• <i>xodimlarni ishsiz qolishi;</i>
• <i>bozorda taqchillik paydo bo'lishi;</i>
• <i>infilyatsiya oshishi;</i>
• <i>aholi turmush darajasi pasayishi;</i>
• <i>byudjetga mablag'lar tushumi kamayishi.</i>

11.3. Korxonada bankrotligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Korxonaning bankrotligini aniqlash uchun avvalo uning iqtisodiy holatiga baho berish zarur. Buning uchun korxonada bankrotlik ehtimoli mavjud yoki yo'qligini ifodalovchi ko'rsatkichlar aniqlanadi. Korxonada bankrotlik ehtimoli mavjudligi yoki yo'qligini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi.

Bankrotlik –korxonaning mablag' etishmasligi sababli majburiyatlari bajarilishi va faoliyatini mablag' bilan ta'minlay olmasligini xujjatli tasdiklanishi.

Pul majburiyatlarini bajarishga qodir emaslik muddatlari:
<i>Majburiyatlarni to'lash uchun belgilangan muddatlar:</i>
• <i>shaxarni tashkil etuvchi va unga tenglashtrilgan korxonalariga -6 oy;</i>
• <i>boshka korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkor'larga -3 oy;</i>

Shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar - xodimlari ularning oilalarini ham qo'shib hisoblaganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini tashkil etuvchi yoki xodimlarining soni kamida uch ming kishi bo'lgan yoxud davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta'minlovchi yoki tabiiy monopoliyalar sub'yekti bo'lgan yuridik shaxs.

Korxonalarining iqtisodiy qodirligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etuvchi organlar:
• <i>davlat statistika organlari;</i>
• <i>davlat soliq xizmati organlari.</i>

Yuridik shaxsning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda qo'llaniladi taomillar.

Yuridik shaxs bankrotligi tamoyillari:
• <i>kuzatuv;</i>
• <i>sud sanatsiyasi;</i>
• <i>tashqi boshqaruv;</i>
• <i>tugatishga doir ish yuritish;</i>
• <i>kelishuv bitimi.</i>

Yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda qo'llaniladi taomillar:

- | |
|---------------------------------|
| • tugatishga doir ish yuritish; |
| • kelishuv bitimi. |

Sanatsiyalash sub'yektlari tarkibi:

- | |
|--|
| • qarzdor korxonona - yuridik shaxsning muassislari; |
| • qarzdor korxonona mulkining egasi ; |
| • davlat organlari; |
| • boshqa shaxslar . |

Sanksiyalash shakllari tasnifi:

- | |
|---|
| • to'lanadigan - davlat mablag'lari ishtirokida ; |
| • to'lanmaydigan-davlat mablag'lari ishtirokisiz. |

Sanatsiyalash yo'llari tasnifi:

- | |
|--|
| • qarzlarni o'zaro solishtirishishni tashkil etish; |
| • kreditorga to'lovlar muddatini uzaytirish va (yoki) ularni bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risida bitim tuzish; |
| • qarzdor korxonaning to'lov qobiliyatini tiklashdan manfaatdor korxonalaridan moliyaviy yordam olish; |
| • to'lov muddati o'tgan qarzlarni to'liq yoki qisman to'lash; |
| • suddan oldin sanatsiyadan o'tkazish muddatida majburiy to'lovlarni to'lash va kreditlarni qaytarish muddatini kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash, hisoblangan penya va jarimalarni hisobdan chiqarish; |
| • ishlab chiqarishni raqobatbardoshli mahsulot chiqarishga qayta ixtisoslashtirish; |
| • chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish; |
| • xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash; |
| • yuridik shaxs - qarzdor korxonani qayta tashkil etish; |
| • moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlar. |

11.4. Bankrotlik alomatlari va holatini tahlil qilish yo‘llari.

Korxonalar iqtisodiy ahvoriga ko‘ra quyidagi guruhlanadi.

Iqtisodiy ahvoli buyicha guruhlash turlari:
• <i>ta'minlangan;</i>
• <i>iqtisodiy xayfli;</i>
• <i>iqtisodiy nochor.</i>

Korxonalar iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkichlarini boyicha quyidagicha guruhlanadi.

Iqtisodiy nochorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tarkibi:
• <i>to'lovga qobillik yoki qoplash koeffitsienti - Ktk;</i>
• <i>o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti - Kut;</i>
• <i>xarajatlar rentabelligi koeffitsienti - Kxr;</i>
• <i>aktivlar rentabelligi koeffitsienti - Kar.</i>

Iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash yo‘llari.

1. To‘lovga qobillik yoki qoplash koeffitsenti :

$$K_{tq} = \frac{A_2}{P_2 - (U_{mm} + Q_{mm} + A_x)}$$

Bunda,

A_2 - aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va b.), balans aktivining II bo‘limi, 390-satr;

P_2 - majburiyatlar, balans passivining II bo‘limi, 770-satr;

U_{mm} - uzoq muddatli qarzar va kreditlar, balans passivining II bo‘limi, (490)-satrlar summasi;

Q_{mm} - qaytarish muddati kelmagan qisqa muddatli qarzar va kreditlar, balans passivining II bo‘limidan qaytarish muddati o‘tgan qisqa muddatli qarzar va kreditlar farqi summasi (600-602 satrlar);

A_x - xaridor va buyurtmachilardan olingan bajarish muddati o‘tmagan bo‘naklar, balans passivining II bo‘limidan majburiyatlarni bajarishning muddati o‘tgan bo‘nak to‘lovlari summasi farqi.

To'lovga qobillik (qoplash) koeffitsienti nafaqat debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish va tayyor mahsulotni qulay sharoitda sotish sharti bilan, balki boshqa moddiy aylanma mablag'lar elementlari kharoitida baholanuvchi korxonaning to'lovga qobilligini ko'rsatadi.

Agar koeffitsient miqdori $K_{tq} \leq 1,25$ dan past bo'lsa, korxonada ushbu ko'rsatkich bo'yicha nochor hisoblanadi.

2. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti;

$$K_{umt} = \frac{(P_1 + U_{mkq}) - A_1}{A_2};$$

Bunda,

A_1 - uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo'yilmalar va b.), balans aktivining I bo'limi, 130-satr;

P_1 - o'z mablag'larining manbalari (ustav kapitali, rezerv kapitali, qo'shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda va b.), balans passivi I bo'limining natijasi 480-satr.

U_{mkq} - Uzoq muddatli aktivlar xarid qilish uchun sarflangan uzoq muddatli kredit va qarzlilar (balans passiv II bo'limi 570 va 580 qatorlar asosida aniqlanadi).

O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti moliyaviy mustahkamlik, korxonada egalari va kreditorlar manfaatlarining nisbati uchun zarur bo'lgan korxonaning o'z oborot mablag'larining mavjudligidan dalolat beradi.

Ushbu koeffitsient eng kam qiymati - 0,2.

Agar o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti hisobot davri oxirida 0,2 dan kam qiymatga ega bo'lsa, u holda korxonada ushbu ko'rsatkich bo'yicha nochor hisoblanadi.

3. Xarajatlar va aktivlar rentabelligi koeffitsienti :

$$K_{rx} = \frac{STF}{X}; \quad K_{ra} = \frac{STF}{\bar{A}};$$

Bunda: STF - soliq to'languncha foyda (Moliyaviy hisobot 2-Shakli 240-qatori, X - barcha xarajatlar (Moliyaviy hisobot 2-Shakli 6 ustun 020 + 040 + 170 + 230 qatorlari).

\bar{A} - aktivlar o'rtacha qiymati;

Aktivlar rentabelligi yil yakuni bo'yicha aniqlanadi va korxonaga foydalilik darajasini ifodalaydi.

Agar rentabellik koeffitsienti hisobot davrida minus bo'lsa korxonaga zarar ko'rgan hisoblanadi. dan kam qiymatga ega bo'lsa, u holda korxonaga ushbu ko'rsatkich bo'yicha nochor hisoblanadi. Koeffitsient miqdori 0,05 dan kam bo'lsa, past rentabelli korxonaga hisoblanadi. Monopol korxonalar bundan mustasno.

Korxonalar iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlashning qo'shimcha ko'rsatkichlarini guruhlash.

Iqtisodiy nochorlikni ifodalovchi qo'shimcha ko'rsatkichlar tarkibi:
• <i>quvvatdan foydalanish koeffitsienti ;</i>
• <i>o'z va qarz mablag'larning nisbat koeffitsienti;</i>
• <i>asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti;</i>

Iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlashning qo'shimcha ko'rsatkichlarini hisoblash yo'llari.

1. Quvvatdan foydalanish koeffitsienti :

$$K_{qf} = \frac{YAM_1}{YAM_l - (YAM_{ij} + YAM_{kon.})};$$

Bunda:

YAM_1 – haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

YAM_l – loyiha bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot hajmi;

YAM_{ij} – ijaraga olingan quvvatga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

$YAM_{kon.}$ – konservatsiya qilingan quvvatga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Agar koeffitsient miqdori 0,5 dan, yoki o'rtacha tarmoq ko'rsatkichidan past bo'lsa, korxonada ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish past darajada hisoblanadi.

2. O'z va qarz mablag'lari nisbati koeffitsienti (K_{qf}):

$$K_{qf} = \frac{O'_m}{Q_m - U_{mm}};$$

Bunda,

O'_m – o'z mablag'lari miqdori;

Q_m – qarz mablag'lar jami;

U_{mm} – uzoq muddatli majburiyatli;

Qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari hisobidan qaytarish darajasini ifodalaydi.

Agar koeffitsient miqdori ≤ 1 bo'lsa, korxonada moliyaviy xavf mavjud hisoblanadi.

3. Asosiy vositalar eskirishi koeffitsienti (K_{avi}):

$$K_{avi} = \frac{I}{AV_{bq}};$$

Bunda:

I – hisoblangan iznos miqdori (balans 011 qatori);

AV_{bq} – asosiy vositalar boshlang'ich qiymati (balans 010 qatori).

Ushbu koeffitsient asosiy vosita eskirish darajasini ifodalaydi. Agar koeffitsient miqdori 0,5 dan yuqori bo'lsa, asosiy vositalar emirilishi miqdori yuqori bo'ladi.

Aniqlangan iqtisodiy ko'rsatkichlarni ifodalovchi koeffitsientlar belgildngan me'yorlardan kam bo'lsa, tahlil natjasiga asosan salbiy xulosaga kelinadi. Xususan:

• to'lovga qobillik (qoplash) koeffitsienti miqdori $K_{tq} \leq 1,25$ dan past bo'lsa;


• o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsienti hisobot davri oxirida 0,2 dan kam qiymatga ega bo'lsa;

• aktivlar rentabelligi koeffitsienti miqdori hisobot davrida minus yoki 0,05 dan kam bo'lsa.

• aktivlar rentabelligi koeffitsienti miqdori hisobot davrida minus yoki 0,05 dan kam bo'lsa.

11.5. Bankrotlik holatini baholash usullari.

Dunyo amaliyotida korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotlik holati)ni aniqlash uchun olimlar tomonidan tavsiya etilgan bir qancha usullar mavjud. Ushbu usullardan e'tiborga molik usullarni quyidagi chizmada ko'rish mumkin (11.1-rasm).



11-1.rasm. Bankrotlik holatini aniqlash uchun olimlar tomonidan tavsiya etilgan bir qancha usullar.

E. Altman koeffitsentlarini hisoblash yo'llari

T/r	Ko'rsatkichlar	Hisoblash formulasi
1.	Aktivlarni oborot kapitalibilanta'minlashkoeffitsenti	$K_1 = \frac{\text{Oborotdagi aylanma kapital}}{\text{Aktivlar}};$
2.	Aktivlar daromadligi koeffitsenti.	$K_2 = \frac{\text{Sotuvdan tushum}}{\text{Aktivlar}};$
3.	Aktivlar rentabelligi koeffitsenti	$K_3 = \frac{\text{Asosiy faoliyat foydasi}}{\text{Aktivlar}};$
4.	Majburiyatlarni ustav kapitali bilanta'minlash koeffitsenti	$K_4 = \frac{\text{Ustav kapitali}}{\text{Majburiyatlar}};$

Korxonaning bankrotlik ehtimolini aniqlash bo'yicha E. Altman tomonidan tavsiya etilgan 5 model miqdorini umumiy natijasini hisoblash formulasi:

$$Z_5 = \frac{\text{Oborotdagi aylanma mablaglar}}{\text{Aktivlar}} * 1,2 + \frac{\text{Asosiy faoliyat foydasi}}{\text{Aktivlar}} * 3,3 + \frac{\text{Jamgarilgan kapital}}{\text{Aktivlar}} * 1,4 + \frac{\text{Ustav kapitali}}{\text{Majburiyatlar}} * 0,6 + \frac{\text{Sotuvdan tushum}}{\text{Aktivlar}} * 1,0;$$

Ushbu metodologiya bo'yicha aniqlangan miqdorlar asosida korxonaning bankrotligi ehtimoliga baho beriladi. Agar da aniqlangan miqdor:

• (Z) 1,8 dan kichik bo'lsa, ya'ni $Z < 1,8$ da, bankrotlik holati juda yuqori:

- $Z < 1,81$ – 2,7 gacha bo'lsa, bankrotlik holati yuqori;
- $Z < 2,7$ – 2,99 gacha bo'lsa, bankrotlik ehtimoli mavjud;
- $Z > 3,0$ bo'lsa, bankrotlik ehtimoli juda kam bo'ladi.

11.2-jadval.

E.Altman usuli bo'yicha bankrotlik ehtimolini aniqlashda
qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni hisoblash yo'llari

T/r	Ko'rsatkichlar	Ma'lumot manbai	Ko'rsatkichni hisoblash	Ko'rsatkich mazmuni
1.	Oborotdagi aylanma mablag'lar	Moliyaviy hisobot 1-shakli	390q.-600q.	Korxonaning oborotdagi daromad keltiruvchi kapitali miqdorini ifodalaydi.
2.	Asosiy faoliyat foydasi	Moliyaviy hisobot 2-shakli	100 qator ma'lumoti	Korxonaga asosiy faoliyati natijasini ifodalaydi.
3.	Jamg'a - rilgan kapital	Moliyaviy hisobot 1-shakli	420q.+430 q.	Korxonaning oborot kapitali miqdorini ko'paytirish qo'shimcha imkoniyati.
4.	Ustav kapitali	Moliyaviy hisobot 1-shakli	410 qator ma'lumoti.	Ta'sischilar tomonidan kiritilgan jami kapital miqdori.
5.	Sotuvdan tushum	Moliyaviy hisobot 2-shakli	010 qator ma'lumoti	Korxonaga tahlil davridagi barcha faoliyat turlari bo'yicha olingan tushum miqdorini ifodalaydi.
6.	Aktivlar	Moliyaviy hisobot 1-shakli	400 qator ma'lumoti	Korxonaga mablag'lari jami miqdorini ifodalaydi.
7.	Majburiyatlar	Moliyaviy hisobot 1-shakli	770 qator ma'lumoti	Boshqa korxonaga va shaxslarga bo'lgan jami qarzlarni miqdorini ifodalaydi.

Bankrotlik kelib chiqishi sabablarini guruhlash:

Sub'yektga bog'liqligiga ko'ra:

- *Ichki;*
- *Tashqi;*

Bankrotlik kelib chiqishining ichki sabablari:

- *o'z mablaglarining etishmsligi;*
- *ishlab chikarishni tashkil etishdagi kamchiliklar;*
- *resurslar samaradorligi pasayishi;*
- *ortiqcha zaxira va tugallanmagan kurulish ishlar ko'payishi;*
- *marketing taxlili susayishi;*
- *bozor talablariga mos bulmagan bitimlar tuzish.*

Bankrotlik kelib chiqishining tashqi sabablari:

- *mamlakatdagi inkroz xolati;*
- *siyosiy nobarkarorlik;*
- *tashki rakobatning kuchayishi;*
- *demografik o'zgarishlar.*

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq bankrotlik holatini aniqlashda, bankrotlik ishini yurituvchi sub'yekt (sud boshqaruvchilari) korxonaning bankrotlik ishi qo'zg'atilgan davrdan oldingi 2 yillik faoliyati bo'yicha quyidagi masalalarni tahlil qilinadi.

Bankrotlik alomatlari tahlili ob'yektlari:

- qarzdorning ta'sis hujjatlari va moliyaviy hisobotlari, qarzdorning mol-mulki o'zgalarga o'tkazilganligi yoki sotib olinganligi, aktivlar tarkibining o'zgariganligi, kreditorlik qarzlarning ko'payganligi yoki kamayganligiga asos bo'lgan shartnomalar;
- qarzdorning boshqaruv organlari tarkibi, shuningdek qarzdor uchun majburiy ko'rsatmalari yoxud uning harakatini boshqacha tarzda alomatlash

imkoniyatlarini berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan hujjatlar;

- qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanadagi qarzdor mol-mulkinging ro'yxati, shuningdek qarzdorning tekshirilayotgan davrda sotib olingan yoki o'zgalarga berilgan mol-mulkinging ro'yxati;

- qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanada har bir debitor bo'yicha debitorlik qarzining miqdorini ko'rsatgan holda debitorlar ro'yxati, shuningdek tekshirilayotgan davrda debitorlik qarzlarni talab qilib olish bo'yicha ko'rilgan choralarni tasdiqlovchi hujjatlar (qarzdorlik miqdori umumiy debitorlik qarzlarning 5 foizidan kam bo'lgan debitorlardan tashqari);


- qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanadagi va tahlil qilingan sanadan oldingi oxirgi hisobot sanasidagi asosiy qarzlarni, jarimalar, penyalarni va boshqa moliyaviy jarimalar miqdorlarini alohida ko'rsatgan holda barcha darajadagi byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi qarzlarni to'g'risidagi ma'lumot;

- o'rganilayotgan davrda qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanada har bir kreditor bo'yicha qarzdorlikning asosiy summasi, jarimalar, penyalarni va majburiyatlar zarur darajada bajarilmaganligi uchun boshqa moliyaviy sanksiyalar hamda ularning bajarilishini boshlash muddatlarini ko'rsatgan holda qarzdorning kreditorlari ro'yxati (qarz miqdori umumiy kreditorlik qarzlarning 5 foizidan kam bo'lgan kreditorlardan tashqari);

- qarzdorning biznesini baholash, mol-mulki to'g'risidagi hisobotlar, auditorlik xulosalari, muvaqqat boshqaruvchining kuzatuv tartibotini o'tkazish to'g'risidagi hisoboti, taftish komissiyasining protokollari, xulosalari va hisobotlari, qarzdor boshqaruv organlarining protokollari va qarorlari.

Qarzdorning uni bankrot deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat qilgan sanada pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini qondirish va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'liq hajmda bajarish imkoniyatining mavjudligi soxta bankrotlik alomati hisoblanadi.

Shu sababli soxta bankrotlik alomatlarining mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash uchun qarzdorning o'rganilayotgan davrdagi to'lov qobiliyati tahlil qilinadi.




11.1-rasm. Qarzdorning kreditorlar oldidagi to'lov qobiliyati darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tarkibi

Tahlil qilish jarayonida ushbu ko'rsatkichlar dinamikasini, shuningdek o'rganilayotgan davrdagi (mutlaqo, tez, joriy) likvidlilik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Kreditorlarning pul majburiyatlari bo'yicha talablari yoki majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar ta'minlanishini tavsiflaydigan ko'rsatkichlarni ko'rib chiqishda majburiyatlar tarkibida asosiy qarz qiymatidan tashqari, e'tirof etilgan jarimalar, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar miqdori hisobga olinadi.

Ushbu ko'rsatkichlar korxonalar balansi ma'lumotlari asosida quyidagi tartibda aniqlanadi.



11.2-rasm. Bankrotlik alomatlarini aniqlashga iqtisodiy tahlil qilinadigan korxonalar tanlash asoslari tasnifi .

11.3-jadval

Qarzdorning to'lov qobiliyati darajasini tavsiflaydigan ko'rsatkichlarni hisoblash yo'llari.

T/r	Ko'rsatkichlar	Hisoblash formulasi	Mazmuni
1.	Qarzdor majburiyatlarining unga tegishli barcha aktivlar bilan ta'minlanganligi	$K_{mt} = \frac{\text{Joriy majburiyatlar}}{\text{Balans valyutasi}}$	Qarzdor majburiyatlarining unga tegishli barcha aktivlar bilan ta'minlanganligi qarzdorning qarz birligiga to'g'ri keladigan aktivlari miqdori bilan tavsiflanadi.
2.	Qarzdor majburiyatlarining unga tegishli joriy aktivlar bilan ta'minlanganligi	$K_{mjat} = \frac{\text{Joriy aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}}$	Qarzdorning qarz birligiga to'g'ri keladigan joriy aktivlari miqdori bilan tavsiflanadi.
3.	Sof aktivlar miqdori	$K_{sa} = A - M$	Qarzdorning sof aktivlari miqdori majburiyatlar yuklanmagan aktivlar mavjudligini tavsiflaydi.

11.6. Soxta bankrotlik alomatlari va ularni aniqlash yo'llari.

Yuqorida qayd etilganidek "maqsadli bankrotlik"-tadbirkorlik sub'yektining qarzini to'lashdan bosh tortish maqsadida mulkini yashirish yoki mulkiy holatini jiddiy yomonlashtirishi natijasida yo'l qo'yilgan iqtisodiy nochorlikdir.

Bankrotlik ushbu guruhi uch turga, ya'ni "soxta bankrotlik", "bankrotlikni yashirish" va "qasddan bankrotlikka olib kelish" turlariga bo'linadi.

Soxta bankrotlik - xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar etkazilishi.

Bankrotlikni yashirish - xo'jalik yurituvchi sub'yektning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish, buxgalterlik hisobotlarini buzib ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qodirligini yo'qotganligini yoki iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar etkazilishi.

Qasddan bankrotlikka olib kelish - shaxsiy manfaatlari yoki boshqa shaxslarning manfaatlari uchun yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxsning boshqaruv organi, kuzatuv kengashi tarkibiga kiradigan shaxs, muassis (ishtirokchi) yoxud yuridik shaxsning mulkdori tomonidan qasddan to'lovga qobiliyatsizligini yuzaga keltirish yoki oshirish sodir etilishi, ushbu yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yuridik shaxsning iqtisodiy nochorlikka (bankrotlikka) olib kelishi.

Qarzdorning uni bankrot, deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat qilgan sanada pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini qondirish va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'liq hajmda bajarish imkoniyatining mavjudligi soxta bankrotlik alomati hisoblanadi.

Shu sababli soxta bankrotlik alomatlarining mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash uchun qarzdorning o'rganilayotgan davrdagi to'lov qobiliyati tahlil qilinadi.

Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq bankrotlik holatini aniqlashda, bankrotlik ishini yurituvchi sub'yekt (sud boshqaruvchilari) korxonaning bankrotlik ishi qo'zg'atilgan davrdan oldingi 2 yillik faoliyati bo'yicha quyidagi masalalarni

tahlil qilinadi.

- qarzdorning ta'xis hujjatlari;
- qarzdorning moliyaviy hisobotlari;
- qarzdorning mol-mulki o'zgalarga o'tkazilganligi yoki sotib olinganligi, aktivlar tarkibining o'zgarganligi, kreditorlik qarzlarning ko'payganligi yoki kamayganligiga asos bo'lgan shartnomalar;
- qarzdorning boshqaruv organlari tarkibi, shuningdek qarzdor uchun majburiy ko'rsatmalari yoxud uning harakatini boshqacha tarzda alomatlash imkoniyatlarini berish huquqiga ega bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan hujjatlar;
- qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanadagi qarzdor mol-mulking ro'yxati, shuningdek qarzdorning tekshirilayotgan davrda sotib olingan yoki o'zgalarga berilgan mol-mulking ro'yxati;
- qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanada har bir debitor bo'yicha debitorlik qarzining miqdorini ko'rsatgan holda debitorlar ro'yxati, shuningdek tekshirilayotgan davrda debitorlik qarzlarni talab qilib olish bo'yicha ko'rilgan choralarni tasdiqlovchi hujjatlar (qarzdorlik miqdori umumiy debitorlik qarzlarning 5 foizidan kam bo'lgan debitorlardan tashqari);
- qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanadagi va tahlil qilingan sanadan oldingi oxirgi hisobot sanasidagi asosiy qarzlar, jarimalar, penyalar va boshqa moliyaviy jarimalar miqdorlarini alohida ko'rsatgan holda barcha darajadagi byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi qarzlari to'g'risidagi ma'lumot;
- o'rganilayotgan davrda qarzdorni bankrot deb e'tirof etish to'g'risida ariza berilgan sanada har bir kreditor bo'yicha qarzdorlikning asosiy summasi, jarimalar, penyalar va majburiyatlar zarur darajada bajarilmaganligi uchun boshqa moliyaviy sanksiyalar hamda ularning bajarilishini boshlash muddatlarini ko'rsatgan holda qarzdorning kreditorlari ro'yxati (qarz miqdori umumiy kreditorlik qarzlarning 5 foizidan kam bo'lgan kreditorlardan tashqari);
- qarzdorning biznesini baholash, mol-mulki to'g'risidagi hisobotlar, auditorlik xulosalari, muvaqqat boshqaruvchining kuzatuv

tartibotini o'tkazish to'g'risidagi hisoboti, taftish komissiyasining protokollari, xulosalari va hisobotlari, qarzdor boshqaruv organlarining protokollari va qarorlari;

• qarzdorning affillangan shaxslar va shu'ba korxonalari to'g'risidagi, shuningdek ular bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlari;

• qarzdor ishtirokidagi sud jarayonlari materiallari;

• qarzdorni soliq yuzasidan tekshiruvlar materiallari;

• qarzdorga beg'araz berilgan va u tugatilganda davlatga qaytarilishi zarur bo'lgan davlat mulki ro'yxati;

• qarzdorga saqlash uchun berilgan, ularning saqlanishi va butligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan davlat zaxiralari, moddiy boyliklarning mavjudligi to'g'risidagi hujjatlar;

• qarzdorning faoliyatini tartibga soladigan boshqa hisobga olish hujjatlari, lokal hujjatlar.

Tahlillar natijasida aniqlangan ushbu ko'rsatkichlar miqdori korxonada soxta bankrotlik alomatlari mavjudligi yoki korxonaning to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar ijobiy ekanligini ifodalaydi. Ushbu miqdorlar to'g'risida tahlil natijasida olingan ma'lumotlar bo'yicha soxta bankrotlik alomatlari mavjudligi yoki korxonaning to'lov qobiliyati darajasi to'g'risida xulosa qilinadi. O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlari me'yoriy hujjatlari bilan ushbu ko'rsatkichlarning normativ miqdorlari belgilab qo'yiladi. Tahlil natijasida olingan ma'lumotlar asosida xulosa qilishda olingan ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan me'yorlar bilan taqqoslanadi.

11.4-jadval.**Soxta bankrotlik alomatlari va to'lov qobiliyati to'g'risida xulosa uchun shartlar miqdorlari.**


T/r	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkich uchun belgilangan me'yor miqdori
1.	Qarzdor majburiyatlarining unga tegishli barcha aktivlar bilan ta'minlanganligi	Ko'rsatkich miqdori ≥ 1 bo'lganda
2.	Qarzdor majburiyatlarining unga tegishli joriy aktivlar bilan ta'minlanganligi	Ko'rsatkich miqdori $\geq 1,25$ bo'lganda
3.	Sof aktivlar miqdori.	Miqdor ijobiy va qarzdorning ustav kapitali miqdoridan ortiq bo'lganda
4.	Mutlaqo, tez, joriy likvidlilik ko'rsatkichlari	Belgilangan miqdorda bo'lganda
5.	Ma'lumot haqqoniyligi darajasi	Bankrotlik to'g'risidagi ish bila turib berilgan yolg'on ma'lumot asosida qo'zg'atilganda

Tahlillar natijasida aniqlangan ushbu ko'rsatkichlar ma'lumotlari ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan me'yorlar bilan taqqoslanadi. Amalga oshirilgan ishlar natijasi bo'yicha korxonalar xo'jalik faoliyati holati va bankrotlik alomatlari to'g'risida xulosa tayyorlanadi. Xulosa tahlil sub'yekti vakolatli shaxsi tomonidan tasdiqlanadi.

**Qarzdorning to'lov qobiliyatini tahlil qilish natijalari
bo'yicha qilinadigan xulosalar.**

T/r	To'lov qobiliyati to'g'risidagi xulosa shartlari	Xulosa mazmuni
1.	Qarzdorning to'lov qobiliyatini tahlil qilish natijasida qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini to'liq hajmda imkoniyati mavjudligi aniqlansa,	Korxonada soxta bankrotlik alomatlari mavjudligi to'g'risida xulosa qilinadi.
2.	Qarzdorning to'lov qobiliyatini tahlil qilish natijasida qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini jiddiy qiyinchiliksiz bajarish imkoniyati mavjudligi aniqlansa,	Korxonada soxta bankrotlik alomatlari mavjudligi to'g'risida xulosa qilinadi
3.	Qarzdorning to'lov qobiliyatini tahlil qilish natijasida qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini xo'jalik faoliyatini to'xtatmasdan bajarish imkoniyati mavjudligi aniqlansa,	Korxonada soxta bankrotlik alomatlari mavjudligi to'g'risida xulosa qilinadi
4.	Tahlil natijasi qarzdorning o'z majburiyatlari bo'yicha hisob-kitob qilish imkoniyati yo'qligini ko'rsatsa,	Korxonada soxta bankrotlik alomatlari yo'qligi to'g'risida xulosa qilinadi.

Bankrotlikni yashirish alomatlari aniqlash



11.2- rasm. Bankrotlikni yashirish alomatlarini aniqlovchi sub'yektlar tarkibi.

11.7-jadval.
Bankrotlikni yashirishning majburiy alomatlari tasnifi.

• talablarni qondirishdan qasddan bosh tortish;
• haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumot va hujjatlar taqdim etish;
• iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda yashirish;
• buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatishi.

Bankrotlikni yashirish usullari tasnifi.

<ul style="list-style-type: none"> • kreditorlar oldidagi o'z majburiyat-larini yashirish;
<ul style="list-style-type: none"> • xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq hisobga olish hujjatlarini yashirish, yo'q qilish, buzib ko'rsatish, qalbakilashtirish;
<ul style="list-style-type: none"> • iqtisodiy qodirligini ko'rsatish maqsadida moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatishi, ya'ni ularni qalbakilashtirishi;
<ul style="list-style-type: none"> • boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulk, pul mablag'lari berganlikni yashirish.

Korxonaning bankrotligi yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan uning muassisi, mulkdori tomonidan berilgan topshiriqlar oqibatida yuridik shaxsning bankrotligi boshlanishini oldindan bilgan holda yuzaga keltirilgan xatti-harakatlar sodir etishi qasddan bankrotlikka olib kelish deb hisoblanadi. Ushbu holatlar mavjuddigi vakolatli shaxlar tomonidan berilgan ko'rsatmalar asosida amalga oshirilgan hatti-harakatlar bo'yicha tuzilgan hujjatlarga baho berish yo'li bilan aniqlanadi.

11.7. Qasddan sodir etilgan bankrotlik va uni aniqlash yo'llari.

Korxonaning bankrotligi yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan uning muassisi, mulkdori tomonidan berilgan topshiriqlar oqibatida yuridik shaxsning bankrotligi boshlanishini oldindan bilgan holda yuzaga keltirilgan xatti-harakatlar sodir etishi qasddan bankrotlikka olib kelish deb hisoblanadi. Ushbu holatlar mavjuddigi vakolatli shaxlar tomonidan berilgan ko'rsatmalar asosida amalga oshirilgan hatti-harakatlar bo'yicha tuzilgan hujjatlarga baho berish yo'li bilan aniqlanadi.

11.9-jadval.**Qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari tasnifi.**

<ul style="list-style-type: none"> • pul mablag'laridan va boshqa mol-mulkdan qarzdorga qasddan ziyon yoki zarar etkazgan holda jinoiy tarzda foydalanishish;
<ul style="list-style-type: none"> • to'lov intizomini buzish va shartnoma majburiyatlarini bajarmaslikirish;
<ul style="list-style-type: none"> • muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarni undirish bo'yicha belgilangan muddatlarda chora-tadbirlar ko'rmalikqalbakilashtirishi;
<ul style="list-style-type: none"> • ijro etuvchi organ va/yoki kuzatuv kengashi tomonidan tegishli ravishda ularning vakolatiga kirmaydigan yirik bitimlar tuzish;
<ul style="list-style-type: none"> • asosiy faoliyatga jalb etilgan qarzdor aktivlarining;
<ul style="list-style-type: none"> • 50 foizdan ortig'ini boshqa shaxslarga berish;
<ul style="list-style-type: none"> • mol-mulkni balans qiymatidan past narxda sotish yoki uni tekin berish.

11.10-jadval.**Qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash bosqichlari**

I-BOSQICH:
<ul style="list-style-type: none"> • pul majburiyatlari bo'yicha talablari va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar ta'minlanishini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar;
<ul style="list-style-type: none"> • qarzdor majburiyatlarining unga tegishli barcha aktivlar bilan ta'minlanishi.
II-BOSQICH:
<ul style="list-style-type: none"> • birinchi bosqichda majburiyatlar ta'minlanganligi ko'rsatkichlarida jiddiy yomonlashish aniqlangan taqdirda;
<ul style="list-style-type: none"> • jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan bitimlarni sodir etish shart-sharoitlari tahlil qilinadi.

Tahlil qilingan ko'rsatkichlarning jiddiy yomonlashishi biror-bir choraklik davrda ularning pasayishi sur'ati o'rganilayotgan davrdani ushbu ko'rsatkichlar qiymatlari pasayishining o'rtacha sur'atidan oshganligi hisoblanadi. Agar shunday holatlar aniqlansa, korxonada faoliyatida bankrotlik alomatlari qasddan sodir etilganligi masalalari tahlil qilinadi. Buning uchun qarzdor korxonaning bitimlari va ular bo'yicha korxonada mansabdor shaxslari hati-harakati yoki harakatsizligiga baho berish bo'yicha tahlil ishlari amalga oshiriladi.

Qarzdor korxonada bitimlarini tahlil qilishda:

- bitimlar va qarzdorning boshqaruv organlari harakatlari yoki harakatsizligining qonun hujjatlariga muvofiqligi;

- bozor shartlariga muvofiq bo'lmagan shartlarda tuzilgan yoki bajarilgan;

- qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishiga yoki ko'payishiga sabab bo'lgan va unga aniqlik ziyor etkazgan bitimlar mavjudligi aniqlanadi.

11.11-jadval.

Bitimlar va qarzdor boshqaruv organlari harakatlari yoki harakatsizligining qonun hujjatlariga muvofiqligi.

• bitimlar tuzishda FK 113-126-moddalarida belgilangan holatlar mavjudligi tahlil qilinadi;
• FKning 105-111-moddalari talablariga rioya etilganlik o'rganiladi;
• shartnomani tuzishda FK 364-366-moddalar talablariga rioya etilganlik tahlil qilinadi;
• shartnomani tuzish qonun hujjatlariga mos kolmagan hollarda vakolatli shaxs tomonidan qilingan harakatlarga baho beriladi;
• "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya etilganlik holatlari o'rganiladi.

Bozor shartlariga muvofiq bo'lmagan shartlarda tuzilgan bitimlar, deb quyidagi bitimlar etirof etiladi:

<p>• qarzdorning oldi-sotdi bitimlari hisoblanmagan, qarzdorning aktivlarini kamroq likvidli aktivlarga almashtirishga yo'naltirilgan mol-mulkni o'zgaga berish bo'yicha bitimlari;</p>
<p>• qarzdorning mol-mulki bilan amalga oshiriladigan, qasddan qarzdor uchun foyda keltirmaydigan shartlarda tuzilgan yoki qarzdorning xo'jalik faoliyati to'xtab qolishiga sabab bo'lgan oldi-sotdi bitimlari;</p>
<p>• qarzdorning mol-mulk bilan ta'minlanmagan majburiyatlari paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan, Shuningdek likvidli bo'lmagan mol-mulk sotib olinishiga sabab bo'lgan bitimlar;</p>
<p>• ba'zi majburiyatlarni qasddan foyda bermaydigan shartlarda boshqa majburiyatlar bilan almashtirish bo'yicha bitimlar.</p>

11.12-jadval.

Qarzdor uchun oldindan ma'lum bo'lgan foyda bermaydigan shartlardagi bitimlar tasnifi

<p>• vujudga kelgan bozor konyunkturasiga nisbatan etkazib beriladigan (sotib olinadigan) tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) narxlarning pasaytirilishi yoki oshirilishi;</p>
<p>• to'lovning qarzdor uchun noqulay muddatlari va (yoki) usullari;</p>
<p>• qarzdorning mol-mulk bilan ta'minlanmagan majburiyatlari paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek likvidli bo'lmagan mol-mulk sotib olinishiga sabab bo'lgan bitimlar.</p>

11.8. Bankrotlik holati tahlili natijalarini rasmiylashtirish.

Qarzdorning to'lovga qobiliyati va bitimlarini tahlil qilish natijalari bo'yicha tahlilni amalga oshirgan sub'yekt tomonidan xulosa tayyorlanadi.

11.13-jadval.

Qasddan bankrotlik sodir etish to'g'risida tahlil natijalari bo'yicha tayyorlanadigan xulosa turlari

T/r	To'lov qobiliyati to'g'risida xulosa sharti	Xulosa mazmuni
1.	Agar qarzdorning boshqaruv organlari, yakka tartibdagi tadbirkor, qarzdorning muassisi (qatnashchisi) yoki mulkdori tomonidan qarzdorning bankrotligi yuzaga kelishiga sabab bo'lgan, ularni sodir etish paytida mavjud bo'lgan bozor shartlariga va ish muomalasi odatlariga muvofiq bo'lmagan xatti-harakatlar yoki bitimlar sodir etilgan bo'lsa,	Qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjud.
2.	Agar sud boshqaruvchisi tomonidan qonunga nomuvofiq bitimlar yoki xatti-harakatlar aniqlanmagan bo'lsa,	Qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjud emas.
3.	Tahlil qilish uchun zarur hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda,	Qarzdorning qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjudligini (mavjud emasligini) aniqlashning imkoniyati yo'q.

Tahlil natijalari bo'yicha sud boshqaruvchisi tomonidansoxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish yoki qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjudligi yoki mavjud emasligiyoxud tahlil qilish uchun zarur ma'lumotlar va hujjatlarning yo'qligi to'g'risidagi xulosa tayyorlanadi.

Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish yoki qasddan bankrotlikka olib kelish holatlari bo'yicha tayyorlanadigan xulosa rekvizitlari.

•xulosa tuzilgan sana va joy;
•sud boshqaruvchisi to'g'risidagi ma'lumotlar;
•xo'jalik sudining nomi, ish soni, xo'jalik sudining bankrotlikning tegishli tartibotini joriy etish to'g'risidagi qarori (ajrimi) chiqarilgan sana va xo'jalik sudining sud boshqaruvchisini tayinlash to'g'risidagi ajrimi chiqarilgan sana;
•qarzdorning to'liq nomi va boshqa rekvizitlari;
•soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish yoki qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjudligi yoxud mavjud emasligi to'g'risidagi xulosa;
•hisob-kitoblar va soxta bankrotlik lomatlari mavjudligi yoxud mavjud emasligi to'g'risidagi xulosani asoslash;
•hisob-kitoblar va hisob-kitob bilan birgalikda qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi yoki ko'payishining sababiga aylangan yoki sababi bo'lishi mumkin bo'lgan va/yoki qarzdorga zarar etkazgan qarzdorning bitimlari va/yoki qarzdorning boshqaruv organlari xatti-harakatlari (harakatsizligi) ko'rsatilgan holda qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlari mavjudligi yoxud mavjud emasligi to'g'risidagi xulosani asoslash;
•tahlil o'tkazishning mumkin emasligini asoslash (zarur hujjatlar mavjud bo'lmaganda).

Bankrotlik alomatlari tahlili natijalari to'g'risidagi xulosa kreditorlar yig'ilishi, prokratura va xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi va uning kelib chiqish sabablari asosida tegishli qaror qabul qilanadi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- korxonalar bankrotligi;
- bankrotlik tushunchasi;
- bankrotlik to'g'risidagi ishlar yurituvchilar;
- bankrotlik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- bankrotlik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili;
- soxta bankrotlik;
- qasddan bankrotlik;
- iqtisodiy nochor korxonalarini aniqlash ko'rsatkichlari;
- iqtisodiy nochor korxonalarini aniqlash qo'shimcha ko'rsatkichlari;
- bankrotlik aniqlash usullari;
- bankrotlik holatiga baho berish;

Takrorlash uchun savollar

1. Xo'jalik sub'yektlar bankrotligi tahlili maqsadi nima?
2. Bankrotlik holati tahlili axborot manbai va ularga quyiladigan talablar deganda nimani tushunasiz?
3. Bankrotlik tushunchasi ta'rifi qanday?
4. Bankrotlik to'g'risidagi ishlar yurituvchi vakolatli organlar tarkibi qanday?
5. Korxonaning bankrotligini ifodalovchi ko'rsatkichlar qanday tahlil qilinadi?
6. Soxta bankrotlik deganda nimani tushunasiz va uning tahlili qanday bajariladi?
7. Qaddan bankrotlikka olib kelish holatlarini aytib bering?
8. Bankrotlik qanday usullar yordamida aniqlanadi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1-topshiriq.

Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida mustaqil ravishda korxonaning bankrotligi holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilib, xulosalar va takliflar bering.

2-topshiriq.

Soxta bankrotlikka olib kelish holatlarini bayon eting va ular mazmunini izohlang

3-topshiriq.

Qasddan bankrotlikka olib kelish holatlari va uning oqibatlarini qayd eting va ular mazmunini izohlang.

12-BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLAR MOLIVAVIY NATIJALARI TAHLILI.

12.1. Moliyaviy natijalar tahlilining ahamiyati, maqsad va vazifalari hamda axborot manbalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik sub‘yektning o‘z va o‘zga mulki evaziga tavvakal qilib faoliyat yuritishidan ko‘zlangan asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarish barcha jihatlariga mos hamda barcha bosqichlari uchun iqtisodiy kategoriyadir.

Takror va kengaytirilgan ishlab chiqarish ishlab chiqarishning doimo rivojlanishi hamda texnik va texnologik takomillashuvini talab etadi. Buning uchun faoliyat natijasi hamma vaqt samarali bo‘lishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun to‘g‘ri yo‘naltirish lozim.

Qayd etilgan vazifalar bajarilishi yo‘larini belgilash faoliyat natijalarini tahlil qilish bilan amalga oshiriladi.

Korxonada daromadlari va xarajatlari moliyaviy natijalarni ifodalovchi elementlar hisoblanadi. Daromad va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy xususiyatlarini belgilaydi, ammo ularni moliyaviy natijalar hisobotida aks ettirishda talab qilinadigan mezonlarni aniqlashni maqsad qilib qo‘ymaydi.

Moliyaviy natijalar tahlilida:

• *daromad va xarajatlarning o‘zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi;*

• *moliyaviy natijalar foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo‘yicha o‘zgarishlari aniqlanadi;*

• *foyda va zararlarning omilli tahlili amalga oshiriladi.*

Shuningdek tahlil jara yonida korxonada moliyaviy natijasini yaxshilashning ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ulardan foydalanish chora va tadbirlari belgilanadi.

Moliyaviy natijalar tahlil tashqi va ichki sub‘yektlar tomonidan olib boriladi. Ichki sub‘yektlar tomonidan olib boriladigan tahlil ichki korxonada xodimlari tomonidan olib

boriladi. Ichki tahlilda korxonada ko'proq moliyaviy natijalarni yuzaga chiqish o'rni, shakli bo'yicha o'zgarishlariga ahamiyat beriladi.

Tashqi tahlil sub'yektlari davlat soliq xizmati organlari, banklar, sug'urta tashkilotlari, aksionerlar, mulk egalari, investorlar, shuningdek, korxonaga faoliyati bilan bilvosita qiziquvchi uchinchi Shaxslar hisoblanadi.

Ularni korxonaning foydalilik darajasi, sof foyda va dividendlar miqdori, soliq bazasi va miqdori hamda yakuniy moliyaviy natija va korxonaning investitsiya imkoniyatlari kabi ko'rsatkichlar qiziqtiradi.

Ushbu mavzu doirasida korxonaga faoliyatini moliyaviy natijalari va ularni tahlil qilish bilan bog'liq quyidagi masalaga o'rganiladi:

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy natijalarini tahlil qilishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari;

• tahlilning axborot manbalari va ularning tahlil tizimidagi ahamiyati;

• korxonaning umumiy moliyaviy natijalari, ularning tarkibi va tuzilishini tahlili;

• yalpi moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili;

• asosiy va moliyaviy faoliyatning daromadlari hamda xarajatlari tahlili;

• umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari va yakuniy natijalar tahlili;


• sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili;

• rentabellik ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Moliyaviy natijalari tahlilining maqsadi - korxonaga faoliyati natijasi samaradorligi holatini o'rganish va uni oshirish yo'llarini aniqlash hisoblanadi.


Moliyaviy natijalari va ular o'zgarishiga ta'sir etgan omillar tahlilining vazifalari:

• moliyaviy natijalar va ular umumiy miqdorlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibini aniqlash;
• moliyaviy natijalar va ular umumiy miqdorlari dinamikasi o'zgarishlarini aniqlash;
• moliyaviy natijalar o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tarkibini aniqlash va ular ta'sirini hisoblash;
• moliyaviy potensial va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar holatini o'rganish va ularga baho berish;
• moliyaviy potensial va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'zgarishlariga omillar ta'sirini hisoblash;
• moliyaviy natijalar oshirishning ichki imkoniyatlari bo'yicha tavsiyalar berish.



12.1-rasm. Moliyaviy faoliyat natijasini faoliyat boshqa bug'inlari bilan bog'liqligi.

Foyda-korxonada mahsulotini sotishdan olingan daromadning bir qismi hisoblanadi.




12.2-rasm. Moliyaviy faoliyat natijalari tahlilining axborot manbalari tarkibi.

12.2. Korxonada foydasi turlari, ularni hisoblash va tahlil qilish yo'llari

Foyda korxonada barcha faoliyati bilan o'zaro bog'liq. Shu sababli barcha manbalardan olingan axborotlar bir-biriga o'zaro mosligi va taqqoslanuvchanligi ta'minlanishi tahlil natijasining samarali bo'lishi hamda qabul qilinadigan qarorning ijobiyligiga xizmat qiladi.

Foyda tushunchasi keng qamrovli bo'lib, uning bir qator turlari mavjud. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar foyda uning olingan manbalari bo'yicha tavsiflanadi. Foydaning shakllanishi manbalari va ishlatilishi tahlil ob'yektlari hisoblanadi.



12.3-rasm. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar foydasi turlari tasnifi.

Tahlil jarayonida ushbu foyda turlari dinamikasi, mutloq va nisbiy miqdorlardagi o'zgarishlari, ularning sabablari o'rganilib, aniqlangan holatlarga tegishli baho beriladi. Foyda turlari miqdorlari tahlil uchun quyidagi tartibda aniqlab olinadi.

12.1-jadval.

Foyda turlari miqdorlarini hisoblash yo'llari

T/r	Foyda turi	Ko'rsatkichni hisoblash	Ko'rsatkich mazmuni
1.	Yalpi foyda (YAF)	$YAF = ST - IT;$ <p>Bunda, <i>YAF</i>- yalpi foyda miqdori; <i>ST</i>- sotishdan olingan sof tushum miqdori; <i>IT</i>- mahsulot tannarxi.</p>	Sotishdan tushgan tushum va tannarx o'rtasidagi boshqa xarajatlar chegirilmagan foyda miqdori.
2.	Asosiyf aoliyat Foydasi (AFF)	$AFF = YAF - DX + BD - BZ;$ <p>Bunda, <i>AFF</i>-asosiy faoliyatdan olingan foyda; <i>DX</i>-davr xarajatlari; <i>BD</i>-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar; <i>BZ</i>-asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;</p>	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo'yicha daromad va barcha xarajatlari hisobga olingan moliyaviy natijasi miqdori

3.	Umum-xo'jalik faoliyati foydasi (UF)	$UF = AFF + MD - MX;$ Bunda, <i>UF</i> – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; <i>MD</i> – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; <i>MX</i> – moliyaviy faoliyat xarajatlari;	Asosiy va moliyaviy faoliyat umumiy natijasini ifodalaydi.
4.	Soliq to'langunga qadar foyda (STF)	$STF = UF + FP - FZ;$ Bunda, <i>STF</i> - soliq to'langungacha olingan foyda; <i>FP</i> -favqulodda vaziyatlardan olingan foyda; <i>FZ</i> -favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;	Soliq bazasi miqdorini ifodalaydi.
5.	Sof foyda (SF)	$SF = STF - DS - BS;$ Bunda, <i>SF</i> - sof foyda; <i>DS</i> - foydadan to'lanadigan soliq; <i>BS</i> – boshqa soliqlar va to'lovlar.	

Moliyaviy natijalar umumiy hajmini ifodalovchi daromad va foyda bilan bog'liq ko'rsatkichlar tarkibi:

• mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan yalpi tushum;
• sotishdan olingan sof tushum (daromad) ;
• sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija ;
• asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi ;
• umumxo'jalik faoliyatning moliyaviy natijasi ;
• favquloddagi foyda va zararlar ;
• soliq to'langunga qadargi foyda;
• sof foyda .

Tahlil jarayonida korxonaning foydasi umumiy hajmi bilan bog'liq ushbu ko'rsatkichlar aniqlanadi. Foyda miqdori umumiy hajmini ifodalovchi ushbu ko'rsatkichlar tahlili maqsadida kelib chiqib, o'tgan yil va biznes reja ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Buning uchun quyidagi tartibda jadval tuzish tavsiya etiladi.


12.2-jadval.

Moliyaviy natijalari umumiy hajmini ifodalovchi daromadlar va foyda bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+,-)	O'tgan yilga nisbatan, %
1. Mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan tushgan tushum (YAt)	5728,6	6883,6	+1155,0	120,2
2. Sotishdan olingan sof tushum (daromad) (St)	4583,3	5694,5	+1111,2	124,3
3. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija (YAf)	632,1	852,8	+220,7	134,9
4. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda yoki zarar) (Aff)	511,0	711,7	+200,7	140,6
5. Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi (UFF)	582,2	792,1	+209,9	136,1
6. Favqulotdagi foyda va zarar (Ff)	11,4	8,3	-3,1	72,8
7. Soliq to'langanga qadargi umumiy foyda (STF)	593,6	800,4	+206,8	134,8
8. Sof foyda (Sf)	368,0	496,2	+128,2	134,8

12.3. Yalpi foyda va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili.

Foyda umumiy hajmini ifodalovchi ushbu ko'rsatkichlar tahlili natijasi bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida ular miqdorlari mutloq va nisbiy o'zgarishlariga tegishli baho beriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt foydasi umumiy miqdori o'zgarishi ular bilan bog'liq omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu sababli tahlilning keyingi bosqichida ushbu miqdoriy o'zgarishlariga ta'sir etgan omillar tarkibini aniqlanadi va ular har birining ta'siri iqtisodiy tahlilning usullari yordamida hisoblanadi.



12.4-rasm. Yalpi foyda miqdoriga ta'sir etuvchi omillar tarkibi.

Mahsulot sotish hajmi foyda miqdoriga ijobi va salbiy ta'sir etadi. Rentabelli mahsulot sotish miqdorining ko'payishi foydani oshiradi, zararli mahsulot sotish miqdori esa aksincha, foyda miqdorini kamaytiradi.

Tovar mahsuloti strukturasi ham korxonada foydasi miqdorining o'zgaishiga ijobiy va salbiy ta'sir etadi. Agarda

sotish hajmida yuqori rentabellik tovarlar turining ko'payishi foyda miqdorini ko'paytirishga, zararli yoki past rentabelli tovar turlarining sotish hajmidagi miqdorining ko'payishi zarar keltirish yoxud foyda miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi.

Mahsulot tannarxi va o'rtacha sotish bahosi ko'rsatkichlari foyda miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Chunki mahsulot tannarxining oshishi, bahosining pasayishi foydani kamayishiga, tannarxning pasayishi va bahoning oshishi esa foyda miqdorining ko'payishiga sabab bo'ladi.

12.3-jadval.

Yalpi foyda miqdoriga omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usulida hisoblash

Ko'rsatkich-lar	Hisob-kitoblar				Omil ta'siri miqdorini aniqlash	Foyda o'zgarishi m.s
	MH	TMS	baho	tanna rx		
Reja	reja	reja	Reja	reja	$ST_0 - T_0;$	ΔYF_{Mn}
1-Shartli miqdor	Haqiqat	reja	Reja	reja	$YAF_0 \times K_{rb};$	ΔYF_{tMc}
2-Shartli miqdor	Haqiqat	Haqiqat	Reja	reja	$ST_{Sh1} - T_{Sh};$	ΔYF_{baho}
3-Shartli miqdor	Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	reja	$ST_1 - T_{Sh};$	ΔYF_{tn}
Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	$ST_1 - T_1;$	ΔT

$$T_{Sh} = ST_1 * MS_0;$$

ST-tannarx,

K_{rb} – mahsulot sotish rejasi bajarilishi koeffitsienti,

T_{Sh} – tannarx Shartli miqdori, MS_0

– mahsulot rejadagi struktursi

$$ST_{Sh1} = TMS_1 * R_0$$

12.4-jadval.

Korxonada to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud.

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Re-ja	Haqiqat	Hisobot yil mahsulot shu davr bahosi va reja tannarxi-da	Hisobot yil mahsulot reja bahosi va hisobot yil tannarxi-da	Farqi (+;-) o'tgan yilga nisbatan
1.Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ning to'la tannarxi	3951,2	4841,7	3951,2	4841,7	+890,5
2.Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) summasi	4583,3	5694,5	5694,5	4745,4	+1111,2
3.Yalpi foyda (sotishdan sof tushum)	+632,1	+852,8	+1743,3	-96,3	+220,7
4.Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (dona)	1200	1210	x	x	x
Baho indeksi 1.2 ga teng					

**Yalpi foyda miqdori o'zgarishiga omillar ta'sirini
hisob-kitobi.**

Omillar	Hisob-kitoblar	Omil ta'siri miqdori
Sotilgan mahsulot hajmi	$\Delta F_{smh} = (SM_1 - T_{n0}) - (SM_0 - T_{n0}) =$ $= (5694.5 - 3951.2) - (4583.3 - 3951.2) =$	+1111,2
Mahsulot tannarxi	$\Delta F_{tn} = [(SM_1/i_p) - T_{n1}] - (SM_1 - T_{n0}) =$ $= (5694.5/1.2 - 4841.7) - (5694.5 - 3951.2) =$	-1839.6
Mahsulot bahosi	$\Delta F_r = (SM_1 - T_{n1}) - ([SM_1/i_p - T_{n1}) =$ $= (5694.5 - 4841.7) - (5694.5/1.2 - 3951.2) =$	+949.1
Jami	X	+220,7

Har bir omillar ta'sirining yig'indisi barcha omillar ta'siriga teng bo'lishi zarur

Mahsulot strukturasiidagi o'zgarishlarning foyda miqdoriga ta'sirini aniqlash uchun mahsulotni strukturasi bo'yicha reja bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi. Reja bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida strukturaviy o'zgarishlarning foyda miqdori o'zgarishiga ta'siri quyidagi tartibda aniqlanadi.

$$\Delta F_{str} = \Delta F_{smh} - \{[F_0 * (K_{rb} * 100 - 100)/100]\};$$

Mahsulot sotish hajmi miqdoridagi o'zgarishlarni foyda miqdoriga ta'sirini aniqlashda sotilgan har bir mahsulot turi bo'yicha omillar ta'sirini ham tahlil qilish mahsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun quyida har bir mahsulot turi bo'yicha omillar ta'sirini hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Sotilgan mahsulot turlari bo'yicha foyda miqdorini hisoblashning o'zaro bog'liqlik formulasini aniqlab olamiz.

$$F_i = MH_i * (P_i - T_i);$$

12.6-jadval.

Zanjirli almashtirish usuli yordamida omillar ta'sirini hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz

Ta'sir etgan omillar tarkibi	Natija bilan bog'liq ko'rsatkichlar			Qayta hisoblangan foyda miqdorlari	Foyda miqdori o'zgarishiga omil ta'sirini aniqlash (ming so'm)
	Mahsulot hajmi (MH)	Baho (R)	Tannarx (T)		
Reja	MH_0	R_0	MH_0	$F_{i0} = MH_{i0} * (P_{i0} - T_{i0});$	$\Delta F_i = F_{i1} - F_{i0};$
1-omil ta'siri	MH_1	R_0	T_0	$F_{imh} = MH_{i1} * (P_{i0} - T_{i0});$	$\Delta F_{imh} = F_{imh} - F_{i0};$
2-omil ta'siri	MH_1	R_1	R_0	$F_{ir} = MH_{i1} * (P_{i1} - T_{i0});$	$\Delta F_{ri} = F_{i0} - F_{imh};$
3-omil ta'siri	MH_1	R_1	T_1	$F_{i1} = MH_{i1} * (P_{i1} - T_{i1});$	$\Delta F_{ti} = F_{i1} - F_{imh};$
<p>Barcha omillar ta'siri yig'indisi umumiy o'zgarishga teng bo'ladi:</p> $\Delta F_i = \Delta F_{imh} + \Delta F_{ri} + \Delta F_{ti};$					

Bunda,

MH_0, MH_1 – mahsulot sotish reja va haqiqiy natural hajmlari;

R_0, R_1 – mahsulotning o'rtacha sotish bahosi;

T_0, T_0 – mahsulot bir birligining tannarxi.

12.4. Mahsulot turlari bo'yicha sotish hajmi o'zgarishining foyda miqdoriga ta'siri tahlili.

Korxonaga to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud. Ushbu ma'lumotlar asosida mahsulot turlari bo'yicha sotish hajmining o'zgarishini foyda miqdoriga ta'sirini omilli tahlil qilamiz. Buning uchun quyidagi shaklda jadval tuzish tavsiya etiladi

12.7-jadval.

Mahsulot turlari bo'yicha sotish hajmining o'zgarishini foyda miqdoriga ta'sirini omilli tahlil..

Mahsulot turi	Solingan mahsulot (dona)		Mahsulot o'rtacha sotish bahosi (ming)		Mahsulot bir birligi tannarxi (ming so'm)		Sotishdan olingan foyda miqdori (ming so'm)		Rejaga nisbatan farq (ming so'm)			
	R	H	R	H	R	H	R	H	Σ	Sh.j.		
										MH	R	T
A	6000	5900	3	3,1	2,5	2,6	3000	2950	-50	-50	590	-590
V	6500	6600	4,5	4,7	3,4	3,6	7150	7260	110	110	1320	-1320
D	3200	3300	6	6,2	5,5	5,6	1600	1980	380	50	660	-330
S	1800	1850	7,5	7,7	6,8	7	1260	1295	35	35	370	-370
Σ	17500	17650	X	X	X	X	13010	13485	475	145	2940	-2610

“A” mahsulot bo'yicha mahsulot sotish hajmi o'zgarishining foyda miqdori o'zgarishiga ta'sirini hisoblaymiz. Reja bo'yicha “A” mahsulotni sotish bo'yicha olinadigan foyda miqdori quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$F_{a0} = MH_{a0} * (P_{a0} - T_{a0}) = 6000 * (3 - 2.5) = 3000.0;$$

Foyda miqdori o'zgarishiga “A” mahsulot sotish hajmi miqdori ta'sirini aniqlash maqsadida ushbu tur mahsulot haqiqiy hajmini rejadagi bahosi va mahsulot bir birligi o'rtacha tannarxi bo'yicha foyda miqdorini qayta hisoblab olamiz:

$$F_{amh} = MH_{a1} * (P_{a0} - T_a) = 5900 * (3.0 - 2.5) = 2950.0;$$

“A” mahsulot bo'yicha foyda miqdori o'zgarishiga mahsulot sotish hajmi ta'siri:

$$\Delta F_{amh} = F_{amh} - F_{a0} = 2950.0 - 3000.0 = -50,0\text{ga teng};$$

Foyda miqdori o'zgarishiga “A” mahsulot sotish bahosi miqdori ta'sirini aniqlash maqsadida, ushbu tur mahsulot haqiqiy hajmi va bahosini mahsulot bir birligi o'rtacha rejadagi tannarxi bo'yicha foyda miqdorini qayta hisoblab olamiz:

$$F_{ar} = MH_{a1} * (P_{a1} - T_{a0}) = 5900 * (3.1 - 2.5) = 3540.0;$$

“A” mahsulot bo'yicha foyda miqdori o'zgarishiga mahsulot sotish bahosi ta'siri:

$$\Delta F_{ar} = F_{ar} - F_{amh} = 3540.0 - 2950.0 = +590,0\text{ga teng};$$

Foyda miqdori o'zgarishiga “A” mahsulot bir birligi tannarxi miqdori ta'sirini aniqlash maqsadida, ushbu tur

mahsulot haqiqiy hajmi, baho va mahsulot bir birligi o'rtacha rejadagi tannarxi bo'yicha foyda miqdorini hisoblab olamiz:

$$F_{a1} = MH_{a1} * (P_{a1} - T_{a1}) = 5900 * (3.1 - 2.6) = 2950.0;$$

“A” mahsulot bo'yicha foyda miqdori o'zgarishigamahsulot sotish bahosi ta'siri:

$$\Delta F_{at} = F_{a1} - F_{ar} = 2950.0 - 3540.0 = -590,0 \text{ ga teng};$$

Barcha omillar ta'sirining yig'indisi natija umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi:

$$\begin{aligned} \Delta F_a &= \Delta F_{amh} + \Delta F_{ra} + \Delta F_{ta} = -50,0 + 590,0 - 59 \\ &= -50,0 \text{ ga teng}; \end{aligned}$$

Natija umumiy o'zgarishi miqdori:

$$\Delta F_a = F_{a1} - F_{a0} = 2950.0 - 3000.0 = -50.0;$$

Xuddi shunday tartibda “V”, “D” va “S” mahsulot turlari bo'yicha ham foyda miqdoriga mahsulot hajmi, baho va tannarx omillari ta'sirini hisoblab, umumiy sotish hajmi o'zgarishi aniqlanadi. Ma'lumotlar asosida foyda miqdorini kamaytirishga ta'sir etgan omillardan samarali foydalanish to'g'risida tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Foyda miqdoriga omillar ta'siri iqtisodiy tahlilni mutloq farq usulida quyidagi tartibda hisoblanadi.

Foyda miqdoriga omillar ta'sirini mutloq farq usulida hisoblash yo'llari.

Ta'sir etgan omillar tarkibi	Natija bilan bog'liq ko'rsatkichlar			Foyda miqdori o'zgarishiga omil ta'sirini aniqlash (ming so'm)
	Mahsulot hajmi (MH)	Baho (R)	Tan-narx (T)	
Reja	MH_0	R_0	MH_0	$F_{i0} = MH_{i0} * (P_{i0} - T_{i0});$
1-omil ta'siri	MH_1	R_0	T_0	$\Delta F_{imh} = (MH_{i1} - MH_0) * (P_{i0} - T_{i0});$
2-omil ta'siri	MH_1	R_1	R_0	$\Delta F_{jp} = (P_{i1} - P_{i0}) * MH_{i1};$
3-omil ta'siri	MH_1	R_1	T_1	$\Delta F_{it} = -(T_{i1} - T_{i0}) * MH_{i1};$
<p>Barcha omillar ta'siri yig'indisi umumiy o'zgarishga teng bo'ladi:</p> $\Delta F_i = \Delta F_{imh} + \Delta F_{ri} + \Delta F_{ti};$				

12.9-jadval.

“A” mahsulot hajmiga omillar ta’sirini mutloq farq usulida hisoblash.

Ta’sir etgan omillar tarkibi	Foydamiqdori o’zgarishiga omil ta’sirini aniqlash (ming so’m)	Omil ta’siri (+;-)
Rejadagi foyda miqdori	$F_{i0} = MH_{i0} * (P_{i0} - T_{i0}) = 5900 * (3,0 - 2,5) = 2950,0;$	-
Mahsulot hajmi omili (MH) ta’siri	$\Delta F_{imh} = (MH_{i1} - MH_0) * (P_{i0} - T_{i0}) = 100 * (3,0 - 2,5) = -50,0;$	-50,0
Baho omili ta’siri	$\Delta F_{ip} = (P_{i1} - P_{i0}) * MH_{i1} = (3,1 - 3,0) * 5900 = +590,0;$	+590,0
Tannarx omili ta’siri	$\Delta F_{it} = -(T_{i1} - T_{i0}) * MH_{i1} = -(2,6 - 2,5) * 100 = -590,0;$	-590,0
Barcha omillar ta’siri miqdori	$\Delta F_i = \Delta F_{imh} \pm \Delta F_{ip} \pm \Delta F_{it};$	-50,0

Mahsulot turlari sotish miqdorlarining foyda ta’siriga tahlili, uning strukturasi bo’yicha ro’y bergan o’zgarishlar ham moliyaviy natija miqdori ijobiy yoki salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkinligidan dalolat beradi. Korxonada moliyaviy natijasida ro’y bergan o’zgarishlarga mahsulot strukturasi o’zgarishi ta’sirini tahlili qilish ushbu o’zgarishlar ijobiy yoki salbiyligiga ko’ra boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xizmat qiladi. Mahsulot strukturasiidagi o’zgarishlarning bir birlik mahsulotdan

olinadigan foyda miqdoriga ta'sirini mutloq farq usulida ko'rib chiqamiz. Buning uchun omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik formalasi quyidagi tartibda tuzib olinadi

$$\Delta F_{iu} = \sum \left[\frac{(U_{imh1} - U_{imh0}) * F_0^n}{100} \right] * MH_{1n};$$

Bunda,

ΔF_{iu} - bir birlik miqdorga to'g'ri keladigan foyda miqdoriga i-mahsulot strukturasi o'zgarishining ta'siri;

$U_{imh1} - U_{imh0}$ - i mahsulotning jami mahsulot hajmi natural miqdoridagi haqiqiy va rejadagi ulushi;

F_0^n - mahsulot natira birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdori;

MH_{1n} - mahsulotning natural miqdordagi haqiqi umumiy hajmi.

Agarda korxonada bir necha xildagi mahsulot ishlab chiqarilsa, ushbu o'zar bog'liqlik formulasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$\Delta F_{iu} = \sum \left[\frac{(U_{imh1} - U_{imh0}) * R_{i0}}{100 \times 100} \right] * \sum (MH_{1n} * T_{iqh});$$

Bunda,

ΔF_{iu} - foyda miqdorini i mahsulot strukturasi o'zgarishi ta'siri;

$U_{imh1} - U_{imh0}$ - i mahsulotning jami hajmi natural miqdoridagi rejadagi va haqiqiy ulushi;

R_{i0} - i mahsulotning rejadagi foydaning tannarxga nisbati tarzida aniqlangan rentabellik darajasi;

MH_{1n} - mahsulotning natural miqdordagi haqiqi umumiy hajmi

$\sum (MH_{1n} * T_{iqh})$ - rejadagi tannarx va haqiqiy mahsulot hajmi bo'yicha qayta hisoblangan jami mahsulot miqdori.


12.10-jadval.

Mahsulot strukturasi o'zgarishini bir birlik mahsulotdan olinadigan foyda miqdoriga ta'sirini omilli tahlil.

Mahsulot turi	Soilgan mahsulot (dona)		Mahsulot strukturasi ulushi, %			Bir so'mlik tovar maxsulotig to'g'ri keladigan rejadagi foyda (ming so'm)	Bir so'mlik tovar maxsulotig to'g'ri keladigan foyda o'zgarishi (ming so'm)
	R	H	R	H	Farq (+;-)		
A	6000	5900	34,3	33,4	-0,9	500,0	-4,3
V	6500	6600	37,1	37,4	0,3	1100,0	2,8
D	3200	3300	18,3	18,7	0,4	500,0	2,1
S	1800	1850	10,3	10,5	0,2	889,0	1,7
Σ	17500	17650	100,0	100,0	0,0	743,0	2,3

$$\begin{aligned}
 \Delta F_{iuv} &= \sum \left[\frac{(U_{imh1} - U_{imh0}) * F_0^n}{100} \right] * MH_{1n} = \\
 &= \left[\frac{(33,4 - 34,3) * 500}{100} + \frac{(37,4 - 37,1) * 1100}{100} + \right. \\
 &\quad \left. \frac{(18,7 - 18,3) * 500}{100} + \frac{(10,5 - 10,3) * 889}{100} \right] * 17650 = \\
 &40,6 \text{ ming so'm.}
 \end{aligned}$$

Mahsulot strukturasi o'zgarishi «A» mahsulotni zararli yakunlanishiga, «B» «D», «S» mahsulotlari bo'yicha birlilik mahsulot uchun olingan foyda miqdori o'sgan. Natijada mahsulot sotishdagi strukturaviy o'zgarishlar evaziga korxonaning foydasi miqdori 40,6 mingso'm o'sgan.



12.5-rasm. Asosiy faoliyatdan olingan foyda miqdori o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi.

12.5. Asosiy faoliyatdan olingan foydani tahlil qilish.

12.11.jadval.

Asosiy faoliyatdan olingan foyda miqdori o'zgarishiga ta'siri etuvchi omillar tahlili.

Ta'sir etgan omillar tarkibi	Asosiy faoliyat foydasi miqdori o'zgarishiga omil ta'sirini aniqlash (ming so'm)
Yalpi tushum (YAT) ta'siri	$\Delta F_{yat} = \frac{[(YAT_1 - YAT_0) - \Delta YAT_r * R_0]}{100};$
Baho omili ta'siri (R)	$\Delta F_r = YAT_1 - \frac{YAT_1 * R_0}{I_p};$
Tannarx omili ta'siri (T)	$\Delta F_t = YAT_1 * \frac{(T_{u1} - T_{u0})}{100};$
Sotish xarajatlari (SX)	$\Delta F_{sx} = YAT_1 * \frac{(SX_{u1} - SX_{u0})}{100};$
Ma'muriy xarajatlar (MX)	$\Delta F_{mx} = YAT_1 * \frac{(MX_{u1} - MX_{u0})}{100};$
Boshqa operatsion daromadlar va xarajatlar (BXD)	$\Delta F_{bdx} = YAT_1 * \frac{(BDX_{u1} - BDX_{u0})}{100};$
Barcha omillar ta'siri miqdori	$\Delta F = \Delta F_{yat} \pm \Delta F_r \pm \Delta F_t \pm \Delta F_{sx} \pm \pm \Delta F_{mx} \pm \Delta F_{bdx};$

Bunda,

ΔF_{yat} - foyda miqdorigayalpi tushum hajmi o'zgarishining ta'siri;

ΔYAT_r - baho o'zgarishi ta'sirida o'sgan yalpi tushum miqdori;

R_0 - reja (bazis yili)dagi rentabellik (yalpi tushumga nisbatan) miqdori;

I_p - baho indeksi.

T_u, SX_u, MX_u, BDX_u - tannarx va xarajatlarning yalpi tushumdagi ulushi.

Yalpi tushumni baho evaziga o'lgan miqdorini aniqlash:

$$\Delta YAT_r = YAT_1 - \frac{YAT_1}{I_p};$$

Yalpi tushumni natural hajm evaziga o'lgan miqdorini aniqlash:

$$\Delta YAT_n = \frac{YAT_1}{I_p} - YAT_0;$$

12.12-jadval.

Korxonada to'g'risida mavjud quyidagi ma'lumotlar asosida asosiy faoliyatdan olingan foyda miqdoriga omillar ta'sirini tahlil qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Ko'rsatkichlar	O'tganyil		Hisobotiyili	
	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)
1	3	4	5	6
Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum.	5693,1	x	7738	x
Qo'shilgan qiymat solig'i.	x	799,1	x	831,3
Aksizlar.	x	346,2	x	357,8
Sotishdan olingan sof tushum (daromad) (010-020-030).	4547,8	x	6548,9	x
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi.	x	2865,5	x	4449
Yalpi foyda (050-060).	1682,3		2099,9	
Sotish xarajatlari.	x	54,2	x	66,3
Ma'muriy xarajatlari.	x	381,7	x	506,2
Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlari va xarajatlari.	-255,9		-219,7	
Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi (foyda yo kizarar).	990,5		1307,7	

Ushbu ma'lumotlar asosida asosiy faoliyatdan olingan foyda miqdoriga omillar ta'sirini tahlil qilish maqsadida ko'rsatkichlarni asosida tahlil uchun tayyorlaymiz. Buning uchun quyidagi tartibda jadval tuzish tavsiya etiladi.

12.13-jadval.

Asosiy faoliyatdan olingan foyda miqdoriga omillar ta'sirini tahlili.

Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar miqdori		Farq, (+,-)	Sof tushumga nisbatan ulush % da		Farq (+,-)
	O'tgan yil	Joriy yil		O'tgan yil	Joriy yil	
1	2	3	4	5	6	7
Sotishdan olingan sof tushum	4547,8	6548,9	+2001,1	100	100	-
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi	2865,5	4449	+1583,5	63,0	67,94	+4,94
Yalpi foyda	1682,3	2099,9	+417,6	x	x	x
Sotish xarajatlari	54,2	66,3	+12,1	1,19	1,01	-0,18
Ma'muriy xarajatlar	381,7	506,2	+124,5	8,4	7,73	-0,67
Asosiy faoliyat boshqa jarayonlari daromad va xarajatlari	-255,9	-219,7	-36,2	5,63	3,35	-2,28
Asosiy ishlab chiqarish faoliyat foydasi	990,5	1307,7	+317,2	21,78	19,97	-1,81

Yalpi tushumni baho indnksi va baho omili evaziga mahsulot hajmi o'sgan miqdorini aniqlab olamiz:

$$I_r = \frac{I_{r1}}{I_{p0}} = \frac{3390}{3000} = 1,13,$$

$$\Delta YAT_r = 6548,9 - \frac{6548,9}{1,13} = 6548,9 - 5795,5 = +753,4;$$

Asosiy faoliyat foydasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash yo'llari.

Ta'sir etgan omillar tarkibi	Asosiy faoliyat foydasi miqdori o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash (<i>ming so'm</i>)	Omil ta'siri (+;-)
Yalpi tushum (YAT) ta'siri	$\Delta F_{yat} = \frac{[(YAT_1 - YAT_0) - \Delta YAT_r * R_0]}{100}$ $= \frac{[6548,9 - 4547,8] - 753,4 * 21,78}{100}$ $= +271,7$	+271,7
Baho omili ta'siri (R)	$\Delta F_r = YAT_1 - \frac{YAT_1}{I_p} * \frac{R_0}{100} = \frac{6548,9}{1,13} * \frac{21,78}{100} = +164,1$	+164,1
Tannarx omili ta'siri (T)	$\Delta F_t = YAT_1 * \frac{(T_{u1} - T_{u0})}{100} = 6548,9 * \frac{(67,94 - 63,0)}{100} = +323,5$	-323,5
Sotish xarajatlari (SX)	$\Delta F_{sx} = YAT_1 * \frac{(SX_{u1} - SX_{u0})}{100} = 6548,9 * \frac{(1,01 - 1,19)}{100} = -11,7$	+11,7
Ma'muriy xarajatlar (MX)	$\Delta F_{mx} = YAT_1 * \frac{(MX_{u1} - MX_{u0})}{100} = 6548,9 * \frac{(7,73 - 8,4)}{100} = -43,8$	+43,8
Boshqa operatsion daromadlar va xarajatlar (BXD)	$\Delta F_{bdx} = YAT_1 * \frac{(BDX_{u1} - BDX_{u0})}{100} = 65483,9 * \frac{(3,35 - 5,63)}{100} = -149,4$	+149,4
Barcha omillar ta'siri miqdori	$\Delta F = \Delta F_{yat} \pm \Delta F_r \pm \Delta F_t \pm \Delta F_{sx} \pm \Delta F_{mx} \pm \Delta F_{bdx} =$	317,2


Hisob-kitoblarga ko'ra asosiy faoliyat foydasi miqdoriga 6 ta omil ta'sir etib, foyda miqdorini 317,2 ming so'mga o'zgartirgan. Ushbu ko'rsatkich miqdori o'zgarishiga faqat

tannarx omilidan boshqa barcha omillar ijobiy ta'sir etgan. Sotish, ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar miqdorining kamayishi evaziga korxonada moliyaviy natijasi (foydasi) 204,9 ming so'm yoki 64,5 foizga oshgan.

12.6. Korxonada rentabelligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning tahlili.

Rentabellik korxonada faoliyati samaradorligini ifodalovchi sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Korxonada rentabelligi darajasi asos ko'rsatkichining foydalilik miqdorini ifodalaydi. Rentabellik ko'rsatkichi foiz va koeffitsient miqdorlarida aniqlanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari umumiy va alohida mahsulot bo'yicha aniqlanishi mumkin. Ko'rsatkich miqdorini hisoblashda yalpi foyda, soliq to'langunga qadar foyda va sof foyda miqdorlaridan foydalaniladi.




12.6-rasm. Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

**Rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash yo'llari va ular
mazmuni tasnifi.**

Rentabellik ko'rsatkichi	Rentabellik ko'rsatkichini hisoblash tartibi	Ko'rsatkichning mazmuni
Ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi	Foizda $R_{ich} = \frac{F}{\bar{X}} * 100;$ Koeffitsientda $K_{ichr} = \frac{F}{\bar{X}};$	Ishlab chiqarishga qilingan xarajatning foydalilik darajasini ifodalaydi.
Sotilgan mahsulot rentabelligi	Foizda – $R_{sm} = \frac{F}{SM} * 100;$ Koeffitsientda $K_{smr} = \frac{F}{SM};$	Sotilgan mahsulotning foydalilik darajasini ifodalaydi.
Iqtisodiy salohiyat rentabelligi	Foizda – $R_{is} = \frac{F}{(AV+AM+NA+MS)} * 100;$ Koeffitsientda- $K_{isr} = \frac{F}{(AV + AM + NA + MS)};$	Iqtisodiy salohiyatning foydalilik darajasini ifodalaydi.

<p>Moliyaviy salohiyat rentabelligi</p>	<p>Foizda:</p> $R_{ms} = \frac{F}{(XK + CHJK)} * 100;$ <p>Koeffitsentda-</p> $K_{isr} = \frac{F}{(XK + CHJK)};$	<p>Moliyaviy salohiyatning foydalilik darajasini ifodalaydi.</p>
<p>Asosiy vositalarrenta belligi</p>	<p>Foizda</p> $R_{av} = \frac{F}{AV} * 100;$ <p>Koeffitsentda-</p> $K_{avr} = \frac{F}{AV};$	<p>Asosiy vositalarning foydalilik darajasini ifodalaydi.</p>
<p>Aylanma mablag'lar rentabelligi</p>	<p>Foizda –</p> $R_{am} = \frac{F}{AM} * 100;$ <p>Koeffitsentda-</p> $K_{amr} = \frac{F}{AM};$	<p>Aylanma mablag'larning foydalilik darajasini ifodalaydi.</p>
<p>Aktivlar rentabelligi</p>	<p>Foizda:</p> $R_{ak} = \frac{F}{(AV + AM + NA)} * 100;$ <p>Koeffitsentda;</p> $K_{akr} = \frac{F}{(AV + AM + NA)};$	<p>Korxonada jami aktivlarining foydalilik darajasini ifodalaydi.</p>
<p>O'z mablag'lari rentabelligi</p>	<p>Foizda</p> $R_{o'm} = \frac{F}{O'M} * 100;$ <p>Koeffitsentda-</p> $K_{o'mr} = \frac{F}{O'M};$	<p>Korxonada o'z mablag'larning foydalilik darajasini ifodalaydi.</p>



12.7-rasm. Aktivlar rentabelligi ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar tarkibi.

Rentabellikka omillar ta'sirini hisoblash modeli (formulasi)ni aniqlaymiz.

$$R_{ak} = \frac{F}{(AV + AM + NA)} = \frac{YAT - T}{(AV + AM + NA)} = \frac{\frac{YAT}{T} - 1}{\frac{AM}{A} * \frac{AM}{TZ} * \frac{TZ}{T}} =$$

$$= (x - 1) * AM_{au} * AM_{tzu} * TZ_{ayl};$$

Ushbu model asosida aktivlar rentabelligi darajasiga omillar ta'sirini hisoblaymiz. YUqoridagi formula asosida iqtisodiy tahlilning mutloq farq usulini qo'llab omillar ta'sirini hisoblash uchun quyidagi ko'rinishdagi formulalarni tuzamiz.

$$DR_{ak}^r = (X_1 - X_0) * AM_{aua0} * AM_{tzu0} * TZ_{ayl0}$$

$$DR_{ak}^a = (X_1 - 1) * (AM_{aua1} - AM_{aua0}) * AM_{tzu0} * TZ_{ayl0}$$

$$DR_{ak}^{am} = (X_1 - 1) * AM_{aua1} * (AM_{tzu1} - AM_{tzu0}) * TZ_{ayl0}$$

$$DR_{ak}^{tz} = (X_1 - 1) * AM_{aua1} * AM_{tzu1} * (TZ_{ayl1} - TZ_{ayl0})$$

$$DR_{ak}^1 = (X_1 - 1) * AM_{aua1} * AM_{tzu1} * TZ_{ayl1}.$$


Quyidagi amaliy ma'lumotlar asosida aktivlar rentabelligiga omillar ta'sirini hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

12.16-jadval.

Aktivlar rentabelligiga omillar ta'siri tahlili:

t/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Joriy yil
1.	Yalpi foyda, ming so'm (F)	38255	49788
2.	Sof tushum, ming so'm (ST)	536090	706105
3.	Mahsulot tannarxi, ming so'm (T)	497835	656317
4.	Tovar zahiralari o'rtacha qoldig'i, ming so'm (TZ)	78369	81634
5.	Aylanma mablag'lar o'rtacha qoldig'i, ming so'm (AM)	108010	123405
6.	Aktivlar o'rtacha qiymati, ming so'm (A)	239573	279250
Hisob-kitoblar			
7.	Bir so'm mahsulot tannarxiga to'g'ri keladigan tushum, ming so'm (X), (2q/3q)	1,077	1,076
8.	Aylanma mablag'larning aktivlardagi ulushi, (AM_{aua}), (5q/6q)	0,451	0,442
9.	Tovar zahiralari aylanma mablag'lardagi ulushi, (AM_{tzu}) (4q/5q)	0,726	0,662
10.	Tovar zahiralari aylanishi, (TZ_{ayl}) (3q/4q)	6,352	8,040
11.	Aktivlar rentabelligi, (R_{ak}),	0,160	0,178
12.	Aktivlar rentabelligi miqdorining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, (ΔR_{ak})		+0,018
Rentabellik darajasiga omillar ta'siri:			
13.	Bir so'm mahsulot tannarxiga to'g'ri keladigan tushum,	x	-0,002
14.	Aylanma mablag'larning aktivlardagi ulushi	x	-0,003
15.	Tovar zahiralari aylanma mablag'lardagi ulushi,	x	-0,014
16.	Tovar zahiralari aylanishi,	x	0,037
Barcha omillar ta'sirining yig'indisi:		x	+0,018

Tahlil jarayonlarida moliyaviy koeffitsentlarni hisoblash korxonada xo‘jalik faoliyati natijasidagi o‘zgarishlar tendensiyalari va tarkibini aniqlash asosida mavjud muammolar echimi bo‘yicha to‘g‘ri boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun axborotlar etkazib berishga xizmat qiladi.



12.8-rasm. Xo‘jalik faoliyati rentabelligini tahlil qilishda aniqlanadigan moliyaviy koeffitsentlar.

Mahsulot turlari rentabelligini aniqlash yo'llari:

Mahsulot rentabelligi uning sotish bahosi va tannarxiga bog'liq. Shuning uchun rentabellik, foyda, baho va tannarx o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlab olamiz. Ushbu bog'liqlik quyidagi formula ko'rinishida bo'ladi.

$$R_i = \frac{F_i}{X_i} = \frac{MH_i \cdot (R_i - T_i)}{MH_i \cdot T_i} = \frac{R_i - T_i}{T_i},$$

12.17-jadval.

Quyidagi ma'lumotlar asosida mahsulot turi rentabelligini tahlil qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

Mahsulot turi	Soilgan mahsulot (dona)		Mahsulot o'rtacha sotish bahosi (so'm)		Mahsulot bir birligi tannarxi (so'm)	
	R	H	R	H	R	H
A	6000	5900	3000	3100	2500	2600
V	6500	6600	4500	4700	3400	3600
D	3200	3300	6000	6200	5500	5600
S	1800	1850	7500	7700	6800	7000
Σ	17500	17650	x	x	x	x

12.18-jadval.

Mahsulot turlari bo'yicha rentabellik miqdori o'zgarishiga omillar ta'siri tahlil.

Ko'rsatkichlar	Asosiy faoliyat foydasi miqdori o'zgarishiga aniqlash, (ming so'm)	Omil ta'sirini ta'siri (+;-), %
Reja bo'yicha (R_{a0})	$R_{a0} = \frac{R_{a0}-T_{a0}}{T_{a0}} * 100 = \frac{3000-2500}{2500} * 100 = 16,6 \%$	-
Baho omili ta'siri (R)	$R_{ar} = \frac{R_{a1}-T_{a0}}{T_{a0}} * 100 = \frac{3100-2500}{2500} * 100 = 24,0 \%$	+7,4 (24,0-16,6)
Tannarx omili ta'siri (T)	$R_{a1} = \frac{R_{a1}-T_{a1}}{T_{a1}} * 100 = \frac{3100-2600}{2600} * 100 = 19,2 \%$	-4,8 (19,2-24,0)
ΔR_a	$R_{a1} - R_{a0} = +2,6$	+2,6 (19,2-16,6) yoki (7,4-4,8)


“A” mahsulot bo'yicha rentabellik rejaga nisbatan 2,6 foizga o'sgan. “A” mahsulot rentabelligi miqdori baho omili ta'siri evaziga 7,4 foizga ko'paygan. Mahsulot tannarxi korxonada rejaga nisbatan 100 so'mga oshgan, bu miqdoriy o'zgarish rentabellik darajasiga salbiy ta'siri etgan, natijada rentabellik 4,8 foizga pasaygan.

12.19-jadval.

Xuddi shunday tartibda boshqa mahsulot turlari bo'yicha ham rentabellikka omillar ta'sirini hisoblab chiqsak, ular miqdori quyidagicha bo'ladi.

Mahsulot turi	Mahsulot				Rentabellik, %			Farq (+;-), %		
	o'rtacha bahosi		birligi tannarxi							
	R	H	R	H	R	QH	H	jami	o'zgarish	
									R	T
A	3000	3100	2500	2600	16,6	24,0	19,2	+2,6	+7,4	-4,8
V	4500	4700	3400	3600	32,4	38,2	30,6	-1,8	+5,8	-7,6
D	6000	6200	5500	5600	9,1	12,7	10,7	+1,6	+3,6	-2,0
S	7500	7700	6800	7000	10,3	13,2	10,0	-0,03	+2,9	-3,2

12.7.Korxonada foydasi va rentabelligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.



12.9-rasm. Korxonada foydasini oshirish manbalari.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish foyda miqdorini oshirishning birinchi manbai hisoblanadi. Ushbu manba evaziga foyda miqdorini ko'paytirish imkoniyatini aniqlashda buyurtmalar portfeli va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish imkoniyatlariga baho berish zarur bo'ladi. Buning uchun korxonaning ishlab chiqarish quvvati, mahsulot uchun olingan buyurtmalar va mahsulot sotish bo'yicha tuzilgan Shartnomalar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi. Ushbu ma'lumotlar asosida buyurtmalarni ta'minlash

koeffitsenti hisoblanadi. Korxonaning buyurtmalarni ta'minlash koeffitsenti quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$K_{iq} = \frac{B_h}{(R_q * IV_0) * 30};$$

Bunda,

K_{iq} – buyurtmalarni ta'minlash koeffitsenti;

B_q – mahsulot etkazib berish bo'yicha kelib tushgan buyurtmalar 1 oylik hajmi;

R_q – 1 soatda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatining bir hajmi;

IV_0 – reja bo'yicha bir kunlik ish vaqti.

Ushbu miqdor bir oy, chorak va yil uchun hisoblanishi mumkin. Buning buyurtmalar miqdori aniqlanayotgan davri uchun hisoblanishi zarur.

Agarda ushbu koeffitsent miqdori $K_{iq} \geq 1$ bo'lsa, korxonada bir smenada ishlab chiqargan mahsuloti evaziga buyurtmalarni qoplashi mumkin bo'ladi. Koeffitsent miqdori $K_{iq} \leq 1$ bo'lsa, ishlab chiqarish ikki yoki uch smenada tashkil etilishi zarur bo'ladi.

Tahlillar natijasida hisoblangan miqdorlar asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati (MH_{qi}) aniqlanadi. Ushbu imkoniyat bo'yicha foyda miqdorini oshirish mumkinligini quyidagi tartibda hisoblash mumkin:

$$+\Delta F_{iq}^{qf} = \sum (MH_{qi} * \Delta R_1^{mhi});$$

Bunda,

$+\Delta F_{iq}^{qf}$ mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish evaziga foydani oshirish imkoniyati;

MH_{qi} – i mahsulot turi bo'yicha qo'shimcha ishlab chiqarish mumkin bo'lgan natural miqdor;

ΔR_1^{mhi} – qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot bahosi va tannarxi o'rtasidagi farq;

Ushbu formulaga amaliy ma'lumotlarni qo'llab ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish evaziga foyda miqdorini oshirish imkoniyatini aniqlash mumkin.

12.20-jadval.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini evaziga foyda miqdorini oshirishni aniqlash.

Mahsulot turi	Mahsulot hajmini ko'paytirish imkoniyati (dona)	Mahsulot birligining haqiqiy foydasi (so'm)	Foyda miqdorini oshirish imkoniyati (ming so'm)
A	70	500	35,0
V	45	1100	49,5
D	35	600	21,0
S	70	700	49,0
Jami	220	x	154,5

Mahsulot tannarxini pasaytirish evaziga foyda miqdorini oshirish imkoniyatini aniqlash quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi.

$$+\Delta F_t^{qf} = \sum (-\Delta T_i)(MH_{1i} * +\Delta MH_i);$$

Bunda,

$+\Delta F_t^{qf}$ – mahsulot tannarxini pasaytirish evaziga foydani oshirish imkoniyati;

MH_{1i} – i mahsulot turini haqiqiy ishlab chiqarish natural miqdori;

$+\Delta MH_i$ – i mahsulot turini qo'shimcha sotish imkoniyati natural miqdori;

$-\Delta T_i$ – i mahsulot turi tanarxini pasaytirish imkoniyati.

Ushbu formulaga amaliy ma'lumotlarni qo'llab mahsulot tannarxini pasaytirish evaziga foydani oshirish imkoniyatini hisoblaymiz.

12.21-jadval.

Mahsulot tannarxini pasaytirish evaziga foyda miqdorini oshirishni aniqlash.

Mahsulot turi	Mahsulot bir-ligi uchuntan-narxni pasayti-rish imkoniyati (so'm)	Mahsulot sotish jami imkoniyati (ming so'm)	Foyda miqdorini oshirish imkoniyati (ming so'm)
<i>A</i>	150	6500	975,0
<i>V</i>	110	7000	770,0
<i>D</i>	85	4000	340,0
<i>S</i>	90	2000	180,0
Jami	X	19500	2265,0

Mahsulot sifatini yaxshilash ham korxonada foydasini oshirishning imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Taxlillar natijasidan korxonada mahsulot sifatini oshirish evaziga foyda miqdorini oshirish imkoniyatini ham aniqlash mumkin. Buning uchun mahsulot sorti bo'yicha o'zgarish miqdori ulushi, uni sotish bahosi va mahsulot sotish jami imkoniyatlari asosida hisob-kitob qilinadi.

Ushbu hisob-kitoblarni formula ko'rinishida quyidagi tartibda ifodalash mumkin.

$$+\Delta F_s^{qf} = \sum \frac{\Delta U_i * R_{i0}}{100} * (MH_{1i} * +\Delta MH_i);$$

Bunda,

$+\Delta F_s^{qf}$ – Mahsulot sifatini oshirish evaziga foydani oshirish imkoniyati;

MH_{1i} – i mahsulot turini haqiqiy ishlab chiqarish natural miqdori;

$+\Delta MH_i$ – i mahsulot turini qo‘Shimcha sotish imkoniyati natural miqdori;

ΔU_i – i mahsulot sortining jami mahsulotdagi ulushi ;

R_{i0} – i mahsulotning rejadagi bahosi.

12.22-jadval.

“A” mahsulot sifatini yaxshilash evaziga foyda miqdorini oshirishni aniqlash

Mahsulot sorti	Sotish bahosi (so‘m)	Ulushi, %			O‘rtacha baho o‘zgarishi, (so‘m)
		haqiqiy	Imkoniyat bo‘yicha	Farq (+;-)	
Oliy	3000	70	85	+15	+450
I	2800	18	10	-8	-224
II	2600	12	5	-7	-182
Jami	8400	100	100	x	+44

“A” mahsulot bo‘yicha mahsulot sifatini yaxshilash evaziga qo‘Shimcha foyda olish imkoniyatini hisoblaymiz.

$$+\Delta F_s^{qf} = 6500 * 44 = 286,0 \text{ ming so‘m.}$$

Demak korxonada birgina “A” mahsulot sifatini oshirish evaziga qo‘Shimcha 286,0 ming so‘m foyda olishi mumkin. Korxonada bo‘yicha yuqorida qayd etilgan 3 ta omil evaziga qo‘Shimcha foyda olish imkoniyati:

$$154,5+2265,0+286,0 = 2705,5 \text{ ming so‘mga teng.}$$

Mavzu buyicha tayanch iboralar

- moliyaviy natijalar tahlilining mazmuni va tahlil vazifalari;
 - moliyaviy natijalar tug'risidagi hisobot, ular bilan qiziquvchilarni jalb etuvchi asosiy kursatkichlar;
 - moliyaviy natijalarni shakllanishi;
 - sotishdan kurilgan foydaga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi;
 - davr xarajatlarini tahlil etish uslubi;
 - asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar va tushumlar;
 - moliyaviy faoliyatdan kurilgan foyda (zarar)larni tahlil etish tartibi;
 - rentabellik turlari, ularni mohiyati va aniqlash tartibi;
 - korxonona aktivi (mol-mulk) rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillar;
 - ishlab chiqarish rentabelligi va unga ta'sir etuvchi omillar;
 - mahsulot turlari buyicha rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillar;
- A) mahsulot tannarxi
B) mahsulot birligini bahosi
- foyda va rentabellikni oshirish yullari.

Takrorlash uchun savollar

1. Moliyaviy natija atamasining lug'aviy ma'nosi nimadan iborat?
2. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy natijalarini o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Moliyaviy natijalarni o'rganishda qanday ma'lumotlardan foydalaniladi?
4. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning foyda (zarari)si tarkibiga nimalar kiradi va uni tahlil qilish qanday amalga

oshiriladi?

5. Moliyaviy natijalarning aniqlanish tartibini ko'rsatib bering?

6. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda qanday tahlil etiladi?

7. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi qanday tahlil qilinadi?

8. Moliyaviy faoliyatdan kurilgan daromad va yuotishlar qanday urganiladi?

9. Umumxujalik faoliyatidan olingan yalpi moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

10. Favquloddagi foyda va zararlar qanday tahlil etiladi?

11. Soliq tulangunqacha bulgan moliyaviy natijalar qanday tahlil etiladi?

12. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil qilib chiqiladi?

13. Foyda qanday taqsimlanadi va uning tahlili qanday amalga oshiriladi?

14. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil etiladi?

15. Moliyaviy natijalar qanday baholanadi?

Mustaqil urganish uchun topshiriqlar

1-topshiriq

Quyida ilova qilingan "Moliyaviy natijalar tug'risidagi hisobot" ma'lumotlari asosida korxonaning moliyaviy natijalarini mustaqil ravishda tahlil qilib chiqing, xulosalar yozing va takliflar bering.

2-topshiriq

"Moliyaviy natijalar tug'risidagi hisobot" ma'lumotlariga tayanib korxonaning zarar kurmaslik nuqtasini aniqlang.

13-BOB. KORXONA MAJBURIYATLARI TAHLILI

13.1. Korxonada majburiyatlari tahlilining ahamiyati, vazifalari va axborot ta'minoti manbalari.

Ushbu mavzudakorxonada majburiyatlari, ularning tarkibi va ularni tahlil qilish bilan bog'liq quyidagi masalalar o'rganiladi:

Majburiyatlar tushunchasi, majburiyatlar turlari va ularni tahlilining ahamiyati, mazmuni va vazifalari:

• *majburiyatlar tahlilini axborot manbalari va ularni tahlil uchun tayyorlash;*

• *debitorlik va kreditorlik qarzlari va ularni taxlili;*

• *byudjetga tulovlar va ular buyicha karzdorliklar taxlili;*

• *boshqa majburiyatlar va ular taxlili va ularning ahamiyati;*

• *majburiyatlar ijrosini ta'minlashni yaxshilash choralari.*

Korxonada majburiyatlari tahlilining maqsadi– mavjud karzdorliklar, ular o'zgarishlari holatini o'rganish va karzdorliklarni bartaraf etish hamda mablag'lar aylanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash hisoblanadi.

Majburiyatlar tahlilining vazifalari:

• *majburiyat tushunchasi va ularni guruxlash;*


• *karzdorliklar, ular umumiy miqdorlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibini aniqlash;*

• *ular umumiy miqdorlari dinamikasi o'zgarishlarini aniqlash;*


• *karzdorliklar o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tarkibini aniqlash va ular ta'sirini hisoblash;*

• *debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish hamda ular holati tahlili kilish;*

• *debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligini tahlil kilish.*




13.1-rasm. Majburiyatlar tahlilining ahamiyati:



13.2-rasm. Majburiyatlar tahlilining axborot manbalari tarkibi.

13.2. Majburiyatlar turlari va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar.



13.3-rasm. Korxonalar majburiyatlarini tarkibini guruhlanishi.

Korxonada uzoq muddatli majburiyatlari tarkibi:

<i>• mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzi;</i>
<i>• ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarzi;</i>
<i>• sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarzi;</i>
<i>• soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar;</i>
<i>• boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar;</i>
<i>• xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar;</i>
<i>• uzoq muddatli bank kreditlari;</i>
<i>• uzoq muddatli qarzlari;</i>
<i>• boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari.</i>

Korxonada joriy majburiyatlari tarkibi:

<i>• mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzi;</i>
<i>• ajratilgan bo'linmalarga qarzi;</i>
<i>• sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarzi;</i>
<i>• kechiktirilgan daromadlar;</i>
<i>• soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar;</i>
<i>• boshqa kechiktirilgan majburiyatlar;</i>
<i>• olingan bo'naklar;</i>
<i>• byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzi;</i>
<i>• sug'urtalar bo'yicha qarzi;</i>
<i>• maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzi;</i>
<i>• ta'sisчилarga bo'lgan qarzlari;</i>
<i>• mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzi;</i>

• qisqa muddatli bank kreditlari;
• qisqa muddatli qarzarlar;
• uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi.

Majburiyatlar umumiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

• debitor, kreditor qarzdorlik umumiy hajmi;
• majburiyatlar aylanish davri;
• qarzdorlar muddati utgan miqdori;
• majburiyatlar tarkibidagi o'zgarishlar.

13.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular tahlili.

Debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarni paydo bo'lish sabablar:

• o'zaro hisob kitoblarda tomonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi;
• mulk va unga egalik hissining pastligi;
• shartnomaviy munosabatlaryaxshi yo'lga qo'yilmagani;
• kredit tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy asoslaridagi kamchiliklar;
• hisob kitoblar zamonaviy shakllari cheklanganligi.

13.1-jadval

Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansi tahlili:


Debitorlik qarzlari	Summa	Debitorlik qarzlari	Summa
1	2	3	4
Xaridor va buyurtmachilar qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)		Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)		Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110)	
Byudjetga soliqlik va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)		Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qarz (6120)	
Xodimlarning boshqa operatsiyalari bo'yicha qarzi (4700)		Soliqlik va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi (4120)		Olingan bo'naklar (6300)	
Ta'sischi'larning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)		Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	
Ajratilgan bo'linmalarning qarzi (4110)		Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	
Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)		Ta'sischi'larga bo'lgan qarzlar (6600)	
Maqsadli davlat jamg'armalari va suvurtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)		Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)		Boshqa debitorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)	
Jami		Jami	
Debitorlik qarzlarning debitorlik qarzlaridan ortiqchaligi		Debitorlik qarzlarning debitorlik qarzlaridan ortiqchaligi	
BALANS		BALANS	

Muddati o‘tkazib yuborilgan majburiyatlarning kelib chiqish sabablari:

<i>•korxonada moliyaviy holati nosog‘lomligi;</i>
<i>•shartnoma majburiyat-lari va to‘lov shartlariga amal etmaslik;</i>
<i>•zamonaviy hisob-kitob shakllaridan foydalanmaslik;</i>
<i>•likvid mablag‘lari aylanuvchanligi uzoqligi</i>
<i>•korxonaning to‘lov layoqatiga ega emasligi</i>
<i>•korxonada moliyaviy holati nosog‘lomligi</i>

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlilida o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar:

<i>•majburiyatlar tarkibi;</i>
<i>•karzdorliklarning jami aktivdagi ulushi;</i>
<i>•muddati o‘tgan qarzlarning jami karzlardagi ulushi;</i>
<i>•majburiyatlar aylanishining qarzdorlikka bog‘liqligi;</i>
<i>•majburiyatlar aylanishi.</i>



13.4-rasm. Debitorlik majburiyatlarini paydo bo'lish muddatlari bo'yicha tahlil uchun guruhlash

13.2-jadval.

Debitorlik majburiyatlari muddatlari bo'yicha tahlili.

Debitorlik majburiyatlari moddalari	Jami	Shu jumladan yuzaga chiqish muddatlari bo'yicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	2 oydan 3 oygacha	3 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
1.Xaridorlar vabuyurtmachilarning qarzi	6926	4582	1432	510	402	-
2. Xodimlarga berilgan bo'naklar	-					
3. Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari	60609	41238	14587	3763	1021	
4. Xodimlarning boshqa operatsiyalari bo'yicha qarzi	-					
5. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarinin qarzi	1299	298	468	367	166	
6. Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi	-					
7. Ajratilgan bo'linmalar qarzi	-					
8. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar	-					
9. Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari	-					
10. Boshqa debitorlik qarzlari	67282	45983	12450	6100	1491	1258
Jami	136116	92101	28937	10740	3080	1258

Mazkur jadval ma'lumotlari asosida «AVS» aksionerlik jamiyatining debitorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va vujudga kelish muddatlariga baho beramiz. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonadagi jami debitorlik qarzlari 136116 ming so'm bo'lgan bo'lsa, shundan, asosiy qismi ya'ni 92101 ming so'mligi yoki 67,67 %i bir oygacha bo'lgan debitorlik qarzlardir. Bir oydan ikki oygacha bo'lgan debitorlik qarzlari 28937 ming so'mni yoki 21,25 %ini tashkil qilmoqda.

Ikki oydan uch oygacha bo'lgan debitorlik qarzlari 10740 ming so'mni yoki 7,89 % ni tashkil qilgan. Demak korxonada 90 kungacha bo'lgan debitorlik qarzlari jami debitorlik qarzlarning 96,81 % (67.67+21.25+7.89) ini tashkil qilmoqda. Qolgan 3,19 % debitorlik qarzlarning muddati o'tgan bo'lib hisoblanmoqda. Demak, korxonada ma'muriyati mavjud debitorlik qarzlari undirish choralarini hamda muddati o'tgan qarzlarni bartaraf etish yo'llarini izlab topishi lozim bo'ladi. Aks holda korxonaning to'lov qobiliyatiga bu salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Debitorlik majburiyatlarini aylanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

• <i>debitor qarzlarni aylanish davri;</i>
• <i>debitor qarzlarni shartli aylanishi koeffitsenti;</i>
• <i>debitor qarzlarni shartli aylanish davri;</i>
• <i>debitor qarzlarni aylanishi koeffitsenti.</i>

Debitor qarzlarni aylanish koeffitsenti- Majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini karakterlaydi.

Debitor qarzlarni shartli aylanish koeffitsenti- O'tgan yilgi majburiyatlar miqdori o'zgarimaganida, necha kundan keyin ularni naqd pulga aylanish darajasini karakterlaydi.

Debitor qarzlarni aylanish davri- Majburiyatlarni necha kunda aylanishini ifodalaydi.

Debitor qarzlari shartli aylanish davri- Majburiyatlar miqdori o'tgan yildigidan oshimganda, necha kunda aylanishi mumkinligini ifodalaydi.

13.3-jadval.

Debitor majburiyatlarni ifodalovchi sifat ko'rsatkichlar va ularni hisoblash tartiblari:

t/r	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichni hisoblash tartibi	Ko'rsatkich mazmuni
1.	Debitor majburiyatlarining aylanish koeffitsienti, %	$K_{da} = \frac{ST}{D}$;	Ko'rsatkich debitor majburiyatlarni likvidligini ifodalaydi,
2.	Debitor majburiyatlarining shartli aylanish koeffitsienti, %	$K_{dash} = \frac{ST_1}{D_0}$;	Ushbu ko'rsatkich qarzdorlik likvidligiga o'zgarishi sof tushum omili ta'sirini ifodalaydi.
3.	Debitor majburiyatlarining aylanish davri, kun	$D_{qa} = \frac{Dq \cdot 360}{ST}$; yoki, $D_{qa} = \frac{360}{K_{da}}$	Ushbu ko'rsatkich qarzdorlikni necha kunda aylanma mablag' tarkibiga o'tishini ifodalaydi. Uning miqdori qisqaligi samaradorlikni bildiradi.
4.	Debitor majburiyatlarining shartli aylanish davri, kun	$D_{qash} = \frac{D_0 \cdot 360}{ST_1}$; yoki, $D_{qash} = \frac{360}{K_{dash}}$;	Ushbu ko'rsatkich qarzdorlik miqdoriga sof tushum miqdori ta'siri evaziga necha kunga o'zgarishini ifodalaydi.
5.	Qarzdorliklarning jami aktivdagi ulushi, %	$U_{ak} = \frac{Dq}{A} \cdot 100$;	Korxonaning aktivlarining qancha miqdori o'z obro-tidan tashqarisida ekanligini ifodalaydi.
7.	Shubhali qarzlarning jami debitorlardagi ulushi, %	$U_{shq} = \frac{ShQ}{DQ} \cdot 100$;	Korxonaning qancha miqdordagi qarzining unmaslik darajasini ifodalaydi.

Bunda,

K_{da}, K_{dash} – debitor majburiyatlarning haqiqiy va shartli aylanish koeffitsienti;

ST, ST_1 – o'tgan yil va joriy yildagi sof tushum miqdori;

DK_0, DK – o'tgan yil va joriy yildagi debitor qarzdorlik;

D_{qa}, D_{qash} – debitor majburiyatlarning haqiqiy va shartli aylanish kunlari;

U_{ak} – debitor majburiyatlarning jami aktivlardagi ulushi;

A – korxonaga jami aktivlari miqdori;

U_{shq} – debitor majburiyatlarning shubhali qismi.

13.4-jadval.**Korxonaga to'g'risidagi ma'lumotlar.**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1. Jami debitorlik majburiyat-lari, ming sum	53266	136116	+82850
2. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming sum	1452513	3040381	+1587868
3. Joriy aktivlar, ming sum	531756	689066	+157310
4. Muddati utgan debitorlik qarzlari, ming sum	3257	4338	+1081

Debitor majburiyatlari aylanish koeffitsienti va davrlarini hisoblash yo'llari.

T/r	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichni hisoblash tartibi	Ko'rsatkich miqdorini hisoblash
1.	Debitor majburiyatlarning (DM) aylanish koeffitsienti, %	$K_{da} = \frac{ST}{DQ}$;	$K_{da0} = \frac{1452513}{53266} = 27,3$ $K_{da1} = \frac{3040381}{136116} = 22,3$
2.	DMLarning shartli aylanish koeffitsienti, %	$K_{dash} = \frac{ST_1}{DQ_0}$;	$K_{dash} = \frac{3040381}{53266} = 57,1$
3.	Debitor majburiyatlarining aylanish davri, kun	$D_{qa} = \frac{DQ \cdot 360}{ST}$; yoki, $D_{qa} = \frac{360}{K_{da}}$	$D_{qa0} = \frac{53266 \cdot 360}{1452513} = 13,2$ yoki, $D_{qa0} = \frac{360}{27,3} = 13,2$ $D_{qa1} = \frac{136116 \cdot 360}{3040381} = 16,1$ yoki, $D_{qa1} = \frac{360}{22,3} = 16,1$
4.	Debitor majburiyatlarining shartli aylanish davri, kun	$D_{qash} = \frac{DQ_0 \times 360}{ST_1}$ yoki, $D_{qash} = \frac{360}{D_{da0}}$	$D_{qash0} = \frac{53266 \cdot 360}{3040381} =$ yoki, $D_{qash0} = \frac{360}{27,3} = 13,2$ $D_{qash1} = \frac{136116 \cdot 360}{3040381} = 16,1$ yoki, $D_{qash1} = \frac{360}{22,3} = 16,1$


5.	Qarzdorliklarning jami aktivdagi ulushi, %	$U_{ak} = \frac{DQ}{A} * 100;$	$U_{ako} = \frac{53266}{531756} * 100$ $= 10,0$ $U_{ak1} = \frac{136116}{689066} * 100$ $= 19,8$
6.	Shubhali qarzlarning jami debitorlardagi ulushi, %	$U_{shq} = \frac{SHQ}{DQ} * 100$	$U_{shq0} = \frac{3257}{53266} * 100$ $= 6,1$ $U_{shq1} = \frac{4388}{136116} * 100$ $= 3,2$

13.6-jadval.

Debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsienti va davri o'zgarishiga omillar ta'sirinaniqlash.

Ko'rsatkichlar	Debitorlikmajburiyatlariningaylanishkoeffitsienti	Debitorlikmajburiyatlariningaylanishdavri, kun hisobida
1	2	3
1.O'tgan yil	27,269	13
2.Shartli hisobot yili	57,079	6
3. Hisobot yili	22,337	16
Jami farq	-4,932	+3
Ta'sir etuvchi omillar:	xxx	xxx
a) Sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi (2-1)	+29,810	-7
b) Debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi (3-2)	-34,742	+10

Debitor qarzdorliklarni undirish yo'llaridan biri xaridorlarga chegirma berish hisoblanadi. Lekin xaridorga berilayotgan chegirma miqdori korxonaga uchun zararlimi yoki yo'qligini aniqlash tahlilning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Xaridorlarga beriladigan chegirma korxonaga uchun zararlimi yoki yo'qligini aniqlash uchun tahlil jarayonida bir qator omillar asosida qancha miqdorda chegirma berish mumkinligi to'g'risida hisob-kitoblar amalga oshiriladi..



13.5-rasm. Debitorlik qarzdorlikni undirishni tezlashtirish maqsadida xaridorliklarga beriladigan chegirma miqdorini aniqlashda inobatga olinadigan omillar.

Tahlil jarayonida ushbu omillar hisobiga eng maqbul, maqbul va eng kam chegirma berish miqdorlari hisob-kitob qilinadi. Quyidagi amaliy ma'lumotlar asosida korxonaga tomonidan debitor qarzdorlikni undirish uchun mijozlarga taklif etiladigan chegirma miqdorini hisob-kitob qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz. Buning uchun quyidagi shaklda tahlil uchun jadval tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi

13.7-jadval.

**Qarzdorlikni undirish uchun tavsiya etiladigan chegirmalar
miqdorini hisob-kitob qilish yo'llari:**

t/r	Ko'rsatkichlar	Variantlar		
		eng maqbul	maqbul	eng kam
1.	Oylik inflyasiya darajasi, %	1,0	1,5	2,0
2.	Debitor qarzdorlikni rejalashtirilayotgan qisqartirish davri, kun	4	3	2
3.	Bank krediti foizi, %	9	10	14
4.	Variantlar ehtimoli	0,3	0,5	0,2
5.	Har ming so'm korxonada mablag'iga to'g'ri keladigan bilvosita jami daromad, so'm, Shu jumladan,	82,986	69,822	49,767
5.1	Debitor qarzdorlik aylanish davri evaziga	82	69	49
5.2	Bank kreditidan foydalanmaslik evaziga	0,986	0,822	0,767

Korxonaning inflyasiya darajasini oldini olish va debitor qarzdorlik aylanish davrini qisqartirish evaziga olishi mumkin bo'lgan (bilvosita) daromadi (ΔBD) miqdorini quyidagi tartibda aniqlash mumkin.

$$\Delta BD = 1000 * (K_{xtq}^{i-\Delta t} - K_{xtq}^i);$$

Bunda,

$K_{xtq}^i - K_{xtq}^{i-\Delta t}$ - xaridorlar to'lov quvvatini pasayish koeffitsientlari;

i - debitor qarzdorlikni aylanish davri, kun;

Δt - Debitor qarzdorlikni rejalashtirilayotgan qisqartirish davri, kun.

Ushbu hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun xaridorlar

to'lov quvvatini pasayish koeffitsenti aniqlab olish zarur bo'ladi. Xaridorlar to'lov quvvatini pasayish koeffitsenti quyidagi tartibda aniqlanadi.

$$K_{xmk}^i = \left[\frac{1}{1+I_d/30} \right]^i$$

$$K_{xmk}^{i-\Delta t} = \left[\frac{1}{1+I_d/30} \right]^{i-\Delta t}$$

Bunda,

I_d - inflyasiya darajasi;

i - debitor qarzdorlikni aylanish davri, kun;

Δt - Debitor qarzdorlikni rejalashtirilayotgan qisqartirish davri, kun.

Ushbu formulalar yordamida hisob-kitoblarni amalga oshiramiz.

1. Eng maqbul variant bo'yicha:

$$K_{xmk}^{16} = \left[\frac{1}{1+1/30} \right]^{16} = 0,594$$

$$K_{xmk}^{16-4} = \left[\frac{1}{1+1/30} \right]^{16-4} = 0,677$$

$$\begin{aligned} \Delta BD &= 1000 * (K_{xtq}^{i-\Delta t} - K_{xtq}^i) = 1000 * (0,677 - 0,594) \\ &= 82 \text{ so'm.} \end{aligned}$$

2. Maqbul variant bo'yicha:

$$K_{xmk}^{16} = \left[\frac{1}{1+1,5/30} \right]^{16} = 0,503$$

$$K_{xmk}^{16-3} = \left[\frac{1}{1+1,5/30} \right]^{16-3} = 0,572$$

$$\Delta BD = 1000 * (K_{xtq}^{i-\Delta t} - K_{xtq}^i) = 1000 * (0,572 - 0,503) \\ = 69 \text{ sum.}$$

3. Eng kam variant bo'yicha:

$$K_{xmk}^{16} = \left[\frac{1}{1+2/30} \right]^{16} = 0,359$$

$$K_{xmk}^{16-2} = \left[\frac{1}{1+2/30} \right]^{16-2} = 0,408$$

$$\Delta BD = 1000 * (K_{xtq}^{i-\Delta t} - K_{xtq}^i) = 1000 * (0,408 - 0,359) \\ = 49 \text{ sum.}$$

Tahlillar natijasida aniqlagan miqdorlarimiz asosida bank kreditidan foydalanmaslik evaziga korxonada tomonidan tejaladigan mablag' yoki bilvosita daromad (ΔD_{bf}) miqdorini hisoblaymiz. Buning uchun quyidagi tartibda hisob-kitoblarni amalga oshiramiz.

Kreditdan foydalanmaslik evaziga tejalgan mablag' miqdorini hisoblash:

$$\Delta D_{bf} = 1000 * \frac{F}{100} * \frac{\Delta t}{365}$$

Bunda,

F- bank krediti foizi miqdori.

1. Eng maqbul variant bo'yicha:

$$\Delta D_{bf} = 1000 * \frac{F}{100} * \frac{\Delta t}{365} = 1000 * \frac{9}{100} * \frac{4}{365} = 0,986301$$

2. Maqbul variant bo'yicha:

$$\Delta D_{bf} = 1000 * \frac{F}{100} * \frac{\Delta t}{365} = 1000 * \frac{10}{100} * \frac{3}{365} = 0,821918$$

3. Eng kam variant bo'yicha:

$$\Delta D_{bf} = 1000 * \frac{F}{100} * \frac{\Delta t}{365} = 1000 * \frac{14}{100} * \frac{2}{365} = 0,767123$$

Korxonaning jami tejashi mumkin bo'lgan mablag'lari miqdorini hisoblaymiz:

$$\mathcal{C} = (K_{91} * \Delta BD) + (K_{92} * \Delta BD) + (K_{93} * \Delta BD) = [0,3 * (82) + (0,5 * 69) + (0,2 * 49)] = 24,6 + 34,5 + 9,8 = 68,9$$


Demak korxonaga 0,689 foiz miqdorda debitor qarzdorlikni undirish uchun mijozlarga chegirma berishi mumkin.

Bundan tashqari debitor qarzdorlikni undirish uchun hisbitoblarni faktoring, ya'ni qarzdorlikni banka sotish usulini ham qo'llash mumkin.

Korxonaning chetdan jalb etilgan mablag'lari manbalaidan biri bu, kreditorlik qarzlari hisoblanadi. Kreditorlik qarzlari hisob-kitoblari o'rtasidagi vaqt va tartiblar mavjudligi hamda taraflarning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi sababli yuzaga keladi. Ish haqi, dividend, byudjetga soliq va majburiy to'lovlar avval hisoblanadi, ma'lum bir davrdan so'ng to'lov muddati paydo bo'ladi.

Kreditorlik majburiyatlari tahlilida:

- qarzdor bo'lgan tomonlar bo'yicha majburiyatlar guruxlanadi;
- ularni to'lash muddatlari bo'yicha tarkiblanishiga baho beriladi.



13.6-rasm. Kreditorlik majburiyatlarining to'lash muddatlari bo'yicha guruhlash.

Kreditorlik qarzdorlik hajmi, sifat tarkibi va harakati kabi ko'rsatkichlar korxonaga to'lov intizomi hamda moliyaviy holati barqarorligini ifodalaydi. Shu sababli kreditorlik qarzlarning tarkibini har birini aylanish davrlari tahlil qilinadi va ular holatiga baho beriladi. Buning uchun quyidagi shaklda jadval tuzilib, tegishli ko'rsatkichlar miqdorlari hisob-kitob qilinadi.

**Kreditor qarzdorliklarni korxonaga mablag'lari tarkibida
ishtiroki muddatlari tahlili.**

Majburiyatlar turi	O'rtacha qoldiq (ming so'm)	Debet oborot miqdori (ming so'm)	Mablag'lar tarkibidagi ishtiroki, (kun)
Ta'minotchi va pudratchilarga bo'lgan kreditor qarzdorlik	13552	422763	11,7
Soliqlar bo'yicha qarzdorlik	4433	49712	32,5
Xodimlarga ish haqi va boshqa to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	4562	70949	23,5
Davlat maqsadli fondlariga qarzdorlik	2566	25339	37,0

Tahlillar natijasida korxonaga mablag'lari tarkibida maqsadli davlat fondlariga hisoblangan ajratmalar eng uzoq muddat, ya'ni 37 kun, qolgan majburiyatlar byudjetga hisoblangan soliqlar 32,5 kun va xodimlarga berilishi zarur bo'lgan mablag'lar esa 23,5 kun ishtirok etgan. Ta'minotchi va pudratchilar mablag'lari 11,7 kun korxonaga mablag'lari tarkibida bo'lgan. Demak korxonaga o'z mijozlari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda doimiy ravishda to'lov intizomiga rioya etgan. Davlat fondlariga hisoblangan ajratmalar, byudjetga hisoblangan soliqlar va xodimlarga berilishi zarur bo'lgan mablag'larni to'lash bo'yicha qonunda belgilangan muddatlar mavjud bo'lib,

shu sababli ushbu chetdan jalb etilgan mablag'lar ko'proq muddat korxonada oborotida ishtirok etishi mumkin.

Lekin ushbu mablag'larni qonunchilikda belgilangan muddatlarda hisob-kitob qilmaslik korxonaga uchun jazoga tortilishi bilan bog'liq huquqiy oqibat keltirib chiqaradi. Shuning uchun majburiyatlar yuzaga kelish muddatlari bo'yicha ham guruhlanishi va tahlil qilinishi zarur bo'ladi. Muddatlari bo'yicha kreditor qarzdorliklar quyidagicha guruhlanadi.

Shuningdek, kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsienti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koeffitsienti hamda davri aniqlanadi. Ushbu miqdorlarni taqqoslash maqsadida hamda ular o'zgarishlari sabablarini aniqlash va o'zgarishlarga ta'sir etgan omillar tarkibini hisoblash uchun ushbu ko'rsatkichlarning shartli miqdorlari ham hisoblanadi. Shartli miqdorlarni hisoblashda kreditorlik majburiyatlarini aylanishini o'rganishda asosiy ko'rsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli to'lanmagan tovarlar, ashyolar, ish va xizmatlar summasi hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy miqdorlari hisob-kitob uchun olinadi.

Kreditor majburiyatlarni ifodalovchi sifat ko'rsatkichlar va ularni hisoblash tartiblari:

	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichni hisoblash tartibi	Ko'rsatkich mazmuni
1.	Kreditor majburiyatlarning aylanish koeffitsienti, %	$K_a = \frac{T}{KQ};$	Ko'rsatkich kreditor majburiyatlarni pulga aylanish darajasini ifodalaydi,
2.	Kreditor majburiyatlarining shartli aylanish koeffitsienti, %	$K_{ash} = \frac{T_1}{KQ_0};$	Ushbu ko'rsatkich majburiyatlarni pulga aylanish darajasi o'zgarishi sof tushum omili ta'sirini ifodalaydi.
3.	Kreditor majburiyatlarining aylanish davri, <i>kun</i>	$K_{ad} = \frac{KQ * 360}{T};$ yoki, $K_{ad} = \frac{360}{K_a};$	Ushbu ko'rsatkich qarzdorlikni necha kunda aylanma mablag' tarkibiga o'tishini ifodalaydi. Uning miqdori qisqaligi samaradorlikni bildiradi.
4.	Kreditor majburiyatlarining shartli aylanish davri, <i>kun</i>	$K_{qash} = \frac{KQ_0 * 360}{T_1};$ yoki, $K_{qash} = \frac{360}{K_a};$	Ushbu ko'rsatkich qarzdorlik miqdoriga sof tushum miqdori ta'siri evaziga necha kunga o'zgarishini ifodalaydi.
5.	Qarzdor majburiyatlarining jami aktivdagi ulushi, %	$U_{mk} = \frac{MQ}{KQ} * 100;$	Korxonada aktivlarining qancha miqdori chetdan jalb etilgan mablag' ekanligini ifodalaydi.

Ushbu tartiblar asosida kreditorlik majburiyatlari holati va aylanishini amaliy ma'lumotlar bilan tahlil qilamiz.

13.10-jadval.

Kreditorlik majburiyatlarining aylanishini tahlili:

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1	2	3	4
1. Jami kreditorlik majburi-yatlari, ming so'm	249458	127554	-121904
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	929608	2168322	+1238714
3. Jami majburiyatlar, ming so'm	258047	163147	-94900
4. Kreditorlik qarzlarning muddati o'tgani, ming so'm	19856	12875	-6981

Majburiyatlar tahlili jarayonida korxonada qancha miqdorda o'z oborotini boshqa mijozlarga kredit sifatida bergani, ya'ni debitor qarzlari aylanishi va qancha miqdor mijozlari mablag'larini kreditga olgani, ya'ni kreditor qarzlari aylanishlarini taqqoslanishi hamda ular holatiga baho berishi zarur bo'ladi. Buning uchun debitor va kreditor qarzdorliklar aylanishlari kunlari quyidagi shaklda o'zaro taqqoslanadi.

13.11-jadval.

Debitor va kreditor qarzdorliklar aylanish davrlari o'zaro taqqoslash.

Debitor Qarzdorlik	Karzdorlik aylanish o'rtacha davri, kun	Kreditor qarzdorlik	Qarzdorlik aylanish o'rtacha davri, kun
Buyurtmachi va xaridorlarga qarzarlar	14,4	Ta'minotchi va pudratchilarga qarzarlar	11,7

Tahlillar natijasi korxonaga o'z mablag'larini mijozlariga ko'proq muddat, ya'ni 2,7 kun ko'proq muddat kreditga bergan. Demak korxonaga mijozlariga tovarlarni karzga berish muddatlarini qisqartirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq.

Kapital rentabelligi ko'rsatkichi korxonaga mablag'lari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Rentabellik darajasi o'z mablag'lari va qarz mablag'lari darajasi hamda debitor va kreditor qarzlari aylanishiga bog'liqdir. Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi mutanosiblik tahlil orqali aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

13.12-jadval.

O'z va qarz mablag'lari darajasi hamda debitor va kreditor qarzlari aylanishi miqdorlari nisbati hisob-kitobi⁸.

Ko'rsatkichlar	Hisobot davri boshida	Hisobot davri oxirida
1. Debitor qarzdorlik, ming so'm	35587	43138
2. Kreditor qarzdorlik, ming so'm	42117	42632
3. Sotishdan tushum, ming so'm, (MH 2-shakl)	563089	701605
4. Sotilgan mahsulot tannarxi, ming so'm, (MH 2-shakl)	530234	651627
5. Kunlik tushum, ming so'm, ($3q / T_d$)	1542,7	1922,2
6. Mahsulot kunlik tannarxi, ming so'm, ($4q / T_d$), bunda T_d - tahlil davri, kun.	1452,7	1785,3
7. O'z mablag'lari (MH-1), ming so'm.	178691	195703

⁸ Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: Учебное пособие / А.И.Алексеева, Ю.В.Васильев, А.В., Малеева, Л.И.Ушвицкий. - М.: Финансы и статистика, 2006. - 672с.

8. Foyda (MH2 -shakl), ming so'm..	23942	29729
9. Qarzdorliklar aylanishi, kun.		
a) debitorlik, ($1q / 5q$)	23,1	22,4
b) kreditorlik, ($2q / 6q$)	29,0	23,9
10. Qisqa muddatga zarur kredit, ming so'm., ($9aq - 9bq$) * 6q.	-8570,9	-2678,0
11. Oborotdagi kapital miqdori, ming so'm, ($9bq - 9aq$) * 5q.	9101,9	2883,3
12. Kredit foizi, ming so'm.	-	-
13. Sof foyda, ming so'm, ($8q - 12q$)*(1-0,24)	18196	22594
14. Zarur o'z mablag'i, ming so'm, , ($7q - 11q$)	169589,1	192819,7
15. Zarur qarz mablag', ming so'm, , ($2q + 10q$)	33546,1	39954,0
16. Qarz va o'z mablag'lari optimal darajasi, ($15q / 14q$)	0,198	0,207
17. Kapital rentabelligi %, ($13q / 7q$ * 100)	10,18	11,55

Kapital rentabelligi hamda qarz va o'z mablag'lari optimal darajasi bir-biriga bog'liqdir. Qarz va o'z mablag'lari darajasiga quyidagi bir qator omillar ta'sir etadi:

- kapital rentabelligi;
- bank krediti foizi;
- debitor va kreditor qarzdorliklar aylanishi;
- markaziy bank moliyalash stavkasi.

Yuqoridagi hisob-kitoblarga ko'ra korxonada debitor qarzdorlik kreditor qarzdorlikka nisbatan tezroq aylangan. Shu sababli korxonada o'z mablag'lari tarkibida kreditor qarzdorlikni to'lash uchun ortiqcha mablag' paydo bo'lgan. Lekin hisobot davri oxiriga kelib ortiqcha mablag'lar miqdori 2883,3 ming so'mga [(239-22,4)*1922,2] kamaygan.

Tahlil jarayonida qarz mablag'larini kamaytirish evaziga kapital rentabelligini oshirish imkoniyatini aniqlash ham

mumkin. Korxonada mahsulotini qarz evaziga sotadigan bo'lsa unda ishlab chiqarishi davomiyligini ta'minlash uchun bankdan kredit olishi zarur bo'ladi. Shu bois mahsulotni qarzga berish yoki bank krediti olish o'rtasidagi afzallikni aniqlash zarur. Buning uchun quyidagi tengsizlik asosida hisob-kitob ishlarini amalga oshiramiz:

$$\left(\frac{(F - i * K_{bk}) * (1 - C_c)}{XK - K_{bk}} \right) > \frac{F * (1 - C_c)}{XK},$$

Bunda,

F – soliq to'langunga qadar foyda;

i – foiz darajasi (koeffitsient);

K_{bk} – korxonaning to'lov qobiliyatiga zarar etmagan miqdorda olishi mumkin bo'lgan bank krediti summasi;

K – xususiy kapital;


C_c – soliq stavkasi.

Demak, korxonada mahsulotini mizojlarga qarzga sotishi uchun foyda miqdori $F > i * XK$ bo'lishi kerak.

Yuqorida tahlil qilingan korxonaning rentabellik darajasi bank krediti foizidan past. Bank kreditidan foydalanish agar korxonaning rentabellik darajasi bank krediti foizidan yuqori, ya'ni 14 foizdan kam bo'lmaganda maqsadga muvofiq bo'ladi. Tahlil qilingan korxonada esa rentabellik darajasi 1,21 (14/11,55) miqdorga past. Shu sababli korxonaning kredit olish imkoniyati yo'q va o'z mablag'larini oborotdan chetga chiqarishi, ya'ni debitor qarzdorlikni oshirishi maqsadga muvofiq emas. Aksincha, korxonada hisob-kitob uchun qulay mijoz va usullarni tanlashi zarur hisoblanadi.

13.4. Byudjet va maqsadli fondlar bilan aloqalarni tahlili.

Majburiyatlar tahlilida muhim ahamiyatga ega masala byudjet va maqsadli fondlar bilan aloqalarni tahlil qilish hisoblanadi. Byudjet va maqsadli fondlar bilan aloqalar tahlil qilishda ob'yektlarni belgilab olish tahlilning muhim bosqichidir.



13.7-rasm.Byudjet va maqsadli fondlar bilan aloqalar tahlili ob'yektlari.

13.13-jadval.

**Byudjet va maqsadli fondlar bilan aloqalarni ifodalovchi
ko'rsatkichlarni aniqlash yo'llari:**

t/r	Ko'rsatkichlar	Aniqlash yo'llari	Ko'rsatkich mazmuni
1.	Qarzdorliklar umumiy hajmi	Moliyaviy hisobot (MH) 1-shakli (490q + 600q)	Korxonaning yuridik va jismoniy shaxslarga to'lashi shart bo'lgan mablag'lari miqdorini ifodalaydi.
2.	Qarzdorlik umumiy hajmidagi soliq va majburiy ajratmalar bo'yicha qarzlilar	MH 1-shakli $\Sigma(540q + 650q + 680q + 690q + 700q)$	Korxonaning byudjet va maqsadli fondlarga bo'lgan jami qarzlari miqdorini ifodalaydi.
3.	Soliq va majburiy ajratmalar bo'yicha muddati o'tgan qarzlilar miqdori	$[\Sigma(540q + 650q + 680q + 690q + 700q) - \text{To'lov muddati kelgan qarzlilar}]$	Byudjet va maqsadli fondlarga bo'lgan jami qarzlilarining muddati o'tgan hajmini ifodalaydi.
4.	Qarzdorliklar umumiy hajmida birinchi navbatda to'lanadigan qarzlilar	$\frac{\Sigma(540q + 650q + 680q + 690q + 700q) * 100}{[\text{Zaruriyat uchun mablag'lar} + \text{ish haqi bo'yicha qarzdorlik} + \Sigma(540q + 650q + 680q + 690q + 700q)]}$	Korxonaning birinchi navbatda to'lanishi zarur bo'lgan qarzdorliklarda n soliq va

	hajmi		majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarni undirish mumkin bo'lgan darajasini ifodalaydi.
5.	Qarzdorliklar umumiy hajmidagi muddati o'tgan soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning ulushi	$\frac{\text{To'lov muddati o'tgan soliq va majburiy to'lovlar miqdori} * 100}{(540q + 650q + 680q + 690q + 700q)}$	Qonunchilikda belgilangan to'lov muddati o'tgan soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning umumiy soliq qarzdorlikdagi ulushini ifodalaydi.
6.	Muddati o'tgan qarzdorliklar umumiy hajmida penya va jarimalar ulushi	$\frac{\text{To'lov muddati uzaytirilmagan penya va jarimalar} * 100}{[\sum(540q + 650q + 680q + 690q + 700q) - \text{To'lov muddati kelmagan qarzlarni}]}$	Korxonaning soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzlari jami hajmidagi penya va jarimalar ulushi miqdorini ifodalaydi.
7.	Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni xususiy kapitalga	$\frac{\text{Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik miqdori}}{\text{Xususiy kapital miqdori}}$	Byudjet va maqsadli jamg'armalarga bo'lgan qarzdorlikni xususiy kapital bilan

	nisbati koeffitsenti		ta'minlanish darajasini ifodalaydi.
8.	Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlikla rni majburiyatla r bilan qoplash koeffitsenti	$\frac{\text{Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik miqdori}}{\text{Debitor majburiyatlar miqdori}}$	Korxonaning debitor majburiyatlari hisobidan soliq va majburiy ajratmlar bo'yicha qarzlarini qoplash imkoniyatini ifodalaydi.

**Byudjet va maqsadli fondlar bilan aloqalarni ifodalovchi
ko'rsatkichlar tahlili:**

Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxiriga	Farqi (+,-)	O'zga-rish sur'ati,%
1.Qarzdorliklar umumiy hajmi (UQ), <i>ming so'm</i>	120116,5	121425,0	+1308,5	101,1
2. Soliq va majburiy ajratmalar bo'yicha qarzlار, <i>ming so'm</i>	62460,6	69212,2	+6751,6	110,8
3. Soliq va majburiy ajratmalar bo'yicha muddati o'tgan qarzlarning miqdori, <i>ming so'm</i>	45620,5	57621,1	+12000,6	126,3
4.Qarzdorliklar umumiy hajmida birinchi navbatda to'lanadigan qarzlار hajmi, <i>ming so'm</i>	85968,6	92526,5	+6557,9	107,6
5.Qarzdorliklar umumiy hajmidagi muddati o'tgan soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlار ulushi	$\frac{62460,6 * 100}{120116,5} = 52,0$	$\frac{69212,2 * 100}{121425,0} = 57,0$	+5,0	109,6
6.Muddati o'tgan qarzdorliklar umumiy hajmida penya va jarimalar ulushi	$\frac{3221,3 * 100}{62460,6} = 5,16$	$\frac{4563,1 * 100}{69212,2} = 6,59$	+1,43	127,7
7. Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni xususiy kapitalga nisbati koeffitsienti	$\frac{62460,6}{178691} = 0,350$	$\frac{69212,2}{195703} = 0,354$	+0,004	101,1

8. Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni debitor majburiyatlar bilan qoplash koeffitsenti	$\frac{62460,6}{35587,0} = 1,76$	$\frac{69212,2}{43138} = 1,60$	-0,16	90,9
--	----------------------------------	--------------------------------	-------	------

Byudjet va maqsadli fondlar bo'yicha boqimanda qarzdorlik kelib chiqish sabablari:

• debitor qarzlari hajmi o'sishi;
• oborotdagi kapital miqdorining kamayishi;
• kreditorlik qarzlari hajmining kamayishi;
• kapital aylanishining susayishi;
• kreditorlik qarzlari hajmining ko'payishi
• mahsulot sotish rentabelligining pasayishi;
• mahsulot kunlik tannarxining o'sishi;
• debitor qarzlari hajmi o'sishi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- debitorlik qarzlari tug'risida tushuncha va ularni tahlil etish uslubi;
- debitorlik qarzlarni umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha tahlil etish uslubi;
- kreditorlik qarzlari tug'risida tushuncha va ularni tahlil etish uslubi;
- kreditorlik qarzlarni umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha tahlil etish uslubi;
- qarzlarni kamaytirish yullari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlari qanday sabablarga

kura vujudga keladi?

3. Debitorlik qarzlarning tarkibi va tuzilishi qanday tahlil etiladi?

4. Kreditorlik qarzlarning tarkibi va tuzilishi qanday tahlil etiladi?

5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga chiqish muddatlari buyicha qanday davrlarga bulib urganiladi?

6. Debitorlik qarzlarni aylanuvchanligi va uning uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

7. Kreditorlik qarzlarni aylanuvchanligi va uning uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

8. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish yullarini kursatib uting?

9. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirishning mamlakat iqtisodidagi urni va roli?

10. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini nazorat etuvchi tashkilotlar va ularning huquqiy mezonlari?

11. Majburiyatlarni sotish va sotib olish degani nima?

12. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining korxonada moliyaviy holatiga ta'siri?

14-BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘YEKTLARNING ASOSIY VOSITALAR BILAN TA‘MINLANGANLIGI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI

14.1. Asosiy vositalar bilan ta‘minlanganlik holati tahlilining ahamiyati, mazmuni va vazifalari hamda axborot manbalari.

Asosiy vositalar tarkibiga binolar, inshootlar, jixozlar, qurilmalar, uskunalar, transport vositalari, avtomobillar, ko‘p yillik mevali daraxtlar, ishchi xayvonlari kabilar kiradi.

Bular ikkiga bo‘linadi: ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadigan aktiv asosiy vositalar va ishlab chiqarishdagi ishtirok etmaydigan passiv asosiy vositalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida imkon qadar asosiy vositalar aktiv qismi ulushini ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

Ushbu mavzuni o‘rganish doirasida quyidagilar masalalar bilan tanishamiz:

➤ asosiy vositalar bilan ta‘minlanganlik xolati va samaradorligini o‘rganishning ahamiyati, vazifalari xamda taxlilning axborot manbalari.

➤ Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili.

➤ Aktiv asosiy vositalar tahlili. Passiv asosiy vositalar tahlili.

➤ Asosiy vositalarni texnik holati va harakat ko‘rsatkichlarini tahlili.

➤ Asosiy vositalar bilan ta‘minlanganlik va qurollanganlikni tahlili.

➤ Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarining tahlili.

➤ Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash

Asosiy vositalar maqsadi– korxonada asosiy vositalari holatiga xolis baho berish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Ushbu maqsadda quyidagi vazifalar o'rganiladi:


- Asosiy vositalarni (kapitalni) ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi;
- Asosiy vositalar (kapital) (AV) xolatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari;
- AV bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari;
- AV samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari;
- AV rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari.

Tahlilning muhim bosqichi uning axborot ta'minoti hisoblanadi. Shu sababli asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va ular samaradorligini tahlil qilish axborot ta'minoti manbalarini aniqlab olamiz.


Asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili axborot manbalari:

• <i>moliyaviy hisobot 1- shakli;</i>
• <i>statis-tik xisobot 1-KB shakli;</i>
• <i>statis-tik xisobot 2-moliya shakli;</i>
• <i>buxgal-teriya hisobi schyotlari.</i>

14.2 Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular tahlili.



14.1-rasm. Asosiy vositalar (kapital) ni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.



14.2-rasm. Asosiy vositalar holati va ular bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tasnifi.

14.3-rasm. AV lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari.

Ko'rsatkichlar tizimi		
AV ning umumiy mablag'lardagi ulushi	$AV.U = \frac{AV}{B} \times 100$	AV ning umumiy mablag'lardagi (aktivlardagi) xissasi
AV faolkismining umumiy AV dagi ulushi	$AV.FU = \frac{AV.F}{AB} \times 100$	AV faolki smining umumiy AV lardagi ulushi
AV ning necha foiz qiymatini yangi maxsulotga kiritganligi	$KAV.es = \frac{AV \text{ eskitirish summa (AV.E)}}{AV \text{ boshlang'ich qiymat}}$	AV ning eskirish koefitsenti
AV ning kanchasi yangilan-ganligi	$KAV.YAN = \frac{AV \text{ ishga tushirilgan}}{AV.BQyiloxirida}$	AV ning yangilanish koefitsenti
AV ning kancha kismi yarokli ekanligi	$KAV.yar = \frac{AV - EV.ES}{AV \text{ yil oxirida}}$	AV ning yaroklilik koefitsenti
Hisobot davrida AV ning kancha kismi hisobdan chikarilganligi	$KAV.chk = \frac{AV \text{ yildav.hischiq. summasi (AVHCH)}}{AV.BQyil boshida}$	AV ning chikarilish koefitsenti

14.1-jadval.

**Asosiy vositalar holatini ifodalovchi
ko'rsatkichlar hisob-kitobi.**

No	Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxiri da	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati %
1	AV lar qiymati (AV)	4995	5300	+305	106,1
2	Barcha aktivlar (B)	9345	9700	+355	103,8
3	AV larning faol qismi (AVf)	3726	4150	+424	111,4
4	AV larning eskirish qimati (AVes)	1500	1800	+300	120
5	AV larning qoldiq qiymati (AVqq)	3495	3500	+5	100,1
6	Ishga tushirilgan AV lar (AVit)	-	800	+800	x
7	Hisobdan chiqarilgan AV lar (AVxch)	-	648	+648	x
Nisbiy ko'rsatkichlar					
8	AV ning umumiy aktivlardagi ulushi %da $1/2*100$	53,45	54,64	+1,19	102,2
9	AV faol qismining umumiy AV dagi xissasi (AVning faolligi) (3/1)	0,746	0,783	+0,037	105
10	AV ning eskirish koeffitsenti (4/1)	0,3	0,34	+0,04	113,2
11	AV ning yangilanish koeffitsenti (6/1)	-	0,151	+0,151	-
12	AV ning yaroqlilik koeffitsenti (5/1)	0,7	0,66	-0,04	94,3
13	AV ning chiqarilish koeffitsenti (7/1)	-	0,122	+0,122	-

Ko'rsatkichlar tizimi

Fond bilan
qurollanganligi
darajasini (Fq)

Natijaning
(mahsulot ,
Tovar oboroti va
h.k.) fondliligi

O'z mablag'larining AV .lar
bilan
taminlangan-ligi
($O'zt$)

$$Fq = \frac{Av \text{ faol qismi}}{X \text{ (xodimlar soni)}}$$

$$F \text{ liq} = Av / ToAv$$

$$O'zt = \frac{AV}{o'z mablag'larini}$$

Xodimlarning
AV bilan qay
darajada
qurollangan-
ligini , ya'ni 1
xodimga qancha
AV . To'g'ri
kelishini
ifodalaydi.

Natija , Ya'ni
mahsulot , tovar
oboroti , foyda
kabi ko'rsatkich-
larining 1 so'm
miqdorida to'g'ri
keladigan AV .
qiymatini
ifodalaydi

O'z mablag'larini 1
So'mga qancha
AVlar to'g'ri
kelganligini . Bu
ko'rsatkich 1 dan
kam bo'lsa ($O'zt < 1$)
yaxshi. Agar $O'zt > 1$
bo'lsa , korxonada
bankrot
Bo'lish ehtimoli bor .

14.4-rasm. Asosiy vositalar (av) bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari.

14.2-jadval.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi.

(ming so'mda)

№	Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati %
1	AV lar o'rtacha qiymati (AV)	4995	5300	+305	106.1
2	Sotilgan maxsulot xajmi (Q)	4583.3	5694.5	+1111.2	124.3
3	AV lar ning faol qismi (AVf)	3726	4150	+424	111.4
4	O'z mablag'larining qiymati (O'm)	4115	4500	+385	109.4
5	Xodimlar soni (X)	112	121	+9	108

Nisbiy ko'rsatkichlar

6	Asosiy fondlarning sotilgan maxsulotdagi sig'imi (1/2)	1.090	0.931	-0.159	85.4
7	Xodimlarning asosiy fondlar bilan qurollanganlik darajasi, so'm (3/5)	33.3	34.3	+1	103.0
8	O'z mablag'larining AV lar bilan ta'minlanganligi, so'm (1/4)	1.214	1.178	+0.036	97.0

14.3. Asosiy vositalar samaradorligi tahlili.
Asosiy vositalar (av) samaradorligini ifodalovchi
ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari.

Ko'rsatkichlar tizimi

Av.ning
rentabelligi
(AV.R)

$$AV.r = \frac{\text{foйда}}{Av} \cdot 100$$

1 so'm asosiy
vositalar
qiymatiga
qancha foyda
to'g'ri
kelinishi.

AV.ning qaytimi
(Av.Q)

$$Av.Q = \frac{\text{oborot}}{Av}$$

1 so'm asosiy
vositalar
qiymatiga
qancha natija
(mahsulot ,
tovar oboroti
va h.k.) to'g'ri
kelinishi.

Av.ning
daromad
liligi
(AV.D)

$$Av.d = \frac{\text{daromad}}{Av}$$

1 so'm asosiy
vositalar
qiymatiga
to'g'ri
keladigan
daromadlar
summasini.

14.3-jadval.

**Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi
ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi.**

(ming so'mda)

No	Ko'rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati %
1	Sof foyda (F)	368.0	496.2	+128.2	134.8
2	Sotilgan maxsulot xajmi (Q)	4583.3	5694.5	+1111.2	124.3
3	Yalpi daromad (D)	511.0	711.7	+200.7	139.3
4	AV larning o'rtacha yillik qiymati (AV)	4747.5	5147.5	+400	108.4
Nisbiy ko'rsatkichlar					
5	AV ning rentabelligi, % (1/4*100)	7.75	9.64	+1.89	124.4
6	AV ning maxsuldorligi, so'm (2/4)	0.97	1.11	+0.14	114.4
7	AV ning daromadliligi, % (3/4*100)	10.76	13.83	+3.07	128.5

Asosiy vositalar rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar.
Ushbu ko'rsatkich o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. Foydaning daromadlardagi ulushi (Fd)

$$Fd = \frac{F}{D} * 100;$$

2. Daromadlarning sotilgan maxsulotlardagi xissasi

$$(Dm) = \frac{D}{M};$$

3. Asosiy vositalarning maxsuldorligi (Mav)

$$Mav = \frac{M}{AV};$$

Ular o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$Rav = \frac{F}{AV} = \frac{F}{D} * \frac{D}{M} * \frac{M}{AV};$$

Bunda natijani «U» deb omillarni ketma-ket ravishda «X₁», «X₂», «X₃» deb belgilab olinsa, quyidagi multiplikativ modelni xosil qilish mumkin:

$$X = X_1 * X_2 * X_3 = \prod_{i=1}^3 X_i \quad (i = 1,2,3)$$

Zanjiri almashtirish usuli bilan omillar ta'sirini aniqlash mumkin.

**Asosiy vositalar rentabelligiga omillar ta'sirini zanjirli
almashtirish usuli bilan aniqlash:**

3. Av rentabelligi o'zgarishiga foydaning daromadlagi ulushi o'zgarishining ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta UX_1 = (X_1^h * X_2^r * X_3^r) - (X_1^r * X_2^r * X_3^r);$$

3. Av rentabelligi o'zgarishiga daromadlarning sotilgan mahsulotdagi hissasi o'zgarishining ta'sirini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\Delta UX_2 = (X_1^h * X_2^h * X_3^r) - (X_1^h * X_2^r * X_3^r);$$

3. Av rentabelligi o'zgarishiga Av mahsuldorligining ta'siri quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta UX_3 = (X_1^h * X_2^h * X_3^h) - (X_1^h * X_2^h * X_3^r);$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi kerak:

$$\Delta U = \Delta UX_1 \pm \Delta UX_2 \pm \Delta UX_3;$$

14.4-jadval

Asosiy vositalar (AV) samaradorligiga alohida omillar ta'sirini aniqlash

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Hisobot yilida	Farqi (+-)	Zanjirli almashtirish		
				I	II	III
1.Foydaning daromaddagi ulushi % $(1/3*100)$	72,02	69,72	-2,3	69,72	69,72	69,72
2.Daromadlarning sotilgan mahsulotdagi hissasi koeffitsiyenti $(3/2)$	0,111	0,125	0,014	0,111	0,125	0,125
3. Asosiy vositalarning mahsuldorligi, so'm (6)	0,97	1,106	0,136	0,97	0,97	1,106
4.Asosiy vositalar rentabelligi, % $(1*2*3)$	7,75	9,64	1,89	7,51	1,106	9,64

Asosiy vositalar rentabelligining 1,89% ko'payishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

1. Foydaning daromaddagi ulushining 2,3 foiziga kamayishi Av.lar rentabellik darajasini 0,24% kamaytirishga olib kelgan.

$$7,51 - 7,75 = -0,24$$

2. Daromadlarning sotilgan maxsulotdagi xissasining 0,014 koeffitsientga ko'payishi Av.lar rentabelligini 0,94% ko'paytirishga muvaffaq bo'lgan.

$$8,45 - 7,51 = +0,94$$

3. Asosiy vositalar maxsuldorligining 0,136 so'mga ko'payganligi natijaning 1,19% oshishiga olib kelgan.

$$9,64 - 8,45 = +1,19$$

Barcha omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng:

$$-0,24 + 0,94 + 1,19 = +1,89$$

14.4. Asbob-uskunalaridan foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ular tahlili.

Asosiy vositalar tarkibida ishlab chiqarish vositalari hisoblanadigan asbob-uskunalar mavjud bo'lib, ulardan foydalanish darajasini tahlil qilish ular samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Asbob-uskunalaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat.

Asbob-uskunalaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni hisoblash yo'llari.

Tahli ljarayonlarida ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash natijasida korxonadagi mavjud asbob-uskunalarining o'rnatilganligi, ularning foydalanishga topshirilish holati va ishlatilish quvvatidan foydalanish darajalari aniqlanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati mavjud binoinshootlar, asbob-uskunalar va texnologiyalardan foydalanib qancha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlari yig'indisidir. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat.

14.5-jadval.

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni hisoblash yo'llari:

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi	Iqtisodiy mazmuni
1. Ishlab chiqarish umumiy quvvati koeffitsenti (K_{uq})	$\frac{O'rnatilgan\ asbob - uskunalar}{Mavjud\ asbob - uskunalar}$	Mavjud asbob-uskunalarining qancha qismidan o'rnatilganlikni ifodalaydi.
2. O'rnatilgan asbob-uskunalaridan foydalanishga topshirilish koeffitsenti (K_{au})	$\frac{Foydalanishga\ topshirilgan\ asbob - uskunalar}{O'rnatilgan\ asbob - uskunalar}$	O'rnatilgan asbob-uskunalar qancha qismi uchun foydalanish qilinganini ifodalaydi
3. Ishgatushirilgan asbob-uskunalaridan foydalanish koeffitsenti (K_{au})	$\frac{Ishlatilayotgan\ asbob - uskunalar}{Foydalanishdagi\ asbob - uskunalar}$	Foydalanish uchun qabul qilingan asbob-uskunalarining ishlab chiqarishda ishtirok etish darajasini ifodalaydi.

Ushbu ko'rsatkichlar korxonaning mavjud asosiy vositalar tarkibidagi asbob uskunalarini o'rnatishga ajratilgan, ishga tushirilgan va foydalanishga topshirilgan qismidan foydalanish darajalarini ifodalaydi. Asosiy vositalardan foydalanish darajasiga baho berishda asosiy vositalardan foydalanib, olingan mahsulotlar miqdori ko'rsatkichi asosida ham ishlab chiqarish quvatidan foydalanish darajasiga baho beriladi. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

14.6-jadval.

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini yaratilgan mahsulot asosida baholashni hisoblash yo'llari:

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi	Iqtisodiy mazmuni
1. Ishlab chiqarish umumiy quvvatidan foydalanish koef-fitsenti (K_{uchq})	$\frac{\text{Reja yoki haqiqiy ishlab chikarilgan maxsulot hajmi}}{\text{Urtacha yillik maxsulot ishlab chiqarish kuvvati}}$	Ishlab chiqarish quvvatidan haqiqatda yoki reja bo'yicha foydalanil-ganlik holatini ifodalaydi.
2. Ishlab chikarish kuvvatidan intensiv foydalanish koefitsenti (K_{it})	$\frac{\text{Bir sutkada ishlab chikarilgan maxsulot}}{\text{Kunlik ishlab chikarish kuvvati}}$	Korxonaning bir kunda ishl chiqarish quvvatidan foydalanish haqiqiy holatini ifodalaydi
3. Ishlab chikarish quvvatidan ekstensiv foydalanish koefitsenti (K_{ef})	$\frac{\text{Reja yoki xaqiqiy ish vakti fondi}}{\text{Ishlab chiqarish kuvvatini belgilashda hsoblashda aniqlanolin vaqti fondi}}$	Korxonamavjud ishlab chiqarish quvvatidan belgilangan ish vaqtida qanday foydalanilayotganligini ifodalaydi

Korxonaning asbob-uskunalaridan foydalanish holati tahlilida ulardan samarali foydalanish holati tahlil qilinadi. Ishlatilayotgan asbob-uskunalar samaradorligi intensiv va ekstensiv yo'llar bilan ta'minlanadi. Bunda asbob-uskunlardan ekstensiv foydalanish holatiga baho berish uchun ularning ish vaqti balansi tuziladi. Asbob-uskunlar ish vaqti balansi tarkibi quyidagilardan iborat (14.7-jadval).

Ish vaqti balansi:

- Kalendar ish kunlari bo'yicha ish vaqti fondi;
- Rejadagi ish vaqti fondi;
- Haqiqiy ish vaqti fondi;
- Ish rejimi bo'yicha ish vaqti fondi;

Ushbu hisoblangan ko'rsatkichlar asosida asbob-uskunalaridan samarali foydalanish koeffitsientini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi formaladan foydalanamiz:

$$K_e = IVF_h \div IVF_r;$$

Intensiv foydalanish koeffitsienti asbob-uskunalar yordamida bir mashina soatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ifodalaydi va haqiqatda bir mashina soat vaqtida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini rejadagi bir mashina soat vaqtida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Asbob-uskunalaridan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlarining o'zaro nisbati mavjud asbob-uskunalaridan foydalanishning umumiy darajasini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlashda inobatga olingan miqdorlar o'zgarishi asbob-uskunalaridan foydalanish koeffitsienti o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanib asbob-uskunalaridan foydalanish miqdorining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash mumkin.

Asbob-uskunalar ish vaqti balansi tarkibi:

Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi.

Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlarni hisoblash	Iqtisodiy mazmuni
1. Kalendar ish kunlari bo'yicha ish vaqti fondi (IVF _k)	$IVF_k = IK_k * 24 * U_s^o$ Bunda, IVF _k — kalendar ish kunlari bo'yicha ish vaqti fondi; IK _{kk} — hisobot davridagi kalendar bo'yicha ish kunlari soni; 24 — sutkavaqti; U _s ^o — o'rnatilgan asbob-uskunalar soni;	Korxonada o'rnatilgan asbob-uskunalarining tahlil davridagi kalendar bo'yicha ish kunlari evaziga ishlashi mumkin bo'lgan maksimal ish vaqti miqdorini ifodalaydi.
2. Rejadagi ish vaqti fondi (IV _r)	$IVF_r = IK_r * IV * K_{s0} * U_s^o;$ Bunda, IVF _r — biznes rejadagi ish kunlari bo'yicha ish vaqti fondi; IK _r — biznes reja bo'yicha ish kunlari soni; IV — rejabo'yicha belgilangan ish vaqti; K _{s0} — reja bo'yicha smena koeffitsienti; U _s ^o — o'rnatilgan asbob-uskunalar soni.	Korxonada o'rnatilgan asbob-uskunalarining tahlil davridagi biznes reja bo'yicha ish kunlari va smenalar asosida hisoblangan maksimal ish vaqti miqdorini ifodalaydi.
2. Haqiqiy ish vaqti fondi (IV _h)	$IVF_h = IK_h * IV * K_{s1} * U_s^o - P;$ Bunda, IVF _h — haqiqiy ish kunlari bo'yicha ish vaqti fondi; IK _r — haqiqiy ish kunlari soni; IV — haqiqatda belgilangan ish vaqti; K _{s1} — haqiqiy smena koeffitsienti; U _s ^o — o'rnatilgan asbob-uskunalar soni; P — ish vaqtidagi haqiqiy bo'Sh qolish vaqti.	Korxonada o'rnatilgan asbob-uskunalaridan haqiqiy ish kunlari, smenalar va bo'Sh qolishlar asosida hisoblangan ish vaqti miqdorini ifodalaydi.

Mavzu buyicha tayanch iboralar

- bozor iqtisodiyoti Sharoitida asosiy fondlardan samarali foydalanishni ahamiyati va tahlil vazifasi;
- asosiy fondlarni ishlab chiqarishdagi roliga qarab guruhlarga bulinishi;
- asosiy vositalarning Aktiv va Passiv qismlari;
- asosiy fondlarni tarkibi, tuzilishidagi uziga xos xususiyatlari;
- mahsulot sifatini yaxshilash, raqobatga bardoshligini ta'minlashda tezlashgan amortizatsiya ajratmalarini qullashning afzalliklari;
- asosiy fondlarni texnik holatini tahlili;
- yangilanish darajasi;
- eskirish darajasi;
- yaroqlilik darajasi
- fond qaytimi va unga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi;
- fond qaytimini oshirish rezervlari.

Takrorlash uchun savollar

1. Xujalik yurituvchi sub'yektlarning asosiy vosita (fond)lari deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi qanday tahlil etiladi?
3. Asosiy vositalarning holatini tahlil etishda tahlilning qanday usullari qullaniladi?
4. Asosiy vositalarning harakat kursatkichlari qanday tahlil etiladi?
5. Asosiy vositalarning yangilanishi va chiqib ketishiga nimalar sabab buladi?
6. Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi kursatkichlarga nimalar kiradi va ular qanday tahlil etiladi?
7. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti qanday

aiqlanadi va tahlil etiladi?

8. Xo'jalik sub'yektlarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va qurollanganlik darajalari qanday hisoblanadi?

9. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish qanday tahlil etiladi?

10. Asosiy vositalarning samaradorligi qaysi kursatkichlar asosida aniqlanadi va u qanday tahlil etiladi?

11. Asosiy vositalar samaradorligi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qanday ta'sir kursatadi va ular qanday tahlil qilinadi?

12. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning Milliy hisob standartlaridagi usullari va ularni qullash Shartlari?

13. Amortizatsiya siyosatining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga va xarajatlarga ta'siri?

14. Asosiy vositalarni tarkiblashdagi muammolar va ularni hal etilishi?

15. Asosiy vositalarni baholanishi va ulardagi muammolar?

15-BOB. PUL OQIMLARINING TAHLILI

15.1. Pul oqimlari tahlili ahamiyati va vazifalari hamda axborot manbalari.

Korxonalarda xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarishda foydalaniladigan moliviy manbalar asosan pul mablag'laridan iborat. Faoliyatni samarali boshqarishda pul oqimi to'g'risidagi axborotlar va ular aosida maqbul boshqaruv qarorlari qabul qilish muhim rol uynaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ular samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash iqtisodiy tahlil natijasida amalga oshiriladi.

Ushbu mavzuni o'rganish dorirasida quyidagilar masalalar bilan tanishamiz:

pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ularning oqimlarini o'rganishni ahamiyati, mazmuni va vazifalari.

➤ Tahlilning asosiy axborot manbalari. Korxonani umumiy pul mablag'lari oqimining tahlili.


➤ Xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lari harakatini tahlili.

➤ aylanma mablag'lar samaradorligi tahlili.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonada moliyaviy ahvoli pul mablag'lari oqimi va ular harakatini samarali tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Chunki ishlab chiqarishning natijasi mahsulotni sotishdan olinadigan tushum o'z vaqtida va to'liq kelib tushishi bilan o'lchanadi. Korxonada oladigan foydasi miqdori, uning rentabellik darajasi va byudjetga to'lanadigan soliqlar daromadlar hajmiga mutanosib ravishda aniqlanadi. Olingan foydadan esa faqat pul mablag'lari mavjud bo'lsagina amalga foydalanish mumkin bo'ladi. Pul oqimlari harakatini to'g'ri tashkil etish natijalari quyidagi omillarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Pul oqimlarini tahlil qilishning ahamiyati mablag'lardan o'z vaqtida va samarali foydalanish imkoniyati hamda majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish yo'llarini aniqlashda

namoyon bo'lad. Korxonada pul oqimlarini doimiy ravishda tahlil qilish hisob raqamlarda pul mablag'larini saqlab turish hamda ularni tezkor boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish maqsadidan kelib chiqadi. Pul mablag'larini tezkor boshqarish maqsadlari quyidagilarda o'z aksini topadi:



15.1-rasm . Pul oqimlarini tezkor boshqarish maqsadlari.

Pul mablag‘lari oqimining korxonada faoliyatiga ta‘siri yo‘nalishlari:

Pul mablag‘lari oqimlari:

- ishlab chiqarishni mablag‘ bilan ta‘minlaydi;
- majburiyatlar bajarilishini ta‘minlaydi;
- xodimlar ijtimoiy himoyasini ta‘minlaydi;
- investitsiyani ta‘minlaydi.

Shuningdek korxonada pul mablag‘lari manbalari, ularni shakllantirish va maqsadli hamda to‘g‘ri taqsimlanish holatlariga ular oqimlarini tahlil qilish natijasida olingan axborotlar asosida baho beriladi. Shu sababli pul oqimlari korxonada faoliyati iqtisodiy tahlilining alohida ob‘yekti hisoblanadi. Korxonada pul mablag‘lari oqimini tahlil qilishga tahlilning maqsadidan kelib chiqib yondoshilishi zarur hisoblanadi.

Pul oqimlari tahlilining maqsadi – pul oqimlari shakllanishi va ular tarkibiy tuzilishi, dinamikasidagi o‘zgarishlarni aniqlash hamda o‘zgarishlarga ta‘sir etgan omillarni tahlil qilish natijasida pul mablag‘laridan samarali foydalanish yo‘llarini belgilash hisoblanadi.

Ushbu maqsadda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:


- axborotlar to‘plash va tahlil uchun tayyorlash;
- pul oqimlari shakllanish manbalari va chiqimi dinamikasini o‘rganish;
- pul oqimlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tasniflash;
- pul oqimlari shakllanish manbalari o‘zgarishini nisbiy va mutloq miqdorlarini aniqlash;
- pul oqimlari shakllanish manbalari va chiqimi miqdorlariga ta‘sir etuvchi omillar tarkibini aniqlash;

• pul oqimlari shakllanish manbalari va chiqimi miqdorlariga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini hisoblash;

• pul oqimlari harakati samaradorligini oshirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tahlillar natijasi ijobiy bo'lishi uning axborot ta'minoti hisoblanishi sababli pul oqimlari tahlilining axborot manbalarini aniqlab olish ham muhim bosqich hisoblanadi. Pul oqimlari tahlilining ushbu bosqichida axborot manbalari tarkibini aniqlash va ularni to'plash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlilning axborot ta'minot manbalari tarkibini quyidagi chizmada ko'rish mumkin.



15.2-rasm. Pul oqimlari tahlilida qo'llaniladigan axborot turali.

15.2. Pul oqimlari tarkibi va umumiy holati tahlili.

Tahlil uchun pul oqimlarini tahlilida foydalaniladigan asosiy atamalar mazmuni aniqlab olish ham zarur hisoblanadi. Shu bois tahlil jarayonlarida qo'llaniladigan asosiy atamalar mazmuni ko'rib chiqamiz.

Pul mablag'lari - kassadagi naqd pul va bankdagi hisob-kitob schetlaridagi milliy, xorijiy valyuta va boshqa mablag'lar hamda talab qilib olinadigan depozitlar.

Pul ekvivalentlari - ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli xarid qilingandan so'ng taxminan uch oy ichida to'lanadigan investitsiyalar.

Pul oqimlari - pul va pul ekvivalentlarining milliy hamda xorijiy valyutadagi korxonalar hisob-kitob schyotlari yoki buxgalteriya hisobi schyotlariga kirimi va chiqimi.


Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot - hisobot davrida pul mablag'i oqimlarini batafsil ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar yig'indisi.

Operatsiya faoliyati - xo'jalik yurituvchi sub'yektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati va investitsiya hamda moliyaviy faoliyatdan boshqa xo'jalik faoliyati.

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya ob'yektlarini sotib olish va sotish.

Moliyaviy faoliyat - xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'z va qarz mablag'lari miqdori hamda tarkibida o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ladigan faoliyati.


Korxonada pul oqimlari ta'kidlanganidek ikki yo'nalishda, ya'ni kirim va chiqim jarayonlari tarzida namoyon bo'ladi. Pul oqimlari yo'nalishlari tarkibi quyidagilardan iboratdir (15.3-rasm).




15.3- Rasm. Korxonada pul oqimlari tushumi va chiqimi manbalari yo'nalishlari

Pul oqimlari holati mazkur yo'nalishlar bo'yicha kiritim va chiqimlari tahlil qilinadi. Korxonada pul oqimlarini tahlil qilishda iqtisodiy tahlilning bevosita (to'g'ri) va bilvosita (egri) usullaridan foydalaniladi. Pul oqimlarini tahlil qilishning bevosita usuli asosiy element mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan tushum hisoblanadi. Bilvosita usul yordamida pul oqimlarini tahlil qilishda esa moliyaviy natijani ifodalovchi amallar asosida pul mablag'lari harakati qayta hisob-kitob qilinadi.

Pul oqimlari harakatini tahlil qilish uchun uning manbalarini tushum va chiqimlari bo'yicha tarkibilarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Shu maqsadda korxonada har bir faoliyati bo'yicha pul oqimlarini Shakllanish manbalari va xarajat yo'nalishlari bo'yicha tarkiblarini ko'rib chiqamiz.



15.4-rasm. Operatsion faoliyat pul oqimlari tarkibi



15.5-rasm. Investitsion faoliyat pul oqimlari tarkibi.



15.6-rasm . Moliyaviy faoliyat pul oqimlari tarkibi.

15.1-jadval.


**Tahlilda qo'llaniladugan pul oqimlari to'g'risidagi
ma'lumotlar:**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Joriy yil	
	Summa, Ming so'm.	Tarkibi, %	Summa, Ming so'm.	Tarkibi, %
A	1	2	3	4
Yil boshidagi pul mablag'lari qoldig'i	6015	—	1981	—
Operatsion faoliyat bo'yicha pul lqimlari: Mahsulot (tovar ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	654392		519179	
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari	9897		7662	
Operatsion faoliyat bo'yicha pul mablag'lari jami kirimi				
Pul mablag'lari chiqimi yo'nalishlari:	491747		549765	
Material tovar ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	297883		472363	
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	65269		70259	
Operatsion faoliyatning boshqa to'lovlari	1014		987	

Operatsion faoliyatning chiqimi				
Operatsion faoliyatning sof tushumi / chiqimi				
Investitsiya faoliyati bo'yicha pul oqimlari:				
Asosiy vositalarni sotishdan	584	100,0	1869	100,0
Nomoddiy aktivlarni sotishdan	--	--	--	--
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotishdan	--	--	--	--
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlar	--	--	--	--
Investitsiya faoliyati bo'yicha jami kirim	584	100,0	1869	100,0
Asosiy vositalarni sotib olish	--	--	--	--
Nomoddiy aktivlarni sotib olish	20070	100,0	20934	100,0
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish	--	--	--	--
Investitsion faoliyatning boshqa chiqimlari	--	--	--	--
Investitsiya faoliyati bo'yicha jami chiqim	20070	100,0	20934	100,0
Investitsiya faoliyati bo'yicha jami sof tushum/chiqim	-19486	--	-19065	--

Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari: Olingan foizlar	-	-	-	-
Olingan dividendlar	56049		92333	
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari				
Xususiy aksiyalarni sotishdan tushumlar				
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari				
Moliyaviy ijara bo'yicha pul tushumlari				
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha jami tushum	56049		92333	
To'langan foizlar				
To'langan dividendlar				
Xususiy aksiyalarni sotib olish				
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha to'lovlar				

Moliyaviy ijara bo'yicha to'lovlari				
Moliyaviy faoliyatning boshqa to'lovlari				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha jami tushum				
Moliyaviy faoliyat bo'yicha sof tushum/chiqim				
Soliqqa tortish To'langan foyda solig'i	45235		47921	
To'langan boshqa soliqlar	20167		23395	
Jami to'langan soliqlar				-
Jami moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi				
Chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi				
Yil oxiridagi pul mablag'lari				-



15.7-rasm. Soliqqa tortish yo'nalishi bo'yicha pul oqimlari tarkibi.

Tavsiya etilayotgan usullar bo'yicha korxonalar pul oqimlarini tahlil qilish yo'llarini amaliy ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz.

Pul oqimlari harakatini bevosita usul bo'yicha tahlili, yordamida pul oqimlari tahlil qilinganda xo'jalik yurituvchi sub'yektning har bir faoliyat turi bo'yicha olingan pul tushumlari va ushbu yo'nalishlarga qilingan chiqimlar miqdori aniq ko'rinib turadi.

15.3. Pul mablag'lari harakati tahlili.

Pul mablag'lari umumiy miqdori qoldig'i o'zgarishni aniqlash (ΔP):

$$\Delta P = P_o - P_b, \text{ ming so'm.}$$

Pul mablag‘lari operatsion faoliyat bo‘yicha qoldig‘i o‘zgarishni aniqlash (ΔP^{op}):

$\Delta P^{on} =$	Operatsion faoliyat tushumi	-	Operatsion faoliyat bo‘yicha chiqim.
-------------------	-----------------------------	---	--------------------------------------

Pul mablag‘lari investitsion faoliyat bo‘yicha qoldig‘i o‘zgarishni aniqlash (ΔP^{inv}):

$\Delta P^{inv} =$	Investitsiya faoliyati bo‘yicha tushum	-	Investitsiya faoliyati bo‘yicha chiqim.
--------------------	--	---	---

Pul mablag‘lari moliyaviy faoliyat bo‘yicha qoldig‘i o‘zgarishni aniqlash (ΔP^{mol}):

$\Delta P^{mol} =$	Moliyaviy faoliyati bo‘yicha tushum	-	Moliyaviy faoliyati bo‘yicha chiqim.
--------------------	-------------------------------------	---	--------------------------------------

Soliqqa tortish yo‘nalishi bo‘yicha pul oqimi natijasini aniqlash (ΔP^{st}):

$\Delta P^{st} =$	Soliqlar qaytimi	-	Soliqlar bo‘yicha to‘lovlar.
-------------------	-------------------------	---	-------------------------------------

Hisob raqamdagi qoldiq pul mablag‘lari miqdorini aniqlash (ΔP^{hr}):

$$\Delta P^{sp} = \Delta P^{op} \pm \Delta P^{inv} \pm \Delta P^{mol} \pm \Delta P^{st}$$

Pul oqimlaridarakati tahlili jarayonida korxonada pul mablag‘larining aylanish davri ko‘rsatkichi aniqlanadi va ko‘rsatkich miqdori o‘zgarishlariga tegishli baho beriladi. Korxonada amaliy ma‘lumotlari asosida pul oqimlari aylanish davrini tahlil qilish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

15.2-jadval.

Pul oqimlari aylanmasining hisob –kitobi.

Oylar	Pul mablag‘lari qoldig‘i, ming so‘m	Oylik pul aylanmalari, ming so‘m	Aylanish davri, kunlarda (2q * 30) / 3q
1	2	3	4
Yanvar	1321	49651	0,8
Fevral	2691	59218	1,4
Mart	3476	64100	1,6
Aprel	10528	38403	8,2
May	13610	30018	13,6
Iyun	7052	37205	5,7
Iyul	19864	62746	9,5
Avgust	1100	15242	2,2
Sentyabr	4022	41937	2,9
Oktyabr	3610	26426	4,1
Noyabr	10400	89125	3,5
Dekabr	3700	84355	1,3
Jami:	6782	598426	4,1

Yil bo‘yicha pul oqimlari aylanish davri quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$P_{ad} = \frac{\sum PT}{12} * \frac{T_d}{\sum PA} =$$

$$\frac{1321+2691+3476+10528+13610+7052+19864+1100+4022+3610+10400+3700}{12} * \frac{360}{598426} = 4,1 \text{ kun.}$$

Bunda,

P_{ad} – pul oqimlari yillik o‘rtacha aylanish davri;

$\sum PT$ – yillik pul tushumlari o‘rtacha miqdori;

$\sum PA$ – yillik pul aylanmasi o'rtacha miqdori;
 T_d – tahlil davri.

Tahlillar korxonada mahsulot uchun pul mablag'lari kelib tushishi davri yil mobaynida 0,8 kundan 13,6 kungacha o'zgarib borganligi ko'rsatmoqda, pul mablag'larining tahlil qilinayotgan yildagi o'rtacha aylanish davri 4,1 kundan iborat bo'lgan

15.4. Pul oqimlari tahlili asosida korxonaga to'lov qobiliyatini baholash.

Bozor iqtisodiyoti talablari korxonaga faoliyati uzluksizligini ta'minlash uchun Yetarli miqdordagi pul mablag'larini doimiy ravishda aylanma kapital tarkibida bo'lishini talab etadi. Aylanma kapitalning yetarli miqdori qancha bo'lishi tahlillar yordamida hisob-kitob qilishinisi zarur. Chunki korxonaga faoliyati uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan aylanma kapital miqdori kun, dekada va oy uchun aniqlanishi kerak.

Shu maqsadda korxonaga pul oqimlari kunlik tezkor tahlil qilinadi va rejalashtirilayotgan faoliyati davridagi pul mablag'larini manbalar bo'yicha tushumi hamda to'lov muddati kelgan majburiyatlar bo'yicha chiqimi miqdorlari aniqlanadi. Tahlillar asosida aniqlangan ma'lumotlar yordamida korxonaning to'lovlar kalendar jadvali tuziladi.

To'lovlar kalendar jadvali – korxonaning qisqa davrdagi faoliyat mobaynida aniq manbalardan olinadigan tushumlari va maqsadli yo'naltiriladigan chiqimlarini tartibga solish uchun mo'ljallangan pul oqimlari rejasidir. To'lovlar kalendar jadvalini odatda quyidagi shaklda tuzish mumkin (15.3-rasm).

15.3-jadval.

Korxonaning joriy oy uchun to'lovlar kalendar jadvali.

Pul mablag'lari tushumi manbalari	Tushum miqdori, mln. so'm	Bajariladigan majburiyatlar	To'lovlar miqdori, mln.so'm
1.Pul mablag'lari qoldig'i 2.Kassada 3.Hisob raqamida	10,0 0,5 9,5	1.Ish haqi va avanslar uchun	15,0
4.To'lov muddati kelgan qimmatli qog'ozlardan	2,0	2.Yagona ijtimoiy to'lov uchun ajratmalar	2,2
3.Pul mablag'lari tushumi 4.Mahsulot sotishdan 5.Boshqa sotuvlardan 6.Moliyaviy faoliyatdan	170,0 145,0 6,0 9,0	7.Ta'minotchi va pudratchilarga to'lovlar	237
8.Xaridorlardan olinadigan avanslar	25,5	9.Kredit uchun foizlar	1,8
5. Qarz va kreditlardan	52,0	5.Kreditni qaytarish uchun	4,0
6.Muddati o'tgan debitor qarzarlar hisobidan	5,5	6.Soliq va boshqa to'lovlar uchun	9,0
7.Boshqa manbalardan	11,0	Tushumni chiqimdan ortiq miqdori (zahira)	5,0
Balans	274.0	Balans	274.0

Korxonaning kalendar to'lovlar kalendar jadvali tuzish uchun biznes reja, mahsulot sotish va xom-ashyo xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalar, ish haqi, avans va soliq to'lovlari hisob-kitoblari hamda boshqa to'lov muddati kelgan

majburiyatlar miqdorlari to'g'risidagi axborotlaridan foydalaniladi. To'lovlar kalendar jadvalini haftalik, dekadalik va oylik muddatlar bo'yicha tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki to'lovlar kalendar jadvali qanchalik uzoq muddatga tuzilsa, uning aniq bajarish darajasi pasayib borishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan korxonaning oylik to'lov qobiliyati koeffitsientini aniqlash uchun jami rejalashtirilayotgan tushum miqdorini chiqim miqdoriga bo'lamiz ($274/272 = 1,01$). Ushbu ko'rsatkichning 1,0 ga tengligi va undan ortiqligi ijobiy holat deb baholanadi. Aks holda esa to'lov qobiliyati past hisoblanadi. To'lov qobiliyati pastlik holatiga baho berishda uning vaqtinchalik yoki doimiy xarakterda ekanligini o'rganish zarur bo'ladi. Buning uchun esa to'lov qobiliyati pasayish sabablari, ular paydo bo'lish oraliqlari va davriyligi kabi holatlar aniqlanib, ular yuzaga kelishi va o'zgarishlariga baho beriladi. Korxonada to'lov qobiliyati pasayishi sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Odatda ko'p uchraydigan sabablar sifatida:

- *ishlab chiqarish rejasi bajarilmasligi;*
- *mahsulot sotish rejasi bajarilmasligi;*
- *mahsulot tannarxi oshishi;*
- *mahsulot sotish shartnomalari ijrosi nazorati Yetarli emasligi;*
- *aylanma kapitalni boshqa tarzda immobilizatsiyasi (oborotdan chetlatish) kabilarni keltirish mumkin.*

15.5. Korxonada aylanma mablag‘lari samaradorligi va uni tahlil qilish yo‘llari.

Pul mablag‘lari va ekvivalentlari korxonada aylanma mablag‘lari (kapitali)ning asosiy qismini tashkil etadi. Shu bois aylanma kapitaldan to‘g‘ri foydalanish moliyaviy natija ijobiy o‘zgarishiga ta‘sir etadi. Aylanma mablag‘larni tahlil qilishda uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi aniqlanib, ular holati va o‘zgarishlariga baho beriladi. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimiga:

- *aylanma mablag‘lar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;*

- *aylanma mablag‘lardan intensiv foydalanish holatlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;*

- *aylanma mablag‘lar sig‘imini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni kiritish mumkin.*

Aylanma mablag‘lar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar uning daromadlilik yoki rentabellik darajasini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi:

$$K_{\text{amd}} = \frac{\text{yalpi foyda}}{\text{aylanma mablag‘lar o‘rtacha miqdori}};$$

$$K_{\text{amr}} = \frac{\text{soy foyda}}{\text{aylanma mablag‘lar o‘rtacha miqdori}};$$

Ushbu ko‘rsatkichlar korxonaga har bir so‘m aylanma mablag‘larning tahlil davrida qancha daromad va sof foyda keltirganligini ifodalaydi.

Aylanma mablag‘lardan intensiv foydalanish holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar:

- *aylanma mablag‘lar intensivligi (aylanish) koeffitsienti;*
- *aylanma mablag‘larni bir aylanish davri (tezligi);*
- *aylanma mablag‘lar sig‘imi koeffitsienti hisoblanadi.*

Aylanma mablag'lar intensivligi koeffitsenti quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi:

$$K_{\text{arni}} = \frac{\text{sof tushum}}{\text{aylanma mablag'lar o'rtacha miqdori}};$$

Ushbu ko'rsatkich korxonada aylanma mablag'larining har bir so'm miqdori tahlil davrida qancha miqdorda sof tushum ta'minlaganini ifodalaydi.

Korxonada aylanma mablag'larining bir aylanish davri (tezligi) ko'rsatkichi tahlil davrida ularning necha kunda bir marta to'liq aylanganlik holatini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi:

$$AM_{\text{ad}} = \frac{\text{aylanma mablag'lar o'rtacha miqdori} * 360}{\text{sof tushum}};$$

Aylanma mablag'lar sig'imi ko'rsatkichi har bir sof tushum miqdoriga to'g'ri keladigan mablag'lar miqdorini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi tartibda hisob-kitob qilib aniqlanadi:

$$K_s = \frac{\text{aylanma mablag'lar o'rtacha miqdori}}{\text{sof tushum}};$$

Tahlil jarayonida ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash asosida korxonada faoliyatini tashkil etishning aynan qaysi bug'inida sustkashlikka yo'l qo'yilgani aniqlanadi va tahlil ma'lumotlari yordamida aylanma mablag'lar samaradorligi hamda ulardan intensiv foydalanish yo'llarini belgilash to'g'risida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Pul oqimlari holatini tahlil qilish jarayonida ular holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'tgan va joriy davrlardagi miqdorlari hisoblanadi. Aniqlangan miqdorlar o'zaro

taqqoslanib ularning miqdori o'zgarishlari hisob-kitob qilinadi. Miqdoriy o'zgarishlarga ichki va tashqi omillar ta'sir etadi. Ichki va tashqi omillar ta'sirini hisoblash natijasida pul oqimlari samaradorligi hamda ulardan intensiv foydalanishga oid chora-tadbirlar belgilash uchun zarur ma'lumotlar olinadi.

Shuning uchun quyidagi ma'lumotlar asosida aylanma mablag'lar miqdori o'zgarishlariga omillar ta'sirini hisoblash yo'llarini ko'rib chiqamiz.

15.4-jadval.

Korxonada kapitali aylanishi holatining tahlili

(mln.so'm)

t/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Joriy yil	Farq; (+;-)
1.	<i>Mahsulot sotishdan sof tushum</i>	96000	99650	+3650
2.	<i>Harakatdagi kapitalning o'rtacha yillik qiymati</i>	54000	62500	+8500
2.1	<i>Shu jumladan aylanma kapital o'rtacha yillik qiymati</i>	37000	43700	+6700
3.	<i>Aylanma mablag'larning harakatdagi kapitaldagi ulushi</i>	0,69	0,70	+0,10
4.	<i>Harakatdagi kapital aylanish koeffitsienti</i>	1,78	1,59	-0,19
4.1	<i>Aylanma kapital aylanish koeffitsienti</i>	2,60	2,28	-0,32
5.	<i>Harakatdagi kapital aylanish davri (tezligi)</i>	202	226	+24
5.1	<i>Aylanma kapital aylanish davri (tezligi)</i>	139	159	+20

Tahlillar natijasi aylanma mablag'larning harakatdagi kapitaldagi ulushi o'tgan yilga nisbatan 0,10 darajaga o'sganligini ko'rsatmoqda. Lekin harakatdagi kapital va

aylanma kapital aylanish koeffitsenti miqdori mos ravishda 0,19 va 0,32 darajaga pasaygan. Buning asosiy sababi harakatdagi va aylanma kapitalning aylanish davri mos ravishda 24 va 20 kunga sekinlashgan. Tahlillar natijasi aylanma mablag'larning harakatdagi kapitaldagi ulushi o'tgan yilga nisbatan 0,10 darajaga o'sganligini ko'rsatmoqda. Lekin harakatdagi kapital va aylanma kapital aylanish koeffitsenti miqdori mos ravishda 0,19 va 0,32 darajaga pasaygan. Buning asosiy sababi harakatdagi va aylanma kapitalning aylanish davri mos ravishda 24 va 20 kunga sekinlashgan. Bu holat korxonaga kapitali samaradorligiga salbiy ta'sir etadi va natijada yakuniy moliyaviy natija-foyda kamayishiga sabab bo'ladi.

Bunday holatni oldini olish maqsadida aylanish sekinlashuviga omillar ta'sirini tahlil yo'li bilan aniqlash va uni yaxshilash choralarini belgilash zarur bo'ladi. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida omilli tahlil qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz (15.5-jadval).

15.5-jadval.

Kapital harakati o'zgarishi omilli tahlili.

Kapital aylanishiga ta'sir etgan omillar		Ko'rsatkich miqdori	
<i>Aylanma kapital ulushi</i>	<i>Aylanma kapital aylanish tezligi</i>	<i>Aylanish koeffitsenti</i>	<i>Kapital aylanish davri</i>
O'tgan yil	O'tgan yil	$0,69 \cdot 2,60 = 1,79$	$139 / 0,69 = 95,91$
Joriy yil	O'tgan yil	$0,70 \cdot 2,60 = 1,82$	$159 / 0,69 = 109,71$
Joriy yil	Joriy yil	$0,70 \cdot 2,28 = 1,60$	$159 / 0,70 = 111,3$

Joriy yilda kapital aylanish koeffitsenti umumiy o'zgarish darajasi $1,60 - 1,79 = - 0,19$ ga teng bo'lgan.

Har bir omil ta'sirini alohida hisob-kitob qilamiz:

• 1-omil ta'siri evaziga ushbu ko'rsatkich +0,03 (1,82-1,79) darajaga o'sgan;

• 2-omil ta'sirida esa ushbu ko'rsatkich miqdori -0,22 (1,60-1,82) darajaga pasaygan.

Natija umumiy o'zgarishi = -0,19 (-0,22+0,03) tengdir.

Kapital aylanishi miqdorini boshqa usul bilan ham aniqlash mumkin. Korxonada amaliy ma'lumotlari asosida kapital aylanishini ikkinchi usul bilan hisob-kitob qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz (15.6-jadval). Buning uchun kapital umumiy aylanish davrini alohida olingan aktivlarning joriy aktiv o'rtacha yillik miqdoridagi ulushiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Formula ko'rinishida ushbu miqdorni aniqlash tartibini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin.

Tahlil natijalari korxonada aylanma kapitali umumiy aylanish davri o'tgan yilda 203 ($54000 \cdot 360 / 96000$) kunni va joriy yilda esa 226 ($62500 \cdot 360 / 99650$) kunni tashkil etgan. Kapital aylanish davri o'zgarishi miqdori 23 ($226,0 - 203,0$) kundan iborat. Aylanma kapital guruhlarini bo'yicha ham aylanish davrida o'tgan yilga nisbatan 23 kunga sekinlashgan.

Masalan, korxonada joriy yilda moddiy resurslarning jami kapitaldagi ulushi 48 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 10 foizga o'sgan. Ushbu o'zgarish natijasida aylanma kapital umumiy aylanishi davri joriy yilda 226 kunni tashkil etgan holda joriy yil uchun ushbu guruh aylanma kapital aylanish davrini aniqlaymiz.

$$K_{ad} = K_{adu} \cdot A_u \div 100 = 226 \cdot 48 \div 100 = 108 \text{ kun.}$$

15.6-jadval.

Kapital umumiy va alohida guruhlarini aylanish davri tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Joriy yil	O'zgarish (+:-)
1.	<i>Aylanma kapital umumiy miqdori, shu jumladan, mln.so'm</i>	54000,0	62500,0	+8500,0
1.1.	Moddiy resurslar	20650,0	29798,0	+9148,0
1.2.	Yarim fabrikatlar	10615,0	8346,0	-2269,0
1.3.	Tayyor mahsulotlar	9875,0	8748,0	-1127,0
1.4.	Debitor qarzlari	5485,0	4916,0	-569,0
1.5.	Pul mablag'lari	7375	10692,0	+3317
2.	<i>Mahsulot sotishdan tushum</i>	96000,0	99650,0	+3650,0
3.	<i>Aylanma mablag'larining jami aylanma kapitaldagi ulushi, %</i>	100	100	-
3.1.	Moddiy resurslar	38,0	48,0	+10,0
3.2.	Yarim fabrikatlar	20,0	13,0	-7,0
3.3.	Tayyor mahsulotlar	18,0	14,0	-4,0
3.4.	Debitor qarzlari	10,0	8,0	-2,0
3.5.	Pul mablag'lari	14,0	17,0	+3,0
4.	<i>Aylanma kapital aylanishi umumiy darajasi, su jumladan</i>	203	226	+23
4.1.	Moddiy resurslar	77	108	+31
4.2.	Yarim fabrikatlar	40	30	-10
4.3.	Tayyor mahsulotlar	37	32	-5
4.4.	Debitor qarzlari	21	18	-3
4.5.	Pul mablag'lari	28	38	+10

Demak korxonada aylanma kapitali tarkibida moddiy resurslari ulushining 10 foizga ko'payishi ushbu guruh aylanma kapitalni aylanishi davrini o'tgan yilga nisbatan 31 kunga sekinlashtirgan. Shuningdek pul mablag'lari aylanish davri ham (10 kunga) sekinlashgan.

Yarim tayyor mahsulotlar (10 kunga), debitor qarzdorliklar (3 kunga) va tayyor mahsulot (5 kunga) guruhlarida aylanish davri tezlashgan. Tahlilning keyingi bosqichlarida umumiy aylanma kapital va uning guruhlari miqdoriy o'zgarishlariga ta'sir etgan omillar tarkibi hamda ular ta'sirining miqdorlarini aniqlash zarur bo'ladi.

